

# LINGVOKULTUROLOGIYA

Darslik

SHOIRA USMANOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

SIROJIDDINOV
SHUHRAT SAMARDDIN O‘G‘LI
SMAKSIY KUTUBXONASI
№

SHOIRA USMANOVA

# LINGVOKULTUROLOGIYA

Darslik

Toshkent 2019

Ushbu darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 5A120102 - "Lingvistika (o'zbek tili)" mutaxassisligi magistrant-talabalari uchun "Lingvokulturologiya" fani o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda til va madaniyat, lingvokulturologiyaning asosiy maqsad va vazifalari, yo'nalishlari, metodlari, lingvomadaniy birliklar tahlili, turli lingvomadaniyatlardagi ramzlar va stereotiplarning qiyosi, madaniyatning tildagi o'rni kabi masalalar yoritilgan. Darslik so'nggida lingvokulturologik terminlar lug'ati (glossariy), testlar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

Shuningdek, mazkur darslikdan filologiya fakultetlarining talabalari, magistranlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari va o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

**Mas'ul muharrir:**

*Muhabbat Qurbonova,*
filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

*Durdona Xudoyberganova,* filologiya fanlari doktori
*Baxtiyor Mengliyev,* filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 7-dekabrdagi 1000-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2018-yil 28-fevraldagi 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Globallashuv, standartlashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda turli xalqlar tili va madaniyatini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifani hal etish uchun har tomonlama yetuk, intellektual salohiyati yuqori, yuksak ma'naviyatli, ona tili, xorijiy tillar va madaniyatlarni mukammal egallagan va undan tilshunoslik sohasida samarali foydalana oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash lozim bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, 5A120102 - "Lingvistika (o'zbek tili)" magistratura mutaxassisligining o'quv rejasiga "Lingvokulturologiya" fani kiritilgan.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko'rinishida) va uning tarkibiy qismidir.

Demak, millatning kelajagi bo'lmish yoshlar, eng avvalo, madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, madaniyatning tarkibiy qismlari, ma'naviy meros, sivilizatsiya, folklor namunalari, umuman, ajdodlar tajribasiini bilishi va ulardan ijodiy foydalanishi talab qilinadi.

Ikkinchidan, yoshlar umumbashariy madaniyatdan ham xabardor bolishi zarur. Chunki boshqa xalqlar madaniyati, uning yaratilish jarayoni, madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sir etishi jarayonidan xabardor bo'lgan kishigina o'z ajdodlari qoldirgan ma'naviy merosning qadriga yetadi, ularni asrab-avaylab, keyingi avlodlariga yetkazishga o'z hissasini qo'sha oladi.

Darslikka O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning til, adabiyot, ma'naviyat va madaniyat aloqadorligiga oid, shuningdek, yangi avlodni kamol toptirish haqidagi fikrlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi" haqidagi Farmoni va "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalar metodologik asos sifatida olingan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning: "jahon fani va madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib oladigan yangi avlodni kamol toptirish", [1] shuningek, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning yoshlarimiz haqidagi: "mustaqil

---

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 101.

fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi"[1] singari fikrlari bugungi ta'lim tizimidagi asosiy vazifalardan birdir.

O'zbek tilshunosligida ilk bor tayyorlangan mazkur darslik Kirish, to'rtta bob, lingvokulturologik terminlar lug'ati va testlardan iborat. Darslikning birinchi bobida til, madaniyat, inson, antropologiya, antroposentrik paradigma, lingvokulturologiya vujudga kelishining nazariy asoslari, "Lingvokulturologiya" fanining maqsadi va vazifalari, uning asosiy yo'nalishlari va maktablari, metodlari hamda lingvo-madaniy tushunchalar yoritilgan.

Ikkinchi bobda til va madaniyatning o'zaro aloqasi, madaniyat va uning o'rganilishi, madaniyat va inson, madaniyat va tamaddun, madaniyatlar tipologiyasi, olamning lisoniy manzarasi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Uchinchi bob lingvomadaniy birliklar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda muqobilsiz leksika, frazeologizmlar va o'xshatishlarning lingvomadaniy tahlili metaforalar, evfemizm va disfemizm hodisalari, lakuna va uni bartaraf etish yo'llari, turli lingvomadaniyatlardagi ramzlar va stereotiplarning qiyosi berilgan.

To'rtinchi bobda insonning til va madaniyatdagi o'rni, xususan, insonning milliy mentallik va til egasi ekanligi, insonni obyekt sifatida turli fanlarda tadqiq etilishi, lisoniy shaxs, jamiyat, madaniyat va tilda erkak va ayol ziddiyati, turli madaniyatlardagi ayollarning mavqeyi va gender masalalari bayon etilgan.

Mavzular zamonaviy pedagogik texnologiyalar, grafik organayzer-lar asosida yoritilgan bo'lib, har bir mavzuning so'nggida nazorat uchun savollar, mustaqil ish topshiriqlari va adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Ushbu darslikni tayyorlashda Judith M., Thomas N. Intercultural communication in contexts. New York, 2010; Hirsch E. D.; Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. Boston, 2002; Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind. Boston, 2004; Kuhn Thomas S. The Structure of Scientific Revolutions. Chicago, 2012; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live. Chicago, 2008; Lakoff R. Language and The Women's Place. New York, 2004; Lippman W. Public Opinion. New York, 2010; Tannen D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. New York, 2007; Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture.

[1] Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 14.

Belmont, 2005; Маслова В. А. Лингвокультурология. М., 2001; Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. М., 2000; Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. М., 2008; Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. М., 2010 va h.k. asarlardan, shuningdek, internet ma'lumotlaridan istifoda etildi.

Mazkur darslikdan filologiya fakultetlarining talabalari, magistrantlari, doktorantlari, tadqiqotchilari, o'qituvchilari, shuningdek, lingvokulturologiya bilan qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

# I BOB. TIL - MADANIYAT - INSON

## 1-MA'RUZA

## TIL, MADANIYAT, ANTROPOLOGIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

**Reja:**

1. Til va madaniyat
2. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya

**Tayanch so'z va iboralar:** til, madaniyat, mentalitet, milliy xarakter, qadriyatlar yig'indisi, milliy komponent, muloqot vositasi, til sohibi, antropologiya, fizik antropologiya, madaniy antropologiya, lingvokulturologiya.

### 1.1. Til va madaniyat

Biz gaplashadigan aniq til idrokimizni qay darajada shaklantiradi degan savolga ikki nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Birinchisi nominalistik nuqtayi nazar, ikkinchisi relativistik (nisbiy) nuqtayi nazardir. Nominalistik nuqtayi nazarga ko'ra, bizning idrokimiz biz so'zlashiladigan maxsus bir til orqali shakllanmaydi. Til fikrning shunchaki tasodifiy tashqi shaklidir. Yani, barchamiz turli yo'llar va turli tillar vositasida ifodalanadigan bir xil fikrlar qatoriga egamiz. Demak, har qanday fikr har qanday til vositasida ifodalanishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, ulardan ayrimlari kamroq, ayrimlari ko'proq so'zlar vositasida qabul qilinishi mumkin. Har xil tillarning mavjudligi insonlarning turli fikrlar jarayoni yoki turfa tushunchali olamlarda yashashini anglatmaydi. Binobarin, daraxt fransuz tilida *arbre*, ispan tilida *arbol* bo'lishi mumkin, biroq biz daraxtni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilamiz.

Relativistik nuqtayi nazarga ko'ra, biz so'zlashiladigan maxsus til, xususan, mazkur tilning tuzilishi fikrlarimizni, bizni borliq haqidagi tasavvurlarimizni, xullas, muhim madaniy komponentlarni belgilab beradi. Mazkur qarash Edvard Sepirning farazida atroflicha yoritib berilgan[1]. E.Sepirga ko'ra, til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar majmuyi sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida

[1] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 221-222.

madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi[1].

Til - madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til - madaniyat xazinasi, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi[2].

Til - madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Til - madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o'zlashtirish jihatidan qaraladigan bo'lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi bo'ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli bo'lgan tilga xos ajralmas xususiyatdir.

Til - kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o'zini o'zi anglashi, madaniyati, an'analarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir.

"Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Til - uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko'rsatadi. Xalqning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'lgan tilga "ichki" va "tashqi" jihatdan yondashish mumkin. Tilga "ichki" jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo'lsa, "tashqi" jihatdan yondashilganda, u xalqning etnik farqlarini ko'rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funksiyani o'zida dialektik birlashtirgan til bir tomondan xalqning o'z-o'zini saqlash vositasi, ikkinchi

---

[1] Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. –М.: Прогресс, 1993.–С 185.

[2] Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London: Routledge, 1989. –P. 27; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. –М.: Русский язык, 1990. –С. 26.

tomondan uni "o'ziniki" va "begona"ga ajratish vositasi bo'lib xizmat qiladi"[1].




## 1.2. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya

Inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi masalasi bilan madaniy antropologiya shug'ullanadi. Antropologiya nomidan ham ko'rinib turganidek, inson haqidagi fandir. Biroq inson haqidagi fanlar qatoriga barcha gumanitar va ayrim tabiiy fanlar (tibbiyot va qisman biologiya) ham kiradi. Inson haqidagi fanlarning ko'p bo'lishi tabiiy, chunki inson murakkab, ko'pqirrali mohiyatdir. Shuningdek, mazkur fanlarning barchasi markazida inson bo'lgan kishilik jamiyatida rivojlanadi.

[1] Антипов Г.А., Донских О.А., Марковина И.Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. – Новосибирск: Наука: Сиб. отд-ние, 1989. –С. 75.




Demak, inson haqidagi qator fanlar inson hayotining turli tomonlarini, uning fizik (biologiya, tibbiyot) va ma'naviy (psixologiya, falsafa, filologiya) mohiyatini, uning faoliyatini (iqtisod, sotsiologiya), uning shakllanishi va rivojlanishini (tarix) o'rganadi. Mazkur fanlarning barchasi o'rganish obyekti jihatidan bir-biri bilan chambarchas bog'langan va ular bir butun "organizm"ni tashkil qiladi.

Antropologiya qayd qilingan inson haqidagi fanlardan ajralib turadi. U insonning boshqa jihatlarini birlashtirishga harakat qilib, uning fizik va madaniy rivojlanish jarayonini global va har tomonlama o'rganadi.

Antropologiya fizik antropologiya va madaniy antropologiyaga ajraladi. Fizik antropologiya turli irqlarga mansub bo'lgan insonning biologik kelib chiqishi va uning fizik tuzilishining evolyutsiyasini o'rganadi. Madaniy antropologiya inson madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini o'rganadi.

Shunday qilib, madaniy antropologiya insoniyat madaniy rivojlanishining umumiy muammolarini o'rganuvchi, o'zida barcha gumanitar fanlar bilimlarini mujassamlashtiruvchi, insonni "Inson" qiluvchi va uni hayvonot dunyosidan ajratuvchi noyob jihatlarini tadqiq etuvchi favqulodda keng fundamental fan hisoblanadi. Binobarin, hayvonlarda muayyan xatti-harakatlar tizimi mavjud bo'lsa-da, ularda madaniyat mavjud emas.

Madaniyat madaniy antropologiyaning predmeti sifatida millat, sinf, guruhlarning muayyan davrdagi hayot tarzini tarkib toptiradigan kishilik jamiyati faoliyatining natijalari yig'indisidir.




Madaniy antropologiya madaniyat rivojining barcha qirralarini, xususan, insonning hayot tarzi, mentaliteti, milliy xarakteri, ma'naviy, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etadi. Madaniy antropologiya insonning madaniyatni muloqot orqali rivojlantirishdek nodir qobiliyatini o'rganadi, til va madaniyatning o'zaro aloqasiga alohida e'tibor qaratadi.

So'nggi yillarda til va madaniyat masalalarini *lingvokulturologiya* fani atroflicha o'rganishga kirishdi. V. V. Vorobevning yozishicha, "bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir"[1].

[1] Воробьев В. В. О статусе лингвокультурологии // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т. 2. –Братислава, 1999. –С. 125-126. Батафсил маълумот учун қаранг: Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М.: Изд-во РУДН, 1997.

## Nazorat uchun savollar

1. Tilda qanday mohiyatlar aks etadi?
2. "Til - madaniyat xazinasi" deganda nimalar tushuniladi?
3. Til qanday vosita?
4. Tilga "ichki" va "tashqi" jihatdan yondashish nima?
5. Antropologiya qanday fan?
6. Antropologiya inson haqidagi fanlardan qanday xususiyati bilan ajralib turadi?
7. Fizik antropologiya nimani o'rganadi?
8. Madaniy antropologiya nimani o'rganadi?

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. Madaniy antropologiyaning predmetini belgilash.
2. "Til, madaniyat va antropologiya" mavzusida taqdimot tayyorlash.

## Adabiyotlar


1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
2. Geertz C. The interpretation of culture. -New York: Basic Books, 1973. -473 p.3. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. -London: Routledge, 1989. -470 p.
3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
4. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. -Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989. -197 с.
5. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. -М.: Русский язык, 1990. -246 с.
6. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. - 240 с.
7. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М.: Прогресс, 1993. -656 с.
8. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М.: Slovo, 2000. -624 с.

## 2-MA'RUZA
## ANTROPOSENTRIK PARADIGMA VA UNING LINGVOKULTUROLOGIYADAGI O'RNI

**Reja:**

1. Antroposentrik paradigma
2. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

**Tayanch so'z va iboralar:** paradigma, lingvistik paradigma, antroposentrik paradigma, til, til egasi, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyatshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, etnopsixolingvistika.

### 2. 1. Antroposentrik paradigma

Ilmiy paradigma (yunoncha "misol, namuna") fan obyektini, uning muayyan davrda hokim bo'lgan nazariy tushunchalarini o'rganishga yo'naltirilgan va shu asosda fanning turli bo'limlarida o'xshash bo'lgan, o'zaro bog'langan muayyan tadqiqot metodikalarining majmuyidir. Ilmiy metodologiya va ilmiy metodlardan farqli o'laroq, aniq tarixiy xususiyatga va ijtimoiy - madaniy tarqalish chegarasiga ega. Mazkur termin 1962 - yilda amerikalik faylasuf va tarixchi Tomas Kunning mashhur "Ilmiy inqiloblar strukturasi" ("The Structure of Scientific Revolutions") asarida muomalaga kiritilgan.

T. Kunga ko'ra, **paradigma o'z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo'lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g'oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos metodlar va usullar yig'indisidir**. Masalan, XIX va XX asrlarning paradigmalari qiyoslanilganda, XIX asrni tarixiylik, XX asrni esa strukturalizm belgisi ostida kechganligini ko'rish mumkin. T. Kun paradigmalarning bunday o'zgarishini "ilmiy inqilob", deb ataydi. Binobarin, ilmiy paradigma falsafa, fan, san'at, adabiyot, ijtimoiy hayot va h.k.ning yetakchi tamoyillari va metodlarini birlashtirgan umummadaniy paradigmaning bir qismi hisoblanadi. Masalan, strukturalizmning ilmiy paradigmasi pozitivizmning madaniy paradigmasiga kiradi[1].

Ma'lumki, lingvistikada (umuman, ijtimoiy fanlarda) paradigmalar bir-birini o'zgartirmaydi, biroq biri boshqasini to'ldiradi, ayni paytda biri ikkinchisiga e'tibor bermagan holda birga yashaydi. An'anaviy tarzda

---

[1] Kuhn Thomas S. The Structure of Scientific Revolutions. 50th anniversary. –Chicago: University of Chicago Press, 2012. –P. 264.

ilmiy paradigma uch turga ajratiladi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik.




Tilshunoslikda ilk ilmiy paradigma qiyosiy - tarixiy paradigma sanaladi. Chunonchi, qiyosiy - tarixiy metod til tadqiqining dastlabki xususiy metodi bo'lgan.

Sistem-struktur paradigmada asosiy e'tibor predmetga, narsaga, otga qaratilgani uchun so'z diqqat markazida bo'lgan. Hozir ham tilni sistem-struktur paradigma doirasida tadqiq qilish davom etmoqda. Bu paradigma tarafdorlarining soni ham talaygina. Hali ham mazkur paradigma asosida darsliklar, akademik grammatikalar yozilmoqda. Shubhasiz, sistem-struktur paradigma doirasida amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar nafaqat hozirgi, balki kelajakda boshqa paradigmalar asosida izlanish olib boradigan tilshunoslar uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Antroposentrik paradigma bu tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o'zgarishi, yo'naltirilishi, ya'ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishidir. I.A.Boduen de Kurtene ta'biri bilan aytganda, "til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko'ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo'ladi". Tilning antroposentrik g'oyasi zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda lingvistik tahlilning maqsadi, til tizimlarining turli tavsifini shunchaki aniqlash bilan hisoblasha olmaydi. Til kishilik

jamiyatida vujudga kelgan ko'p qirrali hodisa: u sistema va antisistema, faoliyat hamda ushbu faoliyatning mahsuli, ruh va moddiyat va h.k. Yu. S. Stepanov tilning murakkab mohiyatini yortish uchun uni bir necha obrazlar ko'rinishida taqdim etgan bo'lsa-da, ulardan hech biri tilning barcha qirralarini to'liq ochib berolmaydi: 1) til *individning tilidir*; 2) til - *til oilalari a'zosi*; 3) til - *struktura*; 4) til - *tizim*; 5) til - *tur va xususiyat*; 6) til - *kompyuter*; 7) til - *fikrlar makoni va "ruhning uyi"* (M. Xaydegger), ya'ni til *insonning murakkab kognitiv faoliyatidir*. XX asrning oxiriga kelib bularga yana bir ta'rif qo'shildi: til - *madaniyat mahsuli*, uning muhim tarkibiy qismi, yashashining sharti, madaniy kodlarning shakllanish omilidir. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson dunyoni o'zini bilish, o'zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Masalan, hech qanday mavhum nazariya nima uchun olov hissi haqida o'ylaganda *sevgi olovi, yurak otashi, iliq do'stlik* va h.k. haqida gapirilishini izohlay olmaydi. Barcha narsalarning o'z o'lchovida anglash insonga uning ongida narsalarning antroposentrik tartibini ijod qilish huquqini beradi. Uni maishiy emas, balki ilmiy darajada tadqiq qilish mumkin bo'ladi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo'lgan bu tartib uning ma'naviyatini, qadriyatlarini va xatti-harakati motivlarini belgilaydi. Bularning barchasini inson nutqini, xususan, uning eng ko'p qo'llaydigan ifodalarini tadqiq qilish orqali tushunish mumkin.

Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi - so'zlovchi shaxs omilining tadqiq etish bilan bog'liqdir. "Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati "til qanday qurilgan" degan masaladan "til qay tarzda amal qiladi" degan masalaga ko'chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo'lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish kerak bo'ladi"[1].

Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.

Taniqli o'zbek tilshunosi, professor N. Mahmudovning tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi.

[1] Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнітивной грамматики // http:www.Nbuv.Cov.ua/portal/Soc-Gum/ls 2008-17/dorofeev/pdf.

Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A. Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini, insonning o'ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi"[1].

Ayrim tilshunoslarning fikricha, antroposentrik paradigma o'tgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini butunlay chetga surib qo'ydi[2]. Bunda asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi.

Ilmiy paradigmaga "til egasi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi[3].

## 2. 2. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Til, madaniyat, etnosning o'zaro munosabati va aloqasi masalasini




[1] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 6-7.

[2] Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – №1. – С. 64.

[3] Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. –М.: Лабиринт, 2004. –С.5.

o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini falsafa va sotsiologiyadan tortib, etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha bo'lgan bir necha fanlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilangina hal qilish mumkin. Masalan, lisoniy tafakkurning etnik masalalari bilan lingvistik falsafa, etnik, ijtimoiy yoki guruhlar muloqotining o'ziga xos lisoniy jihatlari bilan psixolingvistika va h.k. shug'ullanadi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, "lingvokulturologiya" (lot. lingua "til"; cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish"; yunon. "ilm, fan") termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi (Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan[1].

Lingvokulturologiyaning predmeti o'zaro chambarchas aloqada, muloqotda bo'lgan til va madaniyat sanaladi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi.

*Madaniyatshunoslik* (kulturologiya) insonni ijtimoiy va madaniy hayotidagi uning tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa sohalarga ko'ra o'zini o'zi anglashini tadqiq etsa, *tilshunoslik* tilda olam lisoniy manzarasining mental modellar ko'rinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini o'rganadi.

Lingvokulturologiya *etnolingvistika* va *sotsiolingvistika* bilan chambarchas aloqadadir. Hatto V.N.Teliyaga ko'ra, lingvokulturologiya etnolingvistikaning tarkibiy qismidir. Biroq lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida fanlardir.

*Etnolingvistika* yo'nalishining ildizlari Yevropada V.Gumboldtdan boshlanib, Amerikada F.Boas, E.Sepir va B.Uorf; Rossiyada D.K.Zelenin, Ye.F.Karskiy, A.A.Shaxmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasyev, A.I.Sobolevskiy va boshqalarlarning izlanishlariga borib taqaladi. V.A.Zveginsev etnolingvistikani tilning jamiyat ijtimoiy strukturasi yoki xalqning madaniyati, an'analari, urf-odatlari bilan aloqasini o'rganadigan yo'nalish sifatida tavsiflagan edi. Zamonaviy etnolingvistikaning markazida tilning leksik tizimidagi faqat muayyan moddiy va madaniy-tarixiy majmualar: madaniyat shakllari, urf-odatlar, udumlar bilan

[1] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.

o'zaro munosabatdagi elementlari bo'ladi. Mazkur yo'nalishni ikki alohida tarmoqqa ajratish mumkin: 1) *etnik hududlarni tilga ko'ra rekonstruksiya qilish* (R.A.Ageyeva, S.B.Bernshteyn, V.V.Ivanov, T. V. Gamkrelidzye va h.k.ning tadqiqotlari); 2) *xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini til ma'lumotlariga ko'ra rekonstruksiya qilish* (V.V. Ivanov, V.N.Toporov, T.V.Sivyan, T.M.Sudnik, N.I.Tolstoy va uning maktabi).

Kishilik madaniyati ayni ehtiyojni har xil yo'llar vositasida qondirishga yo'nalgan turli etnik madaniyatlar yig'indisidan iboratdir. Etnik o'ziga xosliklar, jumladan, turli vaziyatlarda kishilar qanday ishlashadi, qanday dam olishadi, qanday ovqatlanishadi, qanday gaplashishadi va h.k. har joyda namoyon bo'ladi.

N.I.Tolstoyga ko'ra, etnolingvistikaning maqsadi dunyo xalqlarining folklor manzarasi, stereotiplarini ochib berishdir.




*Sotsiolingvistika* tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasidir. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, *sotsiolingvistika* tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning

tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan tilshunoslik sohasidir.

Lingvokulturologiyani *lingvomamlakatshunoslik*dan ham ajratish lozim. *Lingvomamlakatshunoslik* va *lingvokulturologiya* o'rganish obyektlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. *Lingvomamlakatshunoslik* tilda o'z aksini topgan milliy realiyalarni o'rganadi. Ye.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarga ko'ra, milliy realiyalar muqobilsiz til birliklari bo'lib, ular mazkur madaniyatga xos bo'lgan hodisalarni ifodalaydi.

Lingvokulturologiya *etnopsixolingvistika* bilan ham chambarchas aloqada bo'ladi. *Etnopsixolingvistika* nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq muomala elementlarining qanday paydo bo'lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o'rganadi; nutqiy etiket va "dunyoning rangli manzarasi"ni, turli xalqlardagi ikki tillilik va ko'p tillilik hodisalarini tadqiq etadi. *Etnopsixolingvistika*ning asosiy tadqiqot metodi *assotsiativ eksperiment* bo'lsa, lingvokulturologiya o'rniga ko'ra tilshunoslik va madaniyatshunoslikning turli metodlaridan foydalanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Ilmiy paradigmaga ta'rif bering.
2. Ilmiy paradigma qachon va kim tomonidan muomalaga kiritilgan?
3. Tilshunoslikda qanday paradigmalar mavjud?
4. Antroposentrik paradigmaning boshqa paradigmalardan farqi nima?
5. Lingvokulturologiya mustaqil yo'nalishi sifatida qachon vujudga keldi?
6. Lingvokulturologiya qaysi fanlar bilan chambarchas aloqada?
7. Etnolingvistika qanday yo'nalish?
8. Sotsiolingvistika nimani o'rganadi?
9. Lingvomamlakatshunoslikning tadqiqot obyekti nima?
10. Etnopsixolingvistika qanday hodisalarni tadqiq etadi?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganadigan fanlar haqida referat yozish.
2. Sotsiolingvistik tadqiqot uchun anketa tuzish.

## Adabiyotlar


1. Kuhn Thomas S. The Structure of Scientific Revolutions. 50th anniversary. - Chicago: University of Chicago Press, 2012. p. 264.
2. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
3. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. - М.: Флинта, Наука, 2010.- 224 с.
4. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. - 2001. - №1. - С. 64-72.
5. Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // http:www.Nbuv.Cov.ua/portal/Sog-Gum/Is 2008-17/dorofeev/pdf.
6. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. - 208 с.
7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.
8. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. -М.: Лабиринт, 2004. -320 с.
9. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.

## 3-MA'RUZA
## LINGVOKULTUROLOGIYANING VUJUDGA KELISHI

**Reja:**
1. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi
2. Lingvokulturologiyaning tavsifi
3. Lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlari
4. Lingvokulturologiya maktablari

**Tayanch so'z va iboralar:** lingvokulturologiya, kommunikativ jarayon, xalq mentaliteti, madaniyat fenomeni, madaniy omil, madaniy dalil, lisoniy shaxs, madaniy qadriyat, diaxronik lingvokulturologiya, qiyosiy lingvokulturologiya, chog'ishtirma lingvokulturologiya, geografik lug'atlar.

### 3. 1. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko'rinishida) va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma'naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g'oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo'lib, u so'nggi o'n yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda.

V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini uch davrga ajratadi:

**1. Fanning shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi**

**2. Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi**

**3. Lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi**

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o'z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o'rganadi. U birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an'ana, udum, taomil, ramzlarini va h.k.ni tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taalluqli bo'lib, ular tilda maishiy va taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi.

### 3. 2. Lingvokulturologiyaning tavsifi

V. N. Teliyaga ko'ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir"[1].

G.G.Slishkinga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi"[2].

N. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflaydi:

- lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;
- lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;
- lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;
- lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi[3].

---

[1] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. –С. 222.

[2] Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Academia, 2000. - 128 с.

[3] Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010. –С. 21.

### 3. 3. Lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlari

Lingvokulturologiyada bugungi kunga qadar bir qancha yo'nalishlar shakllangan:




1. Muayyan ijtimoiy guruhlar, xalqning ko'zga ko'ringan davrdagi madaniy munosabatlari lingvokulturologiyasi, ya'ni aniq lingvokulturologik holatlarning tadqiq etilishi.

2. Xalqning muayyan davriga tegishli bo'lgan lingvomadaniy o'zgarishlarni o'rganadigan diaxronik lingvokulturologiya.

3. O'zaro aloqada bo'lgan turli xalqlarning lingvomadaniy ko'rinish-larini tadqiq qiladigan qiyosiy lingvokulturologiya.

4. Chog'ishtirma lingvokulturologiya. U endi rivojlanishga boshlagan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Masalan, M.K. Golovanivskaya "Rus tili sohibi nuqtayi nazaridan fransuz mentaliteti" nomli tadqiqotida fransuz mentaliteti xususiyatlarini rus tili va madaniyati sohibining nuqtayi nazaridan o'rgangan. Tahlil materiali sifatida rus va fransuz tillaridagi taqdir, xavf, omad, jon, vijdon, fikr, g'oya va h.k. mavhum otlar xizmat qilgan.

5. Geografik lug'atlar (qarang: Amerikana. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. Смоленск, 1996; Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострано-ведческий словарь. М., 1998; Муравлева Н.В. Австрия: Лингво-

страноведческий словарь. M., 1997 va h.k.)ni tuzish bilan shug'ullanadigan lingvomadaniy leksikografiya.

Qayd qilinganlar orasida oxirgi yo'nalishning faol rivojlanganligini ko'rish mumkin. Masalan, D. G. Malsevaning lug'ati 25 mavzuiy bo'limni o'z ichiga oladi. Ularda Germaniyaning geografik realiyalari, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tarixi, urf-odatlari, an'analari, afsonalari, aforizmlari, turli bayram va marosimlari, diniy aqidalari, pul birligi, o'lchov birligi, sanoati, savdosi, fan va texnikasi, san'ati, ta'limi, milliy taomlari, me'moriy obidalari, milliy xarakteri va h.k.ni ifodalaydigan til birliklari aks etgan. Bunday lug'atlar asosida til va madaniyatning o'zaro aloqasini atroflicha o'rganish mumkin.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganligini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili o'rganilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko'proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda ijtimoiy fanlarda o'quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish maqsad qilib olingan.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Jumladan, Z.I.Soliyevaning nomzodlik ishida o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan[1]. D. Xudoyberganovaning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasining alohida bobi o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan[2]. Shuningdek, professor N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiyaning mohiyati va bu sohadagi muammolar ko'rsatib berilgan[3].

---

[1] Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Афтореф. дисс...канд.филол.наук. –Ташкент, 2010. –С.25.

[2] Худойберганова Д. Матнининг антропоцентрик талқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.

[3] Маҳмудов Н. "Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб..."// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 3-16.

### 3. 4. Lingvokulturologiya maktablari

XX asrning oxiriga kelib Moskvada to'rtta lingvokulturologik maktab yuzaga keldi:




1. Yu.Yu. Stepanov maktabining maqsadi madaniyatning davomiyligini diaxron nuqtayi nazardan tasvirlashdir. Yo'nalish turli davrlarda yaratilgan matnlar yordamida, ya'ni tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi sifatida ish ko'radi.

2. N.D. Arutyunova maktabi turli xalqlar va davrlarga oid matnlardagi umummadaniy terminlarni tadqiq etadi. Mazkur madaniy terminlar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

3. V.N. Teliya maktabi Rossiyada va xorijda frazeologizmlarning lingvokulturologik tahlil qilish bilan tanilgan. V.N.Teliya va uning shogirdlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishadi. Ya'ni bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat subyekti orqali egallashga qaratilgan yo'nalishdir.

4. V.V. Vorobyev, V. M. Shaklein maktabi. Ular Ye.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarning ta'limotlarini rivojlantirishdi.

Shunday qilib, lingvokulturologiya jonli milliy tilda va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan ijtimoiy fandir. U tilni madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi va namoyon bo'lishidek eng muhim vazifasini belgilab beradi.

### Nazorat uchun savollar

1. V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini nechta davrga ajratadi?
2. Lingvokulturologiya qanday fan?
3. V. N. Teliya lingvokulturologiyani qanday tavsiflaydi?
4. G.G.Slishkin lingvokulturologiyani qanday tavsiflaydi?
5. N. Alefirenko lingvokulturologiyani qanday tavsiflaydi?
6. Lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlarini ayting.
7. Lingvokulturologiyaning qaysi yo'nalishi faol rivojlangan?
8. Lingvokulturologik tadqiqotlarda asosan qaysi masalalarni tadqiq etilgan?
9. Yu. Stepanov maktabining maqsadi nimadan iborat?
10. N.D. Arutyunova maktabi nimalarni tadqiq etadi?
11. V.N. Teliya maktabi qanday tadqiqotlari bilan tanilgan?
12. V.V. Vorobyev va V.M. Shaklein maktabi qaysi ta'limotni rivojlantirdi?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'zbek tilshunosligidagi lingvokulturologik tadqiqotlarni tahlil qilish.
2. Lingvokulturologiyaning dolzarb masalalari yuzasidan taqdimot tayyorlash.

### Adabiyotlar


1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. -М.: Флинта, Наука, 2010. -224 с.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.
4. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.
5. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. -М.: Academia, 2000. -128 с.
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.
7. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -136 б.

## 4-MA'RUZA
## LINGVOKULTUROLOGIYANING TADQIQOT OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

**Reja:**
1. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti
2. Lingvokulturologiyaning predmeti
3. Lingvokulturologiyaning maqsadi va vazifalari

**Tayanch so'z va iboralar:** muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi, o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, metaforalar va obrazlar, tillarning stilistik qatlami, nutqiy muomaa, nutq etiketi.

### 4. 1. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti

Tadqiqotning obyekti deganda borliqning ayrim sohasidagi o'zaro aloqadagi jarayonlar, hodisalar majmuyi, tadqiqotning predmeti deganda esa o'ziga xos xususiyatga, jarayonga va mezonlarga ega bo'lgan obyektning ayrim qismi tushuniladi. Masalan, barcha ijtimoiy fanlar uchun umumiy obyekt inson, ularning predmeti insonning muayyan tomoni va faoliyati hisoblanadi.

Lingvokulturologiyaning **obyekti** - madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir.




Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi[1].

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.35-36.

Lingvokulturologiyaning obyekti haqida ba'zi munozarali fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslovaga ko'ra, bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi. Bundan tashqari, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlagan bo'lsa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozimligini uqtiradi[1].

### 4. 2. Lingvokulturologiyaning predmeti

Lingvokulturologiyaning **predmeti** - madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin: ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin.

Tadqiqot obyektining vaziyatidan kelib chiqqan holda, uning alohida lingvokulturologik birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlarini




[1] Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: учебное пособие. – М.: Флинта, 2011.

ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin[1]:

1. *Muqobilsiz leksika va lakunalar.* Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud bo'ladi. Bunday so'zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o'zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o'zga madaniyatning ramzi sanaladi. Jumladan, *spiker, kriket, shilling* - Angliya; *yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho'l* - O'rta Osiyo; *sakura, geysha, ikebana, sake* - yapon madaniyatining belgilarini assotsiatsiyalaydi. O'zbek madaniyatining belgilarini *palov, patir, sumalak, ko'rpacha, belbog' (belida belbog'i bor), do'ppi (do'ppisi osmonda, do'ppi tor)* va h.k. so'zlarda ko'rish mumkin.

Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi yoqelanadi. Lakunalar (lot. *lacuna* - bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) - matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, "tilning semantik xaritasidagi oq dog'lar"dir[2]. Muqobilsiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida "yurist, advokat" ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* "vakil", *barrister* "oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat", *solicitor* "mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega", *counsel* "yuriskonsult", *counsellor* "maslahatchi", *advocate* "oliy darajadagi advokat". O'zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalarga faqat bir *advokat* so'zigina muqobil bo'ladi.

2. *Mifologiyalashtirilgan til birliklari.* Bular arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi. Har bir aniq frazeologizmda butun boshli bir mif emas, balki mifologema aks etadi. *Mifologema* - bu mifning "bosh qahramoni", uning muhim personaji yoki vaziyati bo'lishi va u mifdan mifga o'tishi mumkin. Mifning asosida odatda arxetip yotadi. *Arxetip* - individlar ongida paydo bo'ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg'un obraz. Arxetip tushunchasi K.G.Yung tomonidan 1919-yilda e'lon qilingan «Инстинкт и бессознательное» maqolasida muomalaga kiritilgan. K. G. Yungga ko'ra, barcha odamlarda tush, miflar, ertak va afsonalarda paydo bo'ladigan ayrim umumiy ramzlar - arxetiplarni g'ayriixtiyoriy shakllantiradigan tug'ma

[1] Маслова В. А. Ko'rsatilgan asar, 37-bet.
[2] Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М.: «Высшая школа» 1965. –С. 120.

qobiliyat bo'ladi. Arxetiplarda shaxsiy tajriba oqibatida emas, balki ajdodlardan meros qilib olingan «kollektiv g'ayriixtiyoriylik» ifodalanadi. K. Yung genetik nazariya doirasida arxetipning mifologiya bilan chambarchas bog'liqligini belgilaydi. Binobarin, mifologiya arxetiplarning omboridir[1].

3. *Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi.* Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, ayni maqol kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish va h.k. qo'llanishi mumkin. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi. Masalan, Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan* maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan. Ba'zan muayyan bir tilning realiyalari ana shu tilning maqollarida ham o'z aksini topib majoziy ma'no kasb etadi. Masalan, *Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar* maqolida o'zbek milliy kiyim-kechaklarining atributi bo'lgan do'ppi realiyasi ishtirok etgan. Mazkur maqol: "Kishi uchun eng zarur narsa, eng katta boylik - tanisog'lik. Sog'lik bo'lsa, boshqa hamma narsani topish mumkin, ammo hech bir narsa bilan sog'likni topib bo'lmaydi" degan ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladi.

4. *Tilning frazeologik fondi* xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, *ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq* "imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq", *tanobini tortmoq* "faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo'ymoq", *to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq* "ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirmoq", *to'nini teskari*

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.37.

*kiyib olmoq* "o'chakishgan holda qaysarlik qilmoq", *xamir uchidan patir* "katta ko'p narsadan boshlang'ich va kichik bir qism", *xirmon ko'tarmoq* "ekin-tikinni yig'ib, hosil me'yorini hisob-kitob qilmoq", *Xo'ja ko'rsinga* "shunchaki nomigagina", *Xizrni yo'qlasam bo'lar ekan* "kimnidir ko'rish istagi qo'qisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora". Biron tilning o'zigagina xos bo'lgan hisob so'zlari qolipining frazeologizmlarga ko'chganini ko'rish mumkin. Masalan, "juda qisqa, juda oz vaqt davom etadigan" ma'nosidagi *bir tutam* (*Bir tutam* qish kuni Gulnor uchun bitmas-tugamas uzoq ko'rindi), "qittak, ozgina" ma'nosidagi *bir chimdim* (Hazil-huzul, *bir chimdim* suhbatdan so'ng Mirhaydar va O'ktam paxta dalasiga yo'l oldilar), "jindak, qittak, juda oz" ma'nosidagi *bir shingil* (Qani, shunaqa bemaza hazildan *bir shingil* ashula yaxshi), "juda yosh, deyarli go'dak" ma'nosidagi *bir qarich* (*Bir qarichligimdan* yetim qolib, amakining xizmatida o'tib ketganman) singari frazeologizmlar shular jumlasidandir.

5. *O'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar.* O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.

Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvonning turg'un o'xshatish etaloni sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin. Masalan, aksariyat tillarda tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: *tulkiday ayyor, хитрый как лиса* (ruscha), *as false as fox* (inglizcha), *you chorom* (koreyscha). Yoki o'zbek tilining o'ziga xos o'xshatishlari sifatida *qo'ydek yuvosh, arvohday ozg'in, moldek ovqat yeydi* va h.k. ni ko'rsatish mumkin.

Mazkur o'xshatish etalonlari milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan. Etalonlar dunyoning obrazli qiyoslanishidir. Tilda etalonlar ko'pincha turg'un qiyoslamalar ko'rinishida mavjud bo'ladi, shunga qaramay, insonning dunyoni taqqoslashdagi har qanday tasavvuri ham etalon bo'lishi mumkin.

Xullas, o'xshatish etalonlari predmetlar, obyektlar va hodisalarning xususiyatini, sifatini qiyoslaydigan mohiyatdir.

*Ramz* tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi: 1) ramz - belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy formallashtirishda); 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning

o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida); 3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda); 4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki mazmunidan boshqa mazmun uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k.). Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Masalan, turli madaniyatlarda *kaptar* - tinchlik ramzi, nasroniylikda Muqaddas ruh ramzi, *yarim oy* - Islom ramzi, *Xoch* - nasroniylik ramzi sanaladi. Daraxt, gul, o'simliklar ham ramz sifatida qo'llaniladi. Jumladan, oq xrizantema Xitoyda o'lim, qabriston tushunchalarini assotsiatsiyalaydi. Yoki qirqquloq yaponlar uchun kirib kelayotgan yangi yilda omad tilash, ruslar uchun esa o'lim, qabriston belgisi hisoblanadi. Ranglardan ham ramz sifatida keng foydalaniladi. Aksariyat xalqlarda oq - yaxshilik, qora esa - yovuzlikni anglatsa, afrikaliklar uchun har ikkala rang ham neytral mazmun kasb etadi.

*Sterotip* hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o'rganiladi. Qayd qilingan fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o'z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko'ra, stereotiplar ijtimoiy stereotiplar, muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereo-iplar va h.k. ga ajratiladi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. Etnomadaniy stereotiplar biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Jumladan, nemislar tartibliligi, yaponlar sermulozamatligi, turklar hissiyotliligi, qozoqlar qaysarligi, o'zbeklar mehmondo'stligi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan.

Xullas, stereotip madaniyat vakillarining tafakkuri va tili uchun xarakterli bo'lib, u madaniyatning vakili va uning o'ziga xos sinchidir. Shuning uchun ham stereotip madaniyatlararo muloqotda shaxsning tayanchi vazifasini o'taydi.

6. *Metaforalar va obrazlar.* Tadqiqotlarda metaforalar ongning universaliyalari sifatida belgilangan. Zamonaviy psixologlar dunyoni metaforalar asosida ko'rishni insonning genezisi va madaniyati bilan bog'lashga harakat qilishadi. Bobo tilning metaforik xususiyatga ega bo'lgani, protokommunikatsiyaning esa metaforalar darajasida amalga oshirilgani haqida taxmin qilinadi.

*Obraz* - so'z bilan madaniyatning bog'liqligi haqida asosiy ma'lumot beruvchi muhim lisoniy mohiyat sanaladi. Obrazlilik deganda til birliklarining borliqdagi predmet va hodisalar haqida ko'rish va hissiy tasavvurlarni hosil qilish qobiliyati tushuniladi.

S. M. Mezeninning qayd qilishicha, obrazlilikning har qanday shakli, hoh u nutqiy, hoh u lisoniy bo'lsin o'zining mantiqiy strukturasida uchta komponentga ega bo'ladi: 1) referent, tasvirlanuvchi predmetni gnoseologik tushuncha bilan o'zaro aloqadorligi; 2) agent, ya'ni tasvirlangan predmet; 3) asos, ya'ni predmet va uning tasviridagi umumiy xususiyat.

Xullas, obrazlilik ongimizda "suratlar"ni gavdalantiradigan qobiliyatni hosil qiladigan til birliklarining real xususiyatidir.

7. *Tillarning stilistik qatlami.* Turli tillarning sitilistik qatlami, u yoki bu tilning qaysi shaklda namoyon bo'lishi ham lingvokulturologiyaning tadqiqot predmeti sanaladi. Shunday tillar borki, ularda kuchli dialektik qatlam mavjud bo'lsa, boshqalarida dialektik farqlar deyarli sezilmaydi. Yana shunday tillar mavjudki, ularda stilistik differensiatsiya endigina boshlangan bo'lsa, boshqalarida aksincha, bu differensiatsiya chuqur va ko'p qirrali bo'ladi. Adabiy til va noadabiy til shakllari o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi jamiyat madaniy tarixining barcha rivojlanish bosqichlari, xususan, uning yozuvlari, adabiyotlari, maktablari tarixi, uning dunyoqarashi, madaniy-g'oyaviy simpatiyalari va h.k. bilan belgilanadi.

8. *Nutqiy muomala*, shuningdek, nominativ, grammatik va stilistik birliklarda mustahkamlangan har qanday muomala lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti bo'la oladi.

A. A. Leontev shunday yozgan: "Nutqiy muloqotning milliy-madaniy xususiyati bizning tasavvurimizda mazkur milliy-madaniy jamoaga xos bo'lgan tuzilishdagi farqlar, muloqot jarayonlarining funksiyalari va usullariga bavosita bog'liq bo'lgan omillar tizimidan tashkil topgan bo'ladi. Ushbu omillar jarayonga turli darajada "qo'shiladi", ularning tuzilishi va o'zi farqli tabiatga ega bo'lsa-da, jarayon ichida ular, avvalo, lisoniy, psixolingvistik va umumpsixologik omillar bilan o'zaro aloqada bo'ladi".[1] A.A.Leontev mazkur omillarni quyidagilarga ajratgan: 1) madaniy an'analar bilan bog'liq omillar (muloqotning ijozat berilgan va taqiqlangan turlari, shuningdek, muloqotning stereotip holatlari); (Men-Sen -U- grammatika); 2) ijtimoiy holat va muloqotning ijtimoiy funksiyalari bilan bog'liq omillar (muloqotning funksional til osti va etiket shakllari); 3) tor ma'nodagi etnopsixologiya, ya'ni psixik jarayonlar vositasida kechadigan xususiyatlar va turli faoliyat turlari bilan bog'liq omillar; 4) denotatsiyaning xususiyati bilan bog'liq omillar; 5) mazkur jamoaning til xususiyatlari (stereotiplar, obrazlar, qiyoslash va h.k.) bilan aniqlanadigan omillar.

---

[1] Леонтьев А. А. Психология общения. –М.: Смысл. 1999. - С. 9-10, 46.

Tadqiqotlar natijasida har qanday madaniyatda insonlar muomalasining tipik holatlarda inson o'zining ijtimoiy roliga (boshliq-xodim, er-xotin, ota-o'g'il, o'qituvchi-o'quvchi va h.k.) mos ravishda o'zini qanday tutishi lozimligi haqidagi tasavvurlari bilan boshqarilishi aniqlangan.

9. *Nutq etiketi* - insonlarning rasmiy va norasmiy vaziyatlardagi o'zaro muloqotida ularning ijtimoiy va psixologik roliga mos ravishda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy o'ziga xos nutqiy muomala qoidalari. Nutq etiketi - bu "ijtimoiy silliqlangan" hudud, muloqotning milliymadaniy komponenti. Masalan, sud jarayonida sudya bilan guvohning muloqoti bu shaxslarning suddan tashqaridagi muloqotiga nisbatan o'ta rasmiy til vositalarining qo'llanishi bilan farqlanadi.

Xullas, lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya'ni uning ongi, shuuri, ommaviy an'analari, urf-odatlari va h.k. bilan bog'liq til ifodalarining qo'llanilishini tadqiq etadi.

### 4. 3. Lingvokulturologiyaning maqsadi va vazifalari

Bir-biridan farq qiladigan turfa yo'nalishlarning mavjud bo'lishiga qaramay, zamonaviy lingvokulturologiyaning predmeti ikki xil kod bo'lgan til va madaniyatning o'zaro ta'sirida shakllanadigan lisoniy belgilarning madaniy semantikasini o'rganishdan iborat. Chunonchi, har bir lisoniy shaxs ayni paytda madaniy shaxs hamdir. Shuning uchun lisoniy belgilar madaniyat "tili" funksiyasini bajarish imkoniyatiga ega. Madaniyat "tili" til egasining madaniy-milliy mentalligini lisoniy qobiliyatda aks etishini ifodalaydi. Bu o'rinda barcha lisoniy me'yorlarga rioya qilingan holatlarda ham "madaniy to'siq"ning yuzaga chiqishi ta'kidlash joiz.

A. Vejbitskoy ana shunday holatga misol tariqasida nemis orkestrini boshqarishga taklif qilingan ingliz dirijeri bilan yuz bergan hodisani keltirgan. Ishlar unchalik yaxshi ketmagan ingliz dirijeri inglizcha gapirgani uchun musiqachilar uni "o'ziniki" sifatida qabul qilmayapti, deb o'ylaydi. Shundan keyin u nemischa o'rgana boshlaydi va o'qituvchisidan "Eshitinglar, meningcha, mana bunday chalsak, yaxshiroq bo'ladi" jumlasini nemischa qanday aytish mumkinligini so'raydi. O'qituvchi o'ylanib turib, shunday javob qiladi: «Albatta, jumlani shunday tuzish mumkin, lekin mana bunday degan yaxshiroq: "Mana bunday chalish kerak"»[1].

Yoki ingliz tilidagi "Can you write this scientific research in English?" savoliga bir o'zbek "No, it's very difficult" deb javob berishi mumkin. Biroq ingliz nutqiy muomalasi va so'z tanlash me'yorlaridan kelib chiqqan

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.31.

holda, shunday javob berishi o'rinli bo'ladi: "It's very difficult, but I'll try". Yoxud: *"Bu kitob sizniki emasmi?"* yoki *"Ertaga band emasmisiz?"* savoliga deyarli barcha madaniyatlarda *"Yo'q, meniki emas"*, *"Yo'q, band emasman"*, - deb inkor mazmunida javob beriladi. Koreys (yoki yapon) madaniyatida *"Ne, ne cheki animnida"* ("Ha, mening kitobim emas") va *"Ne, babiji ansimnida"* ("Ha, band emasman"), - deb tasdiq mazmunida javob qaytariladi.

Muxtasar qilib aytganda, madaniy to'siq nafaqat nutqiy muomala me'yorlaridagi farqlar, balki muloqotchilar tomonidan kiritiladigan turli ma'nolar bilan ham bog'liqdir. Bir qarashda bir xil ko'ringan so'zlarning ma'nolarida nomutanosiblik mavjud bo'ladi.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqqan holda, lingvokulturologiya mustaqil fan sohasi sifatida quyidagi masalalarni hal qilishni o'z oldiga maqsad qiladi:

1) til konseptlarini shakllanishida madaniyat qanday ishtirok etadi;

2) til belgisi ma'nosining qaysi qismiga "madaniy ma'nolar" biriktiriladi;

3) bu ma'nolar so'zlovchi va tinglovchi tomonidan anglashiladimi va ular nutq strategiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi;

4) haqiqatan ham til egasining madaniy-lisoniy qobiliyati mavjudmi;

5) konseptosfera (muayyan madaniyatning asosiy konseptlari yig'indisi) va bir madaniyat va ko'p madaniyat egasi yo'nalgan madaniyat diskursi qanday bo'ladi;

6) mazkur fanning asosiy tushunchalarini qanday sistemalashtiriladi, ya'ni fanning asosiy tushunchaviy - terminologik apparatini qanday yaratiladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Lingvokulturologiyaning obyekti nimadan iborat?
2. Lingvokulturologiyaning obyekti haqida qanday munozarali fikrlar mavjud?
3. Qanday birliklar lingvokulturologiyaning predmetini tashkil qiladi?
4. Muqobilsiz leksika nima?
5. Lakunalar nima?
6. Mifologiyalashtirilgan til birliklariga nimalar kiradi?
7. Tilning paremiologik fondi haqida ma'lumot bering.
8. Tilning frazeologik fondi qanday manba sanaladi?

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi stimul so'zlarning qarshisiga ularga xos bo'lgan lingvomadiyatlarni yozing.

| № | Stimul-so'zlar | Peaksiya-so'zlar (lingvomadaniyatlar) |
|---|---|---|
| 1 | shilling | |
| 2 | sake | |
| 3 | lira | |
| 4 | samovar | |
| 5 | beshbarmoq | |
| 6 | cho'l | |
| 7 | loqum | |
| 8 | gamburger | |
| 9 | yog'urt | |
| 10 | sumalak | |
| 11 | xanbok | |
| 12 | spagetti | |
| 13 | doner | |
| 14 | pivo | |
| 15 | shtat | |

2. Boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilib bo'lmaydigan muqobilsiz so'zlarni toping va ularni izohlang.

## Adabiyotlar


1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.
3. Леонтьев А. А. Психология общения. -М.: Смысл, 1999. -365 с.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.
5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.

## 5-MA'RUZA
## LINGVOKULTUROLOGIYA METODOLOGIYASI VA METODLARI

**Reja:**
1. Fanlar metodologiyasi
2. Lingvokulturologiyaning metodlari

**Tayanch so'z va iboralar:** metodologiya, bilish faoliyati, falsafiy metodologiya, umumfan metodologiyasi, xususiy metodologiya, tadqiqot metodi, dialektik metod, makrokomponent model, psixosotsiokulturologik eksperiment.

### 5. 1. Fanlar metodologiyasi

Metodologiya va tadqiqot metodidan xoli birorta ilmiy asar mavjud bo'lmaydi. Shunday ekan, fanda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metod tushunchalari markaziy o'rinni egallaydi.

*Metodologiya* bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qo'llashdir. Metodologiya metodlarning umumiy nazariyasi sifatida insonning bilish faoliyatida qo'llanilgan metodlarni umumlashtirish zarurati bilan dunyoga keldi. Dialektik metod maxsus ilmiy metodlarga, ya'ni turli fanlarga oid metodlarga ta'sir qiluvchi ta'limot bo'lgani uchun uni metodologiya, ya'ni ilmiy tadqiqot usuli bo'lgan metodlar haqidagi ta'limot deb yuritdilar. Dastlab metodologiya muammolari falsafa doirasida ko'rila boshlandi.

Falsafa metodologiyaga tamoyillar hamda usullarni nazariy va amaliy faoliyatlarni tashkil qilish tizimi, shuningdek, mazkur tizimni o'rganadigan ilm sifatida qaraydi[1]. Metodologiya nazariyadan farqli o'laroq, yangi bilim bermaydi, ta'limotdan farqli o'laroq, amaliyotning asosi bo'lib xizmat qilmaydi, biroq fanda shunday unsurlarni rivojlantiradiki, ularsiz mazkur fanning o'zi rivojlana olmaydi.

Metodologiya - bu fanning rivojlanish ta'limoti, ta'limot - bu metodologiyaning nazariyadan amaliyotga o'tishi. Har qanday fanning metodologiyasi (jumladan, lingvokulturologiyaning ham) uch darajani o'z ichiga oladi:

[1] Философский энциклопедический словарь. –М.: Советская энциклопедия. 1983. –С. 365.




*Falsafiy metodologiya* - eng oliy daraja bo'lib, u uchun Geraklit, Platon, Kant, Fixte, Shelling va h.k. tomonidan shakllantirilgan dialektikaning qonunlari, tamoyillari va kategoriyalari muhimdir. Bular qarama - qarshilikning birligi va kurashi, inkorni inkor etish qonunlari, umumiylik, xususiylik va alohidalik hamda boshqa kategoriyalardir.

*Umumfan metodologiyasi* - hodisalarni o'rganish metodlari va tamoyillarini turli fanlar tomonidan rivojlantirilishidir. Ular kuzatish, eksperiment, modellashtirish va talqindan iborat. Umumfan metodologiyasi fanlarning taraqqiy etishi bilan birga o'zgarib boradi va natijada yangi metodlar shakllanadi, eski metodlar modifikasiya qilinadi.

*Xususiy metodologiya* konkret fanlarning, binobarin, lingvokulturologiyaning ham metodlaridir.

Metodologiya va metod o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, u o'rganilayotgan hodisaga nisbatan muayyan yondashuvni, muayyan usullar majmuyini bildiradi. Shuning uchun ham metod har doim tizim hisoblanadi. Uning xususiyati tadqiqotning obyekti va predmeti bilan belgilanadi. Har qanday metod umumfalsafiy nazariyalarga bevosita va bilvosita bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi ma'lum bir fanda qo'llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta'limot emas, balki tadqiqotchining tadqiq manbayini, obyektini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi, tadqiqotchining dunyoqarashini nazarda tutadi.

### 5. 2. Lingvokulturologiyaning metodlari

Zamonaviy lingvokulturologiya hali to'liq metodologik bazaga ega emas. Odatda, rus lingvokulturologlari lingvokulturologiya metodologiyasini tilshunoslik metodologiyasi bilan bog'lashadi. *Lingvokulturologiyaning metodlari* til va madaniyatning o'zaro aloqasini tahlil qilishda foydalanadigan tahliliy amallar va tadbirlar yig'indisi sifatida ko'rsatiladi. Lingvokulturologiya fanning integrativ, ya'ni kulturologiya, tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya tadqiqotlari natijalarini o'zida

mujassamlashtirgan sohasi bo'lgani uchun ham unda "til va madaniyat" markazi atrofida to'plangan qator bilish metodlari va yo'nalishlari qo'llaniladi. Lingvokulturologik tahlil jarayonlarida kulturologiya va tilshunoslik metodlaridan tanlab foydalaniladi.

V.A. Maslovaning yozishicha, "Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o'zining qo'llanish chegarasiga ega. Biroq o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat shunchalik ko'p qirraliki, ularning tabiati, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to'ldiruvchi qator metodlarning qo'llanilishi g'oyat tabiiydir"[1].

Lingvokulturologik tadqiqotlarda lingvistik, kulturologik, sotsiologik (kontent-tahlil, freym tahlil metodika), etnografik (tasvirlash, tasniflash va h.k.) metodlardan istifoda etilganligini ko'rish mumkin. Aksariyat lingvokulturologik tadqiqotlarda mazkur metodlar turli tamoyillar va tahlillar bilan bir-birini o'zaro to'ldirib, lingvokulturologiyaga murakkab obyekt bo'lgan til va madaniyatning o'zaro munosabatini tadqiq etish imkonini berganligi ta'kidlanadi.

Til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganish uchun J. Lakoff *metaforalarni tahlil qilish apparatini* taklif qiladi. Chunonchi, metaforalarning kognitiv nazariyasi nima uchun chet tillaridagi ba'zi iboralar oson tushuniladi, hatto ular o'zlashtiriladi, boshqalarini esa tushunish qiyin ekanligini izohlab beradi. Ushbu metod qiyoslanilayotgan tillar orasidagi kognitiv nomuvofiqlikni aniqlashga yordam beradi. Bunday farqlar tasodifiy bo'lmaydi, ular u yoki bu xalq tomonidan dunyo hodisalarini o'ziga xos tarzda tushunilishidan dalolat beradi.

V.N. Teliya lingvokulturologik tasvir uchun ma'noning *makrokomponent modelini* taklif qiladi. Mazkur model informatsiyaning quyidagi yetti blokini o'z ichiga oladi: *presuppozitsiya, denotatsiya, ratsional baho, belgining motivatsion asosi, emotsional* va *emotiv baholar* haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, belgini qo'llash sharoitlari bahosi. Har bir blok mental strukturalarni qayta ishlash amallarini ko'rsatuvchi kognitiv operator tomonidan kiritiladi[2].

Tadqiqotchilar tomonidan lingvokulturologik tasvirda **psixosotsiokulturologik eksperiment**dan keng foydalanish va **matnlarni lingvokulturologik tahlil qilish** ham tavsiya qilinadi.

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.34.

[2] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.35.

V.M.Shakleyinning fikricha, "Lingvokulturologiya bu - tilshunoslik emas. Shubhasiz, materiallar tadqiqida tilshunoslik va lingvokulturologik yo'nalishlarni birlashtirish samara beradi, biroq lingvokulturologiyani mustaqil fan sifatida shakllanish yo'liga olib chiqmaydi"[1].

Zamonaviy lingvokulturologiya metodologik jihatdan uchta asosga tayanadi: 1) V.fon Gumboldt va A.A.Potebnya ta'limotiga; 2) olamlarning ko'pligi gipotezasiga; 3) lisoniy nisbiylik gipotezasiga. Ko'proq jiddiy metodologik asos sifatida til va madaniyatning o'zaro aloqasi masalasini ko'targan V.fon Gumboldt va A.A.Potebnyaning ta'limotiga suyaniladi. Biroq mazkur ta'limot bugungi globallashuv, integratsiyalashuv jarayonida eskirgan, jonli hayotdan uzilgan sanaladi. Shuning uchun zamonaviy lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi tilshunoslikning yo'nalishi doirasidan chiqish, til va madaniyatning jonli jarayonlarini tasvirlash va eng muhimi til va madaniyatning rivojlanishini ilmiy bashoratlashdan iborat.

### Nazorat uchun savollar

1. Metodologiya nima?
2. Dialektik metod qanday ta'limot deb yuritiladi?
3. Metodologiya nazariyadan qanday farq qiladi?
4. Metodologiya qaysi darajalarni o'z ichiga oladi?
5. Falsafiy metodologiya nima?
6. Umumfan metodologiyasi nima?
7. Xususiy metodologiya qanday metodlarni o'z ichiga oladi?
8. Metodologiya va metodning o'zaro chambarchasligini tushuntiring.
9. Lingvokulturologiyada qaysi metodlarni qo'llash mumkin?
10. V.N.Teliya taklif qilgan ma'noning makrokomponent modeli informatsiyaning qaysi bloklarini o'z ichiga oladi?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Psixosotsiokulturologik eksperiment o'tkazish.
2. Badiiy matnlarni lingvokulturologik tahlil qilish.

### Adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017.

2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.

[1] Шаклеин В.М. Лингвокультурология. Традиции и инновации. Монография. –М.: Флинта, 2012. –С. 253.

3. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. - М.: Гнозис, 2002. -284 с.

4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

5. Леонтьев А. А. Психология общения. -М.: Смысл, 1999. -365 с.

6. Шаклеин В.М. Лингвокультурология. Традиции и иновации. Монография. -М.: Флинта, 2012. -301 с.

## 6-MA'RUZA
## LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHAVIY-TERMINOLOGIK APPARATI

**Reja:**

1. Lingvokulturologiya tushunchalarining talqini
2. Lingvomadaniy konsept

**Tayanch so'z va iboralar:** madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsept, madaniy meros, madaniy an'ana, madaniy jarayon, madaniy makon, lingvomadaniy paradigma, mentallik, mentalitet, madaniyat tili, submadaniyat, madaniy konnotatsiya, lingvomadaniy konsept.

### 6. 1. Lingvokulturologiya tushunchalarining talqini

Lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchalarni keltirib chiqardi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat konsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniy an'analar, madaniy jarayon, madaniy ko'rsatmalar va h.k. Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm-rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun, majusiylik va boshqalar kiradi. Mazkur tushunchalardan eng muhimlari madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsept va madaniy konnotatsiya bo'lib, ular madaniy informatsiyaning til birliklari vositasida ko'rsata oladi.

Madaniy sema - so'zga nisbatan kichikroq va universalroq bo'lgan semantik birliklar, semantik belgilar. Masalan, *palov, do'ppi, o'choq* so'zlaridagi quyidagi madaniy semalarni ajratish mumkin: *palov* - guruch, sabzi, go'sht, piyoz va yog' solib tayyorlanadigan o'zbek milliy taomi; *do'ppi* - avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan to'garak yoki to'rtburchak shakldagi o'zbeklarning milliy bosh kiyimi; *o'choq* - ichiga o't yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o'rnatiladigan qurilma.

Madaniy fon - ijtimoiy hayot va tarixiy hodisalarni ifodalaydigan nominativ birliklarning (so'zlar va frazeologizmlarning) tavsifi. Masalan, *Daqqiyunusdan qolgan // Odam atodan qolgan* "juda eski, qadimgi", *jamalak o'rtoq* "bolalikdagi dugona", *qizil* (Oktabr inqilobi, sho'ro tuzumi, armiyasiga oidlikni bildiradigan so'z sifatida qo'llangan).

Yuqorida qayd qilingan madaniy informatsiyaning ikki turi denotatda mavjud bo'lib, lingvomamlakatshunoslikda yaxshi o'rganilgan.

Madaniy konsept - mavhum tushunchalarning nomlari bo'lgani uchun bu yerda madaniy informatsiya signifikatga, ya'ni tushuncha yadrosiga biriktiriladi.

Madaniy meros - madaniyat uchun ahamiyatli bo'lgan madaniy boyliklarni, informatsiyalarning berilishi.

Madaniy an'analar - ijtimoiy va madaniy merosning qimmatli unsurlari majmuyi.

Madaniy jarayon - madaniyat hodisalari tizimiga aloqador bo'lgan unsurlarning o'zaro ta'siri.

Madaniy makon - madaniyat vakillari ongidagi madaniyatning mavjud bo'lish shakllari. Madaniy makon kognitiv makon (individual va jamoaviy) bilan munosabatda bo'ladi, chunki u mazkur madaniy-milliy jamiyatning barcha vakillari, barcha individual va jamoaviy makonlar majmuyi bilan shakllanadi. Masalan, rus madaniy makoni, ingliz madaniy makoni va h.k.

Lingvomadaniy paradigma - bu dunyoqarashning etnik, ijtimoiy, tarixiy, ilmiy va h.k. o'zaro aloqadorlikdagi kategoriyalarini aks ettiradigan til shakllarining majmuyi. Lingvomadaniy paradigma konseptlarni, kategorial so'zlarni va shu kabilarni birlashtiradi. Til shakllari paradigmaning asosi hisoblanadi.

Madaniy an'ana - jamiyatda to'planadigan va qayta tiklanadigan ijtimoiy stereotiplashgan guruhlar tajribasini ifodalaydigan integral hodisa.

Madaniy fond -u yoki bu madaniyat vakilining bilimlari majmuyi, uning milliy va jahon madaniyati sohasidagi ayrim qarashi. Biroq bu shaxsning mulki emas, balki mazkur madaniyatga talluqli bo'lgan o'sha asosiy birliklarning majmuyidir.

Mentallik - milliy xarakterning intellektual, ma'naviy va iroda xususiyatlarini o'zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko'rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi. A. Ya. Gurevichga ko'ra, mentallik - dunyoni ko'rish yo'li, u g'oya bilan o'xshamaydi. Mentallik falsafiy, ilmiy yoki estetik tizimlar emas, u fikr emotsiyadan qismlarga ajralmagan jamiyat tafakkurining darajasi. Xalq mentalligi tilning muhim konseptlarida dolzarblashadi.

Mentalitet - (nem. mentalität < lot. mens, mentis - aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafak-kur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Mentalitet - xalq mentalligini, uning aqliy va ruhiy quvvatining ichki tuzilishini va differensiatsiyasini aks ettiradigan kategoriya. Mentalitetlar turli masshtablardagi lingvomadaniy jamoalarning psixolingvo-intellekt-

larini namoyon qiladi. Ilmiy adabiyotlarda qayd qilinishicha (Yu.D.Apresyan, Ye.S.Yakovleva, O.A.Kornilov), *mentalitet* termini ositida ijtimoiy-madaniy, lisoniy, geografik va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan chuqur aqliy tuzulish tushuniladi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

Madaniyat tili - mavjud bo'lgan yoki qaytadan hosil bo'lgan tasavvurlar, tushunchalar, obrazlar va boshqa ma'noviy konstruksiyalar tuzilishining belgilar va ularning munosabatlari tizimi vositasida shakllanishi.

Submadaniyat - ikkinchi darajali, tobe madaniyat tizimi (masalan, yoshlar submadaniyati va h.k.).

Madaniy konnotatsiya - madaniyat kategoriyalaridagi denotativ yoki majoziy-motivlashgan ma'no jihatlarining talqini. Madaniy konnotatsiya til belgisidagi madaniyat darajasining ko'rsatkichini ifodalaydi. N. Yu. Shvedova rus tilidagi 20 ta umumiy ma'no kategoriyasini ajratib ko'rsatgan: jonlilik, harakat, holat, predmet, o'lchov, o'rin, vaqt va h.k. Mazkur kategoriyalar tilning ma'noviy sinchini tashkil qiladi. Biroq har bir xalq uchun ikkilamchi atovda qo'shimcha ko'chma ma'no kasb etgan maxsus majoziy-assotsiativ mexanizmlar ham mavjud bo'ladi. Masalan, ruslarda *it* (salbiy hodisalar bilan bir qatorda) sodiqlik, vafodorlik, oddiylikni assotsiatsiyalaydi. Jumladan, *собачья верность, собачья преданность, собачья жизнь* kabi frazeologik birliklarda mazkur xususiyatlar o'z aksini topgan; beloruslarda *it* salbiy xususiyatlarni ifodalaydi: *ушыцца у сабачую скуру* ("layoqatsiz, dangasa odamga aylanish"), *собакам падшыты* ("yomon odam"); o'zbeklarda, qirg'izlarda va qator boshqa turkiy xalqlarda *it* haqoratni bildiradi. Ruslarda *cho'chqa* a) ifloslik, b) nonko'rlik, v) tarbiyasizlikni; inglizlarda *pig* ochofatni, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa musulmon xalqlarida *cho'chqa* sof diniy nuqtayi nazardan o'ta haqoratni ifodalaydi; vetnamlarda *cho'chqa* ahmoqlik ramzi bo'lib keladi.

Shunday qilib, *it* va *cho'chqa* so'zlari turli xalqlarda turlicha belgilarni konnotatsiyalaydi. Bu esa mazkur xalqlar dunyo manzarasining shakllanishidagi ularning o'ziga xos, individual majoziy fikrlashini ko'rsatadi. Yuqoridagi misollar o'ziga xos qo'shimcha ma'nolar - konnotatsiyalar yuzaga kelishining har bir til, har bir madaniyat uchun xos ekanligini ko'rsatadi.

### 6. 2. Lingvomadaniy konsept

Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. S.

Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko'ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo'lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o'ziga xosligini belgilaydi[1]. XX asrning birinchi choragida konsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj qayta paydo bo'ladi. Yu. S. Stepanov o'zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, *konsept* so'zining etimologiyasiga murojaat qiladi. *Konsept* lotin tilidagi conceptus - "tushuncha" so'zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi[2].

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi[3]. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa[4], bugungi kunga kelib uning izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Binobarin, N.Yu. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan[5].

Professor N. Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta

---

[1] Аскольдов С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–280.

[2] Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю. С. Степанов. – М.: Академический проект, 2004. - 991 с.

[3] Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. –Москва, 2001. -№ 1. –С. 35-47.

[4] Демьянков В.З. Кўрсатилга мақола.

[5] Шведова Н.Ю. Избранные работы. –М.: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.

qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan"[1].

Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, *uy* konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

a) yashash joyi - bino - ko'p qavatli uy - hovli - xonadon - oila;

b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug', yangi, eski;

v) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi.

Ko'chma ma'noli birliklarni yuzaga chiqaradi: *uy ichi* "oila a'zolari", *uyi buzilmoq* "er-xotinning ajralishi", "eri o'lmoq" (Buxoroda), *uyi kuymoq* "xonavayron bo'lmoq", "oila a'zolaridan kimdir o'lmoq" (Qashqadaryoda).

Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universaliyalarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k. tushuniladi. Madaniyat konseptlarini A. Ya. Gurevich ikki guruhga: "fazoviy", falsafiy kategoriyalar, ya'ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o'zgarish, harakat) hamda ijtimoiy kategoriyalar, ya'ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi. V. A. Maslova bunga yana bir guruhni - milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o'ziga xos konseptlarning ko'pligi aniqlangan[2]. Masalan, *kartoshka* konsepti madaniy o'ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, buni *сидеть на одной картошке* frazeologizmi misolida ham ko'rish mumkin; beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Yoki *поп* konseptini olsak,

---

[1] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 9.

[2] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.51.

o'zbeklar uchun non muhim ozuqa etaloni hisoblansa, koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun muhim ozuqa hisoblanmaydi. Ular uchun *guruch* asosiy ozuqa etaloni sanaladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Madaniy semaga ta'rif bering va uni misollar bilan izohlang.
2. Madaniy fondga qaysi nominativ birliklar kiradi?
3. Madaniy makon deganda nimani tushunasiz?
4. Lingvomadaniy paradigma nima?
5. Madaniy an'ana qanday hodisa?
6. Mentallik nima?
7. Mentalitet qanday kategoriya?
8. Madaniy konnotatsiya nimani ifodalaydi?
9. Submadaniyat deganda nimani tushunasiz?
10. Lingvomadaniy konseptga ta'rif bering.

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'zbek mentaliteti haqida yozma ish tayyorlash.
2. Madaniyat konseptlarini tahlil qilish.

### Adabiyotlar


1. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.
2. Аскольдов, С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словес-ности к структуре текста. Антология. - М.: Academia, 1997. - С. 267-280.
3. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литаратуре и в научном языке // Вопросы филологии. -Москва, 2001. - № 1. -С. 35-47.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.
5. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.
6. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю. С. Степанов. - М.: Академический проект, 2004. -991 с.
7. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии: Учебное пособие. Под ред. В.Д. Бондалетова. 5-е изд. -М. : Флинта: Наука, 2009. -184 с.
8. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -136 б.

## II BOB. TIL VA MADANIYATNING O'ZARO ALOQASI

## 7-MA'RUZA
## MADANIYAT VA UNING O'RGANILISHI

**Reja:**

1. "Madaniyat" tushunchasi
2. Madaniyatshunoslikda madaniyatning o'rganilishi
3. Madaniyat va inson
4. Madaniyat va tamaddun

**Tayanch so'z va iboralar:** til, madaniyat, inson, jamiyat, badaviy turmush, sahroiy turmush, madaniy turmush, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, madaniyatli shaxs, qishloq xo'jaligi, hurmatlash, ehtirom, artefaktlar dunyosi, faoliyat, tamaddun, madaniyatlilik.

### 7. 1. "Madaniyat" tushunchasi

"Madaniyat" lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biridir. Shuning uchun madaniyatning ontologiyasini, uning semiotik va boshqa xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchi Ven Shu Lee "madaniyat" tushunchasining 6 ta ta'rifini keltiradi:

1. Madaniyat (tabiat va biologiyadan farqli o'laroq) - insonning noyob sa'y-harakati, urinishidir. U "tabiatni yo'q qilishga qarshi misoli bir qo'rgondir".

2. Madaniyat - nazokat, xulq-atvordir.

3. Madaniyat - (barbarlardan farqli o'laroq) tamaddundir.

4. Madaniyat - lisoniy haamjamiyat, ishonch, qadriyatdir (har bir madaniyat vakili bir tilda gaplashadi, ayni an'analarni bo'lishadi).

5. Madaniyat - hukmron yoki yo'lboshlovchi madaniyatdir. Masalan, "madaniyat axloq va buzuqlikni belgilovchi sinfni boshqaradi".

6. Madaniyat - umumiy va bo'lishilmaydigan narsalar orasidagi tangliklarni o'zgartiradi[1].

Madaniyat - jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. "Madaniyat" tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat

[1] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 85.

madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" termini kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

"Madaniyat" arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini *badaviy* yoki *sahroiy turmush*; ikkinchisini *madaniy turmush* deb ataganlar. Badaviylik - ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik - shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan[1].

O'zbek tilida *madaniyat* so'zi (arab. - sivilizatsiya) quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: 1) jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari; 2) biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari; 3) o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat; 4) madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit; 5) qishloq xo'jaligida (o'simlik yoki ekinning turlarini) yetkazish, o'stirish, yetishtirish [2].

Yevropada "madaniyat" deyilganda, dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. cultura - yerni ishlash, parvarishlash; tarbiya, rivojlanish, hurmatlash, ehtirom; ruschadagi "культура" so'zi ham shundan olingan).

XVIII asrdan e'tiboran *kultura* so'zi bilan insonning faoliyati, uning aniq bir maqsadga yo'nalgan fikrlashi tufayli yuzaga kelgan barcha narsalar tushunila boshlangan. Biroq mazkur so'z dastlab "insonni tabiatga ta'siri, inson manfaatlari yo'lida tabiatni o'zgartirish, ya'ni yerni ishlash" ma'nosida qo'llanilgan. Kultura - ijtimoiy-gumanitar bilishning fundamental tushunchalaridan biri sanaladi. Mazkur so'z XVIII asrning ikkinchi yarmi ("Ma'rifat asri")dan boshlab ilmiy termin sifatida iste'molga kirgan[3]. Madaniyat faqat mavjud me'yor va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan.

Markaziy Osiyodagi buyuk tafakkur egalari madaniyatlilik masalasiga insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti, ong va tafakkur taraqqiyoti, fozil jamiyat va komil insonlar masalasi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashadilar. Sharq mutafakkirlari madaniyat masalasini insonning ma'naviy-aqliy barkamolligi shaklida, baxt-saodatga erishuvi tarzida

---

[1] O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild. -Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003. –B. 372-373.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 521.

[3] Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. –С.12.

tushunadilar. Bu an'anaviy tushuncha keyingi avlodlar tafakkuri-dan mustahkam joy olgan. Shu sababli "madaniyat" deganda ko'proq insonning ma'naviyati, uning ichki kechinmalari va tashqi qiyofasining mushtarakligini ko'z oldimizga keltiramiz[1].

Abu Nasr Forobiy madaniyatlilik deganda, ideal jamiyatni tushunadi va shunday yozadi: "Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunardan ozod, hamma bab-baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bolmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod boladilar. Biri ikkinchisiga xo'jayin bolmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi"[2].

Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Abdulloh Marvaziy, Ibn Sinolar insonning tashqi tabiat va o'zi yashayotgan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilish, o'rganish va tahlil qilish orqali axloqiy kamolotga (madaniyatlilikka) erishishi mumkinligi g'oyasini ilgari suradilar.

Beruniy o'z asarlarida nafaqat insonning madaniyatliligi, ya'ni insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirishi masalasini, balki turli xalqlar madaniyatlarining o'zaro aloqadorlikda bo'lishi va bir-biriga ta'sir etishi natijasida rivojlanib, boyib borishini yoritib beradi.

Abdurahmon Jomiy ham insonning madaniyatliligini donishmandlik, fozillik va bilimdonlikda deb biladi. Uning nazdida ilm kishini irodali qiladi. Madaniyatsizlik belgilari hisoblanmish nochorlik, jaholat, munofiqlik, xiyonat va hasaddan qutqazadi. Uningcha, ma'naviy-madaniy komillik darajasiga erishgan kishi nafaqat bilim oladi, balki boshqalarga ham ilm ulashadi. Abdurahmon Jomiy o'zining "Lujjat ul-asror" asarida o'zidan oldin yashagan mutafakkirlarning fikrini davom ettirib, insonning mukammalligi (madaniy-ma'naviy komilligi) uning halol va pok yashashi, biror-bir kasb etagidan tutishi, o'z mehnati evaziga kun ko'rishida, deb biladi.

Jomiyning musiqaga oid "Risolayi musiqiy" asarida musiqaning insonning kamol topishi, unga ma'naviy ozuqa berishi, uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati haqidagi fikrlari o'ta muhimdir[3].

Alisher Navoiy o'z asarlarida madaniyat masalasini ijtimoiy va axloqiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqlikda, deb biladi. Insonning madaniy-

---

[1] Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. –Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. –B.7.

[2] Форобий А. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси. 1993. – Б. 190.

[3] Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. –Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. –B. 8.

ma'naviy qiyofaga ega bo'lishi faqatgina adolatli jamiyatdagina amalga oshadi, deb hisoblaydi:

Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin[1].

Keyingi davr mutafakkirlari, ayniqsa, Turkiston ma'rifatparvarlik harakati vakillari madaniyat tushunchasini xalqni savodli, ilmli, ma'rifatli qilish g'oyasi bilan birlashtirdilar. Ular shaxs, millat, davlat va jamiyatning madaniylik darajasini shaxs va xalqning o'z-o'zini va milliy o'zligini anglashida, deb bildilar.

### 7. 2. Madaniyatshunoslikda madaniyatning o'rganilishi

1960-yillarda madaniyat haqidagi mustaqil fan sifatida madaniyatshunoslik (kulturologiya) shakllandi. U falsafa, tarix, antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, etnologiya, etnografiya, tilshunoslik, san'atshunoslik, semiotika, informatika singari fanlar kesishgan nuqtada vujudga keldi. Hozirgi kunda madaniyatshunos olimlar tomonidan madaniyatni tushunish va aniqlashdagi qator nuqtayi nazarlar ajratilgan. Ulardan ayrimlarini quyida ko'rib chiqamiz.

*1. Tasviriy nuqtayi nazar*da madaniyatning alohida elementlari - urf-odatlar, faoliyatlar, qadriyatlar, ideallarning turlari va h.k.ga e'tibor qaratiladi. Mazkur nuqtayi nazarga ko'ra, "madaniyat bizning hayotimizni hayvonsifat ajdodlarimizning hayotidan ajratadigan yutuqlar va institutlar majmuyi" sifatida belgilanadi. U ikki maqsadga: insonlarni tabiatdan himoya qilish va insonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi (Z. Freyd). Madaniyatning paydo bo'lishi xususidagi ro'yxatning to'liq berilmagani mazkur nuqtayi nazarning kamchiligi hisoblanadi.

*2. Qadriyat nuqtayi nazar*ida madaniyat insonlar tomonidan yaratilgan ma'naviy va moddiy boyliklarning majmuyi sifatida talqin qilinadi. Obyekt qimmatga ega bo'lishi uchun inson unda qadrli xususiyatlar mavjudligini anglashi kerak. Obyektlar qimmatliligini belgilash qobiliyati inson ongida qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi. Biroq tasavvur ham muhim hisoblanadi, chunki uning yordamida yaratiladigan mukammal namunalar va ideallar mavjud obyektlar bilan qiyoslanadi. M. Xaydegger (M. Vebyer, G.Fransev, N.Chavchavadze)ga ko'ra, madaniyat yuksak qadriyatlarni inson qadr-qimmatini madaniylashuv yo'li bilan amalga oshishidir. Ushbu nuqtayi

---

[1] Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. –Тошкент: "Sano-standart", 2016. –Б. 78.

nazarning kamchiligi unda madaniyat tushunchasining toraytirilishidir. Chunonchi, unga insonning turli faoliyatlari emas, balki faqat qadriyatlargina kiritiladi.

*3. Faoliyat nuqtayi nazar*da madaniyatga faoliyatning alohida turi, ya'ni inson ehtiyojlarini qondirishga xos bo'lgan usul sifatida qaraladi.

*4. Funksionistik nuqtayi nazar*da madaniyat jamiyatdagi informatsion, moslashuv, kommunikativ, normativ, baholash, integrativ, ijtimoiylashuv va boshqa funksiyalar vositasida tavsiflanadi.

*5. Germenevtik nuqtayi nazar*da madaniyatga ko'plab matnlarga qaralgandek munosabatda bo'linadi. Ular uchun madaniyat - matnlar




majmuyi, aniqrog'i, matnlar majmuyini yaratuvchi mexanizm sanaladi (Yu.M.Lotman). Matnlar - madaniyatning joni va qoni. Bu nuqtayi nazarning kamchiligi matnni bir xil tushunib bo'lmaslikdir.

*6. Me'yoriy nuqtayi nazar*da madaniyatga insonlar hayotini belgilovchi, dasturlovchi me'yorlar va qoidalar yig'indisi sifatida qaraladi (V. N. Sagatovskiy).

*7. Ma'naviy nuqtayi nazar* tarafdorlari madaniyatni jamiyatning ma'naviy hayoti, ma'naviy ijodning g'oyalari va mahsulotlari sifatida izohlashadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti madaniyatdir (L. Kertman). Mazkur nuqtayi nazarning kamchiligi unda madaniyat tushunchasining toraytirilishidir. Bu o'rinda moddiy madaniyatning ham mavjudligini unutmaslik kerak.

*8. Dialogik nuqtayi nazar*da madaniyat - "madaniyat dialogi" (V. Bibler) subyektlarning muloqot qilish shakli sifatida talqin qilinadi. Muayyan xalqlar, millatlar tarafidan yaratilgan etnik va milliy madaniyatlar ajratiladi. Milliy madaniyatlar ham o'z navbatida submadaniyat-

larga, ya'ni ijtimoiy qatlam va guruhlarning madaniyatlariga bo'linadi. Shuningdek, turli xalqlarni birlashtiradigan, masalan, xristianlarning madaniyati singari metamadaniyat ham mavjud. Mazkur madaniyatlarning barchasi bir-biri bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Milliy madaniyat qanchalik ko'p rivojlangan bo'lsa, u boshqa madaniyatlar bilan shunchalik ko'p aloqaga kirishadi.

*9. Informatsion nuqtayi nazar*da madaniyat xabarni yaratish, saqlash, tarqatish va undan foydalanish hamda jamiyat tomonidan qo'llaniladigan belgilar tizimi sifatida tasavvur qilinadi (Yu.M.Lotman). Uni mashina tili, xotira va informatsiyani qayta ishlash dasturi bilan ta'minlangan kompyuterga o'xshatish mumkin. Madaniyatda ham ijtimoiy xotira va inson muomalasining dasturi bo'lgan tillar mavjud. Xullas, madaniyat jamiyatni informatsiya bilan ta'minlash bo'lib, u belgilar tizimi yordamida jamiyatda yig'iladigan ijtimoiy informatsiyadir.

*10. Ramziy nuqtayi nazar* o'zining e'tiborini madaniyatda ramzlarning qo'llanilishiga qaratadi. Madaniyat - "ramziy borliq" (Yu.M.Lotman). Uning ba'zi unsurlari maxsus etnik ma'no kasb etadi, xalqlarning ramziga aylanadi: *non, choy, palov* o'zbeklar uchun; *shchi, kasha, samovar, sarafan* ruslar uchun; *guruchli pirog* koreyslar uchun; *spagetti* italyanlar uchun; *pivo* va *kolbasa* nemislar uchun va h.k.

Madaniyatning yuqorida sanab o'tilgan barcha vazifalari bir-birlari bilan uzviy aloqadorlik va bog'lanishda boladi. Qayd etilgan nuqtayi nazarlarning barchasi ratsional mazmunga ega bo'lib, ularning har biri "madaniyat"ga xos bo'lgan qaysidir xususiyatlarni ifodalagan. Ular bir-birini toldiradi, boyitib boradi va pirovard natijasida ijtimoiy taraqqiyot hamda shaxs kamolotiga xizmat qiladi.

Madaniyatga mehnat faoliyatining usullari, axloq-odob, urf-odatlar, rasm-rusumlar, muloqot xususiyatlari, dunyoni ko'rish, tushunish va yaratish usullari kiradi. Masalan, daraxtda osilib turgan barg tabiatning bir qismi, gerbariydagi barg esa madaniyatning bir qismi; yo'l ustida yotgan toshning o'zi madaniyat emas, biroq u ajdodlarimizning qabrlariga qo'yilganda madaniyatga aylanadi. Shunday qilib, madaniyat muayyan xalqqa xos bo'lgan borliqdagi hayot va faoliyat, shuningdek, insonlar orasidagi o'zaro munosabat (urf-odatlar, rasm-rusumlar, muloqot xususiyatlari) va dunyoni ko'rish, tushunish va yaratish usullaridir.

"Madaniyat" tushunchasini belgilashning qiyinligi uning muhim xususiyatlari bo'lgan murakkabligi va ko'pqirraligidan tashqari, uning qarama-qarshilik (antinomiya) xususiyati bilan ham tavsiflanadi. Madaniyatda antinomiya deganda ikki qarama-qarshilikning birligi, lekin bir xilda yaxshi asoslangan hukm tushuniladi. Masalan, madaniyatda

ishtirok etish shaxsning ijtimoiylashuviga yordam beradi, ayni paytda uning individuallashuviga zamin yaratadi, ya'ni shaxsning noyob qobiliyatlarining ochilishiga va tan olinishiga yordam beradi. So'ngra madaniyat ma'lum darajada jamiyatga bog'liq bo'lmaydi, ammo u jamiyat tashqarisida mavjud emas, u faqat jamiyatda yaratiladi. Umuman olganda, madaniyat kishining fazilatlarini oshiradi, jamiyatga ijobiy ta'sir qiladi. Biroq ayrim hollarda u salbiy ta'sir qilishi ham mumkin. Madaniyat an'analarni saqlash jarayoni sifatida mavjud bo'lishi bilan birga, u yangi shakllarning vujudga kelishi va o'zgarishlar ta'sirida bu an'analarni buzishi ham mumkin[1].

Madaniyat tahlilining murakkablashuviga bu tushunchaga berilgan ta'riflarning turli-tumanligi bilan birga, aksariyat tadqiqotchilarning (madaniyatshunos, antropolog, faylasuf, etnograf va h.k.) unga qayta-qayta murojaat qilishlari, mazkur mohiyat haqidagi qarashlarini o'zgartirishlari ham sabab bo'ladi. Binobarin, yuqorida keltirilgan ta'riflardan tashqari Yu.M.Lotman madaniyatni shunday izohlaydi: "madaniyat - murakkab semiotik tizim, uning funksiyasi - xotira, uning asosiy xususiyati - bilimlarning to'planishi"[2]. "Madaniyat bir paytda yashovchi va muayyan ijtimoiy tashkilotlar bilan bog'langan qandaydir jamoa, guruhlar uchun umumiy bo'lgan bir narsa. Madaniyat kishilar o'rtasidagi muloqot shaklidir"[3].

Madaniyatni turfa qarashlar nuqtayi nazaridan o'rganish har doim farqli natijalarga olib keladi: psixologik faoliyat nuqtayi nazaridan yondashish o'ziga xos natija bersa, sotsiologik nuqtayi nazardan yondashish boshqa bir natijani beradi. Madaniyatning turli qirralarini chegaralash bilangina bu hodisa haqida u yoki bu tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, madaniyatni shunday belgilash mumkin: madaniyat - me'yorlar, qadriyatlar, ideallar, namunalarning yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari tizimiga asoslangan subyektlar faoliyatining barcha shakllari majmuyi, u boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqada yashaydigan jamoaning meros qilib olgan xotirasi. Madaniyat me'yori irsiy meros qilib olinmaydi, balki o'rganish orqali o'zlashtirib boriladi. Shuning uchun milliy madaniyatni egallash katta aqliy va irodaviy kuch talab qiladi.

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. –С. 12-16.

[2] Лотман Ю. М. О двух моделях коммуникации в системе культуры // Semeiotike. - № 6. –Тарту, М.: ОГН, 1971. - С. 228.

[3] Лотман Ю.М. Беседы о русской культуре: Быт и традиции русского дворянства. –СПб.: "Искусство-СПБ", 1994. - 670 с.

### 7. 3. Madaniyat va inson

Madaniyat inson faoliyatidan va jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Aynan insonning faoliyati borliqning yangi to'rtinchi shakli bo'lgan madaniyatni vujudga keltirdi (M. S. Kagan).

Ma'lumki, borliqning uchta shakli: "tabiat - jamiyat - inson" mavjud. Madaniyat - *inson faoliyatlari dunyosi*, ya'ni *artefaktlar dunyosi* (lot. arte - sun'iy va factus - yaratilgan), u insonning jamiyat qonunlariga ko'ra tabiatni o'zgartirishidir. A.Ya.Gurevich va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ushbu sun'iy muhit ba'zan "ikkinchi tabiat", deb nomlanadi.

Taniqli faylasuf M. Xaydeggerning yozishicha: "...insonning faoliyati madaniyat sifatida tushuniladi va uni tashkil etadi. Madaniyat yuksak qadriyatlarni inson qadr-qimmatini madaniylashuv yo'li bilan amalga oshishidir"[1].

Biroq madaniyat *artefaktlarlarning shunchaki yig'indisi*, ya'ni inson qo'li bilan yaratilgan moddiyat bo'lmay, balki inson o'z faoliyatining mahsuliga va faoliyatiga qo'shadigan *fikrlar dunyosidir*. Yangi fikrlarni yaratishning o'zi ma'naviy madaniyat (san'at, din, ilm)dagi faoliyatning fikriga aylanadi. Fikrlar dunyosi cheksiz bo'lib, u inson fikrlari mahsulotlarining dunyosi, inson aqlining saltanatidir. Modomiki, madaniyat inson faoliyatiga bog'liq ekan, uning tuzilishi inson faoliyatining tuzilishi bilan aniqlanishi lozim.

Insoniyat biologik jihatdan bir turga mansub, lekin ijtimoiy jamoa sifatida bir tur bo'lolmaydi. Insonlarning turli hamjamiyatlari o'ziga xos hayot faoliyati usullari va shakllarini ishlab chiqqan, ular bir-biridan farq qiladigan tabiiy va tarixiy sharoitlarda yashaydi. Hamjamiyatlarning o'zaro ta'siri jarayonida mazkur usul va shakllar bir-biridan o'zlashtiriladi. Masalan, balet qayerdan kelgan? Fransiyadan. Yoki teatr qayerdan kelgan? G'arbdan.

Madaniyatlar "umumiy" bo'lmaydi, har qanday madaniyat muayyan hamjamiyat, xalqning ijtimoiy amaliyotidagi o'ziga xos usullarini birlashtiradi. Masalan, o'zbek madaniyati uzoq yillik tarixga ega bo'lishiga qaramay, u O'rta Osiyo madaniyatiga aylanmagan.

Milliy madaniyat boshqa milliy madaniyatlar bilan muloqotga kirishadi va ona madaniyatning e'tiboridan chetda qolgan jihatlar o'rtaga chiqadi. Gap shundaki, aksariyat kishilar o'zlarining dunyoni tushunishlari, hayot tarzlari va yashash yo'llarini to'g'ri deb hisoblashadi. O'zlariga tanish bo'lgan qadriyatlarni hammabop va barcha uchun tushunarli deb o'ylashadi. Qachonki boshqa madaniyat vakillari bilan to'qnashganlarida

---

[1] Хайдеггер М. Время картины мира // Новая технократическая волна на Западе. –М., 1986. –С. 93.

o'zlari to'g'ri, deb hisoblab kelgan qoliplar ish bermaganida muvaffaqiyatsizlik sababi va bu muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etish yo'llari haqida o'ylay boshlashadi.

### 7. 4. Madaniyat va tamaddun

"Sivilizatsiya" (lot. civilis - fuqaro) termini XVII asrda vujudga kelgan. Hozirgi kunda "sivilizatsiya" so'zidan muayyan jamiyat rivojlanishining ma'lum bir taraqqiyotga erishgan davrini ifodalash uchun foydalaniladi.

"Sivilizatsiya" terminini dastlab shotlandiyalik tarixchi va faylasuf A.Fergyusson (1723-1816) o'z asarlarida qo'llagan. Uning fikriga ko'ra, jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichi sivilizatsiyadir.

XVII asrda *madaniyatlilik* (sivilizovannost) so'zi vahshiylik, madaniyatsizlikning ziddi, madaniyatning sinonimi sifatida tushunilgan. XIX asrning oxiriga kelib, nemis ilmiy adabiyotida bu ikki termin farqlana boshlandi. *Madaniyatlilik* deganda, ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida jamiyatning moddiy va ijtimoiy ne'matlar majmuyiga ega bo'lishi tushunila boshlandi. *Madaniyat*ga esa sivilizatsiyaning ma'naviy tarkibi sifatida qaraldi.

Nemis faylasufi O. Shpengler madaniyat haqidagi ta'limotni rivojlantirib, har bir madaniyatning o'limi bo'lgan o'z tamadduni mavjudligini qayd etadi. Tamaddun har qanday ijtimoiy-madaniy dunyo rivojlanishining oxirgi bosqichidir. Madaniyat shaxsning individual betakrorligi va har xilligidan kelib chiqib turli-tumanlik yaratadi, tamaddun esa bir xillashtirishga, standartlashga harakat qiladi. Madaniyat saralangan, tamaddun demokratiyalashgandir. Madaniyat milliy, tamaddun xalqarodir.




Ingliz-amerika an'analarida tamaddun boshqacha tushuniladi. XX asrning taniqli tarixchisi A.Toynbi jamiyatning turli tiplarini, ya'ni har qanday alohida ijtimoiy-madaniy dunyoni tamaddun, deb ataydi.

Zamonaviy amerikalik tadqiqotchi S.Xantington tamaddunni oliy toifadagi kishilar jamoasi sifatida izohlaydi. Olim 8 ta yirik: *g'arbiy, konfutsiylik, yapon, islom, hind, pravoslav-slavyan, lotin-amerika* va *afrika* tamaddunini ko'rsatib o'tadi.

Rus tilida "sivilizatsiya" so'zi fransuz va ingliz tillaridan farqli o'laroq, 1767-1777-yillarda paydo bo'lgan. N. A. Berdayevning fikricha, madaniyat (kultura) ruhga, tamaddun esa faqat metodlar va vositalarga egadir.

M. K. Mamardashvilining qarashicha, *madaniyat* faqat shaxsiy ma'naviy sa'y-harakatlar orqali qo'lga kiritiladi, *tamaddun*dan esa foydalaniladi. Madaniyat yangini yaratadi, tamaddun faqat ma'lum narsani tarqatadi.

Shunday qilib, madaniyatni ikki yo'nalishda rivojlangan deyish mumkin: 1) **insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish - bu yo'nalish tamaddunda rivojlanadi; 2) ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, ya'ni madaniyat ramziy xususiyat kasb etadi.**

Lingvokulturologiya uchun tamaddunga nisbatan madaniyat katta qiziqish uyg'otadi. Binobarin, tamaddun moddiydir, madaniyat esa ramziydir.

### Nazorat uchun savollar

1. "Madaniyat" so'zini izohlang.
2. Badaviylik nima?
3. Madaniylik nima?
4. "Kultura so'zining ma'nosini tushuntiring.
5. Tasviriy nuqtayi nazarda madaniyatga qanday ta'rif beriladi?
6. Faylasuf M. Xaydegger madaniyatga qanday ta'rif bergan?
7. Madaniyat - "artefaktlar dunyosi" deganda nimani tushunasiz?
8. Borliqning "to'rtinchi shakli" nima?
9. "Madaniyatlilik" va "madaniyat" tushunchalarini izohlang.
10. S. Xantington qaysi yirik tamaddunlarni ko'rsatib o'tgan?
11. Ingliz-amerika an'analarida tamaddun qanday tushuniladi?
12. Madaniyat va tamaddunning farqlarini ko'rsating.

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Madaniyatni tushunish va aniqlashdagi nuqtayi nazarlar haqida yozma ish yozish.
2. Milliy madaniyat va uning turlarini belgilash.

## Adabiyotlar


1. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. -5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.

2. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. -Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. -196 b.

3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. -Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

4. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. -Toshkent: TDShI, 2017. -160 b.

5. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. -Тошкент: "Sano-standart", 2016. -520 б.

6. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. -М.: Флинта, Наука, 2010. -224 с.

7. Леонтьев А.Н. Человек и культура. -М.: МГУ, 1961. -115 с.

8. Лихачёв Д.С. Культура как целостная динамическая система // Вестник РАН. 1994. № 8. -С. 721-725.

9. Лотман Ю. М. О двух моделях коммуникации в системе культуры // Semeiotike. - № 6. -Тарту, М.: ОГИ, 1971. -536 с.

10. Лотман Ю.М. Беседы о русской культуре: Быт и традиции русского дворянства. -СПб.: "Искусство-СПБ", 1994. -670 с.

11. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

12. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб.../ Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.

13. Форобий А. Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. -222 б .

14. Хайдеггер М. Время картины мира // Новая технократическая волна на Западе. -М., 1986. -С. 93-119.

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. -672 б.

## 8-MA'RUZA
## MADANIYATLAR TIPOLOGIYASI

**Reja:**

1. Edvard Hall tipologiyasi
2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi
3. Girt Xofstede tipologiyasi

**Tayanch so'z va iboralar:** madaniyatlar tipologiyasi, madaniyatlar o'lchovi, monoxron model, polixron model, hokimiyat masofasi, individualizm, kollektivizm, erkaklik asosi, ayollik asosi, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatli yo'nalish.

### 8. 1. Edvard Hall tipologiyasi

Madaniyatlar tipologiyasining bir qancha o'lchovlari mavjud. Mazkur o'lchovlardan biri turli madaniyatlarning vaqtga bo'lgan munosabati hisoblanadi. E. Hall ushbu o'lchov asosida ikki madaniyat turini ajratishni taklif qilgan. Uning fikricha, barcha madaniyatlar o'z vaqtini ikki: *monoxron* va *polixron* modellarga ko'ra taqsimlaydi[1].

**Monoxron model**da vaqt inson uchun kesimlarga ajralgan yo'l sifatida obrazli gavdalanadi. Vaqtning bunday qismlarga bo'lininshi tufayli ushbu madaniyatdagi inson vaqtni muayyan darjada boshqarish mumkin deb o'ylaydi: u faqat bir ish bilan shug'ullanadi, shuningdek, vaqtni ish uchun va hissiy aloqalar uchun taqsimlaydi. Monoxron madaniyatlarda 10-15 daqiqaga kech qolish mumkin, biroq bunday holatlarda kechirim so'rash kerak bo'ladi.

AQShning aksariyat universitetlarida ish tartibi vaqtning monoxron o'lchoviga asoslanadi. Darslar, uchrashuvlar, yig'ilishlar qat'iy jadval asosida o'tkaziladi. Professor-o'qituvchilar har bir talabani belgilangan vaqtda qabul qiladi, majlislar o'z vaqtida o'tkaziladi, har qanday favqulodda holatlarda ham belgilangan uchrashuv qoldirilmaydi. Oilaviy va shaxsiy muammolar universitetdagi o'quv jarayonini oqsatishga sabab bo'lolmaydi[2].

**Polixron model**da qat'iy jadval bo'lmaydi, bir vaqtning o'zida bir qancha hodisalar yuz berishi va inson bir paytda bir qancha ish bilan shug'ullanishi mumkin. Bu yerda vaqt chatishgan chiziq ko'rinishida tushuniladi. Mazkur madaniyat vakillari uchun vaqt "moddiylik"dan

---

[1] Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
[2] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 278.

kamroq hisoblanadi, shuning uchun vaqtni behudaga sarflash tushunchasi ular uchun begonadir. Tilda vaqt tushunchasini ifodalaydigan bironta ham so'z bo'lmagan madaniyatlarda (masalan, Shimoliy Amerikaning ayrim hindu qabilalarida) 40-60 daqiqaga kechikish va buning uchun kechirim so'ramaslik me'yoriy hol hisoblanadi[1].

Agar monoxron madaniyatda vaqt har doim tejalsa va "vaqt - bu pul" hisoblansa, polixron madaniyatda bunga ehtiyoj yo'q, vaqtdan to'g'ri foydalanish haqida "gap bo'lishi mumkin emas". Polixron madaniyatga rus, Lotin Amerika, fransuz, koreys, o'zbek, turk madaniyatlari, monoxron madaniyatga esa nemis, Shimoliy Amerika, yapon madaniyatlari misol bo'la oladi.

Xalqaro biznes uchrashuvlari va texnik yordam loyihalari vaqt o'lchovidagi farqlar tufayli barbod bo'lgan holatlar juda ko'p uchraydi. Masalan, AQSh ishbilarmonlari ko'pincha O'rta Sharq mamlakatlaridagi uchrashuvlarning o'z vaqtida boshlanmasligidan, kishilarning uchrashuv chog'ida qapga tushib ketishlaridan, shuningdek, shaxsiy majburiyatlar tufayli uchrashuvlarning bekor qilinishidan shikoyat qilishadi. Ko'pincha vazifalar va shaxsiy munosabatlar ajratilmasdan, birga amalga oshiriladi.

AQShdagi chet ellik talabalar va ishbilarmonlar amerikaliklarning jadvallarga bog'lanib qolganliklari, ular kishilar o'rtasidagi munosabatlar bilan yetarli darajada qiziqmasliklarini qayd etishadi. Amerikaliklarning o'z xizmat vazifalarini bajarish va uchrashuvlarni vaqtida o'tkazish uchun do'stlari va oilalarini "qurbon qilishlari"ni ta'kidlashadi[2].

Kommunikatsiya ishtirokchisining vaqtga bo'lgan munosabatini tushunishda uning hayot sur'atini bilish katta ahamiyat egadir. Jumladan, megapolis shaharlarining vaqt bilan bog'liq muhiti ularning monoxron madaniyatini namoyon qiladi. Bu o'rinda Nyu-York shahrining vaqtga bog'liq muhiti e'tiborga molikdir. Nyu-York shahridagi hayot sur'ati haqida o'z taassurotini koreyalik talaba quyidagicha ifodalaydi:

---

[1] Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык. 2009. –С. 76.

[2] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 278.

*"Nyu-Yorklik bo'lish – bu yapon, xitoy yoki koreys bo'lish emas. Bu xarakterni o'zgartirish degani. Har bir nyu-yorlikning harakatida qandaydir maqsad bordek tuyuladi. Shuningdek, bu sharqiy qishloqlardagi osiyoliklarning ko'pincha tanballik bilan u yoqdan bu yoqqa yurishiga o'xshaydi. Biroq bu yerdagi odamlarning hatto gaplashishga yoki birovga qarashga ham vaqti yo'q. Nyu-Yorliklar orasida bo'lish – hayotga ilgari bo'lmagan yangicha, ishning ko'zini biladigan odamdek qarashni shakllantiradi. Hatto spektaklga ketayotgan odam ham bunga keragicha tayyorlanadi va ishbilarmon odamdek ko'rinadi. Uning har bir harakati dadil, qat'iy va o'ylangan bo'ladi. U nima xohlashini aniq bilishi lozim. Uning maqsadi barcha narsaning vaqti matematik aniqlik asosida belgilangan markaziy temiryo'l bekatiga o'xshaydi".*

Turli madaniyatlarda kechikish ko'lami vaqtga munosabat mezoni bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Afrika qishloqlaridagi umumiy majlis barcha aholi yig'ilgandan keyin boshlanadi. Agarda siz AQShda muhim uchrashuvga kech qolsangiz, bu ishga qiziqmaslik va hamkorga nisbatan hurmatsizlik sifatida baholanadi. Lotin Amerikada esa deyarli bir soatga kechikish ham odatiy hol hisoblanadi. Shunga ko'ra AQSh bilan Lotin Amerika ishbilarmonlarining uchrashuvi boshqa madaniyatning vaqtdan foydalanish xususiyatlarini bilmasliklari tufayli mufavvaqiyatsiz yakunlanishi mumkin.

Madaniyatlar o'tmishga, hozirgi kunga va kelajakka "yo'nalishi"ga ko'ra ham farqlanadi. Birinchi guruhga an'analarga katta ahamiyat beradigan madaniyatlar kiradi va ular ko'pincha "konservativ" madaniyatlar sifatida tasvirlanadi. Bunday madaniyatlarga ingliz, rus, xitoy, yapon va fransuz madaniyatlarini misol qilib keltirish mumkin[1]. Mazkur guruhga koreys va o'zbek madaniyatini ham kiritish mumkin. Hozirgi kunga yo'nalgan madaniyat vakillari bugungi kun bilan yashashadi. Ular ta'sirchan bo'lib, qarorlarni "shu yerda, hozirning o'zida" qabul qilishadi. Ushbu madaniyatlarga Lotin Amerika mamlakatlari, filippinliklar, irlandiyaliklar kiradi. Bu guruhga turklarni ham daxl qilsa bo'ladi. Shimoliy amerikaliklar, aksincha, kelajakka yo'nalgan madaniyatlar sirasiga

[1] Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 76.

kiradi. Bunday madaniyatlarda rejalashtirishga, kelajak uchun jamg'arishga katta e'tibor qaratiladi.

### 8. 2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi

Madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta'minlashda yetarli darjadagi madaniy savodxonlikka, ya'ni mazkur madaniyat uchun xarakterli bo'lgan asosiy bilimlar, qadriyatlar majmuyi, psixologik va ijtimoiy tenglikka ega bo'lish lozim.

Amerikalik madaniyatshunos olim Erik Donald Xirshning madaniy savodxonlik nazariyasining asosiy maqsadi ingliz tili sohiblarining boshqa til va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishlari uchun ularda kerakli bilim va malakalarni shakllantirish hisoblanadi[1]. E. Xirshga ko'ra, tilni mukammal egallash uchun milliy madaniyatga mos keladigan turli madaniy ramzlar haqida chuqur bilimga ega bo'lish lozim. Bunday bilim ma'lum lingvomadaniy hamjamiyatning lisoniy ma'nolari, muloqotining o'ziga xos xususiyatlari, matnlarining mazmuni hamda diskursining o'ziga xos jihatlarini nazarda tutadi. Boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun har bir kishi suhbatdoshi haqida muayyan madaniy bilimlarga ega bo'lishi lozim.

E. Xirsh madaniy savodxonlikni "jamoaviy hamkorlik ruhi"ni yaratish hodisasi sifatida talqin qiladi. Binobarin, madaniyat vakili muayyan gazetani olib, uning matni va ma'nosini to'g'ri tushungan holda o'qishi lozim. Uning fikricha, madaniy savodxonlik "bizni dunyoni bilish hamda muluqotning standart vositasiga egalik qilishimizga va shu tariqa zamon va makonga ko'ra yozma va og'zaki murakkab axborotlarni qabul qilish va uzatishimizga imkon beradi". Biroq madaniy savodxonlik faqat madaniy o'ziga xos axborotgina bo'lib qolmay, balki borliq haqidagi yaxlit axborot hamdir. Madaniy savodxonlik - joriy madaniy axborotni doimiy to'ldirib borishni talab qiladigan madaniyatlararo qobiliyatning dinamik komponentidir.

Qobiliyat muloqotdan tashqarida bo'lmaydi. Aynan aniq kommunikativ vaziyatlarda lisoniy daraja va qobiliyatning boshqa turlari oydinlashadi. Muloqot ishtirokchisi o'zining qobiliyatsizligini muloqotning u uchun yopiq bo'lgan sohalarida anglab yetmaydi. Madaniyatlararo muloqotda qobiliyatning har xil turlari (lisoniy, madaniy, kommunikativ) birlashadi. E. Xirsh aniq muloqot vaziyatlaridagi u yoki bu qobiliyat turining roliga ko'ra quyidagi madaniyatlararo qobiliyatlar darajasini ajratadi:

---

[1] Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. –Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.

- yashash uchun zarur bo'lgan qobiliyat;
- begona madaniyatga kirish uchun yetarli bo'lgan qobiliyat;
- yangi madaniyatda yashashni ta'minlay oladigan qobiliyat;
- lisoniy shaxs tengligini to'liq amalga oshiradigan qobiliyat.

Madaniyatlararo anglashish va samarali o'zaro aloqa uchun qobiliyatning lisoniy, kommunikativ va madaniy darajalari orasida mutanosiblik bo'lishi lozim. Nomutanosiblik holatida tushunmovchilik ehtimoli yuqori bo'ladi, binobarin, til biladigan kishidan shunga mos darajadagi madaniy savodxonlik kutiladi va unga yetarli ko'lamdagi madaniy axborotlar egasi sifatida murojaat qilinadi.

### 8. 3. Girt Xofstede tipologiyasi

Gollandiyalik olim va IBM kompaniyasining xodimi Girt Xofstede madaniyatlarning boshqa, anchayin murakkab tipologiyasini taklif qiladi. U har qanday madaniyatni tavsiflaydigan beshta asosiy o'lchovni ajratadi: *hokimiyat masofasi, individualizm va kollektivizm nisbati, erkaklik va ayollik nisbati, noaniqlikdan qochish, uzoq muddatga qaratilgan yo'nalish*[1].

**Hokimiyat masofasi.** Hokimiyat masofa darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ierarxiya (pog'ona) me'yoriy hodisa hisoblanadi. Jamiyatning har bir a'zosi jamiyatda, oilada va kasbiy faoliyatda ma'lum mavqega ega bo'ladi. Hokimiyat masofa darajasi past bo'lgan mamlakatlar sifatida Angliya, AQSh va Skandinaviya davlatlarini ko'rsatish mumkin. Yaponiya, Koreya, jumladan, O'zbekiston ham xizmat ierarxiyasi va katta yoshlilarning obro'si yuqori ko'rsatkich hisoblanadigan davlatlar qatoriga kiradi. Shuningdek, G'arbda har qanday muhim qarorlarni qabul qilishda ayollar erkaklardek hal qiluvchi ovozga ega bo'lsa, Sharqda oxirgi so'z erkak kishi tomonidan aytiladi.

**Individualizm va kollektivizm nisbati.** G. Xofstedega ko'ra, individualizm shaxslararo munosabatlar yetarli darajada erkin bo'lgan madaniyatlarda namoyon bo'ladi. Odamlar, asosan, faqat o'zlari va yaqin kishilari haqida qayg'urishadi. Individualizm darajasi yuqori bo'lgan madaniyatlarning vakillari muayyan vazifalarni afzal deb bilishadi, ularning hayotida "Men" kishilik olmoshi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunga AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va h.k. davlatlarning madaniyatlari misol bo'la oladi.

---

[1] Hofstede G. Culture's consequences. Beverly Hills, CA: Sage, 1984; Hofstede G. Masculinity and femininity: The taboo dimension of national cultures. Thousand Oaks, CA: Sage, 1998; Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). –Boston: McGraw-Hill, 2004.

Kollektivizm (jamoaviylik) ustuvor bo'lgan madaniyatlarda atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish muhim sanaladi. Mazkur madaniyat vakillari ko'pincha "Biz", deb fikr qilishadi. Bunday holatlarda individni himoya qiladigan guruh (urug'-aymoq, hamkasblar jamoasi) va uning qadriyatlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu turga Sharq madaniyati va Lotin Amerikasi kiradi[1].

Y.M.Dyakonovaning yozishicha, Yaponiyadagi "individum-guruh" munosabatlari, aksariyat tadqiqotchilar qayd qilganidek, g'arbnikidan farq qiladi. Yapon uchun guruhning qarashlari, qiziqishlari nihoyatda muhim, u "hammadek bo'lishga" intiladi. Guruh yaponlarning xulqiga va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaponlar "guruh" tushunchasini ko'pincha keng ma'noda talqin qilishadi: guruh - oila, kollej, firma, mamlakat bo'lishi mumkin[2].

Yaponiyada inson hayoti tashkilot bilan bog'liq bo'ladi. Yapon kishisi uchun ishxona madaniy va ijtimoiy hayotning markazi hisoblanadi. Barcha xodimlar bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishadi, hatto ta'til vaqtida ham dam olish uylariga birga borishadi. Shaxsiy hayotdagi hodisalar, jumladan, to'y, ajralish va h.k. ham jamoaning g'amxo'rligi doirasiga kiradi. Shuningdek, kollektivizm yapon oilasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Binobarin, oila a'zolari bir-birini ismi bilan emas, balki qarindoshlik terminlari bilan chaqiradi (masalan, kelin). Oilada ota vafot etganda, uning o'rnini o'g'li oladi va barcha oila a'zolari, hatto onasi ham uni ota deb chaqiradi[3].

Jamoaviylik, ayniqsa, o'zbek madaniyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Prof. M.Bekmurodov o'zbek jamoaviyligi haqida shunday yozadi: "Jamoaviylik o'zbek mentalitetida kasb-korga, iqtisodiy omillarga bog'liqlikdan ham ko'ra, etnik va ruhiy-ma'naviy omillarga ko'proq bog'liqlik bilan izohlanadi"[4].

"Boshqalar manfaati uchun o'z manfaatidan kechish" o'zbek jamoaviyligining eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu o'rinda yozuvchi O'tkir Hoshimovning amerikalik yirik noshir bilan bo'lgan quyidagi suhbatini keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

***"Amerikada chiqadigan yirik gazetaning rahbari bilan hamsuhbat bo'lib qoldik. U o'zbeklar nima uchun mahallani bunchalik hurmat***

---

[1] Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 78.

[2] Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. –М., 1985. –С. 97, 99.

[3] Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 79.

[4] Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // "Hurriyat" gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.

*qilishini, nega mahalla to'g'risida maxsus qonun qabul qilinganini so'radi. Mahalla degani qanday institut ekanini tushuntirib berishimni iltimos qildi.*

*- Men sizga mahallani tushuntirishga ojizman, janob, - dedim rostini aytib. - Uzr-ku, siz uni baribir tushunmaysiz... Buning uchun siz ham, men ham aybdor emasmiz... Hamma gap hayot tarzining qanday shakllanganida.*

*Tasavvur qiling. Sizlarda farzand voyaga yetishi bilan ota o'g'liga atalgan ulush - kapitalni beradi. Shu kundan boshlab yigitcha mustaqil hayotga qadam qo'yadi va o'z kunini o'zi ko'radi. O'g'il bir oydan keyin burnini tortib kelsa, otasi uni haydab yuboradi... Bizda esa, ota-ona bolani voyaga yetkazadi. Uylantiradi. Uyli-joyli qiladi. Bu ham yetmagandek, nevaralariniyam ortmoqlab yuradi. Xullas, bolam-chaqam deb umri o'tganini bilmay qoladi.*

*Sizlarda o'n olti yashar bola otasi bilan ellik dollar talashib, sudga murojaat etsayu, g'olib chiqib, otasini ming dollar jarima to'lashga majbur qilsa, bu - demokratiya tantanasi sanaladi. Bizlarda shunday hodisa ro'y bersa, bunaqa bolani «oqpadar» deydilar va bir umr la'natlaydilar.*

*Sizlarda Los-Anjelesda yashaydigan ota vafot etib qolsayu, Vashingtonda turadigan o'g'il vazirlikdagi yumushlari ko'pligi uchun dafn marosimiga borolmasa, uni birov malomat qilmaydi. Bizda Surxondaryo-ning olis qishlog'ida yashaydigan ota vafot etib qolsayu, Toshkentda turadigan o'g'il vazirlikda ishi ko'payib ketgani uchun otasini so'ngi manzilga o'z yelkasida ko'tarib bormasa, bunaqa vazirdan hamma yuz o'giradi.*

*Sizlarda, masalan, bir qiz begona erkak bilan... nima desam ekan... noqulayroq vaziyatda turgan bo'lsayu, uni yon qo'shnisi ko'rib qolib, qizning otasiga xabar qilsa, ota uni sudga berishi mumkin: qizining shaxsiy hayotiga aralashgani uchun. Bizda, mabodo shunday holat ro'y berib qolsa, qo'shni qizga qattiq tanbeh berishi, qo'lidan yetaklab otasining oldiga olib borishi mumkin. Qizning otasi unga minnatdorlik bildiradi: qizning or-nomusini himoya qilgani uchun.*

*Sizlarda bir qo'shni ikkinchisidan «Kecha uyingizga qanday mehmon keldi?» deb so'rasa, narigi qo'shni ranjishi mumkin. Birovning uyiga kelgan mehmon bilan birovning nima ishi bor? Bizda birovnikiga mehmon kelsa, yon qo'shnisi darrov xabar oladi. Iloji bo'lsa, mehmonni o'zinikiga taklif qilib, oldiga dasturxon yozadi.*

*Sizlarda, deylik, o'n yil turmush kechirgan oilaning bekasi kunlarning birida eriga «Azizim, men boshqa birovni sevib qoldim, kel, orani ochiq qilaylik, bolalarni xohlagan paytingda ko'rib turasan yoki «Mehribonlik*

*uyi»ga topshirsak ham bo'ladi», desayu, er jahl ustida qo'l ko'targudek bo'lsa, xotin o'sha zahoti advokatini chaqirib, erini sudga beradi. Mabodo, erkakning ko'ngli oilasidan sovigan bo'lsa, amalda uni ham ayoli bilan yashashga majbur qilish mumkin emas. Bu - inson erkini himoya qilish hisoblanadi.*

*Bizda ayol kishi nobop eridan bezor bo'lsa, advokat chaqirmaydi, sudga bormaydi, mahallaga chiqadi. Mahalladagilar ayol huquqini kamsitmaydi, «Qamatib yubor, bunday battolni», demaydi ham. Ayolga jinday sabr qilishni, ikki go'dakning ko'zyoshini oqizmaslikni maslahat beradi. Erkakni chaqirib olib, ayolini tag'in xafa qilsa, begunoh bolalarni «tirik yetim» qilsa, uni mahalladan badarg'a qilib yuborishgacha chora ko'rishini tushuntirib qo'yadi. Sizlarda bu - inson huquqini poymol qilish, ayolga «feodallarcha munosabat» deb baholanishi mumkin. Bizda esa buning oti - oilani saqlab qolish, norasida bolalar manfaatini himoya qilish deb ataladi. (Harqalay o'ttiz yashar erkak yoki ayol huquqini himoya qilgandan ko'ra yetti yoki besh yashar bola huquqini himoyalash afzalroq deb sanaladi).*

*Bilmadim, balki sizdagi odatlar yaxshiroqdir. Balki bizdagisi ma'quldir. Buyuk o'zbek olimi Beruniy bundan ming yil avval yaratgan «Hindiston» kitobida «Biron xalqning u yoki bu udumiga baho berishda «Bunisi menga yoqadi, unisi esa yoqmaydi», deyishga hech kimning haqi yo'q, negaki har bir xalq an'analari yillar mobaynida shakllangan va o'sha xalqning hayot tarziga aylangan», deb yozgani bejiz emas. Sizlarda individualizm - shaxs manfaati kuchli. Bizda kollektivizm - jamoaviylik, boshqalar manfaati uchun o'z manfaatidan kechishdan og'rinmaslik udumi qadimdan bor...*

*Bilib turibman, janob, mahalla degani nimaligini baribir tushuntirib berolmadim. Ammo bor gap shu...".*

**Erkaklik va ayollik nisbati.** Ushbu tavsifda gap shunchaki erkak yoki ayol haqida emas, balki an'anaviy erkaklik yoki ayollik nisbati asosida tushuniladigan ustuvor qadriyatlar haqida boradi. Erkaklik nisbati yuqori bo'lgan jamiyatda erishilgan yutuq, muvaffaqiyat va e'tirof ustuvor qadriyatlar hisoblanadi. Bunday madaniyatlarda shaxsning ijtimoiy maqomida aks etadigan kasbiy yutuqlari alohida ahamiyat kasib etadi. Bu yerda jinslarning roli qat'iy belgilangan bo'ladi. Ayollik nisbati yuqori bo'lgan jamiyatda yaqinlar haqida g'amxo'rlik qilish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va yashash sifati ustuvor qadriyatlar hisoblanadi. Ushbu madaniyatlarda yashash sifati maqomdan muhim sanaladi va bu yerda ko'pincha muvaffaqiyatsiz kishilarga xayrxohlik bildiriladi.

**Noaniqlikdan qochish.** Noaniqlikdan qochish darajasi yuqori bo'lgan madaniyat vakillari o'z hayotlarini qurish uchun juda ko'p qoida va rasmiyatchilik kerak, deb hisoblashadi. Odatda bunday mamlakatlardagi kishilar ko'pincha o'zlarining tashvishlari va hissiyotlarini ko'rsatishadi. Ular hayotning barcha sohalaridagi ekspertlarga ishonishadi, to'qnashuv va raqobatdan qochishadi. G'arbiy davlatlar orasida Gretsiya va Portugaliya mazkur toifaning eng yuqori ko'rsatkichlariga ega, Sharqiy Yevropa davlatlari ham bu o'lchovlarning boshida keladi. Noaniqlikdan qochish darajasi past bo'lgan jamiyatlarda qonun va qoidalar ko'lami yetarlicha qisqargan bo'ladi. Kishilar raqobat va muqarrar to'qnashuvlardan qochishmaydi. Bunday jamiyatlarga Angliya va Amerikaning ingliz-sakson madaniyatini hamda Skandinaviya mamlakatlarini misol qilib keltirish mumkin.

**Uzoq muddatga qaratilgan yo'nalish.** Mazkur o'lchov jamiyatning an'anaviy-tarixiy yoki qisqa muddatli bahosiga emas, balki uning kelajakdagi amaliy istiqbol darajasini belgilaydi. Uzoq muddatga yo'nalgan madaniyatlarda kishilarning ruhiy xotirjamligi tabiat va ma'naviyat bilan uyg'unlikka erishishga qaratiladi. Uzoq muddatga qaratilgan yo'nalishlardan biri an'analarga bo'lgan hurmatdir. Bunday madaniyatlarga Osiyo mamlakatlari, xususan, Janubiy Koreya misol bo'la oladi[1].

Umuman, madaniyatning har qanday tasnifi, u qanday o'lchovga asoslanmasin, avvalo, inson fe'l-atvorining o'ziga xos xususiyatini uning muayyan madaniyat vakili sifatida aniqlashga yordam beradi. Binobarin, madaniy xususiyatlar insonning kommunikativ fe'l-atvorida o'z aksini topadi.

### Nazorat uchun savollar

1. E. Hall madaniyatlarning monoxron va polixron modellarini qaysi o'lchovga ko'ra ajratadi?
2. E. Xirshning madaniy savodxonlik nazariyasining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. Madaniyatlarning monoxron va polixron modellarini tushuntiring.
4. Hokimiyatning masofa darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda qaysi hodisa me'yoriy hisoblanadi?
5. Qaysi mamlakatlarda hokimiyatning masofa darajasi past bo'ladi?
6. Individualizm qanday madaniyatlarda namoyon bo'ladi?
7. Kollektivizm ustuvor bo'lgan madaniyatlar uchun mima muhim sanaladi?

---

[1] Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. –М.: Русский язык, 2009. –С. 80-81.

8. Erkaklik nisbati yuqori bo'lgan jamiyatda nimalar ustuvor qadriyatlar hisoblanadi?

9. Ayollik nisbati yuqori bo'lgan jamiyatda nimalar ustuvor qadriyatlar hisoblanadi?

10. Qaysi madaniyat vakillari qoida va rasmiyatchilikni kerak, deb hisoblashadi?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. "Individualizm va jamoaviylik" mavzusida referat yozish.
2. "Madaniyatlar tipologiyasi" mavzusida taqdimot tayyorlash.

**Adabiyotlar**


1. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // "Hurriyat" gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.
2. Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.
3. Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. -Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.
4. Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). -Boston: McGraw-Hill, 2004.
5. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
6. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. -Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
7. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. -Toshkent: TDShI, 2017. -160 b.
8. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. -М.: Русский язык, 2009. -141 с.
9. Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. -М., 1985.

## 9-MA'RUZA
## TIL VA MADANIYATNING O'ZARO ALOQASI

**Reja:**
1. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi
2. Olamning lisoniy manzarasi
3. "Geshtalt" tushunchasi

**Tayanch so'z va iboralar:** til, madaniyat, jamiyat, milliy ruh, moddiy va ma'naviy madaniyat, madaniyatning milliyligi, tilning ichki shakli, kumulyativlik, ommaviy adresat, semiotik tizim, milliy mentallik, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi, olamning antroposentrik manzarasi, lisoniy shaxs, insonning olamga munosabati, lisoniy geshtalt.

### 9. 1. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi

Til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ko'p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko'plab tovushlar almashinuvi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir. Binobarin, inson faqat unlilar yoki undoshlarning o'zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Tabiat til strukturasining teran xususiyatlarini hamda matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonuniyatlarini aniqlaydi. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydi [1].

Insonning nutqiy faoliyati tug'mami yoki keyin shakllanganmi? degan savol haligacha munozarali bo'lib qolmoqda. Insonning nutq imkoniyatini psixofiziologik mexanizm bilan ta'minlaydigan tug'ma lisoniy qobiliyatga egaligini barcha e'tirof etgan. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, bu inson miya qobiliyatining dastlabki ontogenez yillaridagi birinchidan, muayyan til belgilari tizimini, ikkinchidan, matn tuzishda kerakli belgilarni tanlash qoidalarini o'zlashtirishini ifodalaydi. Lisoniy qobiliyatni amalga oshirish atrofdagi muayyan til egalari bilan muloqot qilish jarayonida yuz beradi. N. Xomskiyning ta'limotiga ko'ra, lisoniy qobiliyatning tug'ma komponenti juda sermazmun bo'ladi, shuning uchun

[1] Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. –М.: Аспект Пресс, 2000. –207 с.

ontogenezda til o'rganish "noldan" boshlanmaydi. Lisoniy qobiliyat ayrim tug'ma va universal bilimlarni o'z ichiga oladi, inson ular yordamida jumlalar hosil qiladi va tushunadi. Shunday qilib, N.Xomskiy til strukturasi va semantikaning botiniy xususiyatlarini tabiiy-genetik asosga tutashtiradi[1].

"Til va madaniyat" masalasi ko'p qirrali bo'lib, unga madaniyat tarixchisi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Biroq masalaning tilshunoslikka oid tomoni ikki jihatlidir, chunki til va madaniyat o'zaro munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, ikkita savol tug'iladi: 1) turli madaniy jarayonlar tilga qanday ta'sir ko'rsatadi? 2) madaniyatga til qanday ta'sir qiladi?

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi"[2] degan tezisi tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda.

I.Gerderning 1770-yilda yozilgan "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asarida inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'lagan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi[3].

Til va madaniyatning o'zaro munosabati V. fon Gumboldtning ta'limotida (1985) batafsil yoritilgan: 1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashadi:

2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda dunyoni o'ziga xos ko'rish vositasi bilan ifodalanadi:




[1] Chomsky Noam. Aspects of the Theory of Syntax. –Cambridge, MA: MIT Press, 1969. 261 p.
[2] Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. –М.: Учпедгиз, 1959. –С. 211.
[3] Гердер И. Г. Идеи и философия истории человечества. –М.: Наука, 1977. –С. 233.




3) tilga har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan ichki shakl xosdir, tilning ichki shakli - "xalq ruhi" va uning madaniyatining ifodasi:




4) til inson va uning o'rab olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi:



V. fon Gumboldtning qarashlari A.A. Potebnyaning "Tafakkur va til", Sh. Balli, J. Vandriyez, I. A. Boduen de Kurtene, R.O.Yakobson va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida o'ziga xos talqin qilingan.

Tilshunoslarning hech biri "til va madaniyat" masalalari bilan amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos Edvard Sepirchalik (1884-1939) ko'p va samarali shug'ullanmagan deyish mumkin [1]. E.Sepirning "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha tanlangan asarlari" ("Избранные труды по языкознанию и культурологии" M., 1993)da "til va madaniyat" masalalariga doir qator savollar quyidagicha yoritilgan.

*Madaniyat nima?* E.Sepirning fikricha, madaniyat - turmush tarzimizni tavsiflovchi, ijtimoiy meros qilib olingan amaliy malakalar va g'oyalar majmuyi (185-bet):




E.Sepirning boshqa bir talqiniga ko'ra, madaniyat - jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan qadriyatlarning tanlab olinishi (193-bet). Madaniyat xatti-harakatlar bilan qiyoslanadi (207-bet):




[1] Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company. 1921. 258 p.

*Til oldin paydo bo'lganmi yoki madaniyat?* E.Sepir til madaniyatdan oldin paydo bo'lgan, chunki til madaniyatga nisbatan ma'no ifodalovchi vosita sanaladi, deb hisoblagan (42-bet). Til milliy madaniyat mavjudligi va uning ifodalanishining asosiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Biroq E.Sepirga ko'ra, til ijtimoiy va madaniy rivojlanish mahsulidir. Til madaniyatning ijtimoiylashgan qismidir (265-bet).

*Til va madaniyatning mushtarakligi nimada?* Birinchidan, nutq ham madaniyat ham konseptual tanlab olishni talab qiladi (60-bet). Ikkinchidan, tillar ham, madaniyatlar ham kamdan kam holatlarda o'z-o'zicha yetarli bo'ladi (173-bet). Bu ikki hodisaning farqini E.Sepir shunday izohlagan: "Jamiyatning **nima** qilishi va **nimani** o'ylashiga qarab madaniyatni, **qanday** o'ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin" (193-bet):




*Til va madaniyat qanday o'zaro ta'sir qiladi?* Til madaniyatga nisbatan madaniyatni to'plash va uni meros qilish kumulyativ (lot. cumulatio - to'plash, yig'ish, jamg'arish) xususiyatiga ega bo'ladi:




Chunonchi, kumulyativlik ham oddiy, ham rivojlangan tillar va madaniyatlarning xususiyatidir (233-bet). E.Sepirning fikricha, madaniyatni saqlanib qolishining asosiy shakllaridan biri "maqollar, standartlashgan duolar, qarg'ishlar, xalq rivoyatlari, nasl-nasab shajarasi" hisoblanadi. Tildagi farqliliklar madaniyat farqliliklarini ko'rsatadi (245-bet)[1].

Til va madaniyat 1) kommunikativ jarayonlarda; 2) ontogenez (inson lisoniy qobiliyatlarining shakllanishi)da; 3) filogenez (insonning irsiy va ijtimoiy shakllanishi)da o'zaro aloqada bo'ladi:




[1] Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. –М.: Прогресс, 1993. -656 с.

Ushbu ikki mohiyat 1) tilda ommaviy adresat (so'zlovchi murojaat qilgan kishi)ni belgilash hodisasi, madaniyatda saralanganlik qadrlanadi; 2) madaniyat (tilga o'xshash) belgilar tizimi bo'lsa-da, u o'zicha tashkil bo'la olmaydi; 3) til va madaniyat turli semiotik tizimlardir[1].

"Til va madaniyat" masalasi favqulodda murakkab va ko'p qirrali bo'lgani uchun mazkur masalaga turlicha yondashiladi:

Birinchi yondashuv rus faylasuflari S.A.Atanovskiy, G. A. Brutyan, Ye. I. Kukushkin, E. S. Markaryanlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni quyidagicha: til va madaniyatning o'zaro aloqasi bir tomonga bo'lgan harakatdir; til borliqni aks ettiradi, madaniyat esa bu borliqning ajralmas qismidir, til madaniyatning in'ikosidir.

Ikkinchi yondashuv E. Sepir va B.Uorf maktabining qarashlarida o'z aksini topgan. Mazkur gipotezaning asosida insonlar olamni o'z ona tillari vositasida turlicha ko'rishadi. Tilda aks ettirilgan olamgina mavjud. Modomiki, har bir til borliqni o'ziga xos usullar bilan aks ettirar ekan, unda tillar bir-biridan o'zining "olamning lisoniy manzarasi"ga ko'ra farqlanadi. E.Sepir va B.Uorfning gipotezasida quyidagi asosiy masalalar ajratiladi:

1. Til unda so'zlashuvchi xalqning tafakkur usuli bilan bog'liqdir.

2. Olamni bilish usuli subyektlarning qanday tillarda fikrlashiga bog'liqdir[2].

Uchinchi yondashuvga ko'ra, til madaniyatning dalilidir: 1) til - biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi; 2) til - madaniyatni o'zlashtirishning asosiy vositasi; 3) til - barcha madaniy hodisalarning eng muhimi.

Til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasi, ruhimizning borlig'i, madaniyatimizning ko'rinishi ekanligi haqida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni qayd etganlar: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur"[3].

Shuningdek, I.A.Karimov jamiyatimizda til madaniyatini oshirish

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.60.

[2] Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. –Вып.1. –М.: Издательство иностранной литературы, 1960. –С. 174.

[3] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 65.

borasidagi ishlar haqida ham alohida to'xtalib o'tganlar: "Ayni vaqtda miyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqda so'z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning "Tilga e'tiborsiz - elga e'tiborsiz" degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz"[1].

O'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p va xo'p shug'ullangan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)" demakdir"[2].

N. Mahmudov tilga ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berishni alohida ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: "Til benihoya muqaddas va mo''tabar ne'mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e'tirofidir"[3].

V. fon Gumboldning "Tilda xalq ruhi aks etadi" degan fikri N. Mahmudovning asarlarida o'ziga xos tarzda davom ettirilganini ko'rish mumkin: "...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor-budi, bo'y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini

---

[1] Ko'rsatilgan asar, 65-bet.

[2] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 10.

[3] Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 3.

bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmunu mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixiyu kelajagini idrok etish demakdir. Til xalqning bebaho va muqaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o'z tilida sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz".

Olim buyuk nemis tilshunosi Yakob Grimmning "Xalq haqidagi saqlanib qoladigan eng jonli guvoh - bu uning suyagi, foydalangan ish qurollari yoki qabri emas, balki uning tilidir" degan fikrini shunday rivojlantiradi: "Xalq o'z tili haqida uning ibtidosidan boshlab ma'lumotga ega bo'lsa, bu tilning turfa tovlanishlariyu, tarang va lo'nda mantig'ini chuqur his eta olsa, o'zining uzoq va murakkab tarixini ham chuqur his eta oladi, tarixidan faxrlana oladi, o'zinikidan boshqa tillarning ham muqaddasligiga, har jihatdan hurmatga loyiqligiga imon keltira oladi. Bu esa xalqning o'zligini anglashi demakdir"[1] .

## 9. 2. Olamning lisoniy manzarasi

Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan dunyoni bilish natijalarini so'zda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi **olamning lisoniy manzarasi,** deb nomlanadi[2].

*Olamning manzarasi* (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi. Olam - o'zaro munosabatdagi inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi - inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo'linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuyini va uning obyektlari-ga bo'lgan munosabatni namoyon qiladi. Olamning obrazini to'g'ridan-to'g'ri reflekslar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat o'ziga xos obrazlarni "o'z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini "odatdagi" bilish orqali anglab bo'lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy **olamning lisoniy**

---

[1] Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б. 83.

[2] Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. –Гродно: ГрГУ, 2010. –С. 152; Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.64.

**manzarasi**ni "mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so'zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so'zli hosila" sifatida umumiy shaklda izohlagan.

M. Xaydeggerning qayd qilishicha, "manzara" so'zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o'ylaymiz, "olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi". Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida anglaydi. Bu o'rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi.

V. Fon Gumboldt "Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir", deb qayd qilgan. Chindan ham, har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor... Amerikalik tilshunos Benjamin Li Uorf "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqachroq bo'lardi" degan[1].

Har qanday til egasi bo'lgan inson uchun haqiqiy borliq (moddiy va fizik) quyidagi ko'rinishlarda mavjud:

1) haqiqiy borliqning o'zi;
2) birinchi signal (borliqni sezgilar vositasida idrok qilish) sistemasi;
3) ikkinchi signal (verbal) sistemasi.

Haqiqiy borliqni idrok qilishning bu uch darajasi bilan haqiqiy borliq haqidagi tasavvurlar: olam umumiy manzarasining tasavvuri (maishiy va ilmiy), olamning lisoniy manzarasi yordamida obyektivlashtirilgan olamning subyektiv tasavvuri o'zaro munosabatda bo'ladi.

Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o'z-o'ziga) bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Har qanday tabiiy til

[1] Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 9-10.

dunyoni bilishning muayyan usulini aks ettiradi. Unda ifodalangan ma'nolar muayyan qarashlarning yagona tizimida, o'ziga xos jamoaviy falsafada mujassamlashadi va u barcha til egalari uchun majburiylik kasb etadi. Mazkur tilda so'zlashuvchilar dunyosi shakllanadi, ya'ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir.

Olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o'laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijalarini aks ettirib doimo o'zgarishda bo'ladi. Biroq olam lisoniy manzarasining ayrim qismlari insonlarning olam haqidagi qadimdan qolgan, eskicha tasavvurlarini uzoq vaqt mobaynida saqlab qoladi. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan boyroq bo'ladi, chunonchi, uning shakllanishida tafakkurning har xil turlari ishtirok etadi. Turli kishilarda, masalan, turli davrlar, turli ijtimoiy va yosh guruhlari, turli bilim sohalari va h.k.ning vakillarida olamning konseptual manzaralari farqlanishi mumkin. Har xil tillarda so'zlashuvchi kishilar muayyan sharoitlarda biriga yaqin bo'lgan olamning konseptual manzaralariga, aksincha, bir tilda so'zlashuvchi kishilar olamning turli konseptual manzaralariga ega bo'lishlari mumkin[1]. Olamning konseptual manzarasida umuminsoniy, milliy va shaxsiy o'zaro munosabatlar bo'ladi. Olamning konseptual manzarasi bilan olamning lisoniy manzarasi bir-biridan farq qilishiga qaramay, har ikkala manzara o'zaro bog'liqdir. Agar til olamning konseptual manzarasi bilan aloqada bo'lmaganida, u muloqot vositasi rolini bajara olmasdi.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazelogizmlar alohida rol o'ynaydi. Ular "xalq hayotining ko'zgusi"dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi[2].

Frazelogizmlar vositasida yaratilgan olamning lisoniy manzarasini tahlilida uning antropotsentrik xususiyatini ta'kidlash joiz. Olamning antropotsentrik manzarasi frazeologizmlar yo'nalishining insonga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bunda inson barcha narsalarning o'lchovi

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.65.

[2] Фразеологический словарь русского литературного языка / Под ред. А. И.Федорова. –М., 1996; Образные средства русского языка / Под ред. В.Н.Телия. –М., 1995.

sifatida ishtirok etadi: ko'p - *boshini yeb*; to'la, butun - *boshdan oyoq*; kichik - *ko'z ilg'amas*; tez - *ko'z ochib yumguncha* va h.k.

Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Masalan, ruslarda *cho'chqa* a) ifloslik, b) nonko'rlik, d) tarbiyasizlikni; inglizlarda *pig* ochofatni, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa musulmon xalqlarida *cho'chqa* sof diniy nuqtayi nazardan o'ta haqoratni ifodalaydi; vetnamlarda *cho'chqa* ahmoqlik ramzi bo'lib keladi. Demak, *cho'chqa* so'zi turli xalqlarda turlicha belgilarni konnotatsiyalaydi. Bu esa mazkur xalqlar olam manzarasining shakllanishidagi ularning o'ziga xos, individual majoziy fikrlashini ko'rsatadi.

Xullas, har qanday madaniyat o'zining kalit so'zlariga ega bo'ladi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tilimizning milliy-madaniy xususiyatlari haqida bildirgan quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: "...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir"[1].

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi.

### 9. 3. "Geshtalt" tushunchasi

Olamning lisoniy manzarasini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi lisoniy geshtaltlar nazariyasini bilimlar strukturasi sifatida qaralgan freymlar nazariyasi bilan aloqador qilishga urinayotgan kognitiv tilshunoslik bilan ham bog'liqdir.

---

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 7.

Lisoniy geshtaltlar nazariyasi kognitiv tilshunoslikning asoschilaridan biri bo'lgan J. Lakoff tomonidan ilgari surilgan. J. Lakoffning qayd qilishicha, fikrlar, idroklar, emotsiyalar, bilish jarayonlari, motorli faoliyat hamda til ayni strukturalar bo'lgan "geshtaltlar"dan tarkib topgan[1].

*Geshtalt* nemischa so'z bo'lib, u "obraz, tuzilma, yaxlit shakl" ma'nolarini anglatadi[2]. Ilmiy adabiyotlarda geshtaltga biror obyektni qismlar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit holda idrok etish jarayoni deb ta'rif beriladi[3].

Umuman, *geshtalt* **yaxlit obraz** hisoblanadi, ya'ni biron bir obyektni butunicha idrok qilinishi *geshtalt*, deb tushuniladi. Geshtalt-psixologiya idrokning yaxlitligiga asoslanadi: ayrim shakllarning alohida bo'laklari o'z ma'nosini butunning *(geshtaltning)* tarkibida topadi. Masalan, *daraxt* tushunchasi olinganda, daraxtni predmet sifatida idrok etuvchi shaxs uni qismlar yig'indisi, ya'ni tana, ildiz, shoxlar va barglardan iborat o'simlik sifatida emas, balki shu qismlarga bo'linuvchi yaxlit jism - daraxt sifatida idrok qilishi muhim hisoblanadi. Yoki J. Lakoffning ta'biricha, *janjal* va *urush* ayni terminlar bilan tasvirlanadi, Demak, ular bir xil tasavvur qilinadi, ya'ni ular ayni geshtalt (yaxlit obraz - Sh.Usmanova) bilan bog'lanadi[4].

Geshtaltlar botiniy mazmundor bo'lgan alohida til birliklaridir. Geshtaltlar tilda amalga oshishi bilan birga, insonning borliqni idrok qilishi asosini tashkil qiladi, bilish jarayonlarini yo'naltiradi, motorli aktlarning o'ziga xos xususiyatlarini va h.k. aniqlaydi.

Tilga nisbatan geshtaltlarning botiniyligi bir necha jihatlarda namoyon bo'ladi. Chunonchi, tilning zohiriy sathida ayni geshtalt turli fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin va bunda faqat maxsus izlanishlar orqaligina ularning birligini aniqlash mumkin[5].

Shunday qilib, geshtaltlar konseptual bog'lanishlar bo'lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo'lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.

---

[1] Лакофф Дж. Лингвистические гештальты / Дж. Лакофф // Новое в зарубеж. лингвистике. Вып. 10. Лингвистическая семантика. –М.: Прогресс, 1981. –С. 350–368.

[2] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: «Сангзор» 2006. –Б. 47.

[3] Хрестоматия по истории психологии. –М., 1980. –С.84-89; Алефиренко Н. Спорные проблемы семантики. –М.: Гнозис, 2005. –С. 326; Сафаров Ш. Кўрсатилган асар. –Б. 47.

[4] Лакофф Дж. Лингвистические гештальты / Дж. Лакофф // Новое в зарубеж. лингвистике. Вып. 10. Лингвистическая семантика. –М.: Прогресс, 1981. –С. 350–368.

[5] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.66.

## Nazorat uchun savollar

1. Insonning nutqiy faoliyati tug'mami yoki keyin shakllanganmi?
2. I.Gerder inson faoliyatidagi qaysi hodisalarni asosiy, deb hisoblagan?
3. V.fon Gumboldtning ta'limotida til va madaniyatning o'zaro munosabati qanday yoritilgan?
4. E. Sepirning fikricha, madaniyat nima?
5. E.Sepirga ko'ra, til oldin paydo bo'lganmi yoki madaniyat?
6. Til va madaniyatning farqini E. Sepir qanday izohlagan?
7. E.Sepir va B.Uorfning gipotezasida qaysi asosiy masalalar ajratiladi?
8. O'zbek tilshunosligida til va madaniyat tushunchalari qanday izohlanadi?
9. "Olamning manzarasi" tushunchasi nima asosida yaratiladi?
10. M. Xaydeggerning fikricha, olam manzarasi nimani ifodalaydi?
11. Olamning konseptual manzarasida qanday munosabatlar bo'ladi?
12. Olamning lisoniy manzarasi nimalar vositasida yaratiladi?

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida tilimizning milliy-madaniy xususiyatlari haqida bildirilgan fikrlarni konspekt qilish.
2. Lisoniy geshtaltlar nazariyasi haqida referat yozish.

## Adabiyotlar


1. Chomsky Noam. Aspects of the Theory of Syntax. -Cambridge, MA: MIT Press, 1969. -261 p.
2. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company, 1921. -258 p.
3. Алефиренко Н. Спорные проблемы семантики. -М.: Гнозис, 2005. -326 с.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-4во РУДН, 2008. -240 с.
5. Гердер И. Г. Идеи и философия истории человечества. -М.: Наука, 1977. -705 с.
6. Гумбольдт В. фон Избранные труды по языкознанию. -М.: Прогресс, 1984. -400 с.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. -176 б.

8. Лакофф Дж. Лингвистические гештальты / Дж. Лакофф // Новое в зарубеж. лингвистике. Вып. 10. Лингвистическая семантика. -М.: Прогресс, 1981. -С. 350-368.

9. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

10. Маҳмудов Н. Тил. -Тошкент: Ёзувчи, 1998. -40 б.

11. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.

12. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -110 б.

13. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. -М.: Аспект Пресс, 2000. -207 с.

14. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: «Сангзор» 2006. - 91 б.

15. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М.: Прогресс, 1993. -656 с.

16. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии: Учебное пособие. Под ред. В.Д. Бондалетова. 5-е изд. -М. : Флинта: Наука, 2009. -184 с.

## III BOB. LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TAHLILI

### 10-MA'RUZA
### MUQOBILSIZ LEKSIKA

Reja:
1. "Muqobilsiz leksika" tushunchasi
2. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari
3. Muqobilsiz leksikani tarjima qilish usullari

**Tayanch so'z va iboralar:** muqobilsiz leksika, leksik birlik, atoqli otlar, realiya, kumulyativ, referensial-muqobilsiz leksika, pragmatik-muqobilsiz leksika, alternativ-muqobilsiz leksika, struktur ekzotizmlar, leksik-semantik muqobilsizlik, milliy kolorit, transliteratsiya usuli, transkripsiya usuli, kalkalash usuli, tasviriy usul.

#### 10. 1. "Muqobilsiz leksika" tushunchasi

Tillar orasidagi farqlar, odatda, madaniyatlar orasidagi farqlarga asoslanadi. Mazkur tafovutlar tilning leksik va frazeologik qatlamida ko'zga tashlanadi, binobarin, tilning nominativ birliklari aksariyat hollarda nolisoniy omillar bilan bog'langan bo'ladi.

Muqobilsiz leksika muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi.

Muqobilsiz leksikani o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. "Muqobilsiz leksika" termini ilmiy muomalaga tadqiqotchilar Ye.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar tomonidan kiritilgan. Ular mazkur terminni quyidagicha izohlashgan: "Muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, ya'ni faqat muayyan madaniyatgagina xos bo'lgan madaniyat unsurlari, shuningdek, boshqa tilda tarjimasi bo'lmagan, bir so'z bilan aytganda, o'zi taalluqli bo'lgan tildan tashqarida muqobili bo'lmagan so'zlardir"[1].

L.S.Barxudarovning yozishicha: "Muqobilsiz leksika - bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobilga ega bo'lmasligidir". U muqobilsiz leksikaga quyidagi uchta guruhdagi leksik birliklarni kiritadi:

---

1 Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. –М.: Русский язык, 1980. –С.53.

*Atoqli otlar* - geografik joy nomlari, tashkilot, korxona, gazeta va h.k. nomlar.

*Realiya* - boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo'lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar. Masalan: moddiy va ma'naviy madaniyatdagi milliy taom nomlari, milliy libos nomlari va h.k.

*"Tasodifiy lakunalar"* - biron bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko'ra boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi[1].

A.D.Shveyserga ko'ra, muqobilsiz leksika "boshqa madaniyatda aniq muqobillari bo'lmagan madaniy realiyalarni bildirish uchun qo'llaniladigan leksik birliklar"dir[2]. A.V. Fedorov[3] va Ya.I. Retsker[4] larning fikricha, muqobilsiz leksika "milliy-madaniy realiyalarni ifodalovchi so'zlar"dir. V.N. Komissarov muqobilsiz leksikani "tilning kumulyativ vazifasi mahsuli, u mazkur madaniyatning o'ziga xos hodisalarini ifodalaydi va so'zlovchilar ongidagi mavjud bilimlarning ombori" sifatida talqin qiladi[5]. L.L. Nelyubin muqobilsiz leksika deganda "boshqa til leksik birliklari orasida na to'liq, na qisman muqobilga ega bo'lgan leksik birliklar (so'zlar va turg'un birikmalar)"ni nazarda tutadi[6].

A.O. Ivanovga ko'ra, muqobilsiz leksika quyidagicha guruhlarga ajratilgan:

*Referensial-muqobilsiz leksika*: realiyalar; terminlar; frazeologizmlar; muallifning individual neologizmlari; semantik lakunalar; matnda keng ma'noda qo'llanilgan keng semantik qamrovli so'zlar; tarjima tilida ma'nosini faqat tasvirlash yoki transformatsiya vositasida ifodalash mumkin bo'lgan turli tipdagi murakkab so'zlar.

*Pragmatik-muqobilsiz leksika*:

a) umumiy til me'yoridan turlicha chekinishlar: huduiy va ijtimoiy dialektlar, jargonlar, argolar, tabulashgan leksika, arxaizmlar va h.k;

b) abbreviaturlar;

v) subyektiv bahoga ega bo'lgan suffiksli so'zlar;

g) undov so'zlar;

d) taqlidiy so'zlar;

---

1 Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. –С. 94.

2 Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. –М.: Воениздат, 1973. –С.108.

3 Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). –М.: «Филология три», 2002. -С. 146.

4 Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. –М.: Междунар. отношения, 1974. –С. 58.

5 Комиссаров В.Н. Теория перевода. –М.: Высш. шк., 1990. –С. 37.

6 Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. М.: Флинта: Наука, 2003. –С. 24-25.

y) assotsiativ lakunalar.

*Alternativ-muqobilsiz leksika*: atoqli otlar (antroponimlar, toponimlar, kitoblar, filmlarning nomlari va b.), realiyalar va frazeologizmlar[1].

L.K. Latishev muqobilsiz leksikani bir qancha tiplarga ajratadi:

1. Realiya-so'zlar;
2. Vaqtincha-muqobilsiz terminlar;
3. Tasodifiy muqobilsizlar;
4. Struktur ekzotizmlar[2].

## 10. 2. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari

A.O. Ivanov muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablarini quyidagicha ko'rsatgan:

1. Xalq turmushida muayyan predmet yoki hodisaning mavjud emasligi (narsaning muqobilsizligi).

2. Tarjima tilida muayyan tushunchaning mavjud bo'lmasligi (leksik-semantik muqobilsizlik).

3. Leksik-semantik tavsiflardagi farqlar (stilistik muqobilsizlik)[3].

L.K. Latishev muqobilsiz leksika vujudga kelishining birinchi sababi asliyat tili sohibiga yaxshi tanish bo'lgan hodisani ifodalovchi, mazkur tilning leksik tarkibidan barqaror o'rin olgan leksik birlik bo'lib, u tarjima tili sohibi uchun mutlaqo notanish yoki juda kam tanish bo'lgani uchun va tarjima tilining leksik tarkibida aks etmaganligi, deb ko'rsatgan. Ularni boshqa xalqlarda mavjud bo'lmagan va faqat muayyan bir xalqning moddiy va ma'naviy hayotiga xos bo'lgan realiya - hodisalari deyish mumkin. Ma'lum bir vaqt davomida ayrim ilmiy-texnik terminlar ham muqobilsiz bo'lishi mumkin. Keyinchalik fan texnika yangiliklarining taraqqiyoti va tarqalishi natijasida boshqa tillardagi muqobilsiz terminlar asta-sekin o'z muqobiliga yoki kalkalarga ega bo'lib boradi.

L.K. Latishevning fikricha, muqobilsiz leksika vujudga kelishining ikkinchi sababi turli madaniyat va etnik hamjamiyatlar tomonidan olamni o'zgacha ko'rish tarzidir. Bu xususan, tarjima tilida har doim ham asliyat tilida qayd etilgan leksik birliklar o'zining tushuncha va ma'nosida qayd etilmasligida namoyon bo'ladi.

---

1 Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. Уч. пособие. –СПб.: Филол. фак. С.-Петерб. гос. ун-та, 2006. –С. 82.

2 Латышев Л.К. Технология перевода: Учебное пособие по подготовке переводчиков (с немецкого языка). –М.: НВИ-Тезаурус, 2000. –С. 157-159.

3 Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. Уч. пособие. –СПб.: Филол. фак. С.-Петерб. гос. ун-та, 2006. –С. 82.

## 10. 3. Muqobilsiz leksikani tarjima qilish usullari

Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda ko'pincha muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Tilda ekvivalent umuman mavjud bo'lmaydi.

2. Tarjimada nafaqat so'zning tarjimasi, balki undagi milliy kolorit, ma'no nozikligi va o'ziga xos shiradorlikni ham saqlab qolish zaruratdir.

Tarjimada muqobilsiz leksikani quyidagi usullar vositasida berish mumkin:




*1. Transliteratsiya usuli.* Mazkur usul o'zining mohiyati jihatidan boshqa tildan so'z o'zlashtirishga o'xshab ketadi. Tarjima tili harflari yordamida asliyat tilidagi muqobilsiz leksikaning tarjima muqobili shakllantiriladi. Og'zaki tarjimada u tarjima tilining fonetik qoidalariga ko'ra talaffuz qilinadi.

| | |
|---|---|
| **COMPUTER** | **COMPUTER** |
| **lotin yozuvida:** | **kiril yozuvida:** |
| **KOMPYUTER** | **КОМПЬЮТЕР** |

O'zbek tiliga tranliteratsiya vositasida quyidagi so'zlar kirgan: *интернет (INTERNET), интерпол (INTERPOL), компьютер (COMPUTER), грейпфрут (GRAPE-FRUIT)* va h.k.

Transliteratsiya usuli tarjima tilida muqobil umuman mavjud bo'lmagan hollardagina qo'llaniladi. Masalan, "Amerika Qo'shma Shtatlari "dollar"ining, ingliz "funt sterling"ining, nemis "marka"siyu hind "rupiya"sining, afg'on "afg'oniy"sining transliteratsiya qilinmasdan, o'zbek "so'm"i bilan almashtirib qo'yilishi, AQSh "brendi"si, ingliz "viski"si, nemis "shnapse"sining rus "vodka"si orqali talqin etilishi ingliz boshiga "shlyapa" o'rniga o'zbek "do'ppi"sini, egniga "palto" yoki "plashch" o'rniga "to'n" yoki "yaktak" kiygizib qo'yish bilan baravar"[1].

[1] Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. – Б. 93.

Tranliteratsiya usulining afzalligi muqobilsiz leksika tarjimasining ishonchliligi hisoblanadi. Binobarin, tarjimon tranliteratsiya jarayonida yangi, xususan, kam tushunarli bo'lgan so'zning grafik yoki fonetik sirtqi ko'rinishinigina beradi. So'zning ma'nosi esa faqat kontekst orqali ochiladi. Tarjimon bu bilan yangi tushunchaning izohidan yoki uning noto'g'ri talqinidan qochadi.

Tranliteratsiya usulining kamchiligi muqobilsiz leksik birlikning mexanik tarjimasi har doim ham tarjimada yangi tushuncha mazmunini to'liq ochib bera olmasligi bo'lib, unda resipient so'z ma'nosini umuman tushunmasligi yoki kontekstdan qisman chiqarib olishi mumkin.

*2. Transkripsiya usuli.* Mazkur usulda muqobilsiz leksik birlikning talaffuzi (tovushlar) tarjima tilidagi harflar bilan beriladi. Bunday usuldan kishi va joy nomlarini tarjima qilish lozim deb topilganda foydalaniladi: *O'zbekiston - Uzbekistan, Charles - Charlz,Henry - Genri.*

*3. Kalkalash usuli* (fransuzcha: nusxa olish, taqlid qilish). Mazkur usul tarjima amaliyotida keng qo'llanilib, unda muqobilsiz leksik birlikning tarkibiy qismlari (muqobilsiz so'zning morfemalari yoki muqobilsiz turg'un so'z birikmasining leksemalari) tarjima tiliga asliga muvofiq holda so'zma-so'z o'giriladi. Masalan, o'zbek tilidagi *bolalar bog'chasi* birikmasi (ruscha *детский сад*) nemis tilidagi *Kindergarten* so'zining, *sovuq qurol* birikmasi ingliz tilidagi *Cold arms* lug'aviy birliklarining kalkasi bo'lib, ular hozirgi kunda o'zbek tilining lug'at boyligidan mustahkam o'rin olgan.

Tarjima jarayonida ba'zan frazeologizmlarni boshqa tilga leksik tarkibi jihatidan qisman farq qiladigan yoki muqobil variantlar vositasida tarjima qilishdan ko'ra, kalka usuliga murojaat qilish o'zini oqlaydi. Misol uchun, turk tilida "kutilmaganda juda qimmatli biron narsani qo'lga kiritmoq" ma'nosida *turnayı gözünden vurmak* iborasi qo'llaniladi. Mazkur iboraning o'zbek tilidagi muqobilini topish mushkul. Shuning uchun tarjimon - *Ne talih varmış bunakta? Turnayı gözünden vurdu, dedi* (Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 421) jumlasini - *Choli tushmagurning xo'pam toleyi bor ekan-da. Turnaning naq ko'zidan uribdi- ya!* - *dedi* (M.Ismoiliy tarjimasi. Cholıqushi, 433-434) shaklida tarjima qilgan.

*4. Tasviriy usul.* Muayyan so'z yoki iboraning goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda tasviriy usuldan foydalaniladi. Bunda asliyat tilidagi bir so'zning o'rniga tarjimada so'z birikmasi, frazeologizm yoki butun bir gap qo'llanilishi mumkin. Yoki asliyat tilidagi biron bir frazeologizm tarjima tilida so'z birikmasi vositasida ifodalanishi mumkin. Masalan: -

*Nasıl böyle kedi gibi ağaçlara tırmandığını da biliyor musunuz? dedi*" (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 54). Ushbu parchadagi *kedi gibi* frazeologizmi o'zbek tiliga *usta bo'lib* so'z birikmasi yordamida tarjima qilingan: "*Endi daraxtga chiqishga nega usta bo'lib qolganining sirini ham aytib beraymi?*" (M. Hakimov tarjimasi. G'aroyib bolalar, 140).

Shunday qilib, muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalaydi va u tarjima tilida muqobilga ega bo'lmaydi. Ularda muayyan madaniyatga xos bo'lgan milliy-madaniy unsurlar mavjud bo'ladi.

Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, tasviriy va h.k. usullardan foydalaniladi. Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda tarjimon nafaqat asliyat tilini, balki turli xarakterdagi ekstralingvistik bilimlar, xususan, boshqa madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari, an'analari, urf-odatlari, nutqiy etiket me'yorlari, paralingvistik vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Muayyan xorijiy mamlakatda yashagan va uning realiyalari bilan yaxshi tanish bo'lgan kishigina mazkur mamlakat haqida batafsil lingvomadaniy sharhlarni bera oladi. Shundagina tarjimon muayyan madaniyatdagi narsa yoki hodisalarni tasvirlashda lingvoetnik to'siqlarni yenga oladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Tillar orasidagi farqlar qaysi qatlamda ko'zga tashlanadi?
2. Muqobilsiz leksika deganda nimani tushunasiz?
3. "Muqobilsiz leksika" termini ilmiy muomalaga qaysi tadqiqotchilar tomonidan kiritilgan?
4. L.S.Barxudarov muqobilsiz leksikaga qanday leksik birliklarni kiritgan?
5. A.O. Ivanov muqobilsiz leksikani qanday guruhlarga ajratgan?
6. A.O. Ivanovga ko'ra, muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari qanday?
7. L.K. Latishev muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari sifatida nimalarni ko'rsatgan?
8. Muqobilsiz leksikani tarjima qilishda qanday usullardan foydalaniladi?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Turli tillardagi realiyalarni o'zbek tiliga tarjima qilish.
2. Turli tillardagi atoqli otlarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

**Adabiyotlar**

1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

2. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. - М.: Международные отношения, 1975. -240 с.

3. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. -М.: Русский язык, 1980. -320 с.

4. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. Уч. пособие. - СПб.: Филол. фак. С.-Петерб. гос. ун-та, 2006.

5. Комиссаров В.И. Теория перевода. -М.: Высш. шк., 1990. -253 с.

6. Латышев Л.К. Технология перевода: Учебное пособие по подготовке переводчиков (с немецкого языка). -М.: НВИ-Тезаурус, 2000. -280 с.

7. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. -Тошкент: Фан, 2005. -352 б.

8. НелюбинЛ.Л.Толковыйпереводоведческийсловарь.М.: Флинта: Наука, 2003. -320 с.

9. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). -М.: «Филология три», 2002. -416 с.

10. Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. -М.: Воениздат, 1973. - 280 с.

# 11-MA'RUZA
# FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

**Reja:**
1. Frazeologik birliklar haqida tushuncha
2. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi

**Tayanch so'z va iboralar:** frazeologizm, turg'un birikma, ibora, hikmatli ifoda, semantika, obrazli tasavvur, madaniy informatsiya, madaniy-milliy bo'yoq, konnotatsiya, ko'zgu, diniy-mifologik shaxs, geografik nomlar, toponimlar.

## 11. 1. Frazeologik birliklar haqida tushuncha

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma'naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi.

**Frazeologizm – turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi.**

Mashhur rus tilshunosi B.A. Larinning ta'kidlashicha, "frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi".

Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi.

F. I. Buslayevga ko'ra, frazeologizmlar o'ziga xos kichik dunyo bo'lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o'z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o'ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir[1].

[1] Буслаев Ф. И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. – М.: Русский язык, 1954. – С. 37.

V.A. Maslova frazeologizmlar tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjud.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo'yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir[1].

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazelogizmlar alohida rol o'ynaydi. Aniqrog'i, frazeologiya olam lisoniy manzarasining bo'lagidir. Frazeologik birliklar "xalq hayotining ko'zgusi"dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi[2].

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo'ladi, ya'ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi.

Har bir xalq vakili o'z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so'z birikmalari yaratishda o'ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, "boshdan-oyoq", "to'la-to'kis", "butunlay", "tamomila" tushunchalarining obrazli ifodasi uchun yunon tilida *От альфы до омеги* iborasi ishlatiladi. Mazkur iboraning ta'sirida turk tilida *A'dan Z'ye kadar* rus tilida *От А до Я* iboralari paydo bo'lgan. Yoki yunon tilida "ibtido va intiho", "hayotning boshi va oxiri" ma'nosida "Alfa va Omega" iborasi qo'llaniladi. Ayni iboralarning obrazliligi mazkur tillardagi birinchi va oxirgi harflarning majoziy qo'llanilishi - bir-biriga qarshi qo'yilishi asosida vujudga kelgan.

Lingvokulturologiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N.Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi "lingvomadaniy jamoa milliy o'zligini ko'radigan ko'zgudir". Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 82.

[2] Фразеологический словарь русского литературного языка / Под ред. А. И.Федорова. –М.: Астрель: АСТ, 2008. - 878 с.; Образные средства русского языка / Под ред. В.Н.Телия. –М.: Отечество, 1995. - 366 с.

ko'rishini namoyon etadi[1]. Masalan, o'zbek xalqining turmush tarzi (*bozor bahosi* "hamma qatori, hech yon bosmay", *xirmon ko'tarmoq* "ekin-tikinni yig'ib, hosil me'yorini hisob-kitob qilmoq"), milliy kiyim-kechak-lari (*to'n kigizmoq* "qo'shib-chatib, pardozlab gapirmoq", *kavushini to'g'rilab qo'ymoq* "haydab yubormoq"), yeguliklari (*xamir uchidan patir* "katta ko'p narsadan boshlang'ich va kichik bir qism") va h.k.

Ma'lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbayi bo'lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarning o'rni beqiyosdir. O'zbek milliy frazeologizmlarining boyishi va rivojla-nishiga eng katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri A.Qahhordir. Yozuvchining xalq iboralaridan foydalanish mahorati, uning frazeologik novatorligi qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Chunki A.Qahhor qo'llagan frazeologizmlarning aksariyatida madaniy-milliy konnotatsiya kuchli, ularda milliy madaniyatning ruhi, "izi" mavjud.

"Xalqning so'z donoligini mukammal egallagan yozuvchi o'z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulodda muvofiq tarzda foydalanadi. O'zi ham yangi iboralar yaratadi, ammo bu yangi iboralar xalqning o'zida mavjud bo'lgan iboralarning modeliga asoslangan bo'ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o'qiganda, xalqning o'zidagi tegishli ibora ham esga tushadi. Aytish mumkinki, yozuvchchi bitta iborani qo'llaydi, lekin yozuvchi maqsadi uchun bir paytning o'zida ikkita ibora "ishlaydi". Mana bir dalil: *"Eshak-ni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi* ("Ikki yorti bir butun" hikoyasi). Ayni ibora Qahhorniki, bu iborani o'qish bilan *"Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi"* degan xalq iborasi esga tushadi, ya'ni tekstda implisit ravishda bu ibora ham ishtirok etadi, uni birinchi ibora ovozsiz "chaqiradi". Bu - qahhorona mahorat"[2].

A.Qahhorning xalq iboralari modeli asosida yaratgan va bizga meros qilib qoldirgan ayrim iboralari bugungi kunda haqiqiy xalq iborasiga aylangan. O'zbek tilida "tekinxo'r" ma'nosini ifodalagan *tekin tomoq* iborasi mavjud. "A.Qahhor mana shu iboraning strukturasi va tayanch komponenti *tekin* so'zi asosida yangi, original ibora yaratadi: *tekin quloq*. Bu ibora tamomila yangi tushunchani, ya'ni qarshiliksiz quloq soladigan, toqat bilan tinglaydigan odam" tushunchasini ifodalaydi: *Odamlarki bor, halol mehnat bilan o'zini ko'rsatgani erinadi-yu, olamda borligini ma'lum qilib turish uchun ko'proq gapirishga harakat qiladi: majlis-pajlisda so'z tegib qolsa, foydali biron fikr aytish uchun emas, gapirish, faqat gapirish*

---

[1] Образные средства русского языка / Под ред. В.Н.Телия. –М.: Отечество, 1995. -366 с.

[2] Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: "Ўзбекистон", 1992. –Б. 90.

*uchun gapiradi. Jamiyatda o'zi ko'rinmay, faqat tovushi chiqadigan bu xildagi odamlar,* ***tekin quloq*** *topilsa, bitta eski to'ppi to'g'risida sakkiz soat suv ichmasdan gapiradi* (Tanlangan asarlar, I t., 1957, 279-bet)[1].

### 11. 2. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi

Xalq og'zaki ijodiyoti, dostonlar, turli-tuman afsona va rivoyatlar frazeologizmlarni shakllantiradi, ularga sayqal beradi, ularni xalq mulkiga aylantiradi. Binobarin, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Kuntug'mish" kabi ulkan dostonlarda o'zbek xalqining ko'hna va hamisha navqiron tili o'zining butun imkoniyatlari va go'zalligi bilan "jilvalangan".

"Alpomish" dostonidagi betakror, g'oyatda nozik iboralarni ko'rib lol qolasiz. Ana shunday iboralardan biri "gap yetaklamoq"dir. "Yurishimiz qirqin qizlar bilmasin, U qurg'urlar gap yetaklab yurmasin, El ichida malomat so'z bo'lmasin". Mazkur iboraning hozirgi tilimizdagi muqobili bo'lmish "gap(ni) ko'tarib yurmoq" iborasida gapning bevosita harakati yo'q, u go'yo oddiy bir narsa, uni faqat ko'tarib yuradilar, xolos. "Gapni yetaklab yurmoq" iborasi shuning uchun o'tkir va o'zg'irki, unda gapning o'zi bevosita yuradi, faol harakatga qodir, faqat uni chirkin maqsadlarga xizmat qildirish uchun qayoqqa xohlashsa, o'sha yoqqa yetaklab yuradilar, bechora gap yetovdagi molday iznini no'xtachiga tamoman tutqazib ketaveradi, no'xtachining muddaosi esa gapning ma'noyu mantiq muvozanatini butunlay boshqa burchakka burib yuborishdan iborat. "Gap" va "yetaklamoq" so'zlaridan tarkib topgan bu ibora ana shunday ma'no nozikliklari, zakiy ishoralar bilan to'yinib betakror bir ifoda sifatida she'rga, badiiy mazmunga ko'rk bergan"[2].

Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlari, an'analari va irimlari ta'sirida shakllanadi. Jumladan, o'zbek xalqida azaldan quloqtishlar odati mavjud. Quloqtishlar, ya'ni beshikketdi odati hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining ayrim tuman va qishloqlarida saqlanib qolgan. Oilada qiz bola tug'ilib, chillasi chiqqandan keyin beshik to'yi o'tkaziladi. Qarindosh urug', do'st-og'aynilar yangi farzand bilan muborakbod etgani bu oilaga kelishadi. Shunda o'g'illik birodarlardan biri niyat qilib, yetaklab borgan 5-6 yashar o'g'ilchasiga chaqaloq qizchani tilaydi, so'ratadi. Qizi bor oilaning buvasi, buvisi, ota-onasi va qarindosh-urug'lari rozilik berishsa, "quloqtishlar" odati o'tkazilgan. Boyagi bolakay beshikda yotgan qizaloqning "qulog'ini tishlagan. Qadim

---

[1] Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик маҳорати. Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1965. -Б.96.

[2] Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998. –Б. 30.

zamonlarda bunday "qudachilik" marosimi qabilalar o'rtasidagi urush-janjallarga chek qo'ygan. Tinch qo'shnichilikni saqlab qolgan[1]. Mazkur odatni ifodalovchi, "qiz bolani go'dakligidayoq bo'lajak qaylig'i deb belgilab qo'ymoq" ma'nosida *qulog'ini tishlamoq* iborasi qo'llaniladi: *Qizimni tilga olaverma, tug'ilgan kunida* ***qulog'ini tishlagan*** *kuyovi bor: o'g'ling kelib, kuyov bilan oramiz buzilay deb qoldi.*

O'zbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bog'liq iboralari tarkibida somatik so'zlar faol qatnashadi: *boshlarini qovushtirmoq, boshlarini biriktirmoq, boshlarini qo'shmoq* "kelin-kuyovqilmoq"; *boshini ikkita qilmoq* "uylantirmoq"; *bir yostiqqa bosh qo'ymoq* "turmush qurmoq"; *boshini bog'lamoq* "kelin qilib olishga shartlashib kelmoq" va h.k.

O'zbek oilasida bola tug'ilishi bilan chilla davriga katta e'tibor beriladi. Farzand ko'rgan ayol va uning chaqalog'i chilla davrida maxsus sharoitda saqlanib, turli ins-jinslar va kasalliklardan himoya qilinadi. An'anaga ko'ra ona va chaqaloq 40 kungacha uydan chiqmasligi, bolali uyga begona odam kirmasligi va chillali uyda chiroq o'chmasligi kerak. Chilla an'anasi "tuqqaniga qirq kun bo'ldi" ma'nosidagi *chillasi chiqdi* iborasi bilan ifodalanadi: ***Chillasi chiqishi bilan*** *Hadya ham alohida qizlar yacheykasi tuzishga boradi.*

Sharq xalqlarining o'ziga xos an'analaridan biri choyxo'rlikdir. Shunga ko'ra, ayrim iboralarning shakllanishi choy ichish marosimi bilan bog'lanadi. Binobarin, yapon lingvomadaniyatidagi "hayotda bir marta bo'ladi" ma'nosida qo'llaniladigan *Ichigoichie* iborasi XVI asrda yaponlarning choy ichish marosimidan kelib chiqqan. Uning zamirida inson hayotidagi har bir marosim bir marta bo'ladi va u takrorlanmaydi, aniqrog'i, choylashish bahona, diydor g'animat, degan hikmat yotadi. Ibora odamlarlarga yangi tanishlar bilan uchrashish, narsalar va hayotning qadriga yetishni o'rgatadi. Yoki ingliz tilidagi *Tea and sympathy* (choy va xayrixohlik) iborasi xafa kishiga mehribonlik, xayrixohlik qilish ma'nosini ifodalab, choyning ingliz madaniyatidagi alohida o'rnini ko'rsatadi.

Milliy-madaniy xususiyatli iboralarni shakllantirishda, ayniqsa, oziq-ovqat va taom nomlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, aksariyat xalqlarning madaniyatida yashash vositasi bo'lgan oziq-ovqatga har doim buyuk ne'mat, rizq-ro'z sifatida munosabatda bo'lingan. O'zbek kundalik turmushida *non* muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas biladi. Ota-bobolardan qolib kelayotgan udum, an'anaga binoan, hatto

[1] Саттаров М. Ўзбек удумлари. –Тошкент, 1993. –Б. 21-22.

nonni teskari tishlamaydilar, nonning ustiga boshqa narsalarni qo'ymaydilar, nonni ustidan hatlab o'tmaydilar, agar non qo'ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o'pib, peshanalariga suradilar, non ushoqni dasturxon ustida ko'rsalar barmoqni ho'llab, ushoq ustiga bosib, yeb qo'yadilar. Nonga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish bolalarga yoshlikdan o'rgatiladi, ularga nonning ushog'ini yerdan yig'ib olish, uni e'zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Biron o'zbek yo'lga chiqsa, albatta, o'zi bilan birga non oladi. Shunga ko'ra, tarkibida *non* komponenti ishtirok etgan *non yemoq, noni butun, noni yarimta bo'ldi, non ursin* singari frazeologizmlarning *non* komponenti hayot, tirikchilik, rizq-ro'z, to'kin-sochinlik ramzi sifatida keladi. Binobarin, nonni peshana teri bilan topilishi, uni halollab yeyilishi Muqaddas kitoblardan boshlab ("Sen yerdan olingansan va yerga qaytguningga qadar peshana teri bilan non yeb yurasan". Ibtido 3. 620b.), o'zbek xalq dostonlarida, ertaklarida, rivoyatlarida va h.k.da uqtirilgan.

Non G'arb xalqlarining kundalik hayotida ham muhum o'rin egallaydi. Shuning uchun ingliz tilida *bread* (non) so'zi bilan yasalgan iboralarni ko'plab uchratish mumkin: *bread and butter* "kimningdir tirikchilik qilish yo'li", *earn one's bread* "nonini topmoq", *bread and butter letter* (a letter of thanks for hospitality) "mehmondorchilik uchun tashakkur xati", shuningdek, o'zbek tilidagi *noumid shayton* iborasiga muqobil bo'la oladigan *Hope is poor man's bread* (Umid - kambag'al odamning nonidir) iboralari shular jumlasidandir.

Kartoshka ko'pchilik xalqlarning milliy taomi, ikkinchi non, muhim ozuqasi hisoblanadi. Gachi kartoshkaning vatani Gollandiya bo'lsa-da, u inglizlarning asosiy ozuqasiga aylangan va mustamlaka davrida Amerikaga ko'chgan. Amerikaliklarning kartoshkaga bo'lgan qiziqishlari qator iboralarda o'z aksini topgan.

*A hot potato* iborasi "hal qilinishi qiyin bo'lgan og'ir muammo" ma'nosida ishlatiladi. Masalan, *The university exam is a hot potato* - Universitetga imtihon topshirish juda qiyin. Mazkur ibora aslida bolalarning "hot potato" (issiq kartoshka) o'yinidan kelib chiqqan. "Hot potato" o'yinida bolalar doira shaklida o'tirib biron narsani qo'lma-qo'l qilib bir-birlariga uzatadilar. Bu narsa issiq kartoshkani ifoda etadi. Shuning uchun o'yin shartiga ko'ra, qo'lga olingan narsa darhol boshqa birovga oshirilishi kerak bo'ladi. O'yin oxirida qo'lida kartoshka qolgan bola kuygan hisoblanadi. *A hot potato* iborasi ana shu o'yin asosida shakllangan.

*A big potato* "muhim shaxs"ni anglatadi. Uzzukun uyda o'tirib, televizor ko'radigan odamlarga nisbatan *a couch potato* frazeologizmi

ishlatiladi[1]. Mazkur ibora divanda o'tirib, televizor ko'rib chips yeyishga odatlangan amerikaliklarning milliy xarakterini yaxshi ochib bera oladi. Ruslar uchun kartoshka nochor ovqatlanish etaloni bo'lib, uni *сидеть на одной картошке* frazeologizmi misolida ko'rish mumkin.

Sariyog' G'arb xalqlari dasturxonining atributi hisoblanadi. Shu bois ingliz tilida tarkibida *sariyog'* komponenti ishtirok etgan iboralar sermahsul qo'llaniladi. Masalan, *butter up* iborasi biron kishining fikrini o'zgartirishga harakat qilish uchun uni haddan ortiq maqtash yoki unga yoqadigan xatti-harakatlar qilishni ifodalaydi. Mazkur iboraga o'zbek tilidagi *tilyog'lamalik qilmoq* frazeologizmi muqobil, turk tilidagi *yağ çekmek* frazeologizmi esa to'la ekvivalent bo'la oladi.

G'arb xalqlarining nonushta dasturxonini pishloqsiz tasavvur qilish qiyin. Shunga ko'ra, ingliz tilida tarkibida *pishloq* so'zi ishtirok etgan iboralar keng tarqalganini kuzatish mumkin. Jumladan, "u kompaniyada muhim rol o'ynaydi" ma'nosida *he is a big cheese in the company* iborasi qo'llaniladi.

"My brother and I are as different as chalk and cheese" iborasi "akam va men bir-birimizdan keskin farq qilamiz", ya'ni "akam va men bir-birimizga mutlaqo o'xshamaymiz" ma'nosini anglatadi. Zero, pishloq va bo'r butunlay boshqa-boshqa narsalardir. Mazkur iborani o'zbek tiliga "juda katta, beqiyos farq" ma'nosini ifodalaydigan *yer bilan osmoncha* iborasi vositasida tarjima qilish mumkin.

*A Big Cheese* iborasi "muhim odam" ma'nosidagi kesatiqni ifodalaydi. Ma'lumki, ba'zi pishloqlarning hidi juda o'tkir bo'ladi. Ayniqsa, katta pishloqning hidi yanada kuchli bo'ladi. Ana shu yoqimsiz hid iboradagi kesatiq, istehzo ma'nosining shakllanishiga sabab bo'lgan: *If you want a raise in pay, you have to be nice to the big cheese* - Agar maoshingiz kotarilishini xohlasangiz, rahbaringiz bilan yaxshi munosabatda bo'lishingiz kerak.

Xitoy, koreys va yapon madaniyatida guruch asosiy ozuqa bo'lib, u non vazifasini o'taydi. Guruch hamisha Uzoq Sharq dasturxonining muhim atributi bo'lib kelgan. Xitoy tilida "guruch"ning ramzi "mi" ieroglifi bilan shakllangan juda ko'p iboralarni kuzatish mumkin: *qiao fu nan wei wu mi zhi chui* - uy bekasi qanchalik aqlli bo'lmasin, masalliqsiz ovqat pishira olmaydi yoki *bai yang mi yang bai yang ren* - har kimning aqli, tashqi ko'rinishi va boshqalarni muhokama qilish usuli farq qiladi; *bu weu wu dou mi zhe yao* iborasi - foyda qarshisida

[1] Chunli Yang. Cultural Differences on Chinese and English Idioms of Diet and the Translation // English Language Teaching. Vol. 3, №1. March, 2010. –P. 149.

ham o'z prinsiplaridan voz kechmaydigan insonni tasvirlash uchun ishlatiladi[1].

Xitoy tilidagi "生" iborasini so'zma-so'z "yaxshi pishmagan (qaynatilmagan) guruch", deb tarjima qilish mumkin. Mazkur ibora "biron bir ish yomon boshlangandan keyin uni tuzatish qiyin bo'ladi" ma'nosini anglatadi[2].

Xitoy tilidagi "生米煮成了熟" (xom guruch qaynatilgandan keyin tayyor bo'ladi)ni o'zbek tilida "endi o'zgartirib, avvalgi holatga qaytarib bo'lmaydi" ma'nosidagi *bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi* yoki *g'isht qolipdan ko'chdi* iboralari vositasida tarjima qilish mumkin. Shuningdek, Xitoyda ishdan bo'shatilgan, ishini yo'qotgan odamga nisbatan砸自己的锅 "u qozonini sindirdi" (ya'ni guruchli qozonini) degan iboraning mavjudligi ham guruchning rizqu nasiba ramzi ekanligini ko'rsatadi[3].

Iste'mol qilinadigan taom nomlari mavjud bo'lgan frazeologik birliklar ham ko'p hollarda milliy xususiyatga ega bo'ladi: *osh bermoq* "to'y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o'tkazmoq: *Xuddi shu o'g'il tug'ilganda Pirimqul hoji qo'y ham, ho'kiz ham so'ydirib, yurtga* ***osh berdi***; *tog'ni tolqon qilmoq* "har qanday katta va og'ir ishni ham bajarmoq": *Undan keyin charchamaguningcha chopma, ayni qizishgan vaqtingda, g'ayrating kelib,* ***tog'ni tolqon qilaman*** *deganingda dam ol, birpasgina dam ol!*

O'zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpo'sh, do'ppi, telpak, ustga chopon, to'n kiyib, belga belbog', qars boylashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishilikni ramziy ifodalash xususida "belingda belbog'ing bormi?" degan ibora qolgan.

Har bir xalqning o'ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o'taydi. Masalan, *to'nini teskari kiyib olmoq* "o'chakishgan holda qasarlik qilmoq", *do'ppini osmonga otmoq* "juda xursand bo'lmoq", *do'ppi tor keldi* "iloj-imkonsiz og'ir ahvolga tushmoq", *bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan* "yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko'proq" *chorig'ini sudramoq*

---

[1] Chunli Yang. Cultural Differences on Chinese and English Idioms of Diet and the Translation // English Language Teaching. Vol. 3, №1. March, 2010. –P. 151.

[2] Бейсембаев А.Р., Жак С.В. Языковая картина мира как производная национального менталитета Вестник инновационного Евразийского университета. Павлодар, 2012. // https://articlekz.com/article/13368.

[3] Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш тасмилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: TDShI, 2015-yil 28-noyabr. –B. 32.

"zo'rg'a-zo'rg'a, amal-taqal qilib yashamoq", *paytavasiga qurt tushdi* "xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik", turk tilida *Ali'nin külâhını Veli'ye Veli'nin külâhını Ali'ye giydirmek* "puli bo'lmagani holda, birovdan olgan pulni boshqasiga, boshqasidan olganini yana boshqa birovga berib kun ko'rmoq", *Bir don bir gömlek* "yarim yalang'och holda" iboralari shular jumlasidandir.

O'zbek xalqi turmushida kundalik hayotda ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumlari ham muayyan frazeologizmlarni shakllantirganini ko'rish mumkin: *ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq* "imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq": *Ha, onang* ***ko'rpasiga qarab oyoq uzatsin,*** *uqdingmi?, chovlisini solmoq* "aralashmoq": *Nigoraga hayronman, har narsaga o'z* ***chovlisini solavermay,*** *tinchgina yursa nima qilarkin.*

Ayrim frazeologizmlar tarkibida keladigan miliiy cholg'u asboblari nomlari ham iboralarga milliy ruh bag'ishlaydi. Masalan, o'zbek tilida "ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirmoq" ma'nosida *to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq* frazemasi qo'llaniladi. Yoki rus tilida "birovning ko'rsatmasi bilan biror ish qilmoq" ma'nosining obrazli ifodasi uchun *плясать под чью-либо дудку* frazeologizmidan foydalaniladi. Uni o'zbek tilida *birovning nog'orasiga o'ynamoq* shaklida berish mumkin.

Turli geografik joy nomlari ham frazeologik birliklarning tayanch komponentlari vazifasida keladi. Masalan, o'zbekcha frazeologik birliklar tarkibida O'zbekiston hududida joylashgan shahar, qishloq, daryo va sahrolar nomlari uchraydi. Frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilgan toponimlar o'zlari jonlantiradigan sifat va belgilar, chunonchi, uzoqlik, saxiylik, taqvodorlik kabi alomatlar timsollari sifatida namoyon bo'ladi: *Beva xotinga Buxorodan it xuradi, onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq* frazeologik birliklari tarkibidagi "Buxoro", "Uchqo'rg'on", *до Москвы не перевешаешь, кричать во всю Ивановскую* frazeologizmlari tarkibidagi "Moskva", "Ivanovskaya" O'zbekiston va Rossiya hududlarida joylashgan geografik nomlar bo'lsa, *язык до Киева доведет, tuxumi Bag'doddan kelibdimi?, Do in Rome as the Romans do* nomlaridir[1] yoki "umid qilgan, kutgan narsaning teskarisi bo'lib chiqdi" ma'nosidagi *Göründü Sıvas'ın bağları,* "bu ish hozircha bo'lgani bilan keyinchalik orqasidan g'avg'o chiqadi" ma'nosidagi *Karaman'ın koyunu, sonra çıkar oyunu* tarkibida foydalanilgan "Kiyev", "Bag'dod", "Rome (Rim)", "Sıvas", "Karaman" shaharlari rus,

[1] Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. – Б. 239.

o'zbek, ingliz va turk xalqlari uzoq asrlar davomida munosabat-muloqotda bo'lib kelgan shahar nomlaridir.

Frazeologizmlarning shakllanishida biron bir mahalliy hunarmandchilik yoki sanoatning ham muayyan ta'siri kuzatiladi. Jumladan, Rossiyadagi Tula shahri o'zining samovarlari, ingliz shahri Newcastle esa ko'mir sanoati bilan mashhurdir. Bu kabi xususiyatlar *ездить в Тулу со своим самоваром* yoki *to carry coals to Newcastle* singari frazeologik birliklarni yuzaga chiqargan.

Frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida tarixiy va diniy-mifologik mashhur shaxslarning nomlari kelishi mumkin: *Xo'ja ko'rsinga* "shunchaki nomigagina", *Musoning alamini Isodan olmoq* "aybdor chetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq", *Xizrni yo'qlasam bo'lar ekan* "kimnidir ko'rish istagi qo'qisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora". Turk tilida: *Bir Köroğlü bir Ayvaz* "bola-chaqasi yo'q er-xotin", *Derdini Marko Paşa'ya anlat* "dardini eshitadigan hech kim yo'q".

Har bir xalq atrofidagi borliqni o'ziga xos o'lchovlarda aks ettiradi. Shunga ko'ra, o'lchov birliklarini ifodalovchi ayrim hisob so'zlari ham frazeologizmlarning ma'lum guruhini shakllantiradi: "juda qisqa, juda oz vaqt davom etadigan" ma'nosidagi *bir tutam* (*Bir tutam* qish kuni Gulnor uchun bitmas-tugamas uzoq ko'rindi), "qittak, ozgina" ma'nosidagi *bir chimdim* (Hazil-huzul, *bir chimdim* suhbatdan so'ng Mirhaydar va O'ktam paxta dalasiga yo'l oldilar), "jindak, qittak, juda oz" ma'nosidagi *bir shingil* (Qani, shunaqa bemaza hazildan *bir shingil* ashula yaxshi), "juda yosh, deyarli go'dak" ma'nosidagi *bir qarich* (*Bir qarichligimdan* yetim qolib, amakining xizmatida o'tib ketganman) va h.k. Turk tilida ham quyidagi frazeologizmlarni kuzatish mumkin: Suat daha çok genç ve *aklı bir karış havadadır* (o'ylamasdan xayoliga kelganini qiladigan); Fakat kral hazretleri bütün gece Feşafeş'i kovalamaktan *dili bir karış dışarda* soluyup duruyor (chopishdan, yurishdan yoki chanqash tufayli juda charchamoq); Zaten canım burnumda bir de kapıyı böyle *beş karış suratla* açarsan (xafa, qovog'i solingan).

Xullas, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasi" bo'lib, ular avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi.

O'zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to'liq to'planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan o'rganilmagan. Shuning uchun frazeologik birliklarni yig'ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ularni o'zga madaniyat iboralari bilan qiyosiy

o'rganish bugungi o'zbek tilshunosligi va linvomadaniyatshunosligining kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir.

### Nazorat uchun savollar

1. Tilning frazeologik fondi qanday ma'lumotlar manbayi sanaladi?
2. Frazeologizmlarda nimalar haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo'ladi?
3. Rus tilshunosi B. A. Larinning fikricha, frazeologizmlar nimani bilvosita aks ettiradi?
4. F. I. Buslayev frazeologizmlarga qanday ta'rif beradi?
5. V.A. Maslova frazeologizmlar haqida qanday gipotezani ilgari surgan?
6. Frazeologizm va metaforalar qaysi jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi?
7. V.N.Teliya tilning frazeologik tarkibini qanday izohlaydi?
8. Urf-odatlar, an'analar va irimlar ta'sirida shakllangan frazeologizmlarga misollar keltiring.
9. Tarkibida diniy-mifologik shaxs nomlari uchragan frazeologizmlarga misollar keltiring.
10. Milliy realiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarga misollar keltiring.

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. "Lingvokulturologiya" fanining shakllanishida frazeologik birliklarning ahamiyatini ko'rsatish.
2. Turli lingvomadaniyatlardagi frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish.

### Adabiyotlar

1. Chunli Yang. Cultural Differences on Chinese and English Idioms of Diet and the Translation // English Language Teaching. Vol. 3, №1. March, 2010. -P. 148-154.
2. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. -Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
3. Usmanova Sh., B.Mirsharipova. Frazeologizmlarni tarjimada berish usullari // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI.- Тошкент: Akademnashr, 2017. -Б. 43-46.

4. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка.Учебное пособие. -М.: Флинта, Наука, 2010. -224с.

5. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

6. Маҳмудов Н. Тил. -Тошкент: Ёзувчи, 1998. -40 б.

7. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -110 б.

8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. - Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1993. -380 б.

9. Сатторов М. Ўзбек удумлари. - Тошкент, 1993.

10. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.

11. Усманова Ш. "Ўзбек тилининг фразеологик луғати"да миллий-маданий коннотацияли фразеологизмларнинг берилиши // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Тошкент: ЎзМУ, 2015. - Б. 27-30.

12. Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик маҳорати. Филол. фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1965. -222 б.

## 12-MA'RUZA
## O'XSHATISHLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

**Reja:**

1. O'xshatish va uning turlari
2. Turli lingvomadaniyatlardagi o'xshatishlarning qiyosiy tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** o'xshatish-qiyoslash, erkin o'xshatish, turg'un o'xshatish, o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, belgilar o'lchovi, o'xshatish qurilmasi, lingvomadaniyat, mifopoetik manba, dunyoni obrazli qiyoslash.

### 12. 1. O'xshatish va uning turlari

O'xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O'xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo'ladi.

**Oxshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir.**

Turkiy xalqlar tafakkurini ifodalashda o'xshatishlarning o'ziga xos o'rni haqida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida alohida ta'kidlangan: "Biron xotin tuqqanda doyadan: tulki tug'dimi yoki bo'rimi deb so'raladi. Ya'ni qizmi yoki o'g'ilmi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo'lganliklari uchun tulkiga, o'g'il bolalar ulardagi botirlikka asosan bo'riga o'xshatiladi"[1]. Bu o'rinda *tulkidek qiz, bo'ridek yigit* o'xshatish qurilmasining faqat *tulki* va *bo'ri* etaloni qo'llangan bo'lib, uni o'xshatishning qisqargan shakli - metafora deyish mumkin.

O'rta Osiyo xalqlarining qoraxoniylar davridagi hayotini har tomonlama yoritib bergan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida hoqonlarga xos fazilatlarni namoyon etadigan quyidagi o'xshatishlar qayd qilingan: "Hoqon... jangda arslonning yuragiga ega bo'lishi lozim... yovvoyi to'ng'izdek qaysar; bo'ridek kuchli; ayiqdek jasur bo'lishi kerak;

[1] Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I. –Тошкент: ЎзФА, 1963. –Б. 404.

ho'kizdek..., hakkadek..., qarg'adek..., tulkidek..., tuyadek..., arslondek... va boyqushdek... bo'lishi lozim"[1].

Insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o'z aksini topadi[2].

Professor N. Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi. "...o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi"[3].

***Erkin o'xshatishlar*** muallifning o'ziga xos original o'xshatishlari bo'lib, u yozuvchining mahoratini belgilaydi. Masalan, Oybek she'riyati o'ziga xos original o'xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi:

*Men ipak qurti kabi*
*Xayolimga o'raldim.*
*Tuyg'ularim girdobi*
*Orasida yo'qoldim.*

"Parchada murakkab hissiy holatning go'zal va real tasviri berilgan bo'lib, bu hissiy holatning asosiy va ajoyib mazmuni birinchi ikki misrada o'zining juda ham nozik ifodasini topgan, keyingi ikki misra esa ana shu ifodani yana ham aniqlashtirgan. "Ipak qurti kabi" tarzidagi o'xshatish etaloni ayni o'rinda nihoyatda original va ayni holat uchun juda ham mos. Ma'lumki, ipak qurti ipak chiqarib o'zini o'zi o'raydi va pilla hosil bo'ladi, o'zi esa uning ichida qolib ketadi, pilla - oppoq, u ana shu oqlik ichra pinhon bo'ladi. Shoir esa o'z xayoliga o'raladi, uni oq, pilladay oppoq xayollar, olovli tuyg'ular girdobi o'zining besarhad bag'riga oladi, shu oppoq bag'rida shoir pinhon bo'ladi. Teran va tarang mutanosiblik,

---

[1] Radlov W. Das Kutadku Bilik des Yusuf Chass Hadschib aus Balasagun. –St-Petersburg, 1891-1910. – P. 205-206.

[2] Маҳмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...док-ра филол.наук. –Ташкент, 1984. -Б 259.

[3] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 5.

o'xshashi yo'q, haqiqiy oybekona o'xshatish. Bu o'xshatishning poetik salohiyati shundaki, shoir u orqali faqatgina u yoki bu darajada tasavvur qilish mumkin bo'lgan hissiy holatni qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgan darajada "moddiylashtirib" yorqin surat drajasida lo'ndalashtirib ko'rsatgan"[1].

O'xshatish qurilmalaridan farqli o'laroq, o'xshatishga asoslangan matnlarda "o'xshatish asosi, ya'ni ikki obyektni o'zaro o'xshatish uchun asos bo'lgan referent so'z orqali emas, balki jumlalar orqali voqe bo'ladi. Masalan: *Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof... Na qo'lingiz bilan tutasiz. Na ortidan yugurib yetasiz... Shamol uni qayoqqa olib ketishini ham bilmaysiz... Birinchi muhabbatning ko'pincha natijasiz tugashi balki shundadir...* (O'.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar)[2].

Xalq og'zaki ijodida o'xshatishlar muhim ahamiyat kasb etadi. "...baxshi yoki ertakchi ham asarga o'z individual o'xshatish, qiyoslashlarini kiritishi mumkin. Ammo bu ham an'anaga, epik ijod qonuniyatiga mos kelmasa, asar sujetiga singishmaydi, uning "yotligini" xalq darrov anglab oladi. O'zida xalqning an'ana, udum, marosim, fikr tarzini ifoda etgan detalgina xalqona obrazning ma'nosini ochishi, kengaytirishi mumkin"[3].

***Turg'un o'xshatishlar***ning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi[4].

Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi[5].

---

[1] Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: "Ўзбекистон", 1992. –Б. 96-96.
[2] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик талқини. –Тошкент: Фан, 2013. –Б. 97-98.
[3] Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 70.
[4] Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 6.
[5] Некрасова Н. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов // Лингвистика и поэтик. –М.: Наука, 1979. –С. 225; Лебедова Л. Устойчивые сравнения русского языка. –Краснодар: Кубинский ГУ, 2003. –С. 3; Хакимзянов Ф. О

Lingvokulturologiyani ko'proq turg'un o'xshatishlar qiziqtiradi. Negaki, "turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi", "dunyoni o'ziga xos milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi"[1].

## 12. 2. Turli lingvomadaniyatlardagi o'xshatishlarning qiyosiy tahlili

Har xil lingvomadaniyatlardagi turg'un o'xshatishlarni qiyoslash insonning xarakteri va xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarning etaloni sifatida hayvon va jonivorlarni bildiruvchi so'zlardan ko'proq foydalanilganini ko'rsatadi. Masalan, qiyoslanilgan tillarning aksariyatida tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: *tulkiday ayyor, tilki gibi* (turkcha) *хитрый как лиса* (ruscha), *as false as fox* (inglizcha), *you kathi* (koreyscha). Mutaxassislarning ta'kidlashicha, G'arb va slavyan lingvomadaniyatlarida, xususan, ingliz va rus tillarida *as false as fox, хитрый как лиса* turg'un o'xshatishlari mifopoetik manbalarga asoslanadi, chunki qadimgi tasavvurlarga ko'ra, tulki jodugar hisoblangan, unda yo'qolish, ko'rinmaydigan bo'lib qolish qobiliyati mavjud bo'lgan[2]. Qayd qilingan xususiyatni Sharq lingvomadaniyatida, xususan, koreys va xitoy madaniyatida ham kuzatish mumkin. Koreys va xitoy mifologiyasida tulkining qizga aylanib qolishi keng tarqalgan.

Lingvomadaniyatlarning aksariyatida turg'un o'xshatishlarni obraz va uning mazmuni jihatidan bir-biriga muqobilligi, muqoyasa obyektlarining o'xshashligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "befahmlik, beso'naqaylik, qo'pollik" *ayiqday* (o'zbekcha), *ayı gibi* (turkcha), *ko'm kathi* (koreycha), *как медведь* (ruscha); "kuchli, qo'rqmas", "mardlik, jasorat" *arslon kabi* (o'zbekcha), *aslan gibi* (turkcha); "semirmoq", "ko'p ovqat yemoq" *cho'chqaday* (o'zbekcha), *As fat as a pig* (inglizcha), *tweji kathi* (koreyscha); "ko'p ovqat yemoq" *molday* (o'zbekcha), *so' kathi* (koreyscha); "befahm" *eshakday* (o'zbekcha), *eşek gibi* (turkcha), *как осел* (ruscha) va h.k. etalonlar vositasida ifodalanadi.

Lingvomadaniyatlarning aksariyatida ayni o'xshatish etalonlari turli belgilarning o'lchovi sifatida qo'llanilishi mumkin: o'zbek tilida *qo'ydek*

---

словаре устойчивых сравнений татарского языка // Российская тюркология. –Москва-Казань, 2010. -№2. –С. 80.

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. –С. 133-134.

[2] Панченко Н. Сравнение как средство дескрипции лжи и обмана // Основное высшее и дополнительное образование: проблемы дидактики и лингвистики. –Волгоград: ВГТУ, 2000. –С. 138-143.

"yuvoshlik", turk tilida *koyun gibi* "ahmoq, dovdir", "qaror berishda yoki xatti-harakatlarida boshqalarga tobe bo'lgan", rus tilida *овца* etaloni "qo'rqoqlik"; o'zbek tilida *bo'riday* "dovyurak, mard", "g'ajimoq, tish qayramoq", turk tilida *kurt gibi* "ishning ko'zini biladigan", rus tilida *как волк* "och"; o'zbek tilida *ilonday* "chaqmoq, zahar sochmoq", "sovuq", turk tilida *yılan gibi* "xoin, yoqimsiz", rus tilida *как змея* "badjahl"; o'zbek tilida *itday* "qopmoq", "sadoqatli", "akillamoq", "yugurmoq", "izg'imoq", "ergashmoq", "ishlamoq", "ichmoq" turk tilida *köpek gibi* "laganbardor", rus tilida *как собака* "aqlli"; o'zbek tilida *ho'kizday* "qaysar", "katta, qo'pol", "kuchli", "ishlamoq", turk tilida *öküz gibi* "ahmoq, tushunchasiz"; o'zbek tilida *maymunday* "sakramoq, irg'ishlamoq", "o'ynatmoq", turk tilida *maymun gibi* "g'alati, kulgili harakatlar qilmoq", "taqlidchi" va h.k.

Ba'zi lingvomadaniyatlar uchun me'yoriy hisoblangan o'xshatish etalonlari boshqa xalqlarning lisoniy mental an'analari uchun begona bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbeklarda xushbichim qomatli ayollarga *sarvday*, turklarda gavdali ayollarga *at gibi* o'xshatishi qo'llaniladi. Hindlarda sohibjamol qizning yurishi filning ulug'vor va mahobatli qadam tashlashiga muqoyasa qilinadi. Yoki hind ayoli sigirga qiyoslanganda u xursand bo'ladi, chunki hind xalqining idrokida sigir go'zallik timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, Hindistonda sigir muqaddas hayvon sanaladi.

O'zbek lingvomadaniyati uchun ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba'zan kulchaga, inglizlarda olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/), xitoy va koreyslarda o'rikka, majnuntol novdasiga qiyoslash me'yor hol hisoblanadi.

Xitoy va Koreyada ayollarni ilonga o'xshatilsa, ular xursand bo'lishadi. Chunki mazkur lingvomadaniyatlarda ilon donolik, go'zallik va epchillik ramzi hisoblanadi.

Ayni tushuncha turli lingvomadaniyatlarda o'zgacha ifoda vositalari, ya'ni boshqacha o'xshatish etalonlari vositasida aks ettirilishi mumkin. Masalan, baquvvat kishilarni o'zbeklar filga, inglizlar otga muqoyasa qilishadi: *filday baquvvat, strong as a horse.* Yoki o'zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (*chumoli-day*), turklar esa ariga o'xshatadilar (*arı gibi*).

Dunyoni obrazli qiyoslash maqsadida istifoda etiladigan ba'zi o'xshatish etalonlari boshqa lingvomadaniyatlarda frazeologizm yoki metafora ko'rinishida namoyon bo'lishi ham mumkin. Masalan, o'zbek madaniyatida "imillamoq, sudralmoq" ma'nosida qo'llaniladigan *toshbaqaday* etaloni koreys madaniyatidagi *kabo'k thata* (toshbaqa minmoq) frazeologizmiga muqobil bo'ladi. O'zbek tilida "semirmoq", "ko'p ovqat

yemoq"ni anglatgan *cho'chqaday* o'xshatish etaloni koreys tilida *tweji* (cho'chqa) ko'rinishida metaforaga aylanganini ko'rish mumkin. Yoki rus tilida "qo'rqoq" ma'nosi *как заяц* o'xshatishi bilan, turk tilida *tavşan yürekli* metaforasi bilan ifodalanadi.

Har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentalitetini, uning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi turg'un o'xshatishlar mavjud bo'ladi. Masalan, "o'zbek tilidagi *musichaday beozor (odam)* o'xshatishini boshqa tillarda uchratish qiyin. *Musichaday* o'xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda "beozorlik" belgisining o'zbekka xos ta'kidi yaqqol o'z ifodasini topgan. Musichaga xos yumshoq tabiat va harakat o'zbek idrokida ijobiy talqin topishidan tashqari, bu mushfiq qush haqidagi islomiy rivoyat ham musichaday etalonining an'anaga kirishiga ta'sir etgani ehtimoldan holi emas. Ana shu tariqa *musichaday beozor* turg'un o'xshatishi beozorlikning o'zbekcha o'lchovi sifatida tamoman milliy obraz maqomini olgan"[1]. Lekin hamma lingvomadaniyatlarda ham shunday emas. Masalan, ingliz tilida "beozorlik" timsoli sifatida "kabutar" qabul qilinganini kuzatish mumkin: *As harmless as a dove* (musichaday beozor). Yoki koreys tilida "sigirday beozor" birikmasini uchratish mumkin. Shuningdek, *cin gibi* o'xshatishi turk tiliga xos milliy-madaniy konnotatsiyani ifodalab, u "aqlli, bilimdon" belgisini ifodalashga xizmat qiladi. Chunki turk xalq ertaklarida *cin* (jin, ajina) aqlli, epchil, abjir obraz sifatida talqin qilinadi.

Turk madaniyatida *mushuk* asosiy uy hayvonlaridan biri hisoblanadi. U insonning eng yaqin do'sti, ovunchog'i, erkatoyi sanaladi. Buni turk xalqini uzoq yillar davomida yevropaliklar bilan yaqin qo'shnichilik munosabatida yashaganligi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham turk tilida *kedi gibi* (mushukday) o'xshatishi vositasida yasalgan iboralar keng tarqalgan. Masalan, aybdorligi bois bir chekkada indamay o'tirish holati *süt dökmüş kedi gibi* (sut to'kib yuborgan mushukday) frazeologizmi bilan ifodalanadi. Erkalanish, kimgadir yaqinlashishga uringan kishilar uchun *kedi gibi şımarmak* (mushukday erkalanmoq), uyatchan odamlarga nisbatan *kedi gibi masum* (mushukday ma'sum), ishi har doim o'ngidan kelgan, tegirmondan butun chiqqan odamga *dört ayağı üzerine düşen kedi gibi* (to'rt oyog'i ustiga tushgan mushukday), har qanday balodan, o'limdan qutilib qolgan odamga *kedi gibi dokuz canlı* (mushukday to'qqizta joni bor), bir joyda jim turolmaydiganlarga nisbatan *kedi gibi tırmanmak*

[1] Маҳмудов Н., Худойбергенова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 10-11.

(mushukday tirmalanmoq), birdan keskin harakat qilgan kishilarga nisbatan esa *kedi gibi sıçramak* (mushukday sakramoq) iboralari qo'llaniladi. Ayol va erkaklarning muayyan xatti-harakatlari ham *kedi gibi* o'xshatishli ibora vositasida tasvirlanadi. Masalan, ayollar uchun *kedi gibi sokulur* (mushukday suykalmoq), *kedi gibi koyna girer* (mushukday pinjiga kirmoq), *kedi gibi hırçınlanmak* (mushukka o'xshab hurpayib olmoq) kabi iboralar ishlatiladi. Mart oyida mushuklarning mov bo'lishi turk xalqining assotsiatsiyasida *mart kedisi gibi* (sho'x, xotinboz erkaklarga nisbatan qo'llaniladi) iborasini gavdalantiradi.

Garchi mushuk uy hayvoni bo'lsa-da, o'zbek madaniyatida unga munosabat boshqa xalqlarning madaniyatidan sezilarli darajada farq qiladi. Binobarin, o'zbek xalqining tushunchasida mushuk "sevimli, yoqimtoy" hayvon hisoblanmaydi. Tabiiyki, bunday munosabat tilda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi. Masalan, "qo'rquv, hadik bilan harakat qilmoq" ma'nosidagi *o'g'ri mushukday* komparativ frazeologizmidan salbiy munosabatni ifodalash uchun foydalaniladi. Yoki shalvirash, bo'shashish holati *suvga tushgan mushukdek* iborasi vositasida tasvirlanadi.

O'xshatishlar har bir xalqning iqlimi, fauna va florasi, joylashgan hududining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ham yaratiladi. Masalan, *So'fining tani shu topda Arabiston tog'larining saratondagi toshlariday qizib yonardi* (Cho'lpon. Kecha va kunduz). Cho'lpon tomonidan yaratilgan mazkur o'xshatishda Arabiston iqlimining juda issiqligidan kelib chiqqan holda, Razzoq so'fining ruhiy holati ifodalangan.

Mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari vositasida ham muayyan o'xshatishlarning vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Jumladan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" ma'nosida *Alpomishday*; rus tilida "jasur, botir" ma'nosida *как Ахиллс*, ingliz tilida "jasur va botir" ma'nosida *as brave as Robim Hood* o'xshatishlari qo'llaniladi.

Umuman, o'xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Lingvomadaniyatlarda o'xshatishlar qanday o'rin tutadi?
2. O'xshatish qanday hodisa?
3. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qaysi o'xshatishlar keltirilgan?

4. Erkin o'xshatishga ta'rif bering.

5. Turg'un o'xshatishga ta'rif bering.

6. O'xshatish etaloni sifatida qanday so'zlardan ko'proq foydalaniladi?

7. O'xshatishlar qanday shakllanadi?

8. Lingvomadaniyatlarning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirgan o'xshatishlarga misollar keltiring.

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. O'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlarni lingvomadaniy tahlil qilish.

2.Turli lingvomadaniyatlardagi o'xshatishlarni qiyoslovchi assotsiativ eksperiment o'tkazish.

| № | Stimul-so'zlar (o'xshatishlar) | Peaksiya-so'zlar (ma'nolari) |
|---|---|---|
| 1 | | |
| 2 | | |
| 3 | | |
| 4 | | |
| 5 | | |
| 6 | | |
| 7 | | |
| 8 | | |
| 9 | | |
| 10 | | |

## Adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. -Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.

3. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

4. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I. -Тошкент: ЎзФА, 1963. -499 б.

5. Маҳмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...док-ра филол.наук. -Ташкент, 1984.

6. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Маънавият, 2013. -320 б.

7. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. -Тошкент: "Ўзбекистон", 1992. -110 б.

8. Панченко Н. Сравнение как средство дескрипции лжи и обмана // Основное высшее и дополнительное образование: проблемы дидактики и лингвистики. -Волгоград: ВГТУ, 2000. -С. 138-143.

9. Усманова Ш. Оламнинг лисоний манзарасини яратишда ўхшатишларнинг ўрни // Sharqshunoslik № 1. -Тошкент, 2015. -Б. 76-81.

10. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -136 б.

11. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. -Қарши: Насаф, 1999. -172 б.

## 13-MA'RUZA
## METAFORA - MADANIYAT KO'RSATKICHI

**Reja:**
1. Metafora tildagi universal hodisa
2. Metaforalar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** metafora, obrazli-motivlashgan so'z, tafakkur, madaniy belgi, ongning universaliyalari, hosila ma'no, milliy-madaniy dunyoqarash, ma'no referentlari, differensial-semantik metod.

### 13. 1. Metafora tildagi universal hodisa

Xizmat taqozosi bilan xorijiy davlatlarda bir muddat bo'lib qaytganimdan keyin do'stlarim va yaqinlarim ko'pincha: "U yoqlarda ob-havo qanaqa ekan?" deb so'rashadi. "Havosi juda dim, namli" deyman. Bu o'ta jo'n javob bo'ladi va suhbatdoshlarimning men his qilganlarni menday his qilmaganliklarini payqayman. Shunda: "Kiyiming badaningga yopishib qoladi. Pardozlaring oqib ketadi. Baliqday nafas olasan" deb ma'joziy, metaforik tushuntirishga harakat qilaman. Ana shunda ularning yuz-ko'zlarida o'zlari bo'lmagan mamlakatning ob-havosi haqida o'zlari bo'lgandek tasavvur hosil bo'lganini ko'raman.

Zero, Gegel: "o'z ma'nosida qo'llaniladigan so'z o'z-o'zidan tushunarli ifodadir, metafora esa boshqacha ifodadir"[1], - deb yozgan edi. Qator adabiyotlarda metaforaning yashirin o'xshatish ekanligi qayd qilinadi[2]. Binobarin, Aristotelning fikricha, o'xshatish ham metaforadir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, *u sherday tashlandi* ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda *sher tashlandi* tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi[3].

**Metafora (yun. metaphora - ko'chirish) – hosila ma'no yuzaga kelishi, u biron predmet nomini boshqa predmetga o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirishdir.**

Ta'kidlash joizi, metafora hodisasi ikki ming yildan ortiq vaqtdan buyon dunyo filologiya ilmida tadqiq etib kelinayotgan bo'lsa-da, badiiyat

---

[1] Гегель. –М., 1969. –С. 115.
[2] Арнольд И. Стилистика современного английского языка. –Л.: Просвещение, 1973. –С. 146; Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 9.
[3] Аристотель. Риторика / Античные риторики. –М.: МГУ, 1978. –С. 134.

doirasidan, stilistika, ritorika doirasidan tashqariga chiqarilmadi. Yana ham to'g'rirog'i, o'tgan asrning boshlariga qadar metaforani fanga, fan tiliga terminologiyaga yot hodisa sifatida talqin etish ustuvorlik qilib keldi[1].

XX asrga kelib, ayniqsa, keying paytlarda kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metaforaga qarash butunlay o'zgardi, uning ko'lami kengaydi. Agar an'anaviy tushunishda "metafora" termini ostida bir so'zning boshqasi bilan almashtirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, bugun aksariyat tadqiqotchilar metafora tom ma'noda fundamental bilish faoliyatining namoyon bo'lishi ekanligini e'tirof etadilar[2].

Demak, metaforalarning mazmun jihati, shuningdek, ularga birikti-rilgan madaniy konnotatsiyalar kognitiv bilishning manbasiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham obrazli-motivlashgan so'zlar (metaforalar) madaniy belgilarning ko'rsatkichiga aylanadi. Lingvokulturologiyani metaforalarning aynan mana shu jihati qiziqtiradi.

Kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson metaforalarni shunday izohlashadi: "Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiya-tiga ko'ra metaforikdir"[3]. J.Lakoff va M.Jonson tadqiqotida tahlil etilgan *vaqt bu - pul, vaqt bu - cheklangan zaxira, vaqt bu - qimmatbaho buyum* kognitiv metaforalari o'zbek tilida so'zlashuvchi nutq egalari tezaurusida ham mavjudligi (Masalan: Bu ishga ko'p vaqt *sarfladim*; Vaqtim *tugay* deyapti; Behuda ishlar vaqtni *o'g'irlaydi*) bir qator kognitiv metafora-larning kognitiv-semantik universaliya ekanligidan dalolat beradi[4].

Tadqiqotlarda metaforalar ongning universaliyalari sifatida belgilan-gan. Zamonaviy psixologlar dunyoni metaforalar asosida ko'rishni inson-ning genezisi va madaniyati bilan bog'lashga harakat qilishadi. Bobo tilning metaforik xususiyatga ega bo'lgani, protokommunikatsiyaning esa metaforalar darajasida amalga oshirilgani haqida taxmin qilinadi.

Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, u barcha tilga xosdir. Uning universalligi makonda va zamonda, til strukturasida hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy

---

[1] Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. –Тошкент: "Akademnashr", 2014. -Б. 8.

[2] Чернышова Л.А. Отраслевая терминология в свете антропоцентрической парадигмы. –М.: МГОУ. 2010. –С.158.

[3] Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live. –Chicago: University of Chicago press, 2008; Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. –М., 1990. –С. 387-416.

[4] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. –Б. 49.

qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir[1].

"Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining faoli hisoblanadi. U tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi"[2].

Ba'zi mutaxassislarning fikricha, "metafora - o'xshatishning qisqargan shakli". Professor M. Mirtojiyevning yozishicha, "bu fikr ham o'rni bilan to'g'ri"dir. "Masalan, o'zbek tilida tokni zararlaydigan oidium kasalligini *kul* so'zining hosila ma'nosi ifodalaydi. Uni "kulga o'xshash kasallik" o'xshatish qurilmasining qisqargan shakli deyish juda to'g'ri bo'ladi. Bu o'rinda o'xshatish subyekti tushib qolib, o'xshatish qurilmasining faqat *kul* etaloni butun ma'nosini o'zida saqlagan va o'xshatishning qisqargan shakli - metafora yuzaga kelgan. Ya'ni buni metaforaning ayrim ko'rinishi sifatida ko'rsatish mumkin"[3].

N.D.Arutyunovaning qayd qilishicha, metaforada yolg'on va haqiqat o'zaro birlashadi... Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish, shu bilan birga, qisqargan qarama-qarshilik hamdir[4].

Metaforalarni ham xuddi o'xshatishlar singari turg'un va individual-muallif metaforalariga ajratish mumkin. Turg'un metaforalarga *dunyo - bu - teatr*, *dunyo - bu - kitob*, *sevgi - bu - olov*, *vaqt bu - pul* va h.k. misol bo'ladi.

Individual-muallif metaforalariga N.Eshonqulning "Tun panjaralari" nomli qissasidan olingan quyidagi mikromatndagi metaforalarni misol qilib ko'rsatish mumkin: "...Sen nega meni bu xilvatga, bu zulmatgan tashlab ketding? Nega qalbimdagi *imon chiroqlarini* o'chirding? Axir sendan buni kutmagandim-ku? Mana shu kichkina ko'rimsiz yuragimda *muhabbatning kemalari* suzib yurardi-ku? Sen nega meni *yolg'izlikning yirtqich quzg'unlariga* tashlab ketding? Nega meni *umidsizlikning oq ayiqlariga* yem qilib tashlab ketding?"[5].

Umuman, metaforalarni yaratish mexanizmi quyidagicha bo'ladi: turli mantiqiy sinflar orasidan umumiy xususiyatlar va belgilar asosida tenglashtirilgan ikki xil predmet tanlab olinadi. Masalan, *bosh* - "tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi qismi"; boshdagi yuqori, oldingi qismlik

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.88, 91.

[2] Baldinger K. Die Semasiologie. –Berlin: Akademie Verlag, 1957. –S. 87; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 76; Ҳожиев А. Семасиология // Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б. 221 ва бошқа манбалар.

[3] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –Б.95.

[4] Арутюнова Н.Д. Метафора дискурс / Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990. –С. 5-32.

[5] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. –Б. 104.

xususiyati "sabzavotning yumaloq o'rami" hosila ma'noga ko'chirilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida: *bir bosh piyoz*; turk tilida: *bir baş soğan*.

Metaforalar ma'lum "vaqt o'tishi bilan o'zining estetik qimmatini, yangiligini yo'qotishi mumkin". Masalan, *stolning oyog'i, shishaning og'zi* va h.k. Bunday holatlarda mazkur metaforalar obrazlilik yaratish vositasi sifatida iste'moldan chiqadi. Umuman, metaforalar tez eskirib, o'rniga yangisi kelib turishi bilan tavsiflanadi.

### 13. 2. Metaforalarning tahlili

Ayrim jonivorlar nomlaridan iborat lisoniy vositalar badiiy nutq tarkibida moddiy-mantiqiy ma'nolaridan uzoqlashib, insonning muayyan hislat-xususiyatini obrazli tasvirlashida qo'llaniladi. Bunday paytda uning fe'l-atvori, yurish-turishi, aql-zakovati va jismoniy layoqatida mavjud bo'lgan xususiyatlar alohida qayd etiladi. Mazkur lisoniy vositalar kasb etgan timsoliy ma'nolar nutqqa hissiy-ta'sirchanlik baxsh etadi. Insonning muayyan jonivor nomi bilan erkalatilishi, suyulishi yoki, aksincha, tahqirlanishi, haqoratlanishi odamlarning o'sha jonivorga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatiga, qarashiga bog'liq bo'ladi[1].

Masalan, eshak va xachirning turk va o'zbek lingvomadaniyatida salbiy tasvir ifodasi uchun majoziy qo'llanilishi an'anaga aylanib qolgan. Shuning uchun ham tarjimon turk tilidagi *eşşek* va *katır* metaforalarini ayni tipdagi *eshak* va *xachir* lingvomadaniy birliklariga bemalol almashtirgan:

*Uzatmayalım, bir tanzimat lafidır tutturdu.*

*- Ne istiyorsun? Dedim bir akşam...*

*Üç bin papel, demez mi?*

*Len, dedim, deli fişeği! Aklını peynir ekmekle mi yedin? Üç bin panganot ne ider biliyon mu?*

*- Biliyom, demez mi?*

*- **Eşşoğlu eşşek!** dedim, **hayvan! Katır!** dedim. Üç bin panganot bir kola kim verir be?* (Sait Faik. Mürüvvet, 156-157).

Tarjimasi:

*Ishqilib, nima bo'lsa ham, u tovon puli deb turib oldi. Bir kuni kechqurun undan:*

*- Senga nima kerak o'zi, - deb so'radim.*

*- Uch ming papel[2] kerak! - dedi.*

---

[1] Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 162-163.

[2] Eskirgan jargo so'z: 1 papel – 1 liralik qog'oz pul.

- *Hoy, ahmoq bola!* - *dedim,* - *aqlingni yeb qo'yibsan. Uch ming papel qancha pul bo'ladi, bilasanmi o'zing, buncha pulni kim berib qo'yadi sen ovsarga?*

- *Bilaman,* - *deb qolsa bo'ladimi?*

- *Menga qara,* ***eshak miya, xachirning bolasi!*** - *qaysi ahmoq sening bir qo'linga uch ming berib qo'yar ekan-a,* - *dedim fig'onim falakka chiqib* (S. Hamidova tarjimasi. Muruvvat, 50).

Lingvomadaniy birliklarni qiyoslashda yoki ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda o'sha davr madaniyati, xususan, xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Masalan, "Shekspirning "Qirol Lir" pyesasida Lirga o'zini afgor Tom deb tanishtirgan Edgan unga "o'tmish tarixi"ni hikoya qilib berar ekan, uning nutqida qo'llanilgan muqoyasaviy birliklar rus va o'zbek tillariga shu tillarda mavjud bo'lgan muvofiq lisoniy vositalar yordamida adekvat o'girilgan: *...hog in sloth, fox in stealth, wolf in greediness, dog in madness, lion in pray* - KL, 105 // *...был я свиньёй по лености, лисой по хитрости, волком по жадности, псом по ярости, львом по хищности* - КЛ, 539 // *...yalqovlikda cho'chqa, makkorlikda kal, so'qtoylikda bo'ri, badjahllikda it, vahshiylikda arslon edim* - QL, 429. Birliklar tarkiblarida jonivorlarning uch tilda ham bir xil xulq-atvorni jonlantira olishlari ularni moddiy jihatdan aniq tarjima qilish, aniqrog'i, ularni tayyor ekvivalentlari bilan almashtirish imkoniyatini bergan. O'zbekcha tarjimada makkorlik an'anaviy "tulki" emas, balki "kal" obrazi orqali jonlantirilgan ekan, ushbu holatda asliyatning davr xususiyati to'g'ri yaratib berilgan. Hozirgi paytda makkorlik va mug'ombirlikning tulki fe'l-atvoriga badiiy muqoyasa etilishi an'anaviy tus olgan bo'lsa-da, o'tmish o'zbek adabiyotida, xususan, xalq og'zaki ijodiyotida bu xulq "kal kirdikorlari"ga muqoyasa etilar edi"[1].

Metaforalar shirinsuxanlik tasvirini yaratish vositasi vazifasini ham bajaradi. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida shirinsuxanlikni ifodalash uchun "qo'zichog'im", "bo'talog'im", "asalim", "chirog'im", "oppog'im", "jonginam", "do'mbog'im", turk lingvomadaniyatida "şekerim", "bitanem", "kuzum", "yavrum", "hayatim", "ruhum", rus lingvomadaniyatida "голубчик", "котик", "зайка", "золотой" ingliz lingvomadaniyatida "baby", "honey", "dove", "frog", "sweet heart" kabi hissiy-ta'sirchan so'zlardan keng foydalaniladi.

Turk va o'zbek lingvomadaniyatlarida er-xotin o'rtasida o'zaro qo'llaniladigan o'ziga xos shirinsuxanlik so'zlari quyidagi misollar tarjimasida o'z ifodasini topgan:

---

[1] Мусаев Қ. Таржима назариясн асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 214-215.

*Kocasına,*

*- **Şekerim**, kahve yapayım mı? diye sordu.*

*Adam,*

*- Yap **bitanem**, yap **şekerim**... Orta şekerli olsun hayatım... dedi* (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika).

Tarjimasi:

*So'ng eridan so'radi:*

*- Qahva olib kelaymi, **jonginam**?*

*- Mayli, **azizam**, mayli... Ammo juda shirin qilib yubormagin, **asalim*** (M. Hakimov tarjimasi. G'aroyib bolalar, 187).

Ko'rilgan parchada asliyat va tarjima matnidagi shirinsuxanlik ifadalovchi *bitanem - azizam; şekerim - asalim; şekerim - jonginam* so'zlari bir-birini almashtirib kelgan.

### Nazorat uchun savollar

1. Metafora qanday hodisa?
2. Metafora va o'xshatish bir-biridan qanday farqlanadi?
3. Qaysi yo'nalishning shakllanishi metaforaga qarashni o'zgardi?
4. Lingvokulturologiyani metaforalarning qaysi jihati qiziqtiradi?
5. J.Lakoff va M.Jonson metaforalarni qanday izohlashgan?
6. Metaforalarning universalligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Metaforaning qanday turlari mavjud?
8. Shirinsuxanlik tasvirini yaratgan metaforalarga misollar keltiring.

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Turli lingvomadaniyatlardagi metaforalarni qiyosiy tahlil qilish.
2. "O'zbek tili enantiosemik so'zlarining izohli lug'ati"dan metaforalarni topish.

### Adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live. -Chicago: University of Chicago press, 2008. -256 p.

2. Baldinger K. Die Senasiologie. -Berlin: Akademie Verlag, 1957. -178 s.

3. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

4. Арнольд И. Стилистика современного английского языка. -Л.: Просвещение, 1973. -376 с.

5. Аристотель. Риторика / Античные риторики. -М.: МГУ, 1978. - 352 с.

6. Арутюнова Н.Д. Метафора дискурс / Теория метафоры. -М.: Прогресс, 1990. -С. 5-32.

7. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.

8. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. -М., 1990. -С. 387-416.

9. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

10. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Маънавият, 2013. -Б. 9.

11. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. -Тошкент: "Akademnashr", 2014. - 288 б.

12. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. -288 б.

13. Усманова Ш. Метафора ва унинг таржимада ифодаланиши // Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами. 3 қисм. -Тошкент, 2015. -Б. 14-20.

14. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии: Учебное пособие. Под ред. В.Д. Бондалетова. 5-е изд. -М. : Флинта: Наука, 2009. -184 с.

15. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -136 б.

## 14-MA'RUZA
## EVFEMIZM VA DISFEMIZM

**Reja:**
1. Evfemizm hodisasi
2. Evfemizmlarda madaniy o'xshashliklarning aks etishi
3. Evfemizmlarda madaniy farqlarning aks etishi
4. Disfemizm hodisasi

**Tayanch so'z va iboralar:** evfemizm, disfemizm, tabu, etnografik tabu, lingvistik tabu, ijtimoiy asos, madaniy o'xshashlik, ifoda, madaniy farq, tabu-taqiq evfemizmlari, raqamlar tabusi, vazn tabusi, xushmuomalalik evfemizmlari, evfemik so'z, evfemik ibora, hosila ma'no.

### 14. 1. Evfemizm hodisasi

Turli xalqlarning ruhiyati ularning tilida evfemizm va disfemizm yuzaga kelishi orqali namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur hodisalarni tadqiq etishda ana shu til egasi bo'lgan xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari, udumlari, irim-sirimlari, inonchlari diqqatga olinishi lozim.

**"Evfemizm" termini yunoncha "euphemism" < "eu" – "yaxshi" va "phemism" – "nutq", "so'zlashuv"dan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda "yaxshi alomatli so'z" ma'nosini ifodalaydi.**

Routledge Dictionary of Language and Linguistics (2000)da "evfemizm -kishilar uchun ishlatilishi yoqimsiz va beadab bo'lgan ayrim so'zlar o'rniga noaniq, ko'p ma'noli so'zlarni qo'llash va bu orqali o'zlarini noqulay holatlardan chiqarishga urinishlarini ifodalaydigan o'ziga xos bir usuldir", deb izohlangan.

Professor A. Hojiyev evfemizm hodisasini shunday izohlaydi: "Evfemizm - narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash" [1]. Evfemizm ifodaga ijobiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi[2].

---

[1] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: ЎзМЭ, 2002. -Б. 131.
[2] Вандриес Ж. Язык. –М.: Гос. соц.-экон. изд-во, 1937. –С. 206; Булаховский Л.А. Введение в языковедение. –М.: УЧПЕДГИЗ, 1954. –С. 49; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 284; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия. 1966. –С. 521.

Evfemizmlarning kelib chiqishida ijtimoiy asos yotadi. Kishilar ba'zan boshqalar bilan muloqot chog'ida o'zlari xohlagan narsani to'g'ridan-to'g'ri ayta olmaydigan yoki iboralarning o'z ma'nosida qo'llab, suhbatdoshlarini noqulay ahvolga solib qo'yadigan vaziyatlar bilan to'qnashib qoladilar. Bunday qiyin vaziyatlardan chiqib ketish maqsadida, kishilar o'z fikr-mulohazalarini vositali, "o'rab-chirmab" ifodalashga harakat qiladilar. Buning natijasida evfemizmlar yuzaga keladi[1].

Jamiyatning rivojlanishi bilan barcha tillardagi evfemizmlar ham o'zgarib borgan. Tabiiyki, bunday davomli o'zgarishlar madaniyatga bog'liq bo'lgan. Turli mamlakatlar o'ziga xos atrof-muhitga, ijtimoiy tuzilishga, mafkuraga, qadriyatlarga va ishlab chiqarish tizimiga ega. Bularning barchasi til qo'llanishida, binobarin, evfemizmlarning qo'llanishida ham o'z aksini topadi. Turli madaniyatlarni qiyoslash natijasida kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichidagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'ramiz.

### 14. 2. Evfemizmlarda madaniy o'xshashliklarning aks etishi

Evfemizmlar madaniy hodisa sifatida madaniyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Turli xalqlar evfemizmlaridagi madaniy o'xshashliklar ularga yuklangan vazifalarning bir xilligidan kelib chiqadi. Evfemizmlarni vazifalariga ko'ra: tabu-taqiq ifodalovchi evfemizmlar va xushmuomalalik ifodalovchi evfemizmlarga ajratish mumkin.

***Tabu-taqiq ifodalovchi evfemizmlari.*** Mavjud so'zga evfemistik ma'no yuklanar ekan, bu ma'no so'zning qo'llanmay qolgan ma'nosi bo'ladi. Ya'ni u leksik sathga mansub hisoblanadi. Uni asosan tabu bilan bog'laydilar. Tabuga uchragan so'z yoki ibora o'rnida to'g'ridan-to'g'ri evfemizm qo'llanadi, ya'ni ma'lum so'zga tabuga uchragan lug'aviy birlikning ma'nosi yuklanadi, u evfemistik ma'no bo'lib qoladi[2].

*Tabu* so'zini birinchi marta ingliz kapitani J. Kook 1777-yilda Polineziyadagi Tonga orolida aniqlagan. *Tabu* so'zi tonga tilidagi < *tapu* < *ta* - "belgilamoq", "ajratmoq" va *pu* - "butunlay" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "butunlay ajratilgan", "alohida belgilangan", ya'ni "man etmoq, taqiqlamoq" ma'nosini anglatadi. Tabu aksariyat xalqlarning mifologik inonchlari asosida vujudga keladi.

---

[1] Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P.66.

[2] Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 284.

**Tabu madaniy, diniy, irim yoki noxushlik uyg'otishi nuqtayi nazaridan muayyan xatti-harakatlar yoki ayrim so'zlar qo'llanishini taqiqlashdir.**

Tabular qo'llanishiga ko'ra, etnografik tabular va lingvistik tabularga ajraladi.

**TABU**

**Etnografik tabu**

**Lingvistik tabu**

*Etnografik tabular.* "Inson hamisha har bir hodisadan o'ziga manfaatli jihatlarini topishga urinadi. Xayolan bu manfaatlarni asoslashga sabablar axtaradi. Zamonlar o'tgani sari turmush tajribasi mazkur hodisalarni turlarga bo'lish, ulardan foydali va zararlilarni ajratish imkonini beradi. Oqibatda xalq tasavvurida bunday bo'lsa yaxshi, bunday bo'lsa, yomon degan tushunchalar paydo bo'ladi. Masalan, safarga chiqqan odam yo'lda oq tuyasi bor karvonni uchratsa, uning maqsadi amalga oshgan bo'lishi mumkin. Yo'lovchi uzoqdan bo'rini ko'rib qolsa, uning hayotida ijobiy o'zgarish ro'y bergandir. Tulkini uchratsa, aksincha bo'lgandir. Tushida bashang kiyinib, egarlangan oq otda chavandozlik qilgan yigitning ishlari yurishib ketgandir... Ukki sayragan hovli xonavayron bo'lgandir. Bu misollarning har biri o'nlab, yuzlab marta tajribada sinalgan. Ularning izohini har kim har xil sharhlagan. Ayrimlari o'sha kutilgan natijani bermagan hamdir. Lekin xalq ongida yillar o'tgani sari o'ziga xos hukmlar paydo bo'lib borgan. Bu hukmlar son jihatidan ko'payib urf-odatlarga, rasm-rusumlarga asos solgan. Suvga tupurma, qaldirg'och inini buzma, qarg'ishga qoladigan ish qilma, birovga tamasiz yaxshilik qil, hatto bir sochiqqa bir paytda ikki kishi qo'l artmasin, yoki shaftolini bo'lib yeb bo'lmaydi, kabi tushunchalar ana shunday hodisalarning ro'y berishi natijasida asrlar davomida o'zbeklar ongida shakllanib kelgan"[1].

O'zbeklarda supurgini, o'qlovni tik qo'ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik, suprani egasiz yig'ishmaslik, nonning ushog'ini yerga tushirmaslik, qaychini ochib qo'ymaslik, qalampirni qo'lga bermaslik,

[1] Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent.: Sharq. 2010. –B. 20-21.

turkiy va eroniy xalqlarda suvni ifloslatmaslik, suvga tupurmaslik, mo'g'ullarda qozondan pichoq bilan go'sht olmaslik, chodirda suv to'kmaslik, olovga yaqin joyda daraxt kesmaslik, qamchiga tayanmaslik va h.k. irimlar etnografik tabular hisoblanadi

**Tabu madaniy, diniy, irim yoki noxushlik uyg'otishi nuqtayi nazaridan muayyan xatti-harakatlar yoki ayrim so'zlar qo'llanishini taqiqlashdir.**

Uzoq Sharq madaniyatida, odatda taomlar ovqat yeydigan tayoqcha "kuayzi" (Xitoyda), "chokkarak" (Koreyada) vositasida iste'mol qilinadi. Xitoy va Koreyada "kuayzi"//"chokkarak"ni tushirib yuborish yoki sindirib qo'yish falokatdan xabar beradi. Shunga o'xshash etnografik tabuni o'zbek madaniyatida ham kuzatish mumkin. U rus madaniyatidan bizning turmushimizga o'tib kelgan sanchqi, qoshiq va pichoq tushganda mehmon keladi, degan irimdir. Xitoy va koreys lingvomadaniyatida "kuayzi"//" chokkarak" ovqat yeyishga mo'ljallangani uchun uni yalash yoki u bilan nimanidir, kimnidir ko'rsatish va boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish madaniyatni va an'analarni haqorat qilish, dasturxon atrofidagi qonun-qoidalarga nisbatan hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi. Kosadagi guruch yoki boshqa ovqatlarga "kuayzi"//"chokkarak" yoki qoshiqni tikka qilib tiqib qo'yish ham nomaqbul harakatlardan sanaladi. Chunki, faqat marhumga atalgan ovqatgagina "kuayzi"//"chokkarak" yoki qoshiq tiqib qo'yiladi. "Kuayzi"//"chokkarak"ning uchi dasturxon atrofida o'tirganlar-dan biriga qaratib qo'yilsa, janjal chiqadi, degan qarash mavjud. Shuning uchun ovqatdan so'ng, albatta, "kuayzi"//"chokkarak"ni maxsus taglikka yoki tarelkaning oldiga uchini chap tomonga qaratib qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xitoyda Yangi yil dasturxoniga pichoq qo'yilmaydi, chunki, kimdir qo'lini kesib olsa, u butun yil davomida omadini kesib tashlagan, ya'ni undan omad yuz o'girgan bo'ladi. O'zbek madaniyatida ham dasturxonga fotiha o'qilayotgan paytda pichoq olib qo'yiladi. Pichoq fotihani kesib qo'yadi, deb irim qilinadi. Xitoyliklar qalampirni to'kib yuborsa, sevgan odami xiyonat qiladi, o'zbeklar qalampirni qo'lga bersa, janjal chiqadi, deb irim qilishadi.

Shuningdek, musulmonlarda "Qur'on" kitobini tahoratsiz qo'lga olish, o'zbeklarda qiblaga oyoq uzatib o'tirish yo yotish, mo'g'ullarda pichoqni olovga tiqish man qilinadi. Bular diniy nuqtayi nazardan belgilangan tabulardir.

Umuman, tabular, taqiqlar, ogohlantirishlarning o'z asosli mantig'i, mazmuni va voqea-hodisalari bo'ladi. Ko'p marta takrorlangan mazkur hodisalarda hosiyat bo'lganligi uchun xalq bilib ularni taqiqlab, keyingi avlodlarni ogohlantirib ketgan. Shuning uchun ham tabular bir xalq madaniyatidan ikkinchisiga, uchinchisiga ko'chib yuradi.

*Lingvistik tabular.* Lingvistik tabu lug'aviy birlikning yo xalq irimi nuqtayi nazaridan, yo atash noxushlik uyg'otishi nuqtayi nazaridan muomalada qo'llanishining taqiqlanishidir[1]. Masalan, o'zbek tilida *chayon* so'zi tilga olinmaydi. Chunki uni atash chaqirish ma'nosini beradi, deb tushuniladi. Ma'lumki, bu hasharot xavfli bo'lib, zahari nihoyatda o'tkir. U chaqsa, qattiq azob beradi. Shuning uchun uning nomi o'zbeklarda taqiq qilingan. Ya'ni *chayon* so'zini tilga olmaslikning o'zi tabu deb qaraladi... U (ya'ni tabu ta'kid bizniki - Sh.U.) boshqa xalqlarda ham ko'plab uchraydi. Masalan, nemislar ham, ruslar ham, tatarlar ham o'z tillarida ayiqning nomini atamaydilar[2]. Umuman, "ovchilik tili"da evfemizmlarning keng qo'llanilishini ta'kidlash joiz. Masalan, rus tilida *медведь* so'zining o'rniga *лесник, хозяин, потапич* so'zlaridan foydalaniladi. Kabardin tilida *ayiq - maymoq, kiyik - sershox, to'ng'iz - yirik, bo'ri - kul rang, quyon - uch labli, ilon - uzun dumli* va h.k.dan istifoda etiladi.

"Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ijtimoiy ishlab chiqarish darajasi past bo'lgani sababli, kishilarda ilmiy va madaniy bilimlar yetishmagan. Shuning uchun ham ular turli irim-chirimlarga ishonishgan, to'g'ridan-to'g'ri Xudodan yoki ruhlardan so'rash baxtsizlik keltiradi, deb o'ylashgan. Natijada Xudo va ruhlarning ismi tabuga aylangan va ular boshqa nom bilan atala boshlangan. Masalan, G'arb mamlakatlarida nasroniylik rivojlangan davrlarda Xudoning "Iyegova" ismi eng katta tabu hisoblangani uchun uning o'rniga "Qudratli", "Yaratuvchi", "Qutqaruvchi", "Bizning Otamiz" va h.k. evfemizmlar qo'llanilgan. Yoki qadimgi Xitoyda imperatorlarning ismi bilan atash taqiqlangan.

Xitoyning birinchi imperatori Chin Shi Xuang 正月 "Zheng yue" (qamariya yilining birinchi oyi - the first month of a lunar year)dagi 政 "Zheng" (siyosat; adolat) belgisini talaffuz qilishdan qochish maqasadida, 正 "Zheng" (to'g'ri) belgisiga mos keladigan 端月 "Duan yue" (to'g'ri)ga o'zgartirilgan"[3].

---

[1] Булаховский Л.А. Введение в языковедение. –М.: УЧПЕДГИЗ, 1954. –С. 49; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия, 1966. –С. 467.
[2] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –Б.121.
[3] Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P.67.

Aksariyat lingvomadaniyatlarda keng tarqalgan evfemik so'zlardan biri "o'lim"dir. Insonlarning tasavvurida o'lim eng katta baxtsizlik sanaladi. Shuning uchun ko'pchilik xalqlarning tilida *o'lim* so'zi tilga olinmaydi va u turli evfemik so'zlar va iboralar vositasida ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilida: "vafot etmoq", "olamdan o'tmoq", "bandalik qilmoq", "bandalikni bajo keltirmoq", "halok bo'lmoq", "qazo qilmoq", "ketmoq", "o'tmoq", "kuzatmoq", "xayrlashmoq", "mangu uyquga ketmoq", "abadiy uyquga ketmoq", "tuproqqa qaytmoq"; turk tilida: "vefat etmek", "gitmek", "uğurlamak" (kuzatmoq), "vedalaşmak", "gözünü yummak", "yaşamını yıtırmak", "dünyaya gözlerını kapamak", "hayatını teslim etmek", "hayata gözlerini yummak", "helak olmak", "ebediyete intikal etmek"; koreys tilida: "torakata" (qaytib ketmoq), "hanil nara kata" (osmon shohligiga ketmoq); xitoy tilida: "chu shi" (hayotdan ketmoq), "sang ming" (halok bo'lmoq), "chang mian" (abadiy uyquga ketmoq), "yao zhe" (hayotdan bevaqt ketmoq), "ming mu" (ko'z yummoq); hindiy tilida: "chale jana" (ketmoq), "guzar jana" (o'tmoq), "dam nikalna" (ruhi chiqmoq), "kxo jana" (unut bo'lmoq), "dehant hona" (kuni bitmoq); rus tilida: "скончаться", "уйти", "ушёл из жизни"; ingliz tilida: "to pass away" (o'tmoq), "to expire" (vafot etmoq), "to be no more" (boshqa bo'lmaslik), "to breathe one's last" (so'nggi nafasini bermoq), "to come to an end" (abadiyatga ketmoq), "to sleep the final sleep" (mangu uyquga ketmoq), "return to dust" (tuproqqa qaytmoq), "to be at peace" (huzurga qovushmoq), "to be asleep in the arms of God" (Xudoning qo'llarida uyquga ketmoq) va h.k. shular jumlasidandir.

***Xushmuomalikni ifodalovchi evfemizmlar.*** "Xushmuomalalik" tushunchasi tilshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarda "kommunikativ tafakkur kategoriyasi, milliy mentalitetning aks etishi", deb talqin qilinadi[1]. Xushmuomalalik strategiya va usullar tanlashda namoyon bo'lib, muloqotchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni boshqaradi. *Xushmuomala* so'zi "muomalasi, gap-so'zlari, xatti-harakati yoqimli: xushfe'l"; "odob bilan yoqimli muomala qilish", "odob-axloq qoidalariga rioya qiladigan, tarbiyali" ma'nolarini anglatadi.

Kishilar ko'pincha o'z nutqi va xatti-harakatlari bilan boshqa shaxsga nisbatan hurmat va ehtirom darajasini ifodalash uchun qo'pol, beadab so'z va iboralar o'rnida yoqimli evfemik so'z va iboralardan foydalanishadi. Masalan, *ikkiqat*, *bo'g'oz* (o'zbek tilida), *gebe* (turk tilida) so'zlari o'rnida

---

[1] Ларина Т.В. Категория вежливости и стили коммуникации: монография. –М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. -507с.; Пшеничникова А.Б. Гендерные спецификации вежливости в директивных речевых актах в американской лингвокультуре: интердискурсивный подход: автореф. дис.... канд. филол. наук: 10.02.04 / ИГЛУ. – Иркутск, 2009.

*homilador, og'ir oyoqli* (o'zbek tilida), *hamile* (turk tilida) so'zlari qo'llaniladi. Yoki *nogiron* (o'zbek tilida), *özürlü* (turk tilida), 残废 *"tsan fei"* (xitoy tilida), *инвалид* (rus tilida) *handicapped* (ingliz tilida) so'zlari "kuchsiz, yaroqsiz" ma'nolarini ifodalagani uchun hozirda ularning o'rniga *imkoniyati cheklangan shaxs* (o'zbek tilida), *engelli kişi* (turk tilida), 残疾 *"tsan ji"* (xitoy tilida), *человек с ограниченными возможностями* (rus tilida), *disabled* (ingliz tilida) kabi evfemik so'z va iboralar ishlatilmoqda. Shuningdek, bugungi kunda mazkur so'z va iboralar barqarorlashib, ulardan ommaviy axborot vositalarida, qonun hujjatlarida va BMTning rasmiy materiallarida keng foydalanilmoqda.

Murojaat shakllariga ham evfemistik ma'no yuklanganligini kuzatish mumkin. "Ba'zi o'zbek oilalarida erkak xotiniga katta qizining ismi bilan, xotin esa eriga katta o'g'lining ismi bilan murojaat qiladi. Xotinga nisbatan *onasi, oyisi, ayasi,* erga nisbatan *otasi, dadasi, adasi* kabi murojaat shakllarini qo'llash mumkin: *To'g'ri, dadasi, men aytaman. Hoy onasi, suyunchini cho'z.* Mazkur murojaat shakllari ibtidoiy davrlardan qolgan tabu qoldig'i bo'lib"[1], u oilada er-xotindan ko'ra ko'proq bolalarning ota-ona juftligini, sherikligini, ya'ni bolalarning qadrini, ahamiyatini namoyon qiladi. Ayni holat koreys tilida ham kuzatiladi. Oilada farzand tug'ilgandan keyin er-xotinning munosabatlari o'zgacha tus oladi. Ularning bir-biriga bo'lgan hurmati yanada ortadi. Bu hurmat katta farzandning ismini qo'shib murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Masalan, er xotiniga (farzandning ismi+omma) *Arim-omma* "Arimning onasi", xotin esa eriga (farzandning ismi+abba) *Arim-abba* "Arimning otasi" yoki *egi abba* "bolamning otasi", deb murojaat qiladi.

### 14. 3. Evfemizmlarda madaniy farqlarning aks etishi

Madaniyatlararo muloqotda madaniy farqlarni o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Binobarin, Sharq madaniyati uchun me'yoriy hisoblangan holatlar G'arb madaniyati uchun tabu, yoki aksincha, bo'lishi mumkin. Madaniy farqlar, ayniqsa, keksalar bilan muloqotda, ovqatlanish odobida, murojaat shakllarida, raqamlarni qo'llashda, ayol va erkaklar muloqotidagi gender farqlarda va h.k.da kuzatiladi.

***"Keksalik"ka bo'lgan turli munosabatlar.*** Odatda, g'arbliklar keksalikdan qo'rqishadi. Ularning fikricha, keksalik "yemirilish, inqiroz"ni tamsil etadi. Shuning uchun ham aksariyat G'arb mamlakatlarida boshqalardan yoshini so'rash beodoblik sanaladi. Chunki "yosh" juda nozik masala hisoblanadi. Binobarin, keksa yoshlilarni ifodalash uchun

[1] Kuçkartayev İ. Özbeklerde Hitap Sözleri ve Hitap Kültürü // Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. -Ankara., 2000. -S. 325.

ingliz tilida "*senior citizen* (keksa, oqsoqol), *advantage in age* (yoshdagi afzallik), *the mature* (yetilgan, pishgan), *seasoned man* (tajribali), *full of ages* (yoshi ulug'), *be feeling one's ages* (yoshi sezilarli bo'lib qolmoq), *past one's prime* (davri-davroni o'tmoq, keksayib qolmoq)" singari qator evfemizmlar qo'llaniladi[1].

Aksincha, Sharq an'analarida keksalarga chuqur hurmat-ehtirom ko'rsatiladi. "Keksalik" deganda donolik va tajriba tushuniladi. Zero, Sharqda yoshi ulug' kishilar doimo hurmat-e'tiborda bo'lib, keksalik gashtini suradilar. Sharq madaniyatida "mendan katta //kichik" shartiga amal qilinadi. Kattalarga har doim "sizlab" gapiriladi.

Yoshi katta kishilarga ismi bilan murojaat qilish me'yoriy hol sanalgan G'arb madaniyatidan farqli o'laroq, Sharq madaniyatida keksalarga *otaxon, onaxon,* koreys tilida *abonim, omonim, haraboji, halmoni,* xitoy tilida "老" "lao" (yoshi ulug', tajribali) deb murojaat qilinadi. Ba'zi turk oilalarida farzandlar otasiga yoki kelinlar qaynotasiga *efendi baba* deb, hurmatning yuqori darajasini qo'llaydilar. Odatda yaqinlik, sevgi va hurmat singari modal munosabatlar *'-cığım'* va *'ciğim'* qo'shimchalari vositasida ifodalanadi: *Babacığım, pencereyi kapatabilir miyim?* "Otajon, derazani yopsam maylimi?".

Sharqda, ayniqsa, ota-onalarga yuksak ehtirom ko'rsatish farzandlarning muqaddas burchi sanaladi. Ota-onalarni e'zozlash, ularga chuqur hurmat va ehtirom ko'rsatish Sharq mutafakkirlarining asarlarida doimo ta'kidlab kelingan. Xususan, Alisher Navoiy "Nazmu-l-javohir" asarida shunday yozgan:

Ista ato yo'lida fido jon qilmoq,
Qulluq anog'a ham ulcha imkon qilmoq,
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,
Bil ani ato-anog'a ehson qilmoq.

Otangni deb joningni fido qilsang, onagga ham shuncha e'tibor qilgin, o'zing uchun qadrli, ehtiyotli narsangni ham ota-onangga ehson qil, deb uqtiradi[2].

***Raqamlarning qo'llanishidagi tabular.*** Madaniyatlar qiyosida raqamlar haqidagi turli tabularni ko'rish mumkin. G'arb madaniyatida 13 raqamiga baxtsizlik keltiradi, deb qaraladi va kundalik hayotda bu raqamdan foydalanmaslikka harakat qilinadi. Masalan, 13 kishining stol atrofida yig'ilib, tushlik qilishi yoki majlis o'tkazishi deyarli kuzatilmaydi.

---

[1] Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 68.

[2] Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, Н.Сайдуллаев. –Тошкент: "Sano-standart", 2016. –Б. 82.

Shuningdek, dasturxonga 13 kishilik idish-tovoq qo'yish taqiqlanadi. Uy, xonadon, qavat va boshqalarda barcha bu raqamdan foydalanishdan qochadi[1].

Xitoy va Koreyada 4 raqami qat'iyan an'anaviy tabu hisoblanadi. Chunki xitoy tilining talaffuz qoidalariga ko'ra, 4 soni "si" (to'rtinchi ohang) shaklida talaffuz qilinib, u "o'lim/ o'lmoq" ma'nosidagi boshqa "死" "si" (uchinchi ohang)ga juda yaqin turadi. Shuning uchun mazkur raqam xushlanilmaydi va undan eshik, uy, xona, qavat, telefon va tarixiy sanalarni belgilashda foydalanilmaydi. Hatto, xitoyliklar 4 raqamli turar joylar sotib olishdan ham qo'rqishadi. Aksincha, xitoy tilidagi 8 raqami "ba"ning talaffuzi "boy bo'lmoq", "pul topmoq" ma'nolarida qo'llaniladigan "fa" so'ziga yaqin bo'lgani uchun undan keng foydalaniladi.

***Vazn bilan bog'liq tabular.*** Keyingi yillarda qator mamlakatlarda yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi natijasida kishilarning vazni og'irlashib borayotgani kuzatilmoqda. Ortiqcha vazn og'irligi, ayniqsa, ayollarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarda ayollardan ularning vazni haqida so'ramagan ma'qul.

Xulosa qilib aytganda, evfemizmlar kelib chiqishi jihatidan uzoq tarixga ega bo'lgan lisoniy va ijtimoiy-madaniy hodisadir. Evfemizmlar xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari, udumlari, irim-sirimlari va inonchlarini aks ettiradi. Turli lingvomadaniyatlardagi evfemizmlarni qiyosiy o'rganish madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan tushunmovchiliklarni, qiyinchiliklarni oldini oladi, pragmatik to'siqlarni bartaraf etib, muloqotning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

## 14. 4. Disfemizm hodisasi

**Disfemizm tilning yashovchan qatlami bo'lib, u ifodaga salbiy yondashuvni anglatadi. *Disfemizm* so'zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini bildiradi.**

Disfemizmlar so'zning deyarli hosila ma'nosi sifatida yuzaga keladi. U hosila ma'noni yuzaga keltiruvchi quyidagi hodisalar natijasi bo'ladi[2]:

---

[1] Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. –P. 68.

[2] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –Б.131.

1. Metaforaga ko'ra hosil bo'ladi. Masalan, *cho'chqa* (o'zbekcha), *domuz* (turkcha), *tweji* (koreyscha); *tulki* (o'zbekcha), *tilki* (turkcha), *you* (koreyscha).

2. Metonimiyaga ko'ra hosil bo'ladi. Masalan, *chuvrindi, eshak* kabi disfemizmlar odamga nisbatan qo'llanar ekan, yo uning ustidagi, yo uning harakatiga qarab aloqadorligi nazarda tutilgan.

3. Sinekdoxaga ko'ra hosil bo'ladi. Masalan, *qorin* (o'zbekcha), *göbek* (turkcha), *kalla* kabi disfemizmlar odamga nisbatan qo'llanar ekan, uning belgili muchasi e'tiborga olinadi.

Sharq mutafakkirlaridan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida tilning fazilatlari, foyda va zararlari xususida: "Odamni til ulug'laydi, uni baxtiyor qiladi, shuningdek, til odamni beqadr ham qiladi, uning boshiga balolar keltiradi"[1], deb aytgan hikmatini bir necha asrlar oldin evfemizm va disfemizmlarga berilgan eng yaxshi ta'riflardan biri deyish mumkin.

### Nazorat uchun savollar

1. Evfemizm qanday hodisa?
2. "Tabu" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
3. Tabu-taqiq ifodalovchi evfemizmlarga misollar keltiring.
4. Sharq madaniyatida "keksalik"ka qanday munosabatda bo'linadi?
5. Etnografik tabuni misollar vositasida izohlab bering.
6. Turli madaniyatlarda raqamlarning qo'llanishidagi farqlarni tushuntiring.
7. Koreya va Xitoy madaniyatida vaznga qanday munosabat bildiriladi?
8. Disfemizm qanday hodisa? Uni misollar yordamida tushuntiring.

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Turli lingvomadaniyatlardagi etnografik tabularni qiyosiy tahlil qilish.
2. "Turli lingvomadaniyatlarda evfemizmlarning ifodalanishi" mavzusida referat tayyorlash.

### Adabiyotlar

1. 1 Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. -5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.

2. Kuçkartayev İ. Özbeklerde Hitap Sözleri ve Hitap Kültürü // Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. -Ankara, 2000.

[1] Қадимги ҳикматлар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –Б. 95.

3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent.: Sharq, 2010. -208 b.

4. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

5. Wang Xiaoling, Zhang Meng, Dong Hailin. Cross-Cultural Contrastive Study of English and Chinese Euphemisms // Cross-Cultural Communication. Vol. 8(6). Canadian Academy of Oriental and Occidental Culture, 2012. -P. 66-70.

6. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. -Тошкент: "Sano-standart", 2016. -520 б.

7. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. - М.: Флинта, 2012. -376 с.

8. Ларина Т.В. Категория вежливости и стили коммуникации: монография. -М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. -507с.

9. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

10. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. -288 б.

11. Пшеничникова А.Б. Гендерные спецификации вежливости в директивных речевых актах в американской лингвокультуре: интердискурсивный подход: автореф. дис.... канд. филол. наук: 10.02.04 / ИГЛУ. - Иркутск, 2009.

12. Усманова Ш. Турли лингвомаданиятларда эвфемизмларнинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2017. - № 3. - Б. 20-25.

13. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -136 б.

14. Қадимги ҳикматлар. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. -432 б.

## 15-MA'RUZA
## LAKUNA VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

**Reja:**

1. "Lakuna" tushunchasi
2. Lakunalarning turlari
3. Lakunalarni bartaraf etish yo'llari

**Tayanch so'z va iboralar:** lakuna, bo'shliq, zid so'zlar, oraliqlar, fonli leksika, realiya, madaniyatlararo muloqot, muqobil, verbal, noverbal, kommunikatsiya, muloqotning uzilishi, lisoniy to'qnashuv, madaniy shok, subyektiv lakunalar, milliy-psixologik lakunalar, faoliyat-kommunikativ lakunalar, matniy lakunalar, madaniy makondagi lakunalar, etnografik lakunalar, retsipiyent, assotsiatsiya to'ldirish usuli, kompensatsiyalash usuli, lakunologiya.

### 15. 1. "Lakuna" tushunchasi

"Lakuna" termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga shunday ta'rif berilgan: "Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi"[1].

**Lakuna (lot. lacuna "bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy"; frans. lacune "bo'shliq, bo'sh joy") – biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan so'z va so'z birikmalari.**

V.G. Gak lakunalarni "tilning leksik tizimidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarning mavjud emasligi"[2], deb tushuntiradi. Tadqiqotchi lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarning mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi so'zlarning yo'qligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud bo'lishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan *сутка* va *кипяток* so'zlarining mavjud emasligini keltiradi.

Lakunalar (J.P. Vine va J. Darbelne, V.L. Muravev), oraliq, lakuna (K. Xeyl), zid so'zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog'lar (Y.S. Stepanov), tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar (V.G. Chernov),

[1] Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –P. 10.
[2] Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л.: "Просвещение", 1976. – С. 261.

muqobilsiz, nol so'z (I.A. Sternin), muqobilsiz yoki fonli leksika (L.S. Barxudarov, Y.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov), tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika (L.S. Barxudarov) va h.k. qo'llanilganini ko'rish mumkin.

S.Vlaxov va S.Florinlar lakuna hodisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo'lgan realiyalar, ya'ni "biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan so'z va so'z birikmalari"[1] sifatida talqin qilishgan. O.A. Ogursovaning fikricha, mazkur leksemalar qiyoslanayotgan tillarda o'xshashi bo'lmagan so'zlardir. Olima *lakuna* terminini qo'llashni ma'qul ko'radi va uni so'z birikmasi emas, konnotatsiyadan holi bo'lgan qisqa so'z ekanligini; tasvirlanayotgan hodisani *farqlilik darajasi xususida so'z yuritish mumkin bo'lgani uchun* unga nisbatan muqobilsiz terminini qo'llashning o'rinsiz ekanligini qayd qiladi. "Lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo'lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so'zlar va so'z birikmalaridir"[2].

Aksariyat tadqiqotchilarning tillar va madaniyatlardagi farqliliklarni tahlil qilishda "lakuna" (lot. lacuna - bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy; frans. lacune - bo'shliq, bo'sh joy) terminini qo'llashlari bejiz emas. A.M.Proxorovning tahriri ostidagi "Советский энциклопедический словарь" (M., 1981)da tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi lakunalar "matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy" deb izohlangan. Bunga o'xshash izohni "Словарь иностранных слов" (M.,1984)da ham uchratish mumkin.

Muayyan xalqning madaniyatida boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan stereotip xarakterdagi bir qator o'ziga xos unsurlar mavjud bo'lib, ular Y. A. Sorokin va I.Y.Markovinalar tomonidan lakunalar deb nomlanadi. Retsipiyent har doim ham o'zga madaniyat matnini to'liq tushuna olmaydi. Matndagi ayrim birliklar unga g'alati tuyuladi va ular maxsus izoh talab qiladi. Bunday birliklar matn yaratilgan madaniyatning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, lacunalarni yuzaga chiqaradi.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida "yurist, advokat" ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* "vakil", *barrister* "oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat", *solicitor*

---

[1] Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. –М.: Высш. шк., 1986. –С. 55.

[2] Огурцова О.А. К проблеме лакунарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. –С. 79.

"mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega", *counsel* "yuristkonsult", *counsellor* "maslahatchi", *advocate* "oliy darajadagi advokat" kabi so'zlar ham qo'llaniladi. Mazkur ifodalarga o'zbek va rus tillaridagi faqat *advokat* so'zigina muqobil bo'la oladi.

O'zbek tilida onaning onasiga ham otaning onasiga ham *buvi*, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham buva deyilsa, turk tilida *anneanne, babaanne*, koreys tilida otaning onasiga *halmoni*, otaning otasiga *haraboji*, onaning onasiga *vihalmoni*, onaning otasiga *viharaboji* deyiladi. Yoki koreys tilida *ɔbba* "aka" ayollarning, *hyŏŋ* "aka" erkaklarning, *onni* "opa" ayollarning, *nuna* "opa" erkaklarning nutqida ishlatiladi"[1].

Ko'rinadiki, o'zbek tilida onaning onasi // otaning onasi, onaning otasi // otaning otasi kabi tushunchalar mavjud bo'lsa-da, ularni ifodalash uchun faqat ikki so'z: *buvi* va *buva*dan foydalaniladi. Turk va koreys tillarida esa bu tushunchalarning har biri alohida so'zlar (*anneanne, babaanne, halmoni, vihalmoni, haraboji, viharaboji*) vositasida ifodalangan.

Demak, mazkur so'zlar o'zbek tilida lakunalarni yuzaga chiqaradi.

### 15. 2. Lakunalarning turlari

Madaniyatlararo verbal va noverbal kommunikatsiya jarayonida "muloqotning uzilishi", "muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi", "noqulay aloqa", "lisoniy to'qnashuv", "madaniy shok" va h.k. ijtimoiy-madaniy lakunalarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-madaniy lakunalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Turli lingvomadaniyat jamoalari vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan subyektiv lakunalar. *Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar* madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning milliy-psixologik qarashlari bir-biriga mos kelmaganda yuzaga keladi. Masalan, nemislar o'ta tartibliligi bilan boshqa xalqlardan ajralib tursa, koreyslar aksariyat hollarda kech qolishi bilan boshqa xalqlardan farqlanadi.

Turli xalqlar madaniyatida uchrashganda, hol-ahvol so'ralganda, jumladan, amerikaliklar ko'proq "ob-havodan va siyosatdan", yaponlar "ob-havodan va tildan", o'zbeklar"bola-chaqadan" gap ochsalar, xitoyliklar "Ovqat yedingizmi?" (你吃饭了吗? - Ni tish le ma?), deb so'rashadi. Mazkur odatni koreys madaniyatiga ham ko'chganini kuzatish mumkin.

---

[1] Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. –Б. 152-156.

Koreyslarda salomdan keyin "Ovqat yedingizmi?" (식사하셨어요? - Shiksa hashyossoyo?) yoki "Ovqat yedingmi?" (밥먹었어? - Bab mokosso?), deb so'rash an'anaga aylangan. Buni xitoy va koreys xalqlarining ko'p asrlik tarixida yashash uchun olib borilgan kurashi bilan izohlash mumkin (Shuni alohida ta'kidlash joizki, Koreyada 1945-yillarda, Xitoyda 1960-yillarda ocharchilik keng tarqalgan edi).

Yapon jamiyati muloqot shakllaridagi "o'ziniki-begona" qarama-qarshiligi ham subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalarni aks ettiradi. Yaponiyada "o'zinikilar" bilan dialektlar vositasida muloqotga kirishilsa, "begonalar" bilan, xususan, chet elliklar bilan adabiy tilda muloqot qilinadi[1].

2.Turli faoliyatlarning o'zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradigan *faoliyat-kommunikativ lakunalari*. Mazkur guruhga muayyan madaniyatga xos bo'lgan xatti-harakat va imo-ishoralar, urf-odatlar, an'analar bilan bog'liq maishiy yoki kundalik muomala, shuningdek, muomala madaniyati kiradi. Masalan, dunyoning deyarli barcha madaniyatlarida "Bu kitob sizniki emasmi?" yoki "Ertaga band emasmisiz?" savoliga bir o'zbek "Yo'q, meniki emas", yoki "Yo'q, band emasman", deb inkor manosida *bosh chayqab* javob beriladi. Koreys madaniyatida "Ne, ne cheki animnida" ("Ha, meniki emas") "Ne, babiji ansimnida" ("Ha, band emasman"), yapon madaniyatida "Hay, watashino dewa arimasen" ("Ha, meniki emas") deb avval, tasdiq manosida *bosh irg'atib*, keyin esa inkor manosida *bosh chayqab* javob beradi. Chunki koreys va yapon muloqotida suhbatdoshni ranjitmaslik, uni hurmatlash birinchi o'rinda turadi.

Chaqirish ma'nosida o'zbeklar *qo'lini oldinga uzatib, kaftini yuqoriga qaratib to'rtta barmoq* yoki *ko'rsatkich barmoq* bilan "bu yerga kel" deb ishora qilishadi. Koreys va yaponlarda bu ishora itlarni chaqirish uchun qo'llaniladi. Koreys va yapon noverbal muloqotida biron kishini chaqirish uchun *qo'lini oldinga uzatib, kaftini pastga qaratib to'rtta barmoqni silkitish* harakatidan foydalaniladi[2].

O'zbek madaniyatida *ko'rsatkich barmoq to'g'riga yo'naltirish* harakati biron kishi yoki narsani ko'rsatish uchun qo'llanilsa, Uzoq Sharq madaniyatida *ko'rsatkich barmoq bilan ko'rsatish* tarbiyasizlik, odobsizlik hisoblanadi; shuning uchun ham mazkur madaniyatlarda biron kishi,

---

[1] Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – B. 152-156.

[2] Usmanova Sh. Madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalarning ahamiyati // Madaniyatlararo muloqot masalalari: til, matn, tarjima. Ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Toshkent: ToshDShI, 2016. –B. 15

narsa, joy yoki yo'l so'ralganda kaftlarini yuqoriga yozib, ko'rsatib ishora qilinadi. O'zbeklar "men", "menmi?" ma'nosida bosh yoki ko'rsatkich barmoq bilan *o'zini niqtab korsatsa*, koreyslar *kafti bilan o'zini ko'rsatadi.* Yaponlar esa ko'rsatkich barmog'i bilan burnini ko'rsatib, "men" ma'nosini ifodalaydi. [1] . Bunday lakunalarning voqelanishi nafaqat u yoki bu muloqotning noto'g'ri tushunilishiga, balki madaniyatlararo to'qnashuvlarni ham yuzaga chiqarishi mumkin.

Ba'zan turli xalqlar madaniyatida ranglar ifodalagan ramziy ma'nolar ham o'ziga xos lakunalarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, rus lingvomadaniyatida yoshlik *"зелёный юнец"*, *"зелен виноград"* yashil rangning konnotatsiyalari vositasida ifodalansa, Xitoy an'analarida mazkur ma'no uchun oq rang konnotatsiyasidan foydalaniladi: *bai mian shu shen* -"tajribasiz yoshlar, ilmga yangi kirib kelgan"[2].

3. Matnlarning xususiyatlari (matnning mazmuni, matnni yaratish va uni tushunish, muayyan retsipiyentga yo'nalish, muallif poetikasi va h.k.)dan kelib chiqadigan *matniy lakunalar*. Masalan, retsipiyent ona tilida bo'lmagan matnni o'qish jarayonida unga "begona" bo'lgan madaniyat bilan to'qnashadi va uni o'zining milliy madaniyati doirasida qabul qilishga harakat qiladi. Natijada retsipiyent "begona" madaniyatning o'ziga xos xususiyatini noto'g'ri talqin qiladi. Bunday holatlarda lakunalar matnni tushunmaslikdan yuzaga keladi. Shuningdek, muallif va kitobxon orasidagi zamonda (zamonaviy kitobxon klassik asarlarni tushunmasligi mumkin) ham farq bo'lishi mumkin.

4. Madaniy makondagi lakunalar u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining madaniy makon va ichki ko'rinishni baholashdagi nomutanosibligini ifodalaydi. Muloqot jarayoni keng ma'noda olinganda *madaniy makondagi lakunalar*, tor kommunikativ akt miqyosida olinganda *ichki ko'rinish lakunalari* deb yuritiladi. Madaniy makon deganda har qanday madaniyat tashuvchisini o'rab olgan muhitning cheksizligi tushuniladi. Madaniy makonning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining atrof-muhitga qanday ahamiyat berishi;
- mazkur jamoa vakillarining turmush tarzi, hayoti;
- mazkur jamoa vakillarining bilimlar zaxirasi, madaniy fondi.

---

[1] Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. –Seoul, 2004. –Б. 51.

[2] Вань Ланьсюсинь. Национально-культурные особенности картин мира русского и китайского языков (на материале коннотаций – цветообозначений) http://jurnal.org/articles/2010/fil28.html

Madaniy makon va uni tarkib toptiruvchi atrof-muhit, turmush tarzi, bilimlar zaxirasi, madaniy fond kabi unsurlar boshqa madaniyat jamoasining vakili uchun lakuna hosil qiluvchilar sanaladi.

Madaniy lakunalarning o'ziga xos turlaridan biri *etnografik lakunalar*dir. Ular ma'lum bir madaniyatga oid bo'lib, boshqa mahalliy madaniyatda mavjud bo'lmaydi. Etnografik lakunalar ko'pincha maishiy hayot predmetlarini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Boshqa madaniyat retsipiyenti ular haqida tasavvurga ega bo'lmaydi, bunday tushunchalarning asosiy ma'nosi anglay olmaydi. Masalan, koreys turmushidagi *"o'ndol"* tushunchasi koreys uylaridagi pol ostidagi isitish tizimini anglatadi. Yoki o'zbek maishiy hayotidagi *"tancha"* tushunchasi isinish jihozini bildiradi. Tabiiyki, boshqa madaniyat retsipiyentlari mazkur predmetlar haqida tasavvur hosil qilishga, bu tushunchalarning ma'nolari anglashga qiynaladi. Ko'rinadiki, etnografik lakunalar maishiy hayot predmetlariga xos bo'lib, ular tasviriy va tavsifiy izohlarni talab qiladi[1].

V.Muravev etnografik lakunalarning paydo bo'lishini qiyoslanayotgan madaniyatlardan birining sohibida boshqa madaniyat vakilida bo'lgan turli ijtimoiy-madaniy omillar natijasida yuzaga kelgan lingvo-etnografik assotsiatsiyaning yo'qligi bilan bog'laydi[2].

5. Biror lingvomadaniyat vakillari imo-ishorasi orqali ifodalanuvchi mazmunnig boshqa lingvomadaniyat vakillari uchun neytralligi yoki boshqa ma'noni ifodalovchi *paralingvistik lakunalar*. Masalan, koreys erkaklari "jazman"lari haqida gaplashishganda *jimjiloq barmoqni ko'rsatishadi*. Yoki *ikkala ko'rsatkich barmoqning uchini bir-biriga tegizish* harakatidan "erkak va ayol o'rtasidagi yaqin munosabat" tushuniladi. Ko'rsatkich barmoqlarni boshga *shox qilib qo'yish* ishorasi "kimnidir jahli chiqqanligi" bildiradi. Qayd qilingan imo-ishoralar o'zbek lingvomadaniyatida uchramaydi va ular o'zbek muloqotida paralingvistik lakunalarni yuzaga chiqaradi.

### 15. 3. Lakunalarni bartaraf etish yo'llari

Madaniyatlar aralashgan bugungi kunda turli tillar, xalqlar, ularning madaniyatlariga qiziqish, ularni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikkita milliy madaniyat hech qachon bir-biriga to'liq mos tushmaydi. Retsipiyentning boshqa madaniyatdagi matnni o'z madaniyati doirasida qabul qilishi o'sha madaniyatni tushunmaslikka, ayrim hollarda

---

[1] Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. –Б. 154.

[2] Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир: ВГПИ, 1975. –С.38.

madaniyatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'ladi. Lisoniy to'siqlar mavjud bo'lmagan holatlarda ham aynan madaniyatlardagi farqlar madaniyatlararo muloqotga xalaqit qilishi mumkin.

U yoki bu lingvomadaniyat jamoasining milliy xususiyatlarini ifodalovchi lakunalar chet tillarni o'rgatishda o'ziga xos to'siq sanaladi. Biroq madaniyatlararo muloqot tajribasi mazkur madaniyatlarning milliy o'ziga xos farqlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda turli usullarning mavjudligini ko'rsatadi. Binobarin, G. A. Antipov, O. A. Donskix, I. Y. Markovina va Y. A. Sorokinlar ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning ikki: *to'ldirish* va *kompensatsiyalash* usullariga ajratishadi[1].

Lakunalarni *to'ldirish* retsipiyent uchun boshqa madaniyatga tegishli bo'lgan ayrim tushunchaning ma'nosini ochib berish jarayonidir. Lakunalarni to'ldirishning eng ko'p tarqalgan turi matn tarjimasida milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan unsurni saqlab qolishdir. Masalan, *In der Gaststätte bestellte er* ***Hackepeter****. U restoranda ziravorlangan xom go'shtdan tayyorlanadigan* ***xakepeter*** *olib kelishni buyurdi*[2].

Ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning yana bir usuli *kompensatsiyalash* bo'lib, uning asosiy vazifasi milliy o'ziga xos to'siqni olib tashlashdir. Matndagi lakunalarni kompensatsiyalashning eng sodda turi boshqa madaniyatga oid bo'lgan parchani retsipiyent tilida berishda muallif tomonidan realiyalardan foydalanishdir. Masalan, *"У него (дерева) густая раскидистая крона, продолговатые листья, как у нашей черемухи, только в несколько раз крупнее*"[3].

Bunda havola va iqtiboslar keltirish kompensatsiyalash usulining asosiy unsuri bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, lakunalar bir tomondan milliy madaniyatning o'ziga xos belgisi, mentalitet xususiyatlari darajasining ko'rsatkichi bo'lsa, ikkinchi tomondan madaniyatlararo o'zaro ta'sir sharoitida o'zga ko'rinishga kira oladigan birliklar hisoblanadi. Lakunalarni tadqiq qilish lakunologiya fanini shakllantirishga, uning tushunchaviy-terminologik apparatini va tadqiqot metodlarini ishlab chiqishga, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berishga, madaniyatlararo muloqotda to'siqlarni yengishga, chet tillarni o'rgatishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

---

[1] Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. Новосибирск: Наука: Сиб. отд-ние, 1989.

[2] Папикян А. В. Социокультурные лакуны: типология, причины появления, способы заполнения при изучении иностранных языков. – С. 481. Электрон вариант.

[3] Пиляцкин Б. Восточная и Южная Азия. –М., 1981. –С.175.

## Nazorat uchun savollar

1. "Lakuna" termini ilk bor kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi?
2. Lakunaga ta'rif bering.
3. Lakunalar qanday aniqlanadi?
4. Qanday hodisalar ijtimoiy-madaniy lakunalarni keltirib chiqaradi?
5. Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar qanday yuzaga keladi?
6. Faoliyat-kommunikativ lakunalarga nimalar kiradi?
7. Qanday lakunalarga matniy lakunalar deyiladi?
8. Madaniy makondagi lakunalar nimani ifodalaydi?
9. Madaniy makonning tarkibiga nimalar kiradi?
10. Etnografik lakunalar nima?
11. Lakunalarni to'ldirish qanday usul?
12. Lakunalarni kompensatsiyalash qanday usul?

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'zbek lingvomadaniyatiga xos etnografik lakunalarni izohlash.
2. "Madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalar" mavzusida taqdimot qilish.

## Adabiyotlar


1. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. -Paris, 1958. -331 p.
2. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.IX. - Seoul, 2004. -B. 48-60.
3. Usmanova Sh. Lakuna va uni tarjimada bartaraf etish yo'llari // Sharq tarjimashunoslgi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. -Toshkent: ToshDSHI, 2016. 37-43.
4. Usmanova Sh. Madaniyatlararo muloqotda noverbal vositalarning ahamiyati // Madaniyatlararo muloqot masalalari: til, matn, tarjima. Ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Toshkent: ToshDShI, 2016. -B. 11-16.
5. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
6. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. -Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989. -197 с.
7. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М.: Высш. шк., 1986. - 416 с.
8. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.

9. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. -Л.: "Просвещение", 1976. -286 с.

10. Марковина И.Ю. Лакуны как инструмент описания специфики локальных культур // Проблемы организации речевого общения. -М., 1981. -С. 161-181.

11. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

12. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). -Владимир, 1975. -176 с.

13. Огурцова О.А. К проблеме лакунарности // Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. -С. 77-83.

14. Пиляцкин Б. Восточная и Южная Азия. -М., 1981. -С 175-183.

15. Стернин И.А., Быкова Г.В. Концепты и лакуны //Языковое сознание: формирование и функционирование. -М., 1998. -С. 55-56.

16. Сорокин Ю.С. Лакуны как сигналы специфики лингвокультурной общности // Аспекты изучения текста. -М., 1981. -С. 93-101.

17. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. - Тошкент: "Akademnashr", 2013. -Б . 152-156.

18. Этнопсихолингвистика. -М.: Наука, 1988. -190 с.

## 16-MA'RUZA
## RAMZ - INSON RUHIYATINING TILI

**Reja:**

1. Ramzlarning vujudga kelishi
2. Turli lingvomadaniyatlarda hayvon ramzlarining qiyosiy tahlili
3. Turli lingvomadaniyatlarda qush ramzlarining qiyosiy tahlili
4. Ranglarning ramziy ma'nolari

**Tayanch so'z va iboralar:** ramz, timsol, belgi, semiotika, folklor ramzlari, kodlashgan ismlar, hayvon ramzlari, totem, mifologiya, qush ramzlari, daraxt va o'simlik ramzlari, ranglarning ramzlari, raqamlarning ramzlari.

### 16. 1. Ramzlarning vujudga kelishi

Fikr talqini ramziylikni, muloqot jarayoni xarakterini namoyon qiladi; muloqotning ramziy xarakteri bizning so'zlarimiz yoki imo-ishoralarimiz o'ziga xos ma'no anglatmasligini bildiradi. Aksariyat hollarda kelishilgan ustama ma'no qabul qilinadi. Biz muloqot jarayonida ramzlardan foydalanarkanmiz suhbatdoshimizning ham mazkur ramzlar tizimini qabul qilganini taxmin qilamiz. Bu ramziy ma'nolar ham verbal (so'zli), ham noverbal (so'zsiz) shaklda bayon etiladi. Minglab noverbal vositalar (tana a'zolari harakatlari, imo-ishoralar, yuz ifodasi, ko'z qarashi, vujudning holati va h.k.) turfa ma'nolarni o'z ichiga oladi[1].

Ijtimoiy muloqot tizimida insonlar mazkur jamiyat, guruh va ijtimoiy muhitda qabul qilingan ramzlardan foydalanmasdan yashay olmaydilar. Insonni hayvondan farqlovchi jihatlardan biri - uning ramzlashtirishga bo'lgan ehtiyojidir. Zamonaviy antropologiyada B.Franklinning *man is a tool-making animal* (inson mehnat qurollari ishlab chiqaradigan mahluq)[2] formulasi biroz o'zgartirilib, "inson o'zining tabiatiga ko'ra *man is a symbol-making animal*, ya'ni inson nafaqat "mehnat qurollari ishlab chiqaradigan", balki "ramzlar yaratadigan" mahluq hamdir", deb talqin qilinadi. Demak, dunyo ramzlardan iborat, ramzlar insoniyatning ilk, haqiqiy ijodidir.

---

[1] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 94.

[2] http://www.azquotes.com/quote/702521

**Ramz – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi.**

"Ajdodlarimiz bugun ibtidoiy davr deb baho beriladigan paytlarda bizga qaraganda yuz karra shoirroq edilar. Ular albatta, poeziyani tushunmasdilar, biroq bugungi til bilan aytganda, o'sha minglab yillar avval ularning tafakkur tarzi "poetik mushohada" tarzida edi: ular hayotlari va tabiatdagi har bir narsani tasavvur qilgan tushunchalarning ramzi sifatida qabul qilardilar. U paytlar Osmon, suv, ko'kat, quyosh, oy yorug'lik va zulmat - Tangrilar edi: quyosh o'rnini tun egallarkan, ezgulik va yovuzlik kurashi ketyapti deb o'ylashardi. Hayvonlar ham tangrilar edi, ularning ichida ham yovuz va ezgu niyatlilari bor edi. Ezgulik tangrilari osmonda, yer yuzida yorug'lik bilan birga yashashadi, yovuzlik tangrilari yer ostida, zulmat bilan birga yashashadi deb o'ylardilar"[1].

Demak, inson moddiy muhitdan tashqari, ramziy olamda ham yashaydi. Inson o'z tarixining ilk davrlarida ma'nolar dunyosida yashagan, dunyoni ramzlar orqali qabul qilgan, tabiat bilan ramzlar orqali munosabatda bo'lgan. Shunga ko'ra, "inson tilini to'la ma'noda ramzlar tili deyish mumkin". Ramzlar o'z-o'zidan shakllanmagan, ular insonning bilish mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Insonlar o'rtasidagi aloqa "ramz" ("simvol") so'zining o'zida aks etgan. Yunoncha "simvol" so'zi dastlab sopol yoki chinni parchasini ifodalab, do'stona munosabatlar belgisi bo'lib xizmat qilgan. Mehmonni kuzatayotgan mezbon mehmonga sopol yoki chinni parchasining bir bo'lagini bergan, ikkinchi bo'lagini esa o'zida olib qolgan. Bu mehmon qachondir yana uyga kelganida, uni ana shu sopol parchasidan tanib olishgan. Demak, qadimgi davrlarda "simvol" so'zi "shaxs guvohnomasi" ma'nosida qo'llanilgan.

*Ramz* tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi: 1) ramz - belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy formallashtirishda); 2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida); 3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda); 4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k.)[2].

---

[1] Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 136.

[2] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 95.

Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Agarda oddiy belgi insonga ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramzlar orqali bizning ongimizda kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochiladi, aqlga sig'maydigan, g'ayrishuuriy botiniy ma'nolar yuzaga chiqadi[1]. Ramzni o'z predmeti bilan aloqasini yo'qotgan ma'no sifatida tasavvur qilish mumkin.

Y.M.Lotman ramzlarni "madaniy majmuaning eng barqaror elementlaridan biri" sifatida qayd qilgan[2]. Demak, ramzlar mazkur lingvomadaniy makonning barqaror birliklari sanaladi. Ular turmush qoidalariga aylangan kuzatishlarni mustahkamlaydi.

Ramz - inson ruhiyatining tili bo'lib, u tabiat bilan ana shu tilda gaplasha boshlagan. Aynan ana shu ramzlar tilida miflar, ertaklar, dostonlar yaratilgan. Folklor ramzlari muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini, tasavvurlarini, ijodini tamsil etadi. Jumladan, turkiy xalqlar og'zaki ijodida "Ulgen - yorug'lik va ezgulik. Erlikxon -zulmat va yovuzlik, Momaqaldiroq - tangrilar ovozi, Yashin - tangrining o'qi, Sel - yovuz ruhning ofati, Tog' - tilsimli qo'rg'on, Suv, Tuproq - tiriklik, G'or - ruhlar makoni, Osmon - ezgulik tangrilari, Yer osti - yovuz ruhlar makonining ramzi, kodlashgan ismlari"[3] bo'lgan.

Qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalarining eng katta ma'naviy boyligimiz ekanligini Prezidentimiz I.A.Karimov ham alohida ta'kidlaganlar: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi"[4].

Demak, xalq og'zaki ijodida muayyan davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan. Ularda ifodalangan ramzlarni tadqiq etish va ularni to'g'ri talqin qilish ajdodlari-mizning ichki dunyosini yoritib berishga, bizni ularga yaqinlashtirishga, ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi. Zero, "ramzlar qadriyatlar majmuyi"dir.

---

[1] Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010. –С. 189.
[2] Лотман Ю.М. Семиосфера. –СПб.: "Искусство-СПБ", 2000. –С. 241.
[3] Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 67.
[4] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 23.

Ramz - tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksidir. Har bir insonda, har qanday madaniyat vakilida ichki dunyoni o'ziga xos qabul qiluvchi "tug'ma mexanizm" mavjud bo'ladi. Bu "tug'ma mexanizm" tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali "qayta ishlab" qabul qilishga moslashgandir.

Ramziy etalonlar madaniy jihatdan tamg'alangan bo'ladi. Binobarin, turkiy xalqlar lingvomadaniyatida bo'ri - jasurlik, rus lingvomadaniyatida vahshiylik etaloni bo'lib keladi. A. K. Bayburin: "Ba'zi narsalarning "moddiy madaniyat" sohasiga, boshqalarining "ma'naviy madaniyat" sohasiga kiritilishi birinchi navbatda ularga turli semiotik maqom berilganini ko'rsatadi", deb yozadi[1]. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim tillarda ramziy etalonlar bir-biriga mos keladi: qo'y - yuvoshlik etaloni, chumoli va ari - mehnatsevarlik etaloni. Demak, ramzlar obrazliligi, motivlashganligi, ko'p ma'noliligi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va h.k. ramz bo'lib xizmat qiladi. Ramzlar moddiy (buyum, predmet), tushunchaviy, so'zli, tasviriy va ovozli bo'lishi mumkin:




**16. 2. Turli lingvomadaniyatlarda hayvon ramzlarining qiyosiy tahlili**

Ot - qadim-qadimdan insonga xizmat qilib kelgan. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, otlar miloddan taxminan uch ming yil ilgari xonakilashtirilgan. Uni mashq qildirish va har xil ishlarga, harakatlarga o'rgatish - boshqa hayvonlarga nisbatan ancha qulay. Ot kuchli, sabr-chidamli, ko'rkam, pokiza, ziyrak, hushyor, biror narsani darhol payqash,

[1] Байбурин А. К. Семиотические аспекты функционирования вещей // Этнографическое изучение знаковых средств культуры. – Л.: Наука, 1989. –С. 63–88. –С. 72.

ko'rish, hid bilish, tovushni, hatto bilinar-bilinmas sharpani eshitish, sezish qobiliyati kuchli. Bu fazilatlaridan tashqari ot insonning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jangu jadalda, boshqa xavf-xatarli holatlarda ko'pincha kishini o'lim-yitimdan saqlab qoluvchi ajoyib jonivordir[1].

Qadimgi turkiylarda ot qutlug' hayvon sanalgan. U odamning doimiy yo'ldoshi, mavqeyi jihatdan odam bilan baravar, bir kunda tug'ilgan, deb tasavvur qilingan. Xun davrida oq ot maxsus marosimlarda alohida vazifani bajargan. Xunlarda oq ot aziz sanalgan. Xun davlatidagi qabila boshliqlari bir-birlari bilan tinchlik shartnomalari tuzgan paytda oq otning qonini mayga aralashtirib ichganlar. Shu odat orqali bir-birlari bilan urishmaslikka, ahil, ittifoq bo'lishga qasamyod qilganlar. Bu odat har qanday farmondan ustun turgan[2].

Mahmud Koshg'ariyning ta'biri bilan aytganda ot "turkning qanotidir"[3]. "Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri bo'lib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuz ruh ustidan g'alaba qilishda yordam beradi. Shomonlarning hassalari ko'pincha ot ramzini ifodalaydi va o'zbek xalqida hozirgacha otning devi bor degan inonchlar saqlanib qolgan". Farg'onada, Qo'qonda, Samarqandda, O'ratepada devni ot qiyofasida tasavvur qilinadi. O'zbek xalq ertaklari va dostonlarida "ot qahramonning sadoqatli yo'ldoshi, hamrohi, yordamchisi, ba'zan o'rinbosari sifatida uchraydi. Alpomishni Boychibor, Go'ro'g'lini G'irotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Pahlavon Rustam" ertagida ot Rustamni hamisha falokatlardan asraydi. "Malikayi ayyor" dostonida ot qahramonning sarguzashti va qahramonliklariga teng sherik. Ertak va dostonlarda devlar ham ba'zan ot ko'rinishida keladi yoxud bir yumalab otga aylanadi. Bir afsonaga ko'ra, otlar tangrilar bilar ajdarholardan tarqalgan. Shu sababli xalq og'zaki ijodida qanotli otlar ko'p uchraydi"[4].

O'zbek inonchlariga ko'ra, o'limi yaqinlashgan yoki o'lim xavfi tug'ilgan kishining tushiga ot kirib, o'limdan darak beradi. Bulardan tashqari o'zbek madaniyatida yangi uyga ko'chib kirishda hovli ostonasi, darvozasiga otning taqasi qoqiladi. Bu bilan xonadon turmushi ot taqasiday mustahkam va xotirjam, mol-holga boy-badavlat bo'lishi niyat qilinadi.

Ot boshqa Sharq xalqlari madaniyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq Sharq madaniyatida, xususan, Xitoy mifologiyasida ot samo, olov, janub, tezlik, qaysarlik va yaxshilik alomati sifatida talqin qilinadi.

---

[1] Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар мозаикаси. –Тошкент: ЎМЭ, 2001. –Б.263.
[2] Раҳмон Н. Турк қоғонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 119.
[3] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – Б. 83.
[4] Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Карши: Насаф, 1999. –Б. 68-69.

Shuningdek, muchallardan biri sanaladi. Yapon mifologiyasida oq otga - mehr, rahm-shavqat ma'budasi, qora otga - yomg'ir xudosi, deb qaraladi[1].

Ot hind, eroniy xalqlarda eng qadimiy kultlardan biri hisoblanadi. "Jumladan, qadimgi hindlar oq otga hurmat bajo keltirganlar, chunki Tvashtra (podsho)ning oq oti olam oti vazifasini bajaradi. Shoh qarshilikka uchrasa yoki kuchdan qolsa, oq ot uning qayta tug'ilishiga yordam beradi. Shoh qayta tug'ilgandan so'ng uning xotini farzand ko'radi. Shohning jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishiga, mol-yilqisi ko'payishiga sabab bo'ladi, deb xayol qilganlar"[2].

**Bo'ri** - turkiy xalqlarning totemi bo'lib, u jasurlik, bo'ysunmaslikni tamsil etadi. Turkiy xalqlarning tasavvurida ayrim turk urug'larining asosi bo'ridan kelib chiqqandir. Afsonalarda ko'k turklar dohiysi Ashinning onasi bo'ri bo'lgani, Ashin urug'ining ko'k bo'ridan, ya'ni kul rang bo'ridan tarqani qayd etiladi.

Xitoylar o'zlariga tobe bo'lgan Ashin qabilasini Tu-kyu deb ataganlar. Xitoycha Ashina ham deyiladi. P.Pelo bu so'zni "turk-yut" (turkiylar) deb izohlagan. **Turk** atamasi kuchli, mustahkam demakdir. **Ashina** esa bo'ri degani. Turkiycha bo'ri mo'g'ulcha *shono, chino* deyiladi, a qo'shimchasi xitoycha hurmat ma'nosini bildiradi. Bundan xulosa chiqadiki, Ashina - himmatli, mard bo'ri degan ma'nodadir.

Bo'ri haqidagi tasavvur Ashin urug'ining hamma tomoniga kirib borgan. Ashin qabilasi bayrog'ida bo'ri kallasining oltin tasviri tushirilgan. Bayroqda bo'ri kallasining tasviri turk-mo'g'ul xalqlarining hammasiga ko'chgan. Ashin qabilasi biron joyga kelib o'rnashgandan keyin o'z hududini chegaralab olgan va darvoza o'rnatgan. Darvozaning kiraverishiga bo'ri kallasi tasviri tushirilgan bayroqni ilib qo'yganlar. Bu bilan bo'ri avlodi ekanligini eslatib turganlar. Bu asotir turkiylardan mo'g'ul xalqiga ham kirib brogan. Mo'g'ul afsonalariga ko'ra, Chingizxon kul rang bo'ridan kelib chiqqan[3].

Turkiy xalqlarning yashash tarzi bilan muayyan jihatlari o'xshash bo'lgan bo'ri Uyg'ur O'g'uz Hoqon dostonida va boshqird an'analarilarda yo'l ko'rsatuvchi unsur sifatida tasvirlangan. Turkiy xalqlar mifologiyasida bo'ri yorug'lik ramzi, shuningdek, fazoviy jismlarning holatlari bilan bo'g'liq o'zgartuvchi xususiyatga ega bo'lgan hayvon sifatida talqin etiladi[4].

Afsonalarda turk urug'larining asosini bo'riga borib taqash ularda bo'riga bo'lgan ishonchning saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bo'riga

---

[1] http://symbolist.ru/animals

[2] Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 119.

[3] Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 43-44.

[4] Ekrem Sarıkçıoğlu. Din Fenomenolojisi (Dinlerin Mahiyeti ve Tezahür Şekilleri). Gözden Geçirilmiş ve Genişletilmiş 2. Baskı. –Isparta: Fakülte Kitabevi, 2011. –S. 63.

ishonchning asosiy qismi o'zbeklarning turli gruppalarida bolaning tug'ilishi, uning hayotini saqlab qolish bilan bog'langan. Qashqadaryo o'zbeklarining qo'ng'irot, avaxli, nayman, quchchi, saroy, mang'it kabi urug'larida homilador ayollar bo'rining terisidan, suyagidan va boshqa a'zolaridan tumor qilib, o'zi bilan olib yurganlar, bola tug'ilishini osonlashtirish uchun onaning yostig'i ostiga bo'rining payini qo'yganlar, yangi tug'ilgan bolani bo'rining jag'suyagi orasidan o'tkazib olganlar...[1].

Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan farzand hayotdan ko'z yumaversa, oila boshlig'i - ota toqqa chiqib bo'ri ovlagan. Bo'rini o'ldirib, uning lunjini kesib yangi tug'ilgan chaqaloqni o'tqazishgan, terisini beshikning tagiga solishgan, tishlari va tirnog'ini beshikka o'yinchoq qilib osib qo'yishgan. Bu bilan yangi tug'ilgan go'dakka bo'rining homiylik qilishi belgilangan. Endi bo'ri uni turli ins-jinslardan hamisha asraguvchi homiyga aylangan. Bolaga esa Bo'riboy, Gurkiboy, Bo'ritosh, Bo'rixon deb ism qo'yishgan[2].

Turkiy xalqlardan farqli ravishda, boshqa xalqlarning madaniyatida bo'ri vahshiy, yovuz, qonxo'r, yebto'ymas, ochko'z hayvon sifatida talqin qilinadi.

**Yo'lbars** - turk qabilalari va alplarining eng qadimgi asli hisoblanadi. Xususan, Mahmud Koshgariy "tonga" so'zini yo'lnars jinsidan bo'lgan hayvon, deb izohlaydi. "U filning kushandasidir. Bu so'zning asosiy ma'nosi shudir. Lekin bu so'z turklarda ma'nosi o'zgarga holda qo'llanadi. Bu so'z ko'pincha odamlarga laqab o'rnida ishlatiladi. Chunonchi: Tongaxan, Tonga Tegin va shu kabilar. Turklarning ulug' xoni Afrosiyobni Tonga alp er deb atar edilar. Yo'lbars kabi kuchli bahodir odam, demakdir"[3]. Ko'rinadiki, Mahmud Koshgariy Afrosiyobni alp Erto'nga deb qayd qiladi, bu ismning ma'nosi "qahramon erkak yo'lbars" bo'lgan. Sibir xalqlari orasida "bars" nomi bilan tanilgan bu hayvonni "Irq bitigi" (X bo'lim)da "qamishzorda yurgan" yoki qamishlar orasidan "chiqqan" bir Tangri bo'lishi mumkinligi aytilgan. Shuningdek, yo'lbars turk asotirlarida tog' va g'orning ruhi sifatida talqin etiladi.

Yo'lbars yuragini yegan Manasning onasi tushida bir olma ko'radi. Bu totemistik inonch mahsuli bo'lib, qahramon tug'ilmasidanoq tangrilar uni o'z homiyligiga oladi, Manasning ilohiy kuch-qudratga ega bo'lishi avvalda asoslanadi[4].

Yo'lbarsning kuch-qudrat va mardlik ramzi ekanligini ko'rsatuvchi bir nechta san'at asari O'rta Osiyo va Kichik Osiyoda olib borilgan

---

[1] Мирзаев Н. Ўзбек зооантропонимлари // Ономистика Узбекистана. –Ташкент. 1989. –С. 129.
[2] Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent.: Sharq, 2010. –B. 23.
[3] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. – Б. 379.
[4] Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 60.

qazishmalarda topilgan. Budizm davrida yo'lbars terisi budizmning kuchini va hukmdorlarning qudratini ko'rsatgan[1].

Aytilganlar bilan birga, ayrim Oltoy xalqlarining mifologik inonch-lariga ko'ra, yo'lbars nomini atash tabu, taqiq sanaladi. Chunki yo'lbars vahshiy hayvon bo'lgani uchun uni nomi bilan atash insonning hayotiga xavf solishi mumkin, deb tushuniladi.

Koreya yarim orolida juda ko'p yo'lbarslar yashagani uchun Koreya yo'lbarslar mamlakati deb nomlanadi. Yo'lbars nomi dastlab koreyslarning kelib chiqishi haqidagi "Tangun" afsonasida uchraydi[2]. Koreys madaniyatida yo'lbars turli xarakter va obrazlarda: yo'lbars-vahshiy, yo'lbars-ruh va antropomorf yo'lbars sifatida namoyon bo'ladi. Yo'lbarslar to'dasi tog'dan tushib qishloqlarga tez-tez hujum qilgan. Shuning uchun Choson davlati aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida bu vahshiy hayvonlarni ovlash bilan rasmiy shug'ullangan. Koreyada ko'plab tog' tizmalari joylashgani bois, yo'lbarsga tog' ruhi sifatida qaralgan. Koguryo maqbarasining devorida tasvirlangan oq yo'lbars ajdar, qaqnus va toshbaqa bilan birga afsonaviy ruhni timsollagan. Mazkur afsonafiy hayvonlar fazoviy tartibni ifodalagan. Oq qanotli vahshiy hayvon insonlarni tabiiy ofatlardan qutqaruvchi muqaddas hayvon hisob-langan. Yo'lbarsning antropomorf obrazida unga insonga xos bo'lgan ijobiy va salbiy xislatlar berilgan. Yo'lbars tarixiy manbalar va hikoyalarda ijobiy qahramon, insonning sodiq himoyachisi sifatida gavdalanadi. U o'zini yaxshi ko'rgan odamlar uchun qurbon qiladi. Bir so'z bilan aytgan-da, yo'lbars insonga xos bo'lgan odob-axloqqa ega bo'ladi.

Hozirgi kunda yo'lbars koreys xalqining milliy ramziga aylangan. Ayrim korxonalar yo'lbars tasvirini o'zlariga belgi qilib olganlar. Yo'lbars 1983-yildan beri Ulsan futbol jamoasining ramziga aylangan. Milliy kiyimdagi Xodori ("xo" -yo'lbars, "dori" - bola) ismli yo'lbars bolasi 1988-yilda Seulda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining timsoli sifatida taqdim etilgan. 2018-yilda Pxyonchxan shahrida o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlarida Suxorang (himoyachi) ismli oq yo'lbars timsol sifatida namoyon bo'lgan[3].

Xitoyda yo'lbars hayvonlar podshosi, yerdagi barcha hayvonlarning hukmdori hisoblanadi. Yo'lbars "yan" ramzini ifodalaganda, u G'arbdagi sher o'rnini oladi va himoyachi sifatida hokimiyat, jasorat, kuch-qudrat va

---

[1] Ögel Bahaeddin. Türk Mitolojisi. C. II. –Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1995. –S. 536: Çoruhlu Yaşar, Türk Mitolojisinin ABC'si. –İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1999. –S.151-153.

[2] Юн Нэ-Хен. Исторический миф о Тангуне и идентичность Ханхунг, медведя и тигра // Гуманитарная наука. 1998. № 28. –С. 153.

[3] Choi Jungeun. The Image of a Tiger As The National Symbol of Korean Culture // https://doi.org/10.24158/fik.2017.3.18

qahrni tamsil etadi. "Yan" ramzi, ya'ni samoviy ajdar bilan olishayotgan yo'lbars tasviri esa yerdagi "in" ramzini ifodalaydi. Ikkalasi birga tasvirlanganda ruh va materiyaning qarama-qarshi kuchini namoyon etadi.

Xitoyliklarning inonchlariga ko'ra, yo'lbars juda aqlli hayvon va u besh yuz yil yashagandan keyin oqsoqol qariyalardek oppoq bo'lib qoladi. Ibodatxonalar, hukumat binolari va zodagonlar uylarining kiraverishiga yo'lbarsning toshdan ishlangan tasviri bilan bezatilgan[1].

Xitoyda yo'lbars harbiy jasorat ramzi sanalgan. Yo'lbars tasviri tushirilgan maxsus nishonlar lashkarboshilarga topshirilgan. Yovni qo'rqitish uchun jangchilarning qalqonlariga va harbiy istehkomlarining darvozalariga yo'lbars kallasining tasviri tushirilgan. Shuningdek, qadimda xitoylik jangchilar dushmanni sarosimaga solish uchun yo'lbars terisini yopinib, yo'lbarsdek na'ra tortib, hujumga o'tishgan[2]. Zero, "botir, dovyurak va mard jangchilar, bahodirlar yo'lbarsga qiyoslanilib, ularga nisbatan "虎" iyeroglifi bilan yasalgan "虎将" (botir sarkarda), "将门虎子" (obro'li oiladan chiqqan qobiliyatli o'g'il) iboralari"[3] bejiz qo'llanilmaydi.

Yo'lbars muchal taqvimidagi uchinchi ramziy hayvon hisoblanadi. Boylik ma'budu tanga to'la sandiqlarni qo'riqlaydigan yo'lbarsga minib yurgan. Shamol ma'budasi ham yo'lbarsga minib yurgan[4].

Yaponiyada yo'lbars faqat afsonalarda mavjud bo'lsa-da, u jasorat va jangchi-qahramonlarning timsoli sanaladi.

**Arslon // sher** - ko'pcilik xalqlarning madaniyatida kuch-qudrat, savlat, saltanat ramzi, hayvonlar podshohi hisoblanadi. Boshqa tomondan shavqatsizlik, vahshiylik, hayvoniy hayot tarzini namoyon qiladi. Juft arslon hukmdor kuchning ikki karra ortiqligini, shuningdek, eshiklar, darvozalar va xazinalar qo'riqchisini anglatadi.

Arslon Oltoy hududlarida muhim ahamiyat kasb etgan va afsonalarda eng ko'p uchraydigan hayvonlardan biridir. Musulmonlar Hazrati Alini "Ollohning arsloni" deb atashgan. "Dada Qorqut kitobi"da urg'ochi arslon tomonidan katta qilingan Arslon Bey ismli bola shunday deydi: "Otamning ismini bilishni xohlasang, uning ismi "*Dag'al og'och*dir; onamning ismini bilmoqchi bo'lsang, uning ismi *Hoqon Arslon*dir". J. P. Rouxning qayd etishicha, bu yerda hech narsa og'och ya'ni daraxtning ota

---

[1] Малявин В. В. Китайская цивилизация. –М.: Над-во «Астрель», 2000. –С. 341.
[2] Филимонова Е. Н. Символика животных в переводных произведениях. «Священные» животные (на материале переводов с корейского и китайского языков) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2004. –Вып. 26. –С. 67.
[3] Кебайтули Гулибануму. Хитой ва ўзбек лингвомаданиятларида хайвон рамзларининг талқини // Шарқ маърифати. No. 3-4. –Тошкент: 2015. –Б. 58.
[4] http://symbolist.ru/animals.

ekaniniga ishora qilmaydi, aksincha, yirtqich hayvon "malika" (qatun) emas, "Hoqon" shaklida nomlanganini ko'rsatadi[1].

Sher tasviri turkiylarda kuch-qudrat, jasurlik ramzini ifodalagan. Sher marmar yoki yog'ochdan yasalib, saroy yoki maqbaraning kiraverishiga qo'yilgan. Bu tasvir turkiylar mamlakati hamisha mudofaada ekanligini anglatib turgan[2].

Xitoyda sher jasorat, quvvat, kuch-qudratni tamsil etadi. Uylangan erkak kuch-qudratni ifodalagan sherning timsoli sanaladi. Yaponiyada sher hayvonlar podshohi, sallagul (pion) bilan tasvirlangan sher esa gullar malikasining ramzidir. Eronda sher shohonalik ramzi, Quyosh va yorug'likning kuchidir.

Buddizmda sher qonun himoyachisi, Buddaning donishmandligi, ruhiy ishtiyoq, olg'a intilish, jasorat va o'z-o'ziga hokimlikni ifodalaydi. Ba'zan Budda sher oyog'idagi taxtda o'tirgan holatda tasvirlanadi. Yahudiylikda qudrat va shavqatsizlik timsoli, qanotli sher Janub belgisi, yahudiylarning sheridir. Islomda yovuzlik himoyachisi sifatida gavdalanadi[3].

**Ayiq** - umumiyatda qayta tirilish, yangi hayot, o'tish bosqichi bilan bog'liq turli amallar, marosimlarning tashabbuskori sanaladi. Eron va Rossiya qirolliklarining ramziy belgisidir[4].

Turkiy xalqlar mifologiyasida ayiq muhim obraz sifatida gavdalangan bo'lishiga qaramay, u burgut, ot yoki bo'ri singari ahamiyatli hayvon ramziga aylanmagan. Ayiq ramzi asosan o'rmonchilik bilan shug'ullangan turkiy xalqlarda kuzatiladi. Binobarin, ayiq boshqirdlarning ajdodi hisoblanadi. Ayiq qiyofasidagi kiyimlar shomonlar tomonidan qo'llanilgan. Uning turli suyaklaridan yasalgan bezaklar shomonlarning ko'ylaklariga tikilgan va unga shomonning osmonga parvoz qilishida yordam beradigan ruh deb qaralgan. Ayiq turkiy xalqlarning dostonlarida ahmoq va yomon hayvon sifatida tasvirlangan[5].

J. P. Rouxning yozishicha, "Mahmud Koshgariy bu vahshiy hayvonni aba "ota" deb nomlagan va bugungi kunda ham bu hayvonga nisbatan qarindoshlik terminlari qo'llanishda davom etmoqda" [6]. Bu o'rinda "Devonu lug'otit turk" asarida *aba* so'zining alohida uch xil ma'noda izohlanganligini qayd etish lozim: "1. **aba** - ona (o'g'uzcha). Qarluq

---

[1] Roux J. P. Türklerin Ve Moğolların Eski Dini. Çeviren: A. Kazancıgil. – İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. –S. 150.

[2] Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 61.

[3] http://symbolist.ru/animals

[4] http://symbolist.ru/animals

[5] Ögel Bahaeddin. Türk Mitolojisi. C. II. –Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1995. –S. 533.

[6] Roux J. P. Türklerin Ve Moğolların Eski Dini. Çeviren: A. Kazancıgil. – İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. –S. 150.

turkmanlari **apa** deydilar. 2. **aba** - (qalin **a** bilan) ayiq (qipchoqcha). 3. **aba** - ota (tubutlar tilida). Bu arab tilining izi bo'lsa kerak. Chunki tubutlar yamandan qochib, turklar shahriga kelib, bola-chaqa qilib qolgan bir kishidan tarqaganlar. Ular Banu Sobitning avlodlaridir"[1].

Uzoq Sharq mamlakatlari madaniyatida ijobiy obraz sifatida gavdalanadi. Jumladan, koreys xalqining "Tangun" afsonasiga ko'ra, osmon Xudosining o'g'li Xvanun o'zi ayolga aylantigan Unne ismli ayiqqa uylanadi va bu nikohdan Tangun ismli o'g'il tug'iladi. Tangun Koreys yarim orolining birinchi hukmdori bo'ladi va u Choson qirolligini tashkil toptiradi. Shundan so'ng ayiq koreyslarning ajdodi, totemiga aylanadi.

Xitoyda ayiq kuch va jasorat, Yaponiyada yaxshilik, mardlik va qudrat ramzi sifatida talqin qilinadi. Aynlar madaniyatida ayiq madaniy qahramon va Xudoning elchisi hisoblanadi.

Yunon madaniyatida ayiq oy ma'budalari Artemid va Dianaga bag'ishlangan. Artemid marosimlarida qatnashgan qizlar o'zlarini "ayiqlar" deb atashgan va ayiq terisiga taqlidan sariq kiyimlar kiyishgan. Diana ayiq Kallistoga aylanib qolgan[2].

Aytilganlar bilan birga, Britaniya qiroli, kelt va britt eposi hamda qator ritsarlik romanlarining afsonaviy qahramoni Arturning nomi kelt tilida "ayiq" ma'nosi ifodalagan *Artúr* so'zi bilan bog'lanadi.

**Tulki** - aksariyat madaniyatlarda ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Xitoyda (ku-li) uzoq umrning timsoli sanaladi. Shuningdek, xitoy mifologiyasida tulkining qizga aylanib qolishi keng tarqalgan. Xitoyliklarning qadimiy inonchlariga ko'ra, tulki ellik yoshida ayolga, yuz yoshida yosh qizga aylanadi. Ming yil yashagan tulkida to'qqizta dum paydo bo'ladi va u Samoviy Tulki (ten-xu)ga aylanadi. Samoviy Tulki nafaqat ayol qiyofasiga, balki erkak qiyofasiga ham kira oladi[3]. Shuning uchun xalq orasida "狐仙" yoki "狐狸" (tulki - afsun bilan boshqa tusga kira oladi) iborasi keng tarqalgan[4].

Ayrim Xitoy manbalarda tulki salbiy obraz sifatida talqin qilinsa, ba'zi manbalarda u ijobiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, Ming sulolasi davridagi "Feng shen yan yi" asarida tulki Suhuning qizi Danjining badaniga kirib, imperator Zxou vangni aldab, ko'p yomonliklar qiladi va odamlarning qarg'ishiga uchraydi. Lekin Ching sulolasi

---

[1] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. 1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961. – Б. 113-114.

[2] http://symbolist.ru/animals

[3] Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. –Toshkent: TDSHI. 2015. –B. 144.

[4] Кебайтули Гулибануму. Хитой ва ўзбек лингвомаданиятларида хайвон рамзларининг талқини // Шарқ машъали. No. 3-4. –Тошкент: 2015. –Б. 59.

davridagi Pu Sung Lingning "Tulki afsunlari" to'plami novellalaridagi sehrgarlarni tasvirlashda yozuvchining ularga xayrixohligi ko'rinib turadi. Tulki-qiz obrazi bunga misol bo'la oladi. Biroq biz bu o'rinda tulkiga aylangan ayolni emas, balki ayolga aylangan tulkini ko'ramiz[1]. U aqlli, sevimli, sodda obraz sifatida tasvirlangan.

Yaponiyada oq tulki - to'kin-sochinlikni anglatadi. Yapon shintoizmida xalq tomonidan sevilgan ma'buddir. Binobarin, Yaponiyadagi ibodatxonalar darvozasiga guruch omborining kalitini tishlab turgan tulki tasviri o'rnatib qo'yiladi[2].

**Buqa** - turkiy xalqlarning qadimiy inonchlarida alplik, kuch-qudrat va hukmdorlik timsolini ifodalagan. Afsonalarda buqa obrazi juda keng tarqalgan. Binobarin, g'orda sigir bilan yashagan buqa qirg'izlarning ajdodi hisoblangan. Buqaning Oltoy va Sibir xalqlarida yaqingacha familiya sifatida kelishi, shuningdek, proto-mo'g'ul qitanlari va o'g'uz turklari singari ikki etnik guruhning kelib chiqishida muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin[3].

Hind afsonalarining ta'sirida turkiy xalqlarning an'analarida dunyoni tutib turgan hayvonlardan biri sifatida qabul qilingan. "Dada Qorqut kitobi"da buqa kuch-qudrat va mardlik timsoli bo'lib gavdalanadi. Buqa burj va muchal vazifasida ham qo'llaniladi[4].

Xitoyda buqa muchal taqvimidagi hayvonlardan biridir. Yunonlarda buqa Osmon Xudosi Zevsning ramzi sanalgan. Shuningdek, boshi buqa ko'rinishida tasvirirlangan Dionis erkaklik timsolini anglatadi. Buddizmda buqaga shaxs, ego sifatida qaraladi. Ba'zan boshi buqa yoki qo'tos ko'rinishida tasvirirlangan o'liklar vodiysi xudosini ifodalaydi. Yahudiylikda Yaxve - "Isroil buqasi" bo'lib, u Yaxvening kuchuni namoyon qiladi. Eronda buqa olamning ruhi, birinchi yaratilgan va Ariman tomonidan birinchi o'ldirilgan hayvondir. Buqaning ruhi izidan butun yaratilish bahslari kelib chiqdi. Hindlarda buqa kuch, shiddat, unumdorlikni mujassamlashtiradi. Shiva G'arb qo'riqchisi buqa Nandineda sayohat qiladi. "Qudratli buqa" Agni ham buqa timsollaridandir. Rudra sigir-ma'buda bilan qo'shiladi[5]. Hind mifologiyasida tangrilar bilan bog'liq ramz sifatida qabul qilingan.

**Bug'u // kiyik** - ertak, afsona va miflarda Sharq, kun chiqishi, yorug'lik, poklik, yangilanish va yaratilish bilan aloqador qilinadi.

---

[1] Зиямухамедов Ж. Ўрта аср Хитой новеллалари. –Тошкент: ТошДШИ, 2010. –Б. 90-91.
[2] http://symbolist.ru/animals
[3] Roux J. P. Türklerin Ve Moğolların Eski Dini. Çeviren: A. Kazancıgil. – İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. –S. 146.
[4] Çoruhlu Yaşar. Türk Mitolojisinin ABC'si. –İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1999. –S.162-165.
[5] http://symbolist.ru/animals

Shoxdor bug'u ko'pchilik xalqlar madaniyatida to'kin-sochinlik, Hayot daraxti, quyosh nurlari va uzoq umrni ifodalaydi. Kiyik o'zining nozik harakatlari, go'zalligi, chaqqonligi, chopqirligi, sezgirligi va hurkakligi bilan boshqa hayvonlardan ajralib turadi. Shu bois, kiyik ko'pincha she'riyat va musiqa bilan bog'lanadi.

Kiyik turkiy xalqlarning muqaddas, totem hayvonlaridan biridir. U insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, baxtga eltuvchi ilohiy mavjudotdir.

E.Yakobsonning yozishicha, "Kiyik qadimgi davrlarda (E.O.VIII asrlar), turk madaniyati shakllangan Skif-Sibir qabilalarida muqaddas hayot daraxti bilan birga, yaratuvchi iloha sifatida qabul qilingan. Arxeologik qazishmalarda topilgan rasmlarda kiyik koinotning asosi va rivoji bilan birlashtirilib, urug' jamoasining boshlanishi va oxiri hisoblangan. Muqaddas mavjudotlar, daryolar va tog'lardagi ibtidolar, intiholar, tirilish, yangilanishlarning barchasi kiyik bilan birlashtirilgan va u ona hayvon, deb qabul qilingan. Ona-kiyikka xuddi hayot daraxti kabi hayot va o'lim manbasi sifatida qaralgan". E.Yakobsonning fikricha, yaratuvchi, hayot manbasi va ajdod sifatida qabul qilingan kiyik dastlabki ko'chmanchi va Skif-Sibir madaniyatini tushunishda yagona vositadir. Sibir madaniyatida quyosh, oltin va kiyik birgalikda qabilaning kelib chiqishini anglatgan[1].

Ko'k turklar bilan bog'liq bir afsonaga ko'ra, ko'k turk ajdodlaridan birining g'orda oq kiyik qiyofasiga kirgan dengiz ilohasi bilan aloqada bo'lgani qayd etilgan. Afsonalarda ko'k turklar naslining kelib chiqishida bo'ri bilan bilan birga, urg'ochi kiyikning ham alohida o'rni bo'lgan. Urg'ochi kiyik yo'l ko'rsatuvchi iloha, uning vujudidagi ola-chipor dog'lar yulduzlar, deb tasavvur qilingan[2].

Chingizxon ajdodining Ko'k-bo'ri va Qizil (oq) kiyik bo'lgani haqida rivoyatlar mavjud. O'rxun obidalarida Bilga hoqon: "baga sıgun ötser sakınur men..." (tog'da yovvoyi kiyik bo'zlasa shunday motamga g'arq bo'laman), deb kiyikning sezgirligi va hurkakligiga ishora qiladi. Og'uzxon xalqning boshiga balo bo'lgan hayvonni o'ldirish uchun daraxtga kiyik bog'lab qo'ygan. "Dada Qorqut kitobi"da kiyik ba'zan insonlarga yo'l ko'rsatuvchi, yaxshilik qiladigan, ba'zan ularni tuzoqqa tushiradigan obraz sifatida namoyon bo'ladi[3].

---

[1] Jacobson Esther. The Deer Goddess of Ancient Siberia. –Leiden: Brill, 1993. –P. 33, 46-47.

[2] http://www.biligbitig.com/2014/06/deniz-tanricesi-geyik-tanrica-turk.html

[3] Aytaş G. Türk Kültür ve Edebiyatında Geyik Motifi ve "Haza Destan-i Geyik"// http://tasavvufkitapligi.com/i/uploads/276191turk-kultur-ve-edebiyatinda-geyik-motifi-ve-haza-destan-i-geyi.pdf

Afsonaga ko'ra, kiyik xun ovchilarini boy skiflar yeriga olib borgan. Boshqird mifologiyasida kiyik ko'kdan tushgan va Quyosh bilan bog'liq muqaddas hayvon sifatida namoyon bo'ladi.

Qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatovning "Oq kema" nomli asariga bug'u qabilasining afsonalari ham kiritilgan. Afsonaga ko'ra, yoppasiga qatl etilgan bug'u qabilasidan bir o'g'il va bir qiz bola qoladi. Bu bolalarni shoxdor ona bug'u emizib, katta qiladi. Bug'u qabilasining ana shu ikki boladan tarqani rivoyat qilinadi. Shu sababli shoxdor ona bug'u boshchiligidagi butun kiyiklar muqaddas hisoblanib, ularga ajdod sifatida qaraladi. Bug'u qabilasidan tarqaganlar asrlar davomida ota-onalarining qabrlariga kiyik shoxlarini qo'yib kelishgan. Issiqko'l atrofidagi qabrlarda hozir ham bu an'anani davom etib kelayotganligini ko'rish mumkin[1].

Uzoq Sharq madaniyatida kiyik o'ziga xos, serma'no hayvon timsollardan biri hisoblanadi. Jumladan, "qadimgi Koreyadagi Puyeo davlati "kiyik" ma'nosini anglatgan. Koreyaning tarixiy va adabiy manbalarida kiyik muqaddas hayvon sifatida namoyon bo'ladi. Koreys xalqining inonchlariga ko'ra kiyik muqaddas hayvon bo'lgani uchun undan marosimlarda qurbonlik hayvon sifatida foydalanilgan, shuningdek, koreys adabiyotida ham kiyik qutlug' qahramon obrazida gavdalanadi"[2]. Koreys xalq ertaklarida kiyik baxtga, boylikka yo'l ko'rsatuvchi, shifobaxsh odamgiyoh (jenshen)ga olib boruvchi obraz sifatida tasvirlanadi. Demak, kiyik qadimda Koreya davlatining ramzi, koreys qabilalarining totemi va o'zida shomonlik xususiyatini mujassamlashtirgan muqaddas hayvon bo'lgan.

Xitoyda kiyikka, ayniqsa, bu hududda ko'p tarqalgan olachipor bug'uga baxt, daromad, omad, sog'lik va uzoq umr timsoli sifatida qaraladi. Binobarin, xitoy tilidagi "kiyik" so'zi "daromad" so'zi bilan omonim hosil qiladi. Xitoy afsonalariga ko'ra, ma'budlar turli hayvonlarni minib yurishgan, abadiylik ma'budiga esa tibbiy qadriyatlar tumori sanalgan olachipor bug'u hamrohlik qilgan. Qadimgi Xitoy tibbiyotida kiyik shifobaxsh hayvon sifatida juda qadrlangan[3].

**Qo'y** - ayniqsa, oq qo'chqor qadimgi turkiy xalqlar tomonidan Ko'k tangriga bag'ishlangan qurbonlikdir. Oltoyliklar Ulgenga oq qo'y, Erlikka qora qo'y so'yib qurbonlik qilishgan. Turkiy xalqlarning ayrim sulolalari kuch-qudrat va alplikning ramzi bo'lgan qo'chqorni o'zlariga gerb qilib

---

[1] Legends about the origin of the tribe Bugu: Prof. Dr. İsenbike Togan. NTV Tarih, Kasım 2010. No:22. –S. 106.

[2] Kim Hyo-Joung. Korenin Eski Kaynaklarında Görülen Geyik Motifinin Anlamı // International Journal of Central Asian Studies. Vol. 9, 2004. –P. 62-63.

[3] http://pantoproject.ru/articles/heavy_aquitard_hypothesis_and_theory

olganlar. Shuningdek, o'zbek xalq ertaklarida ko'k qo'chqor - afsonaviy homiy jonivor sifatida aks ettirilgan.

Kul tigin bitigtoshida qo'y surati bor. Bu tasvir orqali turkiylar o'zlarining moddiy jihatdan farovon yashaganligini bildirganlar. Turkiylarda qo'y - muqaddas hayvon ekanligiga ham ishora bor. Muqaddas sanalgan hayvonlar ko'pchilik xalqlardan farqli ravishda, iste'mol qilingan[1].

Misrda qo'y ijodiy kuch, Quyoshning quvvatini yangilovchi ijodiy issiqlikni mujassamlashtiradi. Qadimgi Gretsiyada qo'y ma'budi hisobangan Zevs-Sabaziyaga taqdim etilgan, shuningdek, unumdorlik va bunyodkorlik kuchi hisoblangan. Kiprda qo'y Afroditani timsoli bo'lgan[2].

Qayd etilganlar bilan birga, o'zbek lingvomadaniyatida qo'y yuvoshlik; turk lingvomadaniyatida ahmoqlik; islomda qurbonlik hayvoni; induizmda otash tangrisi, muqaddas olov timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

**Cho'chqa** - turkiy xalqlarning an'analarida salbiy o'rin tutadi va uning go'shti azaldan yeyilmay kelinadi. Cho'chqa yomon ruhlarni chaqiruvchi hayvon hisoblangan va bunday qarash Islomdan keyin ham davom etgan[3]. O'zbek, qirg'iz, qozoq va boshqa turkiy xalqlarning lingvomadaniyatlarida *cho'chqa* so'zi haqoratni bildiradi.

Uzoq Sharq madaniyatida, xususan, Xitoyda cho'chqa dastlab ochko'z va iflos hayvon hisoblangan, biroq qo'lga o'rgatilgandan so'ng foydali hayvonga aylangan. Koreyada cho'chqa to'kin-sochinlik, boylik va farovonlik timsolini ifodalaydi. Binobarin, yangi uy yoki mashina sotib olinganda dasturxonga cho'chqaning boshi tortiladi. Yoki tushida cho'chqa ko'rsa, qo'liga katta miqdorda pul tushishiga ishoniladi. Shu sababdan Koreyada cho'chqa tasvirli tangadon (kopilka)lar ko'p tarqalgan.

Hindlarda Olmos cho'chqa - Vadjravaraxi, ya'ni Osmon ilohasi bo'lib, u Vishnuning uchinchi to'ng'iz ko'rinishidagi ayolga aylanishini namoyon qiladi. Vetnam madaniyatida cho'chqa ahmoqlik ramzi bo'lib keladi. Yahudiylar va musulmonlarda cho'chqa go'shti harom, taqiqlangan ozuqa sanaladi[4].

**Ilon** - murakkab va universal timsollar sirasiga kiradi. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan mifologik qarashlarga ko'ra, uzoq yashagan ilon ma'lum vaqtdan keyin ajdarhoga aylanadi. Masalan, tatar miflaridan birida qayd qilinishicha, bir yoshdan sakkiz yoshgacha bo'lgan ilon - "hayat" deb atalsa, sakkiz yoshdan yuz yoshga kirguncha "afchi", yuz

---

[1] Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 61.
[2] http://symbolist.ru/animals
[3] Ögel Bahaeddin. Türk Mitolojisi. C. II. –Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1995. –S. 541.
[4] http://symbolist.ru/animals

yoshdan ming yoshga qadar "ajdaxa", ming yil umr ko'rgan ilon "yuho" deb ataladi. Yuho qiz shakliga enishga qodir bo'ladi. To'qqiz mingga kirgan ilon "yalmog'iz kampir"ga aylanadi[1]. Shuningdek, katta uzun ilonning nomi "bo'ke" bo'lib, Yaboqu qabilasining eng ulug' kattalariga Bo'ke budraj deb atalgan. Ba'zan bahodirlarni ham bu so'z bilan ataganlar[2].

Dunxuandan topilgan Irq bitigida ilon muqaddaslashtirilgan, tushda ilon ko'rsa, odamga boylik keladi, deb tasavvur qilingan.

Bulg'orlar ilonni o'ldirmaganlar, boshqirdlar uni o'n ikkita Tangridan biri sifatida qabul qilganlar. Qalmiqlar ilonni samoviy mavjudot deb bilganlar[3].

Xitoyda ilon beshta zaharli mavjudotning biri bo'lib, yovuzlik, yolg'onchilik va ayyorlik ramzi sanaladi. Aka-singillar Fo-xi va Niu-kua ba'zan boshi odamniki bo'lgan ikki ilon ko'rinishida tasvirlanadi[4]. Ular "in" bilan "yan"ni tamsil etadi. Qadimgi Xitoy falsafasida butun olam ikki qarama-qarshi: "in" bilan "yan" qutblariga ajratilgan. Ya'ni, butun borliq jonli va jonsiz, yorug'lik va qorong'ulik, yer va osmon, erkak va ayol kabi qarama-qarshiliklardan iborat. Yaponiyada ilon momaqaldiroq ma'budi sanaladi.

Yunon an'analarida ilon donishmandlik, hayotning yangilanishi, qayta tirilish ramzi bo'lib, Eskulap, Gippokrat va Germesning o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Buddizmda yovuzlik; yahudiy an'analarida yovuzlik, gunoh, shahvat ramzini bildiradi.

**Ajdar** - afsonaviy katta ilonni anglatadigan murakkab va universal timsollardan biri. Qadimgi turkiy tilda ajdar xitoycha *lung* so'zidan qisqartib olingan *lu* nomi bilan atalgan. "Ajdar" tushunchasining Uzoq Sharqdan kirib kelganini taxmin qilish mumkin[5].

Ajdar *yilan, nek yilan, büke* va *evren* nomlari bilan ataladi. Bulardan *evren* nomi turkcha bo'lib, uning kelib chiqishi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Zero, bu ismni bulg'or tilidagi muchal taqvimida va "Qutadg'u bilig" asarida uchratish mumkin. *Evren* so'zi *evir* - "buralmoq"dan yasalgan bo'lib, ajdar gavdasining uzun halqalar shaklida

---

[1] Жўраев М., Саттиева Д. Ўзбек фольклорида ҳаёт дарахти. –Тошкент: Фан, 2010. –Б.13.

[2] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. – Б. 247.

[3] Roux J. P. Türklerin Ve Moğolların Eski Dini. Çeviren: A. Kazancıgil. – İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. –S. 151.

[4] http://symbolist.ru/animals

[5] Harya U. Les representations religiuses des peuples altaiques – Paris, 1955. –P. 188.

buralib, kulcha holiga kelishi va uning dumini tishlab muntazam aylanib turishini ifodalaydi[1].

Turkiy xalqlarning qadimgi inonchlarida ajdar baraka, farovonlik, to'kin-sochinlik, kuch-quvvat ramzini ifodalagan bo'lsa, keying davrlarga kelib bunday fazilatlar kuchsizlanib, u yomonlik timsolini anglatadigan mahluq sifatida namoyon bo'lgan. Hunlar davrida ajdar festivallari o'tkazilgan. Xitoy imperatorligining ramzi hisoblangan ajdar, turkiy xalqlarga ham bu jihati bilan ta'sir ko'rsatib, ularning muchal taqvimidan o'rin olishga muvaffaq bo'lgan[2]. Qadimgi turklar shomonchiligida ajdar - Bo'ron, Quyun timsoli: bulut, yashin kabi tabiat stixiyalari yaxlit holda ajdarho - tangri sifatida tushunilgan.

Ajdarning yer ostidan chiqib, Osmonga ko'tarilish vaqti aprel oyiga to'g'ri keladi, degan qarash Uzoq Sharqqa oid bo'lib, uni Onado'li hududlarigacha tarqalganini ko'rish mumkin. Bektoshiylik an'analarida Hoji Bektosh ajdarni Osmonga uchurish uchun g'oridan haydab yuboradi.

O'zbek xalq ertaklarida ajdar - yovuz, yirtqich ruh timsoli. Hind, grek, arman xalqlarining afsona va miflarida ajdarho suv, hosildorlik, sel, daryo, dengiz va boshqa tabiat stixiyalari xudosi sifatida tasvirlanadi.

Ajdar xayoliy, mifologik hayvon bo'lsa-da, Uzoq Sharq madaniyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoyda ajdar 8000 yil avval paydo bo'lgan, degan qarashlar mavjud. Qadimda Xuaxia qabilasi Xuangxe daryosi bo'yida yashayotgan ilonni totem qilib olgan. Boshqa qabilalarni yengib, ularni birlashtirgan va kuchli qabila tashkil qilgan. Buning natijasida ilon totemi bilan boshqa qabilalarning totemi birlashib "ajdar" totemini yuzaga keltirgan.

Ajdar timsoli qadimgi dehqonchilikda ham katta rol o'ynagan. Ma'lumki, dehqonchilikda yomg'ir muhim ahamiyatga ega. Qurg'oqchilik yoki Xuangxe daryosidan suv toshishi dehqonchilikka katta zarar yetkazar edi. Ana shunday og'ir paytlarda xalq osmonda uchib barcha narsani ko'radigan, yomg'ir yog'diradigan yoki toshqinni nazorat qila oladigan kuchni orzu qilib, buni "ajdar" timsolida ko'rgan. Shunga ko'ra, Xitoyda ajdar ramzi yomg'ir, shamol, momaqaldiroqni tamsil etadi[3]. Xitoy va Koreyada ajdarning suv havzalarida qishlashi va bahor kelishi bilan uning bulutlarga ko'tarilishi haqida inonchlar mavjud.

Xitoyliklar o'zlarini ajdarning avlodi, deb hisoblaydilar. Shang sulolasi davrida ajdarga yaxshilik, kuch-qudrat va baxt ramzi sifatida

---

[1] Roux J. P. Türklerin Ve Moğolların Eski Dini. Çeviren: A. Kazancıgil. – İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. –S. 115.

[2] Çoruhlu Yaşar, Türk Mitolojisinin ABC'si. –İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1999. –S.141-144.

[3] Кебайтули Гулибанумы. Хитой ва ўзбек лингвомаданиятларида ҳайвон рамзларининг талқини // Шарқ машъали. No. 3-4. –Тошкент: 2015. –Б. 58.

qaralgan. Keyinchalik ajdar imperatorning "kuch-qudrati" timsoliga aylangan.

Ajdar va hukmdor birlashtirilib, imsonlardan yuqori turuvchi Osmon o'g'li hukmdorning yerdan osmonga ko'tarilishi ajdarga qiyoslanilgan. Odamlarning ajdar qudratiga ishonishlari Xitoy va Koreya hukmdorlariga qo'l kelgan va ular bu xurofotdan foydalnishgan. Imperator haqida: uning yuzi - ajdar yuzi, uning ko'zi - ajdar ko'zi, uning qo'li -ajdar qo'li, uning to'ni - ajdar to'ni, uning bolalari - ajdar bolalari, imperator saroyi - ajdar saroyi, uning taxti - ajdarning o'rni va h.k. inonchlar xalq orasida tarqalgandi[1].

Xitoy va Koreyada ajdar tasvirini hamma yerda: ibodatxonalar, saroylar, me'moriy obidalar, qadimiy inshootlarda uchratish mumkin[2]. Ajdar qiyofasi ulug'vor, qahrli va jangovor ko'rinishda tasvirlangan. Shuningdek, rang ifodalovchi ramz hisoblanadi va u o'zida ko'proq sariq va qizil ranglarni birlashtiradi.

## 16. 3. Turli lingvomadaniyatlarda qush ramzlarining qiyosiy tahlili

Qushlarning ko'kka pavoz qilish qobiliyati Sharq xalqlari mifologiyasida juda keng qo'llanilgan hodisalardan biridir. Bu o'rinda insjinslar va ruhlarning olamshumul sayohatlarini qulaylashtirish uchun ularning ayrim qushlarga o'xshatilgan qiyofalarini eslash kifoyadir. Ko'rinadiki, qushlar ruhning ramzi bo'lib kelgan. Qushlar orasida kuchi va uchish tezligi jihatidan yirtqich qushlar alohida o'rin tutadi.

**Burgut** - yirtqich qushlar ichida tog' cho'qqisida, eng baland daraxtlarning uchida yashaydigan va qanotlarini yoyganda yer yuzini qoplaydigan mahobatli mavjudotdir. Burgut turkiy xalqlar madaniyatida alohida o'ringa ega bo'lgan milliy ramzlardan biridir. Xususan, ko'k turklar davrida va uyg'urlarda burgut hukumdor va beklarning himoyachi ruhi va huquqiy ramzi bo'lgan. Quyosh, kuch-qudrat timsoli bo'lgan burgut janglarda g'alaba qozonishga ishora bergan[3]. Teleutlarning burgut urug'idan tarqagani haqida inonchlar mavjud.

Sirdaryo bo'yidan topilgan yodnomadan anglashilishicha, burgutga ilk turkiylar sajda qilgan. U osmon ilohasini jonlantirgan va sulolaning

---

[1] Филимонова Е. Н. Символика животных в переводных произведениях. «Священные» животные (на материале переводов с корейского и китайского языков) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2004. –Вып. 26. –С. 53.

[2] Сидихменов В. Я. Китай: страницы прошлого. –Смоленск: «Русич», 2000. –С. 37.

[3] Ögel Bahaeddin. Türk Mitolojisi. C. I. –Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1998. –S. 586–599; Seyfeli Canan. Türk Mitolojisinde Hayvan Motifleri // Yol Bilim Kültür Araştırma. Sayi 23, Mayıs-Haziran 2003. –S. 48.

nomiga ishora qilgan. B. Grekovning e'tirof etishicha, burgut skiflarda osmonning kengligini anglatgan. Bu ramziy obraz shoh degan ma'nodadir. Skiflarda ham, turkiylarda ham burgut fazoga bog'liq holda talqin qilinadi[1].

Burgutning biz bilgan hayratomuz qobiliyatlari va hayot manbayi sifatidagi kuch-qudratidan tashqari, "Er toshtuk" asarida uning odam yeyuvchi sifati ham tasvirlanganini ko'rish mumkin. Mazkur asarning ikki bo'limi va bir qancha boblari burgutga bag'ishlangan bo'lib, unda burgut navbati bilan yetti kun yer ostida va yetti kun ko'kda yashaydi. Qahramonning suyaklarini tegib bo'lmas holda majaqlab yutib yuboradi va uni yana qaytadan sog'lom, baquvvat holda hayotga qaytaradi. Bu burgutning O'rta Osiyo va Osiyoning har yerida mavjud bo'lgan afsonaviy qushga o'xshashi, uning Erondagi *semurg*'ni, arablarning *rohi*ni va hindlarning *garuda*sini eslatishi, cho'l iqlimiga yaxshi moslasha olishi afsonaning juda qadimiy davrlarga oidligini ko'rsatadi[2].

Eron mifologiyasining ta'sirida turkiy xalqlar mifologiyasidan o'rin olgan afsonaviy qush semurg' ba'zan ezgulik, yaxshilik ramzi sifatida qahramonlarning himoyachisi, ba'zan yomonlikni mujassamlashtirgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Hind mifologiyasida ilohiy kuchga ega bo'lgan garuda Tangri Vishnuning ulog'i sifatida tasvirlangan.

Buddizmda burgut Budda uchadigan qushdir. Xitoyda Quyosh, "yan", jangchi, mardlik, qaysarlik, shuningdek o'tkir ko'zni ifodalaydi. Keltlarda burgut shifobaxsh suvlar assotsiatsiyalaydi. Misrliklar burgutni tog' o'g'loni, yunonliklar Quyosh, ruhiy kuch, shohonalik, g'alaba va omad ramzi deb bilishadi[3].

Burgutning kuchliligi, o'ljasiga chang solishi, tashlanishi, dadil parvoz qilishi, shiddat bilan yuksak darajada faoliyat ko'rsatishi turli iboralarni shakllantirganini kuzatish mumkin: *Iltijolarga quloq solmay, boshqa amirlar tortib olib qo'yishmasin, degan xavotirda* ***o'ljasiga chovut solgan burgutday*** *shartda Shoh Mansurga tashlandi* (M. Ali. Ulug' saltanat). Turk tilida "kuchlilarning to'qnashuvidan biz kuchsizlar foydalanaylik" ma'nosida ***Kartallar dövüşsün, bir şehim de bize düşsün*** iborasi qo'llaniladi. Burgut nigohining o'tkir bo'lishi "ta'sirchan, o'tkir qarash qilmoq" ma'nosidagi quyidagi iboraga ko'chganligini kuzatish mumkin: *Bobom* ***burgut boqish qilib*** *menga qaradilar* (S.Ahmad. Yulduz).

---

[1] Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 87, 113.
[2] Roux J. P. Türklerin Ve Moğolların Eski Dini. Çeviren: A. Kazancıgil. – İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. –S. 115.
[3] http://symbolist.ru/animals

**G'oz** - g'oz erkaklik, uylanish va muvaffaqiyat ramzi hisoblanadi. Turklarda g'oz qut va beklik timsoli bo'lgan. Shuning uchun turk beklari g'o'zdan ism sifatida ham foydalaganlar. Jumladan, alp Erto'nga, ya'ni Afrosiyobning qizini ismi Qaz bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy buni shunday izohlaydi: "Qaz - Afrosiyob qizining nomi. Qazvin shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli "qaz o'yini" - g'oz o'ynaladigan joy demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi"[1].

Kelt eposida g'oz jang ramzi va jang xudolarining atributi sanaladi. Xitoyda yovvoyi g'oz ilohiy qush bo'lib, u "yan", jasorat, yorug'lik, tezlik hamda er-xotinning baxtini timsollaydi. Xitoy va yapon san'atida kuzgi oyni assotsiatsiyalaydi. Misrda g'oz olamni yaratuvchi - "Buyuk Gogotun"ning timsolidir. U fazoviy tuxumdan chiqqan Quyosh - Amon-Radir. Shuningdek, Yer xudosi Seba hamda sevgi ramzi hisoblanadi. Qadimgi yunon an'analarida sevgi, hushyorlik, yaxshi bekani anglatgan. Hindlarda yovvoyi g'oz Braxmaning harakatlanish vositasidir. Shu bilan birga, ma'naviyat, sadoqat, bilim va notiqlikni ifodalaydi. Xamsa g'oz yoki oq qush ko'rinishida tasvirlangan[2].

G'ozning qaddini tik tutib yurish holati *g'ozday yurmoq*, bo'ynini cho'zib qarashi esa *g'oz qarash* iboralarida o'z aksini topgan.

**O'rdak** - turkiy xalqlarda baxt va farovonlik ramzi hisoblanadi. Uzoq Sharq madaniyatida juftlik, sadoqat ramzi bo'lib, baxtli nikohni tamsil etadi. Shuning uchun nikoh to'ylarida kelin-kuyovga o'rdak haykalchalari sovg'a qilinadi.

Qadimgi Misrda tasviriy san'at predmeti, qadimgi yunon san'atida sevgi ma'budi Erosni ifodalaydi. Yahudiylarda mangu hayot ramzi hisoblanadi.

O'zbek lingvomadaniyatida o'rdakning u yoqqa, bu yoqqa tashlab, chayqalib yurishi *o'rdakday lapanglamoq* o'xshatishi vositasida ifodalanadi: *Taomil o'zgarmabdi: sochi qoshigacha tushgan yigit qo'llarini cho'ntakka solguncha, **o'rdakday lapanglab** kelib, uning qarshidida to'xtadi* (T.Malik. So'nggi o'q). Turk tilida aynan shu ma'noda ***ördek yürüyüşü*** iborasidan foydalaniladi.

**Turna** - turkiy xalqlar an'analarida boylik va uzoq umrni anglatadi. Xitoyda turna xudolarning elchisi, Yer va Osmon orasidagi vositachidir. U G'arbdagi jannatga ruhlarni eltadi. Abadiy hayot, uzoq umr, baxt-saodat, hushyorlik va yuksak martaba ramzi hisoblanadi. Shunigdek, turna onalikning himoyachisi sifatida talqin qilinadi. Yaponiyada ham aynan

---

[1] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. – Б. 163.

[2] http://symbolist.ru/animals

shunday ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Mazkur qush Yunon-Rim ramzlarida bahor va yorug'lik xabarchisi sifatida Apollonga bag'ishlanadi[1].

Turnalarning o'ziga xos parvoz tarzidan o'zbek lingvomadaniyatida "qator bo'lib tizilgan" ma'nosidagi ***turna qator*** iborasi hosil bo'lganini ko'rish mumkin. Yoki turnaning boylik keltirishiga bo'lgan inonchlarning turk lingvomadaniyatida "kutilmaganda juda qimmatli biron narsani qo'lga kiritmoq" ma'nosidagi *turnayı gözünden vurmak* iborasining shakllanishiga sabab bo'lgan deyish mumkin[2].

**Kaptar** - aksariyat madaniyatlarda tinchlik, uzoq umr, ayollik va onalik ramzidir. Xitoy madaniyatida kaptar uzoq umr, sadoqat, farzandlarning ota-onaga hurmati, bahor, shuningdek, Ona-yerni timsoli bo'lib keladi. Yapon madaniyatida uzoq umr va hurmat ramzini ifodalaydi. Shumer-semit madaniyatida ilohiy kuch; yunon-rim madaniyatida sevgi va hayotning yangilanishi; yahudiylarda beg'uborlik; nasroniylikda Muqaddas ruh ramzi sifatida talqin etiladi[3].

O'zbek lingvomadaniyatida kaptarning ayollik va mushtiparlik ifodasi sifatida kelishini quyidagi misolda ko'rish mumkin: *Men kabutar bo'lsam, ul bir burgutdur, Men mushtipar bo'lsam, ul bir yigitdir* ("Malikayi ayyor").

**Qaldirg'och** - umid, bahorning kelishi va omad ramzidir. O'zbek"xonadoniga qaldirg'och in qo'ygan oila tez orada oyoqqa turib, mushkullari osonlashgandir. Aksincha, biron sabab bilan qaldirg'och inini buzgan xonadon tushkunlikka uchragandir"[4]. Qaldirg'ochning qanoti go'zal qizning qoshlariga qiyos qilinadi: *Undagi chaqnoq ko'zlar, **qaldirg'och qanotiga o'xshash qoshlar**, oppoq yuz...* (J.Abdullaxonov. Tarki dunyo).

Yapon madaniyatida qaldirg'och vafosizlik timsoli bo'lishi bilan birga, sodiqlik, ona g'amxo'rligini ham anglatadi. Xitoyda jur'at, xavf, sadoqat, yaxshi o'zgarishlar timsoli sifatida baholanadi. Yunon-Rim an'analarida qaldirg'och Afroditaga bag'ishlanadi. Shumer-semit an'analarida Buyuk Ona timsoli ma'buda Nina siymosini ifodalaydi. Nasroniylikda qayta tirilish, yangi hayotni tamsil etadi[5].

**Laylak** - ko'pchilik madaniyatlarda bahorning kelishini, yangi hayotning boshlanishini ifodalaydi. Binobarin, o'zbek madaniyatida bahor va baxt-saodatni xitoy madaniyatida uzoq umr, baxtli va xotirjam keksalikni tamsil etadi. Laylakka keksaygan ota-onaga qaraydigan,

---

[1] http://symbolist.ru/animals
[2] Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (O'quv qo'llanma). –Toshkent, 2015. –B. 97.
[3] http://symbolist.ru/animals
[4] Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent.: Sharq, 2010. –B. 20-21.
[5] http://symbolist.ru/animals

ularni boqadigan qush sifatida qaraladi. Jumladan, Xitoy va Misr madaniyatida laylak ota-onaga qaraydigan, ularni izzat-hurmat qiladigan o'g'il timsolidir.

Yunon mifologiyasida laylak ma'budasi - hayot beruvchi, boquvchi ayol ko'rinishida tasvirlanadi va Geraning atributi hisoblanadi. Nasroniylikda soflik, ozodalik, hurmat va hushyorlik timsoli sifatida talqin qilinadi[1].

**Qarg'a** - aniqrog'i qora qarg'a, murakkab ramzlardan biri bo'lib, umimiyatda yovuzlik va yomonlikni ifodalaydi. O'zbek madaniyatida yomon xabar elchisi sanaladi. Xitoy va Yaponiyada oilaviy mehr-muhabbat timsoli hisoblangan. Xitoydagi Shu sulolasining emblemasida uch panjali qarg'a tasvirlangan bo'lib, u Quyoshning uch holatini: chiqishi, osmonning eng baland nuqtasiga ko'tarilishi va botishini tamsil etgan. Qadimgi yunon, eron va xitoyliklarning mifologiyasida Quyosh ma'budlari (Apollon, Mitra)ning elchisi ko'rinishida namoyon bo'lgan.

Osiyo, Afrika va Amerika xalqlarining an'analarida Quyosh belgisi, donishmandlik, ziyraklik va uzoq umrni ifodalab kelgan. Qadimgi Rimda qarg'a umid, o'rta asrlarda Yevropa xalqlarining nazdida qora qarg'a eng yovuz qush sifatida falokat, qayg'u, urush va o'lim xabarchisini majozlagan[2].

**Boyqush** - bir tomondan donishmandlik, boshqa tomondan qorong'ilik va o'lim timsoli bo'lib keladi. Binobarin, Amerika hindularining an'analarida donishmandlik va bashoratgo'ylikni ifodalasa, o'zbek va yapon madaniyatida o'lim, yomon xabar, umuman, yomonlik alomati sifatida talqin qilinadi.

Xitoyda yovuzlik, jinoyat, o'lim, dahshat, ko'rnamak farzandlar; Misrda o'lim, tun, sovuqlik ramzi bo'lib keladi. Yahudiy inonchlarida so'qirlik; induizmda o'liklar ma'budi; nasroniylikda shayton, qora kuchlar, qayg'u, yomon xabar tarzida sharhlanadi.

**Xo'roz va tovuq** - aksariyat madaniyatlarda xo'roz Quyosh va g'ururning ramzi bo'lib keladi. Shuningdek, xo'roz urishqoq parranda hisoblanadi. Turkiy xalqlarning xo'roz bilan bog'liq inonchlarida shomonlikning ta'siri seziladi. Xo'roz yomon ruhlarni haydab yuboradigan va himoya qiladigan parranda sanaladi. Oltin tovuq (yoki xo'roz) hukmdor oilasini, kumush tovuq esa hukmdor oilasidan bo'lmagan zodagonlarni namoyon qilgan. Shu bilan birga, xo'roz tinchlik ramzini ham ifodalaydi[3].

---

[1] http://symbolist.ru/animals
[2] http://symbolist.ru/animals
[3] Çoruhlu Yaşar. Türk Mitolojisinin ABC'si. –İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1999. –S.168-169.

Xo'roz muqaddas kishilarning mozorlarida so'yilgani uchun Payg'ambarning yo'ldoshi, Ollohning yaqini, samodagi "taxtga yaqin" bo'lgan Jabroil yoki Salmon al-Forsiy ismli bosh farishta hisoblanadi. Xo'rozning saharda qichqirishi jinlarning faoliyatiga yakun yasaydi.

Xitoy tilida "tovuq" (野鸡) so'zi ko'chma ma'noda yengiltak ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Shuning uchun ham to'y marosimlarida tovuq go'shtidan tayyorlangan taomni tortish nomaqbul hisoblanadi. Yangi yilni kutib olayotganda ham tovuq go'shti yeyish tavsiya qilinmaydi. Tovuq go'shti yeyilsa, atrofdagilar bilan tez-tez janjallashiladi, deb ishoniladi. Bu tovuqning urishqoq parranda ekanligi bilan izohlanadi. O'zbek lingvomadaniyatida haqoratlash ma'nosida ishlatiladi: *Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, keksa tovuq!* Yoki "ahmoq" ma'nosida *tovuq miya* iborasi qo'llaniladi[1].

Xulosa qilib aytganda, Sharq xalqlarining qushlar haqidagi tasavvurlari ularning ijtimoiy tizimi, madaniyati, urf-odatlari va inonchlarini namoyon qiladi. Qushlardagi ko'kka pavoz qilish qobiliyati tufayli, ular aksariyat hollarda ruhning ramzi bo'lib keladi. Sharq lingvomadaniyatidagi o'rdak, turna, qaldirg'och, laylak kabi qushlar baxt, boylik, farovonlik va oila ramzi sifatida qadrlanadi. Aksincha, boyqush va qarg'a singari qushlarga yovuzlik va yomonlik ramzi, yomon xabar elchisi sifatida qaraladi. Ayrim qush timsollarida esa erkak-ayol ziddiyati namoyon bo'ladi. Jumladan, g'oz va xo'roz erkaklik, kaptar va tovuq ayollik ramzi sifatida talqin qilinadi.

### 16. 4. Ranglarning ramziy ma'nolari

"Agar ramz atamasining tarixiga murojat etadigan bo'lsak, qadimgi yunonlar Symbol, yani ayrim odamlarning o'zaro bir-birlarini tanib olish uchun zarur bo'lgan shartli harakatlari, belgi va ishoralari, muayyan predmetlarni qo'llashlari ma'nosini anglatuvchi so'zdan foydalanganliklari ayon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, qadimgi ajdodlarimiz ikki xil asosdagi ramzlarga ko'proq murojaat etganliklarini anglab yetamiz. Birinchisi - narsa ramz, ikkinchisi - rang ramz. Ushbu ramzlarning qaysi biri qadimiy degan savol tug'ilishi tabiiy. Mantiqan yondashilsa, narsa ramz qadimiyroqqa o'xshaydi. Ammo jiddiyroq yondashilsa, ibtidoiy inson ham u yoki bu ramz asosidan narsaning mohiyatini to'la tushunib olgan paytda eng avvalo uning rangini ilg'ab olgan. Turli rangdagi narsalardan

[1] Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул килиш тюмилишнинг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015 yil 28 noyabr. –B. 34.

foyda va zarar ko'rishiga qarab, ular bir rangni yaxshilik timsoli sifatida qabul qilsalar, boshqa bir rangni esa yovuzlik ramzi sifatida qabul qilganlar"[1].

Afrika qit'asida yashovchi xalqlarning ramz va marosimlarini tadqiq etgan ingliz etnografi Viktor Terner rang-ramzlar ilg'ab olinish jihatidan ancha qadimiy ekanligini ko'rsatib bergan[2]. Uning aniqlashicha, qadimgi inson uch: dastlab oq, qora, qizil ranglar bilan bog'liq ramzlarni kashf etgan bo'lsa, keyinchalik u asta-sekin bu uchlikka yashil, ko'k, sariq va boshqa ranglar bilan aloqador ramzlarni kiritgan.

**Qora rang** - turli lingvomadaniyatlarda yovuzlik, o'lim, tun, g'am-g'ussa, qayg'uni ifodalaydi. Qora osmon, qora yer, g'or, chuqur, qabr qorong'ulik saltanati, marhumlar diyori bo'lib, u yerda qandaydir xavf-xatar, tahdid yashiringandek talqin qilinadi. Rus xalqi tilida "черный" (qora) so'zi eski, qari, iflos, tugallanmagan, yorug'likdan mahrum qandaydir narsani anglatadi: *черная старуха, чернавка, черный ход, черный пол, черновик.* Afrika xalqlarida yovuzlik, yomon narsalar, baxtsizlik, falokat, kasallik, jodugarlik, o'lim, shahvat, tun kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Xitoy folklorida qora rangning ramziy ma'nosi jiddiylik va adolatni tamsil etadi. Masalan, xitoy tilida "qora yuz" iborasi "jiddiylik"ni anglatadi. Qora rang qorong'ulik, zimiston va yovuzlik ma'nolarini ham bildiradi. Jahldor odamga nisbatan "qora qalb" iborasi ishlatiladi. Shuningdek, Xitoyda qora rang maxfiylik ("qora sahna" - orqadan ish qilish), qonun buzish, qonunga zid ish qilish ("qora yo'l" - o'g'rilar; "qora bozor" - noqonuniy yo'l bilan; "qora pul" - pora va h.k.) singari ramziy ma'nolarda qo'llaniladi.

Sharq va O'rta Osiyo madaniyatida ba'zan qora rang ulug'vorlik, buyuklik ramzi sifatida talqin qilingan. "Akademik shoir G'afur G'ulom Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini to'liq sharh bilan nashrga tayyorlashda Xoqon farzandli bo'lgan kuni mamlakatidagi hamma devorlarni qora rangli ipak matolar bilan bezash buyrug'ini berganini aytadi. Tabiiyki, nima uchun podsho farzand ko'rgan kuni butun yurtini qora harir libosda ko'rishni xohlagan, degan savol tug'iladi. Gap shundaki, Navoiy yashagan paytda qora rang buyuklik, ulug'lik ramzi hisoblangan. Bu tushuncha hozir ham ayrim viloyatlarda saqlangan. O'zbeklarda Qoravoy, Qorajon, Qora botir, Qoraxon degan ismlarning qo'yilishi ham bu fikrni dalillaydi"[3].

---

[1] Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent.: Sharq, 2010. - B.20.
[2] Тэрнер В. Символ и ритуал. – М.: Наука, 1983.
[3] Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent.: Sharq, 2010. –B. 21.

**Oq rang** - deyarli barcha xalqlar lafzida poklik, soflik, ezgulik, yorug'lik, rostgo'ylik kabi ramziy ma'nolarni bildiradi. O'zbek madaniyatida oq rang pokizalik, musaffolik, ezgulik ramzi sanaladi. Masalan, oqlik, oq o'rar, ona sutidek oq, oq ot yoki kelinlarning oq libos kiyishlari. Oq tusga moyil, tiniq yuz, badan tusini bildirish uchun ham oq rangi qo'llanadi: oq badan, oq tanli, oq yuzli. Qo'lini sovuq suvga urmaydigan, faqat o'ziga oro beradigan ayollarga nisbatan "oq bilak" iborasi qo'llanadi. Umuman, o'zbek tilida oq rang bilan bog'liq ibora va maqollardan keng foydalaniladi: *oq ko'ngil; oq qilmoq; oq yuvib, oq taramoq; oq padar; oq-qorani tanigan; ko'zining oqu qorasi; manglayi oq bo'lsin; oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq; kosasi oqarmagan; oq-qorani tanimoq* va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrogidagi oq rang - tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat o'z yo'lida baland dovonlardan oshib o'tishi kerak. Bayroqdagi oq rang O'zbekiston Respublikasi tanlagan yo'lning musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzidir.

Uzoq Sharq mamlakatlari madaniyatida oq rang - motamni bildiradi. Agar motamda qora kiyim kiyilsa, marhumning ruhi hech narsa ko'rmaydi, deb ishonilgan. Shuning uchun ham motamda oq rang bu dunyodan keyingi hayot, ko'rish ramzi hisoblanadi. Xitoyda dafn marosimida marhumnning yaqin qarindoshlari va do'stlari yelkalariga oq rangli motam bog'ichini tashlashadi, ko'kragiga oq gul taqishadi va bu bilan marhumga bo'lgan hurmatlarini bildirishadi. O'zbekistonning Xorazm viloyatida ham motamda oq kiyim kiyish udumi mavjud.

Ba'zi lingvomadaniyatlarda oq rang qo'rqoqlik timsoli sifatida keladi. Masalan, Birinchi jahon urushida harbiy xizmatdan qochib ketgan fransuz askari yoki zobitiga qo'rqoqlik ramzi sifatida oq patlar yuborilgan.

**Qizil rang** - qadimdan insoniyat hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Rus tilida *красный* (qizil) va *красивый* (chiroyli) so'zlari bir o'zakdan hosil bo'lgani uchun ham qizil rang ijobiy ma'no kasb etadi. Masalan, *Красная площадь* (Qizil maydon) va *красная девица* - chiroyli qiz; yoki *красные дни* - muvaffaqiyatli paytlar, yaxshi davr.

O'zbek tilida qizil rangining quyidagi ma'nolari mavjud:

1) "xursandchilik" ma'nosi: *Boshingga sanchilgan qizil gul bo'lsin. // Menday oyim jilovingga qul bo'lsin*; 2) "go'zallik" ma'nosi: *Kuymasin hech kimning kulba xonasi, // o'rtanmasin qizil gulday tanasi*; 3) "yor, oshuqa" ma'nosi: *Bog'bon bo'lmay, qizil gulni terasan. // Lolazor, bahrli yerda yurasan*; 4) "mavjudlik", "tiriklik" ma'nosi: *Qizil yuzim g'ariblikda sarg'ayib, // o'ligim bo'lmasin mening besohib; Ochilganda qizil g'uncha so'lmasin, // Dunyoda mard kishi hech bir o'lmasin*; 5) "mutlaqo",

"o'taketgan", "g'irt" ma'nosi: *Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi* [1].

Qayd etilganlar bilan birga, qizil rang "yoshlik", "navqironlik" ma'nolarini ham ifodalaydi: *Bekning oti po'lat suvliq chaynadi, // qizil kiyib gulday bo'lib jaynadi.*

Uzoq Sharq mamlakatlarida qizil rang kelin va kuyov atrofidagi barcha buyumlarda o'z aksini topgan bo'ladi. Koreya va Mo'g'ulistonda yangi yil kiyimlariga tumor sifatida qizil doirachalar tikib qo'yiladi. Ayrim lingvomadaniyatlarda qizil rang jug'rofiy belgi sifatida qo'llaniladi. Masalan, Maya qabilasida qizil rang sharqni, Qadimgi Meksikaning tog'li xalqlarida sanubni ifodalagan.

Qizil rang boshqa davlatlarga qaraganda Xitoyda juda katta ramziy ma'noga ega. Xitoyda qizil rang farovonlik, to'kin-sochinlik va baxtli hayot timsoli sifatida qabul qilinadi, shuningdek, qizil darvozalar oliy tabaqadagi zodagonlar, boylar yashaydigan uylarni ifodalagan. Xitoyda bayram, hursandchilik kunlarida binolarga qizil fonuslar ilib qoyiladi, juft qizil yozuvlar yopishtiriladi. "Qizil" iyeroglifi xursandchilikni ifoda etadi. Quyidagi iboralarda qizil rang omadni anlatadi: "qizil eshiklarning ochilishi" (omad sari yo'l ochilish), "qizil bog'ich boylash" (tillaqoshga ega bo'lish) va boshqalar. Xitoy lingvomadaniyatida qizil rang yana go'zallik ramzi ham hisoblanadi. Masalan, chiroyli qizga "qizil yuzli", deb murojaat qilinadi.

Aytilganlar bilan birga, qizil rang turli madaniyatlarda qondan oqadigan hayot, tiriklik timsoli bo'lib ham keladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrogidagi qizil yo'llar - bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzidir.

Qizil rang ba'zan tahdid, urush, kuch-qudrat, jasorat, haqiqat ramzini ifodalaydi. Masalan, XVII asrdan boshlab Britaniya harbiy-dengiz flotining bayrog'i qizil rangda qabul qilingan va u "jangga da'vat" ma'nosini anglatgan. Turkiya Jumhuriyati ko'plab turk xalqining qoni to'kilishi evaziga tashkil topganligi uchun ham uning bayrog'i qizil rangda qabul qilingan. Yoki 1917-yildan 1991-yilgacha Rossiya Federatsiyasining davlat bayrog'i qizil rangda bo'lgan. Shuningdek, aksariyat davlatlarning yo'l harakatida qizil rang "To'xtash!" degan ogohlantirishni anglatadi.

Y. D. Apresyan kompyuterga ekperimental o'rnatilgan rangli ekranlar vositasida madaniyatlar assotsiatsiyalaridagi farqlarni va turli ranglarga ko'rsatilgan reaksiyalarni quyidagicha ko'rsatgan[2]: qizil rang -

[1] Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. Тадқиқотлар. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 1971. –Б. 124; 233.

[2] Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка // Избранные труды. Т. 2. –М.: Языки русской

AQShda xavf-xatarni, Fransiyada zodagonlikni, Misrda o'limni, Hindistonda hayot va ijodni, Yaponiyada g'azab va xavf-xatarni, Xitoyda baxt-saodatni; oq rang - AQShda poklikni, Fransiyada betaraflik, xolislikni, Misrda xursandchilik, quvonchni, Hindistonda o'lim va poklikni, Yaponiyada o'limni, Xitoyda o'lim va poklikni assotsiatsiyalaydi.

**Ko'k rang** - tinchlik, mussaffo osmonni tasvirlaydi. Tiniq osmon rangidagi moviy, zangori, umuman olganda, ko'k tusiga mos bir qancha o'xshash ranglar ham ko'k deyiladi. O'zbek lingvomadaniyatida ko'k rangning ramziy ma'nodagi qo'llanish doirasi ancha keng ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan, "yashil, sabza, ko'k o't" ma'nosida: *Qarshimda tebranar ko'k barglar har on*; "maysa, ko'kat" ma'nosida: *Yomg'irlar yog'ib, yerda o't-o'lan ko'rina boshladi, hayvonlarning og'zi ko'kka tegdi*; rezavor o'simlik ma'nosida: *Ko'k solib qatiqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi.* Jonli so'zlashuvda ba'zan kulrang o'rniga ko'k rang qo'llanilganini ko'rish mumkin: ko'k bo'ri, ko'k kaptar. So'zlashuv nutqida *ko'k* so'zi jargon sifatida "AQSh dollari" ma'nosida ham ishlatiladi: *Bir pachka ko'ki bilan qo'lga tushibdi, ishi chatoq.*

O'zbek tilida *ko'k* so'zining ma'nosida yashil, ko'k va ularning turli ma'no ottenkalari uyg'unlashgan holda ifodaalanaadi: *Ustima kiyganim mening yashil-ko'k, // g'ariblikda bo'larmikan ko'nglim to'q. Odamlar ko'kini tashlab, vaqtini xushlab, o'z ishida bo'lsin, bozorini yurgizsin, savdo-sotiqni boshlasin.* Misollardagi yashil, ko'k so'zlari rang ma'nosini saqlagan holda, ularga qo'shimcha "motam, o'lim" ma'nosi yuklatilgan. Umuman, nafaqat o'zbek lingvomadaniyatida, balki aksariyat xalqlarning madaniyatida ko'k rangga o'lim va motam ramzi sifatida qaraladi.

**Yashil rang** - qator madaniyatlarda yangilanish, bahor, barhayotlikni ifodalaydi. Yashil rang - serne'mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda; uning ramzi ham yashil rangdir.

Yashil rang - yoshlik, umidni anglatishi bilan birga, yosh, tajribasiz kishilarga nisbatan ham qo'llaniladi. Qator islom davlatlarining bayrog'ida yashil rang musulmonlikni tamsil etadi. Ayrim madaniyatlarda yashil rang baxtsizlikni ifodalaydi. Masalan, ingliz irimlariga ko'ra, kelinning sepiga biron yashil rangli narsa kirib qolsa, uning albatta, baxtsizlik keltirishiga inoniladi.

Xitoy va Uzoq Sharq lingvomadaniyatida yashil rang ochko'zlik, qaysarlik va tamagirlik ramzi hisoblanadi. Dengizdagi yashil bayroq kema halokatidan darak beradi. Yo'l harakatida yashil rangdan

---

культуры. 1995. –С. 197.

"Harakatlanish mumkin!" yoki "Yo'l ochiq!" ma'nosini ifodalash uchun foydalaniladi.

**Nazorat uchun savollar**

1. Nima uchun inson tili "ramzlar tili" deyiladi?
2. "Simvol" so'zi qaysi tildan olingan va u dastlab qanday ma'noni anglatgan?
3. "Ramz" tushunchasi turli fanlar nuqtayi nazaridan qanday talqin qilinadi?
4. Ramzning qanday turlari mavjud?
5. Turli lingvomadaniyatlarda "ot" ramzi qanday ma'nolarni ifodalaydi?
6. Turli lingvomadaniyatlarda "bo'ri" ramzi qanday ma'nolarni ifodalaydi?
7. Turli lingvomadaniyatlarda qush ramzlari qanday ma'nolarni ifodalaydi?
8. Eng murakkab va universal hayvon timsoliga misol keltiring.
9. Milliy ramzlarga misollar keltiring.
10. Universal ramzlarga misollar keltiring.

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Raqamlarning ramziy ma'nolarini izohlash.
2. Tasviriy ramzlar haqida taqdimot tayyorlash.

**Adabiyotlar**

1. Choi Jungeun. The Image of a Tiger As The National Symbol of Korean Culture // https://doi.org/10.24158/fik.2017.3.18.
2. Çoruhlu Yaşar. Türk Mitolojisinin ABC'si. -İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1999.
3. Jacobson Esther. The Deer Goddess of Ancient Siberia. -Leiden: Brill, 1993.
4. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. -5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
5. Ekrem Sarıkçıoğlu. Din Fenomenolojisi (Dinlerin Mahiyeti ve Tezahür Şekilleri). Gözden Geçirilmiş ve Genişletilmiş 2. Baskı. -Isparta: Fakülte Kitabevi, 2011.
6. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent.: Sharq, 2010. -208 b.
7. Ögel Bahaeddin. Türk Mitolojisi. C. I. -Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1998.

8. Roux Jean-Paul. Türklerin ve Moğolların Eski Dini. -İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. -303 s.

9. Seyfeli Canan. Türk Mitolojisinde Hayvan Motifleri // Yol Bilim Kültür Araştırma. Sayi 23, Mayıs-Haziran, 2003.

10. Usmanova Sh. Symbols of Animal in Oriental Culture // Current Status and Tasks of East-West Culture Education. 5th International Conference of Korea Association of International Culture Exchange. Inha University - National Research Foundation of Korea, 2017. -P. 39-50.

11. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

12. Usmanova Sh. Turkiy xalqlar va xitoy madaniyatida hayvon ramzlari // Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations. International scientific conference. November 18, 2017. -P. 79-85.

13. Зиямухамедов Ж. Ўрта аср Хитой новеллалари. -Тошкент: ТошДШИ, 2010.

14. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. -176 б.

15. Кебайтули Гулибануму. Хитой ва ўзбек лингвомаданиятларида ҳайвон рамзларининг талқини // Шарқ машъали. No. 3-4. -Тошкент: 2015. -Б. 56-60.

16. Лотман Ю.М. Семиосфера. -СПб.: "Искусство-СПБ", 2000. -704 с.

17. Малявин В. В. Китайская цивилизация. -М.: Изд-во «Астрель», 2000.

18. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. -М.: Издательский центр «Академия», 2001. - 208 с.

19. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III. -Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963.

20. Мирзаев Н. Ўзбек зооантропонимлари // Ономастика Узбекистана. -Ташкент, 1989. -Б. 128-130.

21. Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. -М. : Лабиринт, 2000. - 480 с.

22. Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. -Тошкент: Халқ мероси, 1993.

23. Сидихменов В. Я. Китай: страницы прошлого. -Смоленск: «Русичъ», 2000.

## 17-MA'RUZA
## MILLIY MADANIYATNING STEREOTIPLARI

**Reja:**

1. "Stereotip" tushunchasi
2. Stereotip turlari
3. Stereotip yuzaga kelishining sabablari

**Tayanch so'z va iboralar:** stereotip, tasavvur, milliy stereotip, etnik stereotip, ijtimoiy stereotip, muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar.

### 17. 1. "Stereotip" tushunchasi

Har qanday madaniyat o'zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o'z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi.

**Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir.**

*Stereotip* - u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. V.A. Maslovaning ta'biricha, "stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va h.k.ni o'lchaydi"[1]. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi.

"Stereotip" termini (yunon. stereos - qattiq, typos - iz,tamg'a) amerikalik sotsiolog Uolter Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan "Jamoat fikri" nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi o'rni va rolini aniqlashga harakat qilgan. U. Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg'ularimizdagi ma'lumotlarga muayyan ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan[2].

U. Lippmanga ko'ra, inson uni o'rab olgan atrof-muhitni uning butun qarama-qarshiliklari bilan anglashga harakat qilib, o'zi bevosita kuzatmagan hodisalar haqida "o'zining miyasida manzara" hosil qiladi. Inson o'z hayotida bevosita qarshilashmagan juda ko'p narsalar haqida oldindan aniq tasavvurga ega bo'ladi. Shunga o'xshash stereotiplar tasavvuri mazkur individumning madaniy muhiti ta'sirida shakllanadi:

---

[1] Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. –М., 1999. –С. 123-134.
[2] Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. –P . 23, 95.

"Aksariyat hollarda biz u yoki bu hodisani oldin ko'rib, keyin unga aniqlik kiritmaymiz, aksincha, oldin u yoki bu hodisani o'zimiz uchun aniqlab, so'ngra uni kuzatamiz. Tashqi dunyoning butun chalkashliklaridan bizning madaniyatimizga aloqadorinigina yulib olamiz va biz mazkur ma'lumotni stereotip shaklida qabul qilishga moyil bo'lamiz"[1]. Stereotiplar insonga olam haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, o'zining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy muhitidan chiqishga imkon beradi.

Stereotiplarni o'rganishga qiziqish 1930-yillardan 1950-yillargacha bo'lgan davrda keng quloch yoydi. Xususan, etnik stereotiplarning barqarorligi va beqarorligi masalalari R.Clarke va D. Campbell; D. Katz va K. Braly; R. La Pierre kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganildi[2].

Keyingi yillardagi etnik stereotiplarni o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarni tahlil qilgan psixolog O. Klenberg "etnik stereotip" tushunchasini quyidagicha belgilagan: "Etnik stereotip - insonlar ongidagi o'zlari yoki boshqa milliy guruhlar haqidagi manzara. Bunday obrazlar yoki tasavvurlar jamiyatda keng tarqalgan bo'ladi; odatda, ular obyektiv borliqqa nisbatan o'ta jo'n va qabul qilinmaydigandir"[3].

Aksariyat tadqiqotchilar etnik stereotiplarni muqarrar, lekin xavfli hodisa hisoblashadi. Binobarin, qatoq lug'atlarda "stereotip" so'zi salbiy ma'noda qayd qilingan. Masalan, M. Korduellning psixologiyadan tuzgan lug'atida stereotipga shunday ta'rif berilgan: "Stereotip - ma'lum guruh yoki kategoriyadagi kishilar haqidagi keskin, ko'pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo'lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko'rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar ko'pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega bo'ladi. Stereotiplar har doim ham yolg'on bo'lmaydi; odatda, ularda ma'lum ma'noda haqiqat bo'ladi. Stereotiplarni ko'pchilik tomonidan bo'lishilishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining o'zlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi qiyin bo'ladi"[4].

---

[1] Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010. –P. 81.
[2] Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. –P. 585-588; Katz D. & Braly K. W. Racial stereotypes of one-hundred college students // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol. 28. 1933. –P. 280-290; La Pierre R. T. Social forces type-rationalizations of group antipathy // Social Forces. Vol. 15. 1936. –P. 232-237.
[3] Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. –New York, 1950. –P. 93.
[4] Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. –М.: Фаир-пресс, 2000. -448 с.

## 17. 2. Stereotip turlari

Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o'rganiladi. Ushbu fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o'z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko'ra, ijtimoiy stereotiplar (kasbiga, yoshiga ko'ra), muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar va h.k. farqlanadi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. Etnomadaniy yoki milliy stereotiplar eng ko'p o'rganilgan bo'lib, ular biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Etnomadaniy stereotiplar milliy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatadi, muayyan millatning o'zini o'zi anglashi va mentalitetining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuningdek, milliy xarakter bilan chambarchas bog'liq bo'ladi[1].

Lingvokulturologiyani ko'proq etnomadaniy, ya'ni milliy stereotiplar qiziqtiradi. Masalan, yaponlar bilan dastlab muloqotga kirishgan yevropaliklar yaponlarning qayg'uli hodisalar, jumladan, yaqin qarindoshlarining kasalligi yoki o'limi haqida yuzlarida tabassum bilan gapirishlaridan hayratga tushishgan va hozirgacha hayratlanishadi. Bu kabi hodisalar berahm, shavqatsiz yapon stereotipining shakllanishiga asos bo'lgan. Biroq mazkur holatda tabassumni Yevropa madaniyatining o'lchovlaridan emas, balki yapon madaniyatining o'lchovlaridan kelib chiqqan holda tushunish maqsadga muvofiqdir. Chunki qayd qilingan holat yaponlarning atrofdagilarni o'zining qayg'usi bilan bezovta qilmasligini namoyon qiladi.

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, stereotip tafovutlar tadqiqida kuzatilgan ayrim istisno holatlarni ham ta'kidlash joiz bo'ladi. Yaponlar va g'arbliklarning sukut saqlashga bo'lgan yo'ndashuvlarini qiyosiy o'rgangan psixolog Helmut Morsbach o'zining Yaponiyadagi katta tajribasi asosida sukut saqlashning ayrim madaniy nozikliklaridan namunalar keltiradi[2]. Masalan, yapon uylarining ko'pchiligida televizor doim yoqilgan hamda magnit lentasiga yozigan Zen bog'ining g'o'zalligi haqida sharhlar yangrab turadi. Demak, tadqiqotchilarning aksariyati sukut saqlashning madaniyat namunasi bo'la olishini qayd etsalar-da, amaliyotda narsalar farq qilishi mumkin. O'ta maxsus vaziyatlarda (ona va qizining munosabatlari yoki haqiqiy hissiyotni yashirish singari

[1] Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University // http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf

[2] Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // A cross cultural approach. In F. Poyatos (Ed.). Cross cultural perspectives in nonverbal communication – Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. –P. 201–215.

holatlarda) Yaponiyadagi sukut saqlash holati AQSHga qiyosan yaqqolroq namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Yaponiyada begonalar bilan muloqot chog'ida sukut saqlash AQSHdagiga nisbatan salbiy ma'no kasb etadi[1].

Umuman, madaniyatlararo muloqotda o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotliligi, xitoyliklar sertakallufligi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan[2].

Qayd qilingan etnomadaniy stereotiplar orasida, ayniqsa, nemis stereotipi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nemis madaniyatida tartib, aniqlik, puxtalik, o'z vaqtida bo'lishlik, buyruqqa, qonunlarga hurmat, pog'onalilik, maqsadga intilish, ratsionalizm sifatida tushuniladi. Nemis mentalitetining stereotiplari asosida protestantlik etikasining xususiyatlari yotadi. Unda har bir kishi o'zining xatti-harakatlari uchun Xudo oldida javob beradi. Shuning uchun ham nemislar uchun qonun muqaddas, barcha narsadan ustun hisoblanadi: "Die Gesetze ohne Ansehen der Person handhaben" (Mansabdan qat'iy nazar, qonun barcha uchun bir).

Nemis stereotipidagi tartib, qonunlarga hurmat xususiyatini quyidagi misolda ham yaqqol ko'rish mumkin:

"Germaniyada faoliyat olib borayotgan bir ingliz jurnalisti tungi soat 2da baxtsiz hodisaning guvohi bo'lgan: bo'sh yo'lni kesib o'tayotgan piyodani birdaniga paydo bo'lgan mashina urib yuborgan. Jabrlangan piyodani kasalxonaga olib ketishgan. Jurnalist nemis politsiyachisidan endi nima bo'lishini so'raganda, politsiyachi: "Hech narsa bo'lmaydi, agarda yashab ketsa, 50 marka jarima to'laydi, chunki u yo'lni o'tish mumkin bo'lmagan joyda kesib o'tdi", - deb javob qaytargan".

Xalqaro latifalar, turli ko'rinishdagi hazillar, milliy badiiy adabiyot, folklor, xalq og'zaki ijodi va milliy til stereotip tasavvurlarning keng tarqalgan manbalari hisoblanadi. Stereotip tasavvurlar asosida milliy xarakterlarni ochib berishga qaratilgan quyidagi latifani ko'rib chiqamiz:

"Bir kuni turli millat vakillarini kino ko'rishga yuborishibdi. Filmning mazmuni quyidagicha ekan: cho'g'dek yonayotgan cho'l va qizdirayotgan quyosh. Erkak va ayol zo'rg'a sudralib ketishmoqda. Birdan erkak qayerdandir sersuv apelsin topadi va uni ayolga beradi. Tomoshabinlarga

---

[1] Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29. 1998. –P. 668–684.

[2] Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий тахлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: "Akademnashr", 2015. –Б. 120-121.

shunday savol berilibdi: U qaysi millat vakili?". Fransuz-tomoshabin shunday javob beribdi: "Faqat fransuzgina ayolga shunday sermulozamat bo'lishi mumkin!" Rus: "Yo'q. Bu rus! Buni qarang, ahmoq. O'zi yeyishi mumkin edi". Yahudiy: Yo'q, bu yahudiy. Kim ham cho'ldan apelsin topa olardi?" Mazkur stereotiplar vositasida fransuzlarning sermulozamatligi, ruslarning beparvoligi va yahudiylarning uddaburonligi ko'rsatilgan.

Stereotiplarning avtostereotip va geterostereotip turlari ham mavjud. Avtostereotiplar kishilarning o'zlari haqida nima o'ylashlarini, geterostereotiplar boshqa xalqlar haqidagi o'y-fikrlar, munosabatlarni (ko'proq tanqidiy munosabatlarni) aks ettiradi. Masalan, o'z xalqida tejamkorlik hisoblangan odat, boshqa xalqda kuzatilganda xasislik sifatida baholanadi[1].

Kishilar etnomadaniy stereotiplarni namuna sifatida qabul qilishadi va "boshqalarga kulgi bo'lmaslik" uchun ularga moslashishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham stereotiplar kishilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Stereotiplarda aks etgan xususiyatlar kishilarda ham shakllana boshlaydi. Etnomadaniy stereotiplarni o'rgangan etnopsixologiya mutaxassislarining qayd qilishlaricha, iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan millatlarda aqllilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan millatlarda esa mehr-muruvvat, samimiylik, mehmondo'stlik kabi fazilatlar mujassamlashgan bo'ladi[2].

S.G.Ter-Minasovaga ko'ra, ingliz jamiyatida kasbiy mahorat, mehnatsevarlik, mas'uliyat va h.k., rus jamiyatida esa mehmondo'stlik, kirishimlilik, haqqoniylik singari hislatlar qadrlanadi[3].

V.A.Maslovaning fikricha, "stereotiplar har doim milliy bo'ladi, agar boshqa madaniyatlarda ayni stereotiplar uchrab qolsa, unda ular haqiqiy emas. Yoki ular bir-biriga to'la mos kelsa ham baribir qaysidir jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, turli madaniyatlarda navbatga turish holatlari har xil bo'ladi, shunga ko'ra stereotip muomalasi ham farq qiladi. Rossiyada "Kim oxiri?" deb so'raladi yoki shunchaki navbatga turiladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida navbatga turish uchun maxsus apparatdan chipta (raqam yozilgan kichik kvitansiya) yirtib olinadi va shundan keyin darcha tepasidagi elektron raqamlar ta'qib qilinadi"[4].

Amerika va Janubiy Koreyada ham bank, pochtaxona, kasalxona va h.k.dagi navbat maxsus apparatdan yirtib olingan chiptaga muvofiq ta'qib

---

[1] Акишина А. А. Стереотипы национальной культуры в межкультурном общении. –Н.Новгород: НГЛУ, 2009.

[2] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 108.

[3] Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. –М.: Слово, 2000. –С. 255.

[4] Маслова В. А. Ko'rsatilgan asar, 110-bet.

etiladi. O'zbek madaniyatida ham navbatga turish uchun "Kim oxiri?" deb so'raladi. Ba'zan juda katta navbat bo'lgan holatlarda ro'yxat qilinadi.

### 17. 3. Stereotip yuzaga kelishining sabablari

Stereotip yuzaga kelishining sabablari turlichadir. Ulardan asosiylari quyidagicha:

*1. Ongning himoyali reaksiyasi.* Informatsiyalar hajminig doimiy ravishda o'sib borishidan miyani haddan ziyod zo'riqishi himoyalash. Axborotlarni stereotiplashtirish miya zo'riqishini tabiiy shaklda himoyalashni yuzaga chiqaradi. Mazkur himoyasiz inson ongi doimiy mulohazalardan boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Stereotiplarning mavjudligi bu jarayonni yengillashtiradi. Kishilar sodir bo'layotgan hodisalarga har doim ham e'tibor bermasdan, ya'ni har safar hissiyot, iztipoblarga berilmasdan ularni o'zlarining tajribasidan ma'lum bo'lgan mavzuiy guruhlarga kiritishadi. Doimo o'zgarishda bo'lgan dunyo insonni kelib tushayotgan axborotlarni qulayroq va ixchamroq modellarga tasniflashga majbur qiladi. Bunday modellar stereotiplar, deb nomlanadi. Stereotiplarni rad etish insondan butun diqqat-e'tiborini jalb etishni talab qilib, uning hayotini bitmas-tuganmas sinovlar va xatolarga to'ldirgan bo'lardi. Stereotiplar insonga o'rab olgan dunyoni farqlay olishi, uni soddalashtirishi, tartibga solishida yordam beradi. Insonni har safar "Amerika ochish" yoki "radio ixtiro qilish"dan xalos qiladi. Demak, insonning o'z hayotida stereotiplardan foydalanishi tabiiy hol sanaladi.

*2. O'z guruhining qadriyatlari, qiziqishlari, o'bro'yi va h.k.ni himoyalash.* O'zini muayyan madaniyatga aloqador qilish va boshqa xalqlar bilan qiyoslash har bir insonga uning o'ziga xosligini, individualligini his qilishiga yordam beradi. Masalan, fransuzlar nazdida belgiyaliklar hazil-mutoyibadan yiroq, kaltafahm, shetsariyaliklar - xasis, ziqna, maydakash, italyanlar - yolg'on-yashiqlarni qo'shib gapiradigan, turklar - jismonan baquvvat, inglizlar - xudbin xalqdir.

Inson stereotiplarni turli yo'llar vositasida o'zlashtiradi. Birinchidan, boshqa guruhlar haqida o'ylash "odati" ma'lum ma'noda "ona suti orqali" o'zlashtiriladi. Stereotiplarning aksariyati ota-onalar tomonidan farzandlarning ongiga singdirilgan obrazlar orqali o'tadi va rivojlanadi. Stereotiplar 12 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan davrda batamom shakllanib mustahkamlanadi va ularni bu yoshdan kayin o'zgartish juda qiyin kechadi. Binobarin, bu nafaqat begona guruhlarga aloqador, balki boshqa guruhlar nazdidagi o'z millatiga ham tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek xonadonida bolaga "o'zbeklar mehmodo'st, bag'rikeng" yoki "lo'lilar

firibgar, tovlamachi" deyilsa, bola so'zsiz mazkur stereotiplarni qabul qiladi.

Ikkinchidan, stereotiplar cheklangan shaxsiy aloqalar vositasida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, sizni bozorda Tojikistondan kelgan savdogar aldasa, siz butun tojik xalqi haqida tovlamachi degan noto'g'ri xulosaga kelishingiz mumkin. Bunday holatda stereotip insonning cheklangan informatsiyasi natijasida paydo bo'ladi.

Uchinchidan, stereotiplarning vujudga kelishida ommaviy-axborot vositalarining alohida o'rni bo'ladi. Ommaviy-axborot vositalarining stereotiplarni shakllantirish imkoniyati cheklanmagan. Ko'pchilik uchun matbuot, radio va televideniya ishonchli manba sanaladi. Ommaviy-axborot vositalarining fikri ommaning fikriga aylanadi.

Umuman, har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog'langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotip turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotiplarni o'rganish, madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni, to'qnashuvlarni oldini oladi.

### Nazorat uchun savollar

1. "Stereotip" tushunchasiga ta'rif bering.
2. "Stereotip" termini qachon va kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
3. U. Lippman stereotipni qanday tushuntirgan?
4. D. Kas va K. Breylilarning tadqiqotida qanday stereotiplar o'rganildi?
5. O. Klenberg "etnik stereotip" tushunchasini qanday belgilagan?
6. M. Korduellning lug'atida stereotipga qanday ta'rif berilgan?
7. Stereotipning qanday turlari bor?
8. Nemis stereotipini tavsiflang.
9. V.A.Maslovaning fikricha, stereotiplar qanday bo'ladi?
10. Stereotiplar yuzaga kelishining sabablarini ko'rsating.

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Etnomadaniy stereotipining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish.
2. "Stereotip va madaniyatlararo muloqot" mavzusida taqdimot tayyorlash.
3. Stereotiplarni tasniflash.

## Adabiyotlar

1. Lippman Walter. Public Opinion. -New York: Greenbook, 2010. - 218 p.

2. Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29, 1998. -P. 668-684.

2. Katz D. & Braly K. W. Racial stereotypes of one-hundred college students // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol. 28. 1933. -P. 280-290.

3. Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. -New York, 1950.

4. Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf

5. Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // A cross cultural approach. In F. Poyatos (Ed.). Cross cultural perspectives in nonverbal communication -Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. -P. 201-215.

6. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

7. Акиншина А. А. Стереотипы национальной культуры в межкультурном общении. -Н.Новгород: НГТУ, 2009.

8. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. -М.: Издательский центр «Академия», 2001. - 208 с.

9. Сорокин Ю.А. Стереотип, штамп, клише: К проблеме определения понятий // Общение: Теоретические и прагматические проблемы. -М., 1978. -С. 133-138.

10. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М.: Slovo, 2000. -624 с.

11. Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. -Тошкент: "Akademnashr", 2015. -Б. 120-122.

## IV BOB. INSONNING TIL VA MADANIYATDAGI O'RNI

### 18-MA'RUZA
### Inson - milliy mentallik va til egasi

**Reja:**

1. Inson - turli fanlarning tadqiqot obyekti
2. Lisoniy shaxs

**Tayanch so'z va iboralar:** inson, insonning tabiati, tashqi ko'rinish, ichki dunyo, mentalitet, milliy mentallik, mental soha, til sohibi, millat jamoasi, nutqiy faoliyat, muloqot, semiotik faoliyat, "men va sen" munosabati, insonga munosabat, lisoniy shaxs, ichki mohiyat, shaxsning shakllanishi hayot falsafasi, madaniy-antropologik prototip, ijtimoiy axloq kodlash, dekodlash, darajali model, verbal-semantik daraja, kognitiv daraja, pragmatik daraja, muloqot paradigmasi.

### 18. 1. Inson - turli fanlarning tadqiqot obyekti

So'nggi yillarda falsafa, madaniyatshunoslik, tilshunoslik va lingvokulturologiyada insonning tabiatini, tashqi ko'rinishini, ichki dunyosini, mentaliteti va h.k.ni atroflicha o'rganishga kirishilgani kuzatilmoqda. Lingvokulturologiyaning "maqsadi - til vositasida insonni qanday qilib ko'proq o'rganish mumkinligini ko'rsatishdir".

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan "inson muayyan milliy mentallik va til sohibi, boshqa millat jamoalari vakillari bilan o'zaro hamkorlik faoliyatining (xususan, nutqiy faoliyatda) ishtirokchisi sifatida tushuniladi".

Zamonaviy fanlarni endi oddiy odam emas, balki shaxsiyat, ya'ni tafakkur va til sohibi, murakkab ichki dunyoga ega bo'lgan, narsa va hodisalar dunyosiga va o'ziga nisbatan ma'lum munosabatda bo'lgan aniq inson qiziqtiradi. U Yerda va Koinotda alohida mavqega ega, u har doim olam bilan, o'z-o'zi va o'ziga o'xshaganlar bilan muloqotga kirishadi. Xudoning suratiga ko'ra va Unga o'xshab yaratilgan inson emin-erkindir[1].

Inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mohiyatdir, "insonda insoniylik uning jamiyat sharoitidagi, insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyat sharoitidagi hayoti orqali shakllanadi" (A. A. Leontev).

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 76.




Lingvokulturologiyani shunchaki inson emas, balki tildagi inson qiziqtiradi. Gap shundaki, til insonning yashirin bo'lgan mental sohasiga kirishimizga yordam beruvchi yagona vosita sanaladi, binobarin, til dunyoni u yoki bu madaniyatga ajratadi. Til inson haqida shunday narsalarni gapiradiki, insonning o'zi ham bu narsalarni bilmagan bo'ladi.




I.A.Goncharov Y.N.Narishkinaga yozgan xatida: "Til nutq, so'zlashuv bo'lib qolmasdan, u insonning butun ichki kechinmalari: ongi, qalbining obrazi, tarbiya, aqliy va axloqiy jihatlarining ifodasidir", deb ta'kidlagan edi. "Falsafada til faqatgina falsafiy ta'limotlarning ifoda vositasi bo'lib qolmasdan, u dunyoni va insonni bilish vositasi hamdir. Avval boshda Kalom bor edi va aynan u bilimlarning muhim manbasi, unda dunyo va inson haqidagi butun ma'lumotlar mavjud"[1].

"Boshqaning" mavjudligini taqozo qiladigan semiotik faoliyat orqali anglashiladigan inson falsafiy fikrning asosiy maqsadiga aylangan. Mashhur yahudiy faylasufi M. Buber tadqiqotning yangi obyektini kashf qilgan: "Inson men va sen munosabatida yashaydi. Bu mohiyatan dialogik munosabat bo'lib, unda "Sen"siz "Men" mavjud bo'lmaydi ("Odam odam bilan tirik" - ta'kid bizniki Sh.Usmanova). Insonning yo'li har doim boshqa inson hamrohligidagi yo'l bo'lib, u jamoat hayotining shartidir. Dunyoni

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 76.

biluvchi inson - bu inson bilan insondir. M. Buber insonning hayotga bo'lgan munosabatining uch jihatini, ya'ni olamga, insonga, Xudoga bo'lgan munosabatini ko'rsatib bergan. Olamga munosabat san'atda, insonga munosabat sevgida, Xudoga munosabat diniy ro'yirostlikda tugallanadi. Inson va boshqa inson o'rtasidagi "men va sen" munosabati nutqda shakllangan dialogda ochiladi[1].




Inson tarjimayi hol, xronika, solnoma, ta'ziyanoma, va'z, epistolyar janr kabi qator adabiy janrlarning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

E. Benvenist til insonning tabiatini qamraydi, shuning uchun u sun'iy kashfiyot bo'lolmasligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Borliqda tilga ega bo'lgan, boshqa inson bilan so'zlashadigan inson mavjud, shuning uchun til insonning tavsifiga taalluqlidir... Aynan tilda va til tufayli inson subyekt sifatida gavdalanadi, faqat tilgina insonning mavjudligiga aniqlik kiritadi[2].

N.V.Ufimseva va Yu.A. Sorokinlarning milliy mentallik va tilning o'zaro aloqasi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari[3] madaniyatshunoslikda katta qiziqish bilan kutib olingan. Mazkur tadqiqotlarda biron bir millat vakilining o'ziga xos xususiyatlari boshqa millat vakillarining ko'zi bilan psixolingvistik eksperiment asosida tahlil qilingan. Masalan, ruslar amerikalik va yaponlarning ko'zi bilan tavsiflangan. Ruslar o'zlari haqida quyidagi tavsiflarni berishgan: mehmondo'st (5ta javob), ochiq chehrali (5ta javob), mehribon (4ta javob), samimiy (4ta javob), sabr-toqatli (4ta

---

[1] Бубер М. Проблема человека. Перевод с немецкого. –Киев: "Ника-Центр", " Вист-С", 1998. -132 с.
[2] Бенвенист Э. Общая лингвистика. –М.: Прогресс, 1974. -448 с.
[3] Уфимцева Н. В. Структура языкового сознания русских: 70-е - 90-е годы // Этническое и языковое самосознание: Материалы конференции. –М.,1995. -С. 151-154.; Сорокин Ю.А. Речевые маркеры этнических и институциональных портретов и автопортретов // Вопросы языкознания. 1995. -№ 6; Сорокин Ю.А. Стереотип, штамп, клише: К проблеме определения понятий // Общение: Теоретические и прагматические проблемы. –М., 1978. –С. 133-138.

javob), saxiy (3ta javob), ko'ngli ochiq (2ta javob), ishonuvchan (2ta javob), talantli (2ta javob), kashfiyotchi (2ta javob), hozirjavob (1ta javob), o'qimishli (1ta javob), odobsiz (1ta javob), xayolchan (1ta javob), kitob ko'rgan, o'qigan (1ta javob), ikkiyuzlamachi (1ta javob), aqlli (1ta javob), og'ir-bosiq (1ta javob), yovuz (1ta javob), (1ta javob), fikri tor (1ta javob), tushkunlikka tushgan (1ta javob), xushchaqchaq (1ta javob), charchagan (1ta javob), asabi tarang (1ta javob), g'amgin (1ta javob), baxtsiz (1ta javob), xasis (1ta javob), dono (1ta javob), buyuk (1ta javob), dangasa (1ta javob), isyonkor (1ta javob).

Amerikaliklar ruslar haqida shunday tasavvurga ega: materialist (7ta javob), do'stona (4ta javob), isrofgar (3ta javob), qattiq gapiradi (3ta javob), o'yin-kulgini yaxshi ko'radi (2ta javob), erkin (2ta javob), mag'rur (2ta javob), individualist (2ta javob), o'z ishiga sodiq (2ta javob), ko'p ishlaydi (1ta javob), sobitqadam (1ta javob), tajovuzkor (1ta javob), xasis (1ta javob), yoqimsiz (1ta javob), takabbur (1ta javob), qo'pol (1ta javob), dangasa (1ta javob), kashfiyotchi (1ta javob), mehribon (1ta javob), baxtli (1ta javob) va h.k. Ko'rinadiki, ruslarni tavsiflovchi portretlar va avtoportretlarda ziddiyatlar bo'lishiga qaramay, mualliflar undagi bir butunlikni ajratishgan[1].

Til inson shaxsini belgilovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tilning to'satdan yangilanishi lisoniy shaxsga nisbatan zo'ravonlik sanaladi: bunday vaziyatda inson o'z-o'zini anglash va o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning odatiy vositasidan mahrum bo'ladi.

## 18. 2. Lisoniy shaxs

**Lisoniy shaxs** - obyektiv voqelikni o'z ko'rishiga muvofiq tasvirlash va ma'lum maqsadga erishish uchun muayyan tilning tizimli vositalaridan foydalangan holda ularni matnlarda aks ettirishi nuqtayi nazaridan tavsiflangan u yoki bu til sohibidir. **Lisoniy shaxs** - muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo'lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxsdir.

Ma'lumki, inson, shaxs madaniyatni yaratadi va unda yashaydi. Aynan shaxsda insonning ijtimoiy mohiyati birinchi planga chiqadi, insonning o'zi esa ijtimoiy-madaniy hayotning subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxs haqida boshqa ta'limotlar ham mavjud. Amerikalik mashhur psixolog A. Maslou insonni tashqi dunyodan mustaqil bo'lgan, ichki mohiyatning mavjudligi sifatida talqin qiladi. Ichki mohiyat har qanday

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 78.

psixologiyaning dastlabki kelib chiqish asosidir. A. Maslouga ko'ra, shaxsning shakllanishi - bu idealga tomon harakat bo'lib, unda shaxs o'z imkoniyatlarini har tomonlama amalga oshiradi. U shunday yozadi: "Inson zotining yashashi uchun unga koordinat tizimi, hayot falsafasi, din (yoki dinning o'rnini to'ldiruvchi) xuddi quyosh nuri, kalsiy yoki sevgiday zarur"[1].

Shaxs xalq, millat madaniy an'analarining manzarasida baholanishi kerak. Negaki, insonda insonning tug'ilishi uchun madaniyat doirasida shakllanadigan madaniy-antropologik prototip lozim bo'ladi (Piskoppel, 1997).

Madaniyat kategoriyalari - makon, zamon, qismat, huquq, boylik, mehnat, vijdon, o'lim va h.k. mavjud tizim qadriyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va ijtimoiy axloq hamda dunyoni o'zlashtirishning namunalarini belgilab beradi.

"Lisoniy shaxs" termini birinchi marta 1927-yili nemis tilshunosi Y. Vaysgerberning "Ona til va ruhning shakllanishi" nomli asarida paydo bo'lgan[2]. Y. Vaysgerber tilni tushunishda jamoatga e'tibor qaratgan. Uning ta'biricha, til umumiy madaniy boylikdir; hech kim o'zining lisoniy shaxsi tufayli tilni o'rganmaydi, aksincha, inson muayyan lisoniy hamjamiyatga tegishli bo'lgani uchungina tilga sohib chiqadi. Rus tilshunosligida bu sohaga birinchi bo'lib V.V.Vinogradov murojaat qilgan. U o'zining "Badiiy proza haqida" nomli asarida lisoniy shaxsni o'rganishning ikki yo'li: muallif shaxsi va personaj shaxsini ishlab chiqqan.

"Lisoniy shaxs" tushunchasini ilmiy jihatdan G.I. Bogin ishlab chiqqan va u lisoniy shaxs modelini yaratgan. Mazkur modelga ko'ra, inson uning "nutqiy muomalani ishlab chiqishga tayyorligi, nutqiy asarlarni yaratishi va ularni idrok qilishi" nuqtayi nazaridan o'rganiladi[3].

Yu. N. Karaulov "lisoniy shaxs" tushunchasini keng ilmiy muomalaga kiritgan. Uning qayd qilishicha, lisoniy shaxs -"a) struktur-lisoniy murakkablik dararajasiga; b) obyektiv voqelikni aniq va teran aks ettirishiga; v) muayyan maqsadga qaratilganiga" ko'ra farqlanadigan matnlarni yaratish va ularni idrok qilish qobiliyatiga ega insondir[4].

---

[1] Маслоу А. Психология бытия. –М.: Вакслер, 1997. -304 с.

[2] Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О.А.Радченко. –М.: Едиториал УРСС, 2004. -232 с.

[3] Богин Г. И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов. Автореф. дис. ... д-ра филол. Наук. –Л., 1984. -38 с.

[4] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. –М., 1987. –С. 3.

Yu. N. Karaulov badiiy matn asosida lisoniy shaxsning darajali modelini ishlab chiqqan. Uning fikricha, lisoniy shaxs uch struktur darajaga ega:

Birinchi daraja - verbal-semantik (invariant) bo'lib, u kundalik, odatdagi tilni egallash darajasidir. Mazkur daraja individning kundalik muomalada qo'llaydigan leksikoni, so'z boyligidan iborat bo'lib, unda "Bugun havo yaxshi", "....ga qanday borsa bo'ladi" singari oddiy lisoniy qoliplar nazarda tutiladi. Bunda nafaqat leksik birliklarning soni, balki ulardan ijtimoiy farqlilik va variativlik me'yorlariga muvofiq foydalanish malakasi ham hisobga olinadi. Ushbu darajadagi individuallik faqatgina qayd qilingan malakaga ega bo'lish bilan emas, so'z yasalishi, grammatika va talaffuz qoidalarining buzilishi bilan ham tavsiflanadi.

Ikkinchi daraja - kognitivlik bo'lib, u shaxsning intellektual sohasi, insonning bilish faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Har bir individumning rivojlanish jarayonida uning olam manzarasini aks ettiradigan g'oyalari, konseptlari ishlab chiqiladi. Shaxsning olam manzarasidagi ma'nolar va qadriyatlar pog'onasi aniqlanadi, belgilanadi. Shaxsiy dunyoqarash vakuumda shakllanmaydi, u milliy-madaniy an'analar, qadriyatlar, g'oyalar asosida shakllanadi. Shunga ko'ra, ushbu darajada jamoaviy yoki individual kognitiv makon hosil qiluvchi til jamoasi (lisoniy shaxs)ga tegishli farqli bilimlar va tasavvurlarning faollashuvi va identifikatsiyasi yuz beradi. Mazkur daraja shaxs dunyosi, uning tezaurusi, madaniyatining lisoniy modelini aks ettiradi.

Uchinchi - pragmatik darajadir. U kommunikatsiyaning maqsad va vazifalari - so'zlovchining niyati, qiziqishlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Aynan so'zlovchining motivlashganligi "kommunikativ-faoliyat ehtiyoji" hisoblanadi va lisoniy shaxsning pragmatik darajasining birligini namoyon qiladi. Mazkur xususiyatlar individning mantiqiy fikrlash darajasi bilangina aniqlanib qolmasdan, balki uning his-tuyg'ulari va muloqotning vaziyat omillari bilan ham aniqlanadi.

Xabarni kodlash va dekodlash "shaxs kommunikativ makonining" uch darajasi - verbal-semantik, kognitiv va pragmatik darajalarning o'zaro ta'sirida yuz beradi.

Lisoniy shaxsning darajali modeli shaxsning umumlashgan tipini aks ettiradi. Mazkur madaniyatda aniq lisoniy shaxslar esa ko'plab mavjud bo'lishi mumkin. Ular shaxs tarkibida har bir darajaning variantlanishi bilan farq qiladi.

V.A.Maslova lisoniy shaxsning lisoniy va kommunikativ tarkibi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Lisoniy shaxs - ijtimoiy hodisa, lekin unda individual jihat ham mavjud. Lisoniy shaxsdagi individuallik tilga

bo'lgan ichki munosabat, shaxsiy lisoniy ma'noning paydo bo'lishi orqali shakllanadi; biroq bu o'rinda lisoniy shaxsning lisoniy an'analarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatishini unutmaslik kerak. Har bir lisoniy shaxs aniq insonning ajdodlar tomonidan yaratilgan butun til boyligini o'zlashtirishi asosida shakllanadi. Aniq shaxs tilining asosiy qismi umumtildan va muayyan qismi individual tildan tashkil topadi"[1].

Shunday qilib, lisoniy shaxs - nutqiy shaxslarning serqirra va ko'p qatlamli paradigmasidir. Bunda nutqiy shaxs - real muloqot paradigmasidagi lisoniy shaxsdir. Aynan nutqiy shaxs darajasida lisoniy shaxsning ham milliy-madaniy o'ziga xos xususiyati, ham muloqotining milliy-madaniy o'ziga xos xususiyati namoyon bo'ladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Inson lingvokulturologik nuqtayi nazardan qanday o'rganiladi?
2. Zamonaviy fanlarni qanday inson qiziqtiradi?
2. A. A. Leontevga ko'ra, insonda insoniylik nima orqali shakllanadi?
3. M. Buber tadqiqotning qanday yangi obyektini kashf qilgan?
4. Inson qaysi janrlarning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi?
5. N. V. Ufimseva va Yu. A. Sorokinlarning qaysi tadqiqotlari madaniyatshunoslikda katta qiziqish uyg'otgan?
6. Lisoniy shaxsga ta'rif bering.
7. A. Maslou inson shaxsini qanday talqin qilgan?
8. "Lisoniy shaxs" termini birinchi marta qachon va kim tomonidan qo'llangan?
9. "Lisoniy shaxs" tushunchasini ilmiy jihatdan qaysi olim ishlab chiqqan?
10. Yu. N. Karaulov lisoniy shaxsning qaanday modelini yaratgan?
11. Lisoniy shaxsning birinchi darajasi nima?
12. Lisoniy shaxsning ikkinchi darajasi nima?
13. Lisoniy shaxsning uchinchi darajasi nima?
14. V.A.Maslova lisoniy shaxsning tarkibi haqida qanday fikr bildirgan?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. "Inson - milliy mentallik va til egasi" mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. "Lisoniy va kommunikativ shaxs" mavzusida munozara uchun savollar tuzish.

---

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 80.

## Adabiyotlar


1. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М.: Прогресс, 1974. -448 с.
3. Богин Г. И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов. Автореф. дис. ... д-ра филол. Наук. -Л., 1984. - 38 с.
4. Бубер М. Проблема человека. Перевод с немецкого. -Киев: "Ника-Центр", " Вист-С", 1998. -132 с.
5. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О.А.Радченко. -М.: Едиториал УРСС, 2004. -232 с.
6. Иванцова Е. В. О термине "языковая личность": истоки, проблемы, перспективы использования // Вестник томского государственного университета, 2010. - № 4 (12). - С. 24-32.
7. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. -М., 1987.
8. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. - 208 с.
9. Маслоу А. Психология бытия. -М.: Ваклер, 1997. -304 с.
10. Сорокин Ю.А. Речевые маркеры этнических и институциональных портретов и автопортретов // Вопросы языкознания. 1995. -№ 6.

## 19-MA'RUZA
## JAMIYAT, MADANIYAT VA TILDA ERKAK-AYOL ZIDDIYATI

Reja:

1. "Erkak - ayol" ziddiyati haqidagi qarashlar
2. Turkiy xalqlar madaniyatida "erkak" va "ayol" tushunchalari
3. Sharq xalqlari madaniyatida ayollarning mavqeyi

**Tayanch so'z va iboralar:** erkak, ayol, ziddiyat, qarama-qarshilik, tasavvur, jins, tafovut, timsol, tushuncha, antropomorf, maskulinlik, feminizm, "in" va "yan" qutblari, patriarxal uklad, matriarxal uklad, gender, genderolingvistika, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, "ayol tili", "zaiflik tili", submadaniyat.

### 19. 1. "Erkak - ayol" ziddiyati haqidagi qarashlar

Inson ikki qarama-qarshilik - erkak va ayol sifatida gavdalanadi. "Erkak - ayol" ziddiyati insoniyat madaniyatining poydevorini tashkil qiladi. Dunyo haqidagi qadimiy tasavvurlarda kalom, ruh - butun borliqning otasi, materiya - ona bo'lib, ularning qo'shilishi natijasida Olam va undagi barcha mavjudotlar vujudga kelgan.

Borliqning antropomorf modelida majusiylarning tasavvuriga ko'ra, ayol tubsizlikka tenglashtirilgan bo'lishiga qaramay, olamdagi butun tirik mavjudotning dastlabki manbasi hisoblangan. Shuningdek, bir tomondan ayol - taqdir timsoli, ikkinchi tomondan esa - zulmat, gunoh, yovuzlik timsoli bo'lgan[1].

**Borliqning antropomorf modeli**




Klassik madaniyat va falsafada ayol erkakka nisbatan qarama-qarshi qo'yilgan: ayol - genofondni saqlash, hayotni qayta yaratish, naslni davom ettirishdek tabiatdagi eng qimmatli xususiyatga ega. U an'anaviy qadriyatlarni qayta yaratib, hamjamiyat hayotini saqlash vazifasini

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 81.

bajaradi. Shunga qaramay, ayol jamiyatda irratsionallik (Aristotel), axloqsizlik (Shopengauer), hissiyotlilik (Kant), bir qator qusurlar (Freyd) va h.k.ni assotsiatsiyalab kelgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida butun olam ikki qarama-qarshi: "in" bilan "yan" qutblariga ajratilgan. Ya'ni, butun borliq jonli va jonsiz, yorug'lik va qorong'ulik, yer va osmon, erkak va ayol kabi qarama-qarshiliklardan iborat.

**Qadimgi Xitoy falsafasidagi "in" va "yan" qutblari**

| jonli | jonsiz |
|---|---|
| yorug'lik | qorong'ulik |
| yer | osmon |
| erkak | ayol |

Umuman, mifologiyada "maskulinizm (jasorat) va feminizm (nazokat) asosiy binar dixotomiya sifatida qayd qilingan va butun olam ana shu asosga ko'ra talqin etilgan. Buni slavyanlarning Yer-ona va Osmon-ota haqidagi tasavvurlari, qadimgi yunonliklarning androginlar haqidagi mifi ham tasdiqlaydi".

XIX asrning oxirlariga kelib maskulinizm va feminizm fenomeniga ijtimoiy tartiblar hodisasi sifatida yondashila boshlandi. Jamiyatning ijtimoiy differensiatsiyasi jamiyatdagi funksiyalarning jinslarning xususiyatiga qarab ajratish natijasi sifatida izohlanildi. XX asrning boshlarida feminizm ikki qarama-qarshi qutblar: oqila, odobli ayol va fohisha rolida tasavvur qilingan bo'lsa, XXI asrning boshlariga kelib rollarning o'zgarganligini (uy bekasi roli va mansab pog'onalarida ko'tarilishga harakat qilayotgan ayol rolini) ko'rish mumkin[1].

### 19. 2. Turkiy xalqlar madaniyatida "erkak" va "ayol" tushunchalari

Turkiy xalqlar tarixiga oid arxeologik topilmalarda erkak "xudo"lar tasviriga nisbatan, ayol "xudo"lar tasviri ko'proq uchraydi. Bu topilmalar qadimda turkiy xalqlarda matriarxal yashash tarzining uzoq davom

[1] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 82.

etganidan darak beradi. Ularda tasvirlangan ayol xudolar nafaqat odamlarning, balki tabiatning Ona xudosi sifatida talqin etiladi[1].

Turkiy xalqlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi 4000-4500-yillarga oiddir. Ushbu ma'lumotlarning hech birida jinslar orasidagi tafovut uchramaydi. Chunki turkiy xalqlar madaniyatida erkak va ayol qarama-qarshiligi mavjud bo'lmagan. Ma'lumki, turkiy qabilalarning dastlabki shamanlari ayol bo'lgan va ular qabilalarning eng kuchli ruhiy rahnamosi hisoblangan.

"Tangri" so'zida ham jins tushunchasi mavjud bo'lmagan. Turkiy oilalarda qondoshlik, asosan, onaga qarab belgilangan, chunki ona nafaqat oilada, balki jamiyatda, dinda ham hukmron bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda ona tomondan qarindoshlikni ifodalovchi *tog'a, xola* so'zlari keng qo'llanilgan bo'lsa, ota tomondan qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar turkiy tillarning keyingi davrlarida iste'molga kirgan. Shuningdek, davlat boshqaruvida Hoqonning qaroriga Qatun (malika) qo'shilmagunicha, bu qaror kuchga kirmagan.

O'rta Osiyodagi davlatlarning (skiflar, xunlar, ko'k turklar, uyg'urlar) barchasida ayol juda katta haq-huquqlarga ega bo'lgan. Masalan, skiflar davlatida har bir ayolning erkaklardek jangchi va askar qilib tayyorlash an'anasi mavjud bo'lgan. Skifli ko'chmanchi ayollar erkaklar bilan birga jangga kirgan.

Xunlar davrida ham erkak va ayol ajratilmagan, aksincha, ayol erkakni to'ldirgan, uning tengi hisoblangan. Biron bir ish ayolning ishtirokisiz bitmagan. Hatto hoqonning farmoyishi faqat "Hoqon amr qiladilarki..." deb boshlangan bo'lsa, u kuchga kirmagan. Xorijlik elchilarning qabul qilish marosimida hoqon bilan birga uning rafiqasi albatta ishtirok etgan. Ayrim hollarda malikaning o'zi ham elchilarni qabul qilavergan. Masalan, xunlar va xitoyliklarning tinchlik haqidagi birinchi shartnomasi Tanriqut xonning qatuni tomonidan imzolangan.

Ko'k turklar va uyg'urlar saltanatida hoqonning rafiqasi qatun davlat ishlarining boshida bo'lgan. Farmoyishlarning barchasi hoqon va uning rafiqasi tomonidan imzolangan. O'rxun yozuvlarida ham davlat ishlarini boshqargan qatunlar haqidagi qaydlarni uchratish mumkin.

Qadimgi turkiy an'analarda er xotinni qo'yib yuborishi, ya'ni taloq qilishi mumkin bo'lganidek, xotin ham erini qo'yib yuborishi mumkin edi. Shuningdek, turklarning urf-odatiga ko'ra, jangda ayollarning dushman qo'liga asir bo'lib tushishi juda katta sharmandalik hisoblanardi.

---

[1] Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 93.

O'g'il uyga kirganda, avval onasiga, keyin otasiga ta'zim qilgan. Tabariyning yozishicha, ayollarning mavqeyi shunchalik bo'lganki, turkiylar hamma narsaga xotini orqali erishgan. O'zini ona urug'idan hisoblaganlar katta hurmatga sazovor edi. Qonun ayollarni qattiq himoya qilgan. Agar biror erkak ayolning nomusiga tegsa, erkak o'limga mahkum etilgan. Yoki o'sha erkak nomusi poymol qilingan qizga uylanishi shart edi[1].

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, turkiy xalqlarning miflarida ayol obrazi nihoyatda yuksak mavqega ega bo'lgan. "Yaratilish" dostonida ayol borliqning yaratilishiga sabab bo'lgan ilhom parisi sifatida tasvirlanadi. Uning ismi "Oqona" bo'lib, u yorug'lik va ezgulik timsoli Ulgen (tangri)ga olamni va insonlarni yaratish fikrini va ilhomini beradi.

Turkiy xalqlarning dostonlarida ayol unga erishib bo'lmaydigan ilohiy mavjudot sifatida tasvirlangan. O'g'uz hoqonning birinchi xotini qoronlikni yorib ko'kdan tushgan nurdan, ikkinchi xotini esa muqaddas daraxtdan tug'ilgan ilohalar bo'lgan.

Turkiy bitiklarda qator ilohalarning nomlariga duch kelinadi. Jumladan, Tunyuquq bitigida Umay ona nomini uchratamiz. Turgash hoqoniga qarshi kurashda g'olib kelgan Tunyuquq shunday yozadi: "Tangri, Umay, muqaddas Yer-Suv dushmanni bosib borgan ko'rinadi"[2]. "Qadimgi turkiy til" darsligida u "Umay - qadimgi turklarning onalik sifatiga ega bo'lgan xudosi", deya izohlanadi.

"Devonu lug'otit turk"da Umayni izohlovchi shunday maqol qayd etilgan: "Umayga topinsa o'g'il bo'lar, ya'ni kimki bunga xizmat qilsa, u o'g'il ko'radi. Xotinlar yaxshilik kutadilar"[3]. Aksariyat manbalarda Umay bolalar va hayvonlarni homiysi bo'lgan iloha sifatida qayd etiladi.

Bulardan tashqari, Oyisit - go'zallik ilohasi bo'lib, u bolalarga ruh beradi. Qubay Qatun - tug'ish, Osena - yo'l boshlovchi, O'tugen - davlatni himoya qiladigan va hokimiyatni qo'riqlovchi ilohadir.

---

[1] Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. –Тошкент: Халқ мероси, 1993. –Б. 50.
[2] Қадимги қимматлар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. –Б. 21.
[3] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. –Б. 144.




O'zbek xalq og'zaki ijodining durdonalaridan bo'lgan "Oysuluv" dostoni va "To'maris" afsonalaridan ma'lumki, ayollar qabila va urug'ga hukmdor edilar, ular barcha ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik, oilaviy masalalarni hal qilardi. Patriarxal yashash tarziga o'tilgach, ayollar erkaklarning asiri va bandisiga aylandi. Endi ularga faqat ro'zg'or ishlari va bola tarbiyasi topshirildi". "...erlarning ayollar ustidan hukmronligi jamiyatni yangi bosqichga ko'tardi, biroq ayollarning oilaga bosh bo'lgan davrlardagi huquqlari cheklandi. Bu o'tish jarayoni bir kun yoki bir yilda ro'y bermay, uzoq vaqt davom etgani kabi ayollar ham ko'p yillar yangicha hayot tarziga ko'nika olmay yurdilar.

Patriarxal ukladdagi tenglik, mehr-muhabbat matriarxal uklad darajasida emas edi. Chunki ona uchun tabiiy ravishda hamma farzand ham birdek, sevimli bo'lsa, ota farzandiga boshqacha munosabatda bo'lar, u yo katta, yo kichik o'g'lini boshqalaridan afzalroq ko'radi. Natijada avvalgi tuzumdagi tenglik buziladi.

"Rustamxon" dostonida "asosiy ziddiyat · Ota va Ona huquqi matriarxal va patriarxal tuzum o'rtasidagi kurashdan iborat. Rustamning tug'ilishi patriarxal tuzumning emas, matriarxal tuzum g'alabasidan darak beradi. Chunki Rustam erkak bo'lsa-da, u matriarxal tuzumni o'zida tamsil etuvchi Ona kulti - Umay nomi bilan chambarchas bog'liq[1].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, turkiy xalqlarning dostonlaridagi qahramonlar chavandoz, qilichboz, jangchi va yaxshi kurashga tushadigan qizlarga uylanishni xohlashgan.

[1] Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б. 90.

## 19. 3. Sharq xalqlari madaniyatida ayollarning mavqeyi

Ma'lumki, o'rta asrlarning boshlarida yapon ayoli jamiyatda muhim rol o'ynagan. Ayollar va erkaklar orasida farqlar o'rta asrlarning oxirlarida, xususan, samuraylar tabaqasining maydonga kelishi bilan shakllana boshlagan. Bu davrda ayollarning mavqeyi yomon tomonga keskin o'zgargan[1].

1947-yildagi Yaponiya Konstitutsiyasiga muvofiq, ayollar erkaklar bilan rasmiy jihatdan teng huquqli bo'lishiga qaramay, ijtimoiy tengsizlik hali ham davom etib kelmoqda. I.A. Latishevning qayd qilishicha, "Yaponiyada ayollar davlat tashkilotlari, xususiy firmalar va ishlab chiqarish korxonalarida jamiyat iyerarxiyasining eng quyi pog'onasida qolib ketmoqda... Bugun jinslarning huquqiy jihatdan tengligiga qaramay, mamlakatda siyosiy, ijtimoiy sohalarda, shuningdek, maosh jihatdan ayollar diskriminatsiyasi (kamsitilishi) saqlanib qolingan"[2].

Mazkur fikrni Yaponiyada o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, 1984-yili so'rovnoma ishtirokchilarining 73,9% mamlakatda ayollar bilan erkaklar o'rtasida tenglikning yo'qligini e'tirof etgan (teleko'rsatuv NTV, 23-sentabr 1984). Hukumat tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ma'lumotiga ko'ra, yapon ayollarining 71,1% jinslar o'rtasidagi rollarni taqsimlanishi: "erkaklarning o'rni - ishda, ayollarning o'rni - uyda" g'oyasini qo'llab-quvvatlagan (bunga o'xshash so'rovnomada mazkur g'oyani amerikalik ayollarning 35% va shved ayollarning 14% qo'llab-quvvatlagan). Ayni ma'lumotlarga ko'ra, yapon ayollarining 72% to'ydan keyin o'z qiziqishlarini turmush o'rtog'i va bolalariga bo'ysundirish lozim, deb hisoblashgan (amerikalik ayollarning 17,6% va shved ayollarning 6,1% shunday javob bergan). Yaponiyadagi har ikkala jins vakillarining faqat 36% gina erkaklar va ayollar o'rtasidagi qobiliyatda farq yo'q, deb javob berishgan (XB. 1983. № 1. B. 97).

Jinslar orasidagi tengsizlik til o'rganish va o'qitishda ham kuzatiladi. Maktablarda yapon tilining erkak varianti o'rganiladi, u chet elliklar uchun yozilgan darsliklarda rasmiy me'yor sifatida aks etadi. Hatto, izohli va tasvirli lug'atlarda ham dunyoni "erkak" nuqtayi nazaridan ko'rish talqin qilinadi[3].

Qadimgi Xitoyda ayollar har dom kamsitib kelingan. Ko'pincha qizaloqlarga ism qo'yilmasdan ular "bir, ikki, uch", deb chaqirilgan. Xitoy ayollari butun umr erkaklarning ta'siri va obro'yi ostida yashashga majbur bo'lishgan.

---

[1] Kindaichi H. The Japanese Language. –Tokyo, 1978. –P. 75.
[2] Латышев И. А. Семейная жизнь японцев. –М.: Наука, 1985. -С. 45.
[3] Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. –Toshkent: Universitet, 2014. –B. 99-100.

Qadimgi hind an'analarida uylanishning asosiy maqsadi - otaga voris bo'la oladigan, otaning gunohlarini kechirilishi uchun oilaviy dinni davomchisi bo'la oladigan o'g'il farzand ko'rishdan iborat bo'lgan. O'g'il farzand oila uchun baxt-saodat, qiz farzand esa falokat hisoblangan. Agar erkak bepusht bo'lsa, "xotinini boshqasi bilan bo'lishiga" ruxsat bergan. Beva xotinlar turmushga chiqolmasdi, marhum erning u dunyoda ham uning muhabbatiga ehtiyoji bo'lishini o'ylab yoqib o'ldirilardi. Erining jasadi ustida yoqilgan xotin vafoli va sadoqatli ayol timsoli hisoblangan.

Eronda qon buzilmasligi uchun yaqin qarindoshlar bilan turmush qurish maqsadga muvofiq ko'rilgan. Shu sababli, o'z onasi va opa-singillariga uylangan erkaklar ham bo'lgan (bunday hodisalar, ayniqsa, mazoxizm tarqalgan davrda ko'paygan edi).

Johiliya arablari uchun qiz farzandli bo'lish obro'sizlik hisoblangan. Shuning uchun ular qiz bolalarni tiriklayin ko'mib yuborganlar.

Umuman, Sharq xalqlari madaniyatida ayollar mavqeining qiyosiy tadqiqi qadimgi qavmlarning hech biri turkiy qavmlardek ayol zotiga alohida e'tibor va hurmatda bo'lmaganini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy xalqlar madaniyatida ayolning o'rni nihoyatda yuksak bo'lgan. Turkiy davlatlarning barchasida ayol juda katta haq-huquqlarga ega bo'lib, u erkakni to'ldirgan, uning tengi hisoblangan.

### Nazorat uchun savollar

1. "Erkak - ayol" ziddiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Borliqning antropomorf modelida majusiylar ayolni qanday tasavvur qilishgan?
3. Klassik madaniyat va falsafada ayol erkakka nisbatan qaysi jihatlariga ko'ra qarama-qarshi qo'yilgan?
4. Qadimgi Xitoy falsafasida olam qanday qarama-qarshiliklarga ajratilgan?
5. Turkiy xalqlar haqidagi dastlabki ma'lumotlarda nima uchun jinslar orasidagi tafovut uchramaydi?
6. Qadimgi turkiy oilalarda qondoshlik kimga qarab belgilangan?
7. Qadimgi turkiy davlatlarda ayol qanday haq-huquqlarga ega bo'lgan?
8. Turkiy xalqlarning miflarida ayol obrazi qanday mavqega ega bo'lgan?
9. Turkiy bitiklarda qaysi ilohalarning nomlariga duch kelinadi?
10. "Rustamxon" dostonida "asosiy ziddiyat nimadan iborat?

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. "Erkak va ayol ziddiyati" mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. "Turli madaniyatlarda ayollar mavqeyi" mavzusida referat yozish.

## Adabiyotlar


1. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. -Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
2. Kindaichi H. The Japanese Language. -Tokyo, 1978. -256 p.
3. Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. -№. 54. 2003. -P. 547-577.
4. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
5. Бубер М. Проблема человека. Перевод с немецкого. -Киев: "Ника-Центр", " Вист-С", 1998. -132 с.
6. Латышев И. А. Семейная жизнь японцев. -М.: Наука, 1985. -287
7. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.
8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. - Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. -499 б.
9. Сорокин Ю.А. Речевые маркеры этнических и институциональных портретов и автопортретов // Вопросы языкознания. 1995. -№ 6.
10. Усманова Ш. Жамият ва маданиятда эркак-аёл зиддияти // Илм сарчашмалари. -Урганч, 2017. -№ 8. - Б. 71-74.
11. Усманова Ш. Қадимги Шарқ халқлари маданиятида аёлнинг ўрни // Аёл ва замон // Илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент: ТошДШИ, 2017. -Б. 137-140.
12. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. -Қарши: Насаф, 1999. -172 б.
13. Қадимги ҳикматлар. -Тошкент: Ғ.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. - 432 б.
14. http://eksion.net/turk-mitolojisi-ve-tanricalar
15. http://aykiriakademi.com/haber/haber-goster/227-turkiye-de-kadin-acemisi-oldugumuz-bir-kelime
16. http://www.bilinmeyenturktarihi.com

## 20-MA'RUZA
## GENDER KATEGORIYASI

**Reja:**

1. "Gender" tushunchasi
2. Gender nazariyasi
3. Erkaklar va ayollar nutqidagi gender tafovutlar

**Tayanch so'z va iboralar:** gender, gender xususiyatlar, gender qarama-qarshiligi, gender tafovuti, jins, erkak, ayol, ziddiyat, maskulinizm, feminizm, genderolingvistika, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, submadaniyat, madaniy tushuncha, nutqiy muloqot, nutqiy xulq-atvor, nutqiy odat, til variantlari, nutq uslublari, suhbatdagi rollar, nutqiy muomala modellari.

### 20. 1. "Gender" tushunchasi

Inson o'z hayotini gender xususiyat bilan boshlaydi. Binobarin, chaqaloq dunyoga kelganda, u qiz bo'lsa pushti rangli, o'g'il bo'lsa ko'k rangli kiyimlar va yo'rgaklar bilan qarshi olinadi. Tug'ruqxonaga chaqaloqni ko'rgani kelganlar gender xususiyatni aniqlash uchun uning o'g'il yoki qiz ekanligini so'rashadi. Biroq gender biologik jins yoki jinsiy xususiyat emas. Mazkur farq bizning biologik jins haqidagi qarashlarimizning gender xususiyatga qay darajada ta'sir ko'rsatishini tushunishda juda muhim sanaladi[1].

**Gender** - sotsio-lingvo-madaniy kategoriya bo'lib, jinslar rolini an'anaviy o'rganishni nazarda tutmaydi. Gender - ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy shaxsning axloqiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy ko'rsatmalar, qoidalardir.

***Gender xususiyat*** deganda, maskulinizm va feminizm madaniy tushunchalari hamda ayollik yoki erkaklikning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi.

Sharqiy slavyan tillarida, xususan, nemis, fransuz va boshqa tillarda ingliz tilidan farqli o'laroq, "sex" (biologik jins) va "gender" (jinsning sotsio-madaniy kategoriya sifatida tushunilishi) tushunchalari farqlanilmaydi. Biroq jinsga faqat biologik hodisa sifatida yondashish mazkur kategorial tushunchani toraytirib, yuzakilashtirib qo'yadi, chunki maskulinizm (jasorat) va feminizm (nazokat) bir tomondan psixikaning filogenetik

[1] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. — 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 180-181.

bog'langan xususiyati bo'lsa, ikkinchi tomondan ontogenezda to'planadigan sotsio-madaniy hosiladir. Zamonaviy sotsiologlar va faylasuflar "jins" va "gender" tushunchalarini qarama-qarshi qo'yishadi.

Jamiyatda ayol yoki erkaklik o'rniga ega bo'lish sezilarli darajada madaniy tushunchalarga bog'liq bo'ladi. Masalan, ayrim faoliyatlar ko'proq erkaklarga yoki ko'proq ayollarga xosligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, insonlarning ov qilishi yoki bichish-tikish bilan shug'ullanishi, jang qilishi yoki she'r o'qishi boshqalarning ular haqida bildirgan fikrlaridan o'zgarishi mumkin. Kishilarning teleko'rsatuvlar, teleseriallar, futbol o'yinlari va h.k. tomosha qilishi ularning boshqalar bilan genderlashgan kontekstlarda muloqotga kirishuviga ta'sir ko'rsatadi[1].

## 20. 2. Gender nazariyasi

Gender ko'p qirrali tarmoq bo'lgani uchun u nafaqat faylasuf va sotsiologlarning, balki tilshunoslarning ham e'tiborini tortgan. Tilshunoslikda gender elementlariga e'tibor doim ham mavjud bo'lgan. Erkak va ayol nutqining muayyan farqlarga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turishi dunyoning barcha tillari uchun xosdir. Ayrim tillarda bu omil ochiq namoyon bo'lsa, boshqa tillarda uning lingvistik asoslarini ko'rsatib berish oson emas[2].

1960-yillarning o'rtalariga kelib tilshunoslikda gender masalasiga bo'lgan qiziqish uch yo'nalishdagi tadqiqotlarda o'z aksini topdi:

1) erkak va ayol nutqining ijtimoiy tabiati;

2) nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari;

3) tafovutlarning kognitiv aspekti[3].

Genderolingvistika o'z tadqiq yo'nalishida ikki jihatga: muayyan tilda erkaklar va ayollar nutqining tafovutlari hamda muayyan til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklari tadqiqiga e'tibor qaratadi.

Gender masalasi tilshunoslikning sotsiolingvistika yo'nalishida keng miqyosda o'rganila boshlandi. Sotsiolingvistika doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda erkak va ayollarning nutqidagi aksent, urg'u, ohang, xos so'zlar va so'zlashuv shakllari o'rganildi. Jumladan, U. Labov, o'zining "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi" (1966) nomli asarida erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni ko'rsatib berishga urindi. L.

---

[1] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. –P. 180-181.

[2] Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. №. 3. – Тошкент, 2013. –Б. 87.

[3] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 83.

Milroy Belfastda amalga oshirgan tadqiqotida (1980) ishchilar sinfini uch guruhga ajratadi. L. Milroy mazkur guruhlardagi ayollar nutqining erkaklarnikidan qaysi jihatlari bilan farq qilishiga e'tibor qaratadi va ayollar nutqida erkaklarnikiga qaraganda mahalliy shevalarning kam qo'llanilganini ta'kidlaydi.

Feminizm bilan bir paytda vujudga kelgan "zo'ravonlik" nazariyasida asosiy e'tibor tildan foydalanishda erkak va ayollar o'rtasidagi tafovutlarga qaratildi va mazkur tafovutlar jamiyatdagi hukmronlik munosabatlari bilan bog'landi. Jamiyatdagi hukmronlik munosabatlariga ko'ra, erkaklarning tili me'yor sifatida qabul qilinishi, ayollarning esa bu tilda gapirishga majburlanishi turli bahslarni keltirib chiqardi.

Amerikalik tadqiqotchi R.Lakoffning 1972-yilda chop etgan "Language and the Women's Place" ("Til va ayolning maqomi") nomli maqolasi (keyinroq 1975-yilda shu nom bilan nashr qilingan asari) qayd etilgan bahs-munozaralarga chek qo'ydi. R. Lakoff ushbu asarida ayollarning erkaklar qo'llaydigan tildan butunlay farq qiladigan "ayol tili"ni qo'llashlariga alohida urg'u berdi. R. Lakoffga ko'ra, mazkur "ayol tili" o'ziga xos qator xususiyatlarga ega bo'lib, u erkaklar tilidan quyidagi jihatlariga ko'ra farq qiladi:

1) erkaklar ishlatmaydigan so'zlarni (*mauve* "qizg'ish binafsharang") ishlatadilar;

2) "quruq" baholovchi sifatlardan (*sweet, divine, cute*) ko'proq oydalanadilar;

3) erkaklar ishlatadigan tasdiq shakli o'rnida so'roq shakllarini (shuningdek, tag questions) qo'llaydilar;

4) nazokat shakllarini ko'p ishlatishadi;

5) ko'pincha qat'iyatsizlikni ifodalovchi shakllardan (*well, you know, I guess, I wonder, I think*) foydalanadilar;

6) Undalmalarni (*so nice, very nice*) ko'p ishlatishadi;

7) o'ta to'g'ri grammatikadan foydalanadilar[1].

R. Lakoffning tadqiqoti ayrim doiralarda qo'llab-quvvatlangani holda, ba'zi doiralarda ayovsiz tanqid ostiga olindi va bu tanqidlar hali ham davom etmoqda. Jumladan, 1974-yilda W. O'Barr va B. Atkinslar Shimoliy Karolinadagi Oliy mahkamada 150 soat davom etgan sud jarayonida erkaklar va ayollarning nutqini kuzatib, R. Lakoff "ayol tili" o'rniga "zaiflik tili"dan gapirishi lozim, degan xulosaga kelishdi.

Tadqiqotchi C. West Janubiy AQSHdagi oilaviy poliklinikadagi 21 ta qayd varaqasini o'rganib chiqdi. C. Westning mazkur tadqiqotida erkak

[1] Lakoff Robin. Language and The Women's Place. –New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.

shifokorlar bemorlar bilan suhbat chog'ida ularning gaplarini ko'p marotaba bo'lganini, bemorlarning esa shifokorning gapini juda kam holatlarda bo'lganini, aksincha, shifokor ayol bo'lgan holatlarda bemorlar uning gapini ko'p marotaba bo'lganini qayd qildi.

Ayrim tadqiqotlarda erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar submadaniyat farqlariga bog'lanini ko'rish mumkin. Xususan, D. Tannen: "ayollar munosabat va yaqinlik tilida, erkaklar mavqe va erkinlik tilida gaplashishsa, u holda erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi muloqot, so'zlashuv uslublari kesishmasidagi madaniyatlararo muloqotni yuzaga chiqaradi"[1], deb yozgandi. "Erkak va ayollar o'rtasidagi lisoniy tafovutni qancha anglasak, "siz meni tushunmaysiz" degan shikoyatlarni shuncha kam eshitamiz". Xullas, D. Tannen erkak va ayollarning bir-biridan farq qiluvchi so'zlashuv uslublari tavofutli submadaniyatlardan o'sib chiqqanligini da'vo qiladi.

Umumiyatda "erkak va ayollar kommunikativ xulq-atvorini o'rganishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladigan tayyor qolip va andozalar mavjud emas"[2]. Faqat yapon tilidagina bunday qoliplarni kuzatish mumkin. Masalan, yapon tilida erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Erkakning "ayolcha" gapirishi yoki aksincha, ayolning "erkakcha" gapirishi jiddiy kulgili holatlarni keltirib chiqaradi. Yapon tilidagi erkak va ayol variantlarining farqi til tizimining barcha sathlarida namoyon bo'ladi[3].

Los-Anjeleslik bir biznesmen yapon tilini mukammal o'rganishga ahd qilibdi. Buning uchun yapon millatiga mansub o'qituvchi yollabdi va tilni mukammal o'rganibdi. So'z boyligi juda zo'r, grammatikasi benuqson, aksenti esa bilinmas darajaga yetibdi. Ammo u Yaponiyaga borib, mahalliy biznesmenlar bilan yaponcha gaplashishni boshlaganda uning tili g'alatiligi bilan hammani hayron qoldiribdi. Nega? Buning sababi shuki, biznesmen yapon tilini ayol o'qituvchidan o'rgangandi. Ko'p xalqlarda bilinmasligi mumkin, ammo Yaponiyada nutq intonatsiyasi ayollar va erkaklarda bir-biridan juda katta farq qiladi. Erkaklarning nutqi ayollarnikiga nisbatan ochiq (dangal) va agressiv (hatto ayollar o'zaro gaplashganda yapon erkaklari ularni yaxshi tushinishmaydi degan gaplar ham yuradi). Shuning uchun Amerikadan kelgan janobning yapon ayollari manerasida gapirishi g'alati va kulguli holatni keltirib chiqargan.

---

[1] Tannen Deborah. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. –New York: William Morrow Paperbacks, 2007. –P. 29.

[2] Абдувахобова М. Аёллар вербал нутқининг лексик преференциялари (инглиз, итальян ва ўзбек фольклор матнлари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. №4. – Тошкент, 2013. –Б. 98.

[3] Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. –Toshkent: Universitet, 2014. –B. 23.

Gendershunoslik sohasida amalga oshirilgan keyingi yillardagi tadqiqotlarda[1] ham R. Lakoffning ta'limoti davom ettirilib, ularda muloqot uslubidagi o'ziga xos gender xususiyatlar o'rganildi.

### 20. 3. Erkaklar va ayollar nutqidagi gender tafovutlar

Gender qarama-qarshiligi dunyo tillarida turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, ularni tizimlashtirishga urinish J. Sherser ilmiy ishidan boshlangan[2]:

*1. Tildagi erkak-ayol belgisi bo'yicha farqlanishining majburiyligi.* Bunda bir tilning ikki xil varianti - erkak va ayol tilidagi majburiy farqlanish haqida so'z boradi. Mazkur farq ko'pincha fonetik yoki morfologik darajada seziladi. Eng ko'p tarqalgan misollardan biri - markaziy Amerikadagi Karib orolliklarining tili. Yevropaliklar Kichik Antil orollariga borib qolishganida, ular erkak va ayollarning "boshqa-boshqa tillarda" so'zlashayotganini sezib qolishadi: leksikaning bir qismi, shuningdek, grammatik ko'rsatkichlari farq qilardi. Erkaklarga murojaat chog'ida har doim "erkakcha" variantdan, ayollarga murojaatda esa faqat "ayol" variantdan foydalanilgan.

XVII asr manbalarida ta'kidlanishicha, o'rnatilgan me'yorlaning buzilishi jiddiy jinoyat hisoblangan. Mahalliy aholi XVII asrdayoq tilning ikki xil varianti mavjudligini quyidagicha izohlagan: Karibliklar ilk bor Kichik Antil orollarini bosib olganlarida (ular tub aholi bo'lmagan) u yerda Aravak hindulari yashagan. Karibliklar barcha erkaklarni qirib tashlab, faqat ayollarni qoldirishadi. Ayollar va ularning bolalari o'z ona tillarida so'zlashishni davom ettiradilar. Karib erkaklari bir oz muddatdan so'ng bu tilni o'zlashtirib oladilar va uni qabul qiladilar, lekin bu tilga "erkaklik belgisini" farqlanishi uchun ba'zi bir karib elementlarini kirgizadilar. Natijada ikki xil turli guruhga mansub tillar qisman aralashib ketadi (faqat erkaklar nutqida).

Bunday hodisalarni tushintirish uchun tabu farazi olg'a suriladi. Erkaklar urishga kirganlarida, ehtimol, ularga ma'lum bir "erkakcha" so'zlar majmuyidan foydalanish buyirilgan. Bunda ayollar va bolalarning ba'zi bir so'zlarini aytish taqiqlangan, negaki ular "dushmanlarini ogohlantirish", "ruhlarni jalp etish" yoki "o'ljani cho'chitib yuborishi"

---

[1] Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). –Boston: Cengage Learning, 2014; Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. –P. 129–144; Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. –N. 54. 2003. –P. 547–577.

[2] Бахтин Н. Б, Головко Е. В. Социолингвистика и социология языка: Учебное пособие. –СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Над-во Европейского университета в Санкт-Петербурге. 2004. –С. 71.

mumkin edi. Aks holda, harbiy va ovchilardan omad yuz o'girardi. Tabu jinsga bog'liq holda tilning differensiatsialashuviga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Tabu tizimi bo'lgan Zulus tili jins belgisi bilan farqlanishiga sabab bo'lganligi bunga yaqqol misoldir. Turmushga chiqqan Zulus ayoli erining otasi va aka-ukalarining ismini ovoz chiqarib aytmagan. Ba'zi hollarda u ayolga qanday bo'lmasin tabu otlar bilan o'xshashligi bo'lgan tovushlarni aytish taqiqlangan, ya'ni ayol kishining erkak qarindoshlari ismidagi tovushlari bor so'zlarni aytishga haqqi bo'lmagan. Tabu tizimining bu holati tilning jinsiy bo'linishiga olib kelgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas. Biroq, tabu tizimi qanchalik maqbul bo'lmasin, u tildagi jinsiy farqlanishning holatlarini tushintirib berolmaydi.

*2. Erkak va ayollar nutqining turli uslublari.* Mazkur holatda uslub deganda lingvistik xususiyatlar majmuyi tushiniladi - fonetik, ritm, intonatsiya, morfologik, sintaksis, leksik xususiyatlar erkak yoki ayollarga xos nutqiy xulq-atvor bilan tasvirlanadi. Ayollar erkaklarga nisbatan tezroq yoki sekinroq, ko'proq yoki kamroq, ifodali yoki soddaroq gapirishlari mumkin. Ayollar so'zning oxirini "yutib yuboradilar", erkaklar esa, aksincha, ayollar (yoki erkaklar) o'ziga xos ohangda so'zlashishi mumkin va boshqalar.

Shuni ta'kidlash joizki, jamoa shuurida o'rnashib qolgan ma'daniy me'yorlar hayotiy amaliyot bilan mos kelmasligi mumkin. Ko'rib o'tilayotgan muammoda ma'lum bir jamiyatda bu kabi farqlar erkak va ayollar nutqida haqiqatda mavjudmi yoki yo'qmi bu muhim emas. Bu jamiyatda ayollar va erkaklar turlicha so'zlashishi haqidagi e'tiqodni mavjudligi muhimroq sanaladi. Masalan, rus tili sohiblari ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq va tezroq gapirishadi deyishlari mumkin, biroq buni, albatta, statistika tasdiqlashi shart emas.

*3. Nutqiy xulq-atvorni tashkil etishning turli ko'rinishlari.* Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'zlashuv chog'ida erkak va ayollar o'zlarini turlicha tutishadi, suhbat jarayonida tilni turlicha qo'llashadi. Bunday tadqiqotlarda, odatda asosiy mavzudan "chetlashish" miqdori hisoblanadi, ya'ni bir mavzudan boshqa mavzuga o'tish, to'satdan boshqa suhbatdoshga murojaat etish, suhbatdoshning so'zini bo'lish va h.k. Bunga ba'zi bir lisoniy xususiyatlar qo'llanilishidagi farqni ham daxl qilish mumkin. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, erkak va ayollar nutqida ayrim fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarning qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega (bunda avvalgi vaziyatdan farqli o'laroq, jamiyat a'zolari "barcha bir xilda so'zlashayotganiga" ishonch hosil qilishi mumkin).

Shunday qilib, ingliz ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga, suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo'llab turishga moyil bo'ladilar. Erkaklar, aksincha, suhbatdoshining gapini tez-tez bo'ladilar, suhbatdoshlari bilan har doim ham kelishmaydilar, suhbatdoshlarining aytganlarini ma'qullamaydilar, suhbat mavzusini qattiq nazorat qiladilar, fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri aytishga moyilroq bo'ladilar. Ayollar suhbatda ochiq raqobatdan qochadilar (odatda ularning raqobatlari ochiq bo'lmaydi), tasdiq va qo'llab-quvvatlash ma'nosidagi bosh silkitishlarni kutishadi, o'zlari ham qiziqish va e'tibor ishoralarini namoyon etadilar. Bu tafovutlarning ildizi o'g'il va qizlar tarbiyasidagi farqlarga, ular xulq-atvoridagi boshlang'ich yo'nalishga borib taqaladi.

P. Tradgil ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi erkak va ayollar nutqining "nufuzli / nufuzsiz" o'lchovlarga ko'ra qaysi variantlarni tanlashlarini ko'rsatib beradi. Olimning fikricha, ayollar ko'proq talaffuzning nufuzli variantini tanlaydilar. Bu mazkur madaniyatdagi ayol va erkak xulq-atvorining stereotiplari bilan bog'liq bo'ladi[1].

***4. Ko'ptillilik hamda ikkitillilik sharoitida erkak va ayollar tomonidan tilning tanlanishi.*** Erkak va ayollar ko'ptillilik va ikkitillilik sharoitida o'zlarini turlicha tutishadi. Erkaklar ikkitillilikka faolroq jalb qilinganlar, negaki, ular savdoda, ovda va boshqa mashg'ulotlarda uydan chiqishga majbur bo'ladilar. Buning natijasida ular tilni yaxshi o'rganadilar. Binobarin, Avstriyaning chegaradosh hududlarida aholining bir qismi orasida ikkitillilik mavjud bo'lib, ular nemis hamda venger tillarida so'zlashadilar. U yerdagi erkaklar vengercha, ayollar esa nemischa so'zlashishini ma'qul ko'radilar. Umuman olganda, shunday holatlar aniqlanganki, bunda ayollar shu ikki tildan faol va ikkitillilikning murakkab bo'lgan holatlaridan unumli foydalanganlar.

***5. Suhbatdagi rollar va "janrlar"ning gender jihatdan taqsimlanishi.*** J. Sherserning ta'kidlashicha, Panama hududida yashaydigan Kuna hindulari orasida ommaviy chiqishlar, qabila miflari, ilohiy qo'shiqlar aytish erkaklar janri; alla aytish, yig'i qo'shiqlarni ijro etish ayollar janri hisoblangan.

***6. Erkaklar va ayollar tomonidan nutqiy muomalaning turli modellarining tanlanishi.*** Bunga misol tariqasida ko'pincha malagasiya jamiyati keltiriladi. Malagasiya jamiyatida ikki: bevosita va bilvosita nutq modeli mavjud. Bevosita nutq modeli, asosan, ayollar nutqiga xos bo'lib, u savdo-sotiq munosabatlarida ishlatiladi. Bu xalqlarda savdo-sotiq bilan, asosan, ayollar shug'ullanishadi. Shuning uchun ham bevosita nutq

[1] Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. –Harmondsworth: Penguin Books, 1995. –P. 62-83.

modeli ayollarga xosdir. Bilvosita nutq modeli daganda ommaviy chiqishlar tushiniladi, ya'ni bu model siyosat va boshqa ijtimoiy faol sohalar bilan bog'liq bo'ladi. U, asosan, erkaklarga xosdir.

Turli tillarda erkak va ayollarga xos belgilarning ifodalanishida jamiyatning erkak va ayollarga turli ijtimoiy rollarni berishi tushiniladi. Biroq bu rollar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Binobarin, tildagi o'zgarishlar ijtimoiy rollardan ortda qoladi.

Erkak va ayollar turlicha so'zlashadilar va bu variantlar vaziyatga bog'liq emas: "ayollarga xos" yoki "erkakcha vaziyatlar" deyarli mavjud emas. Bir odam u yoki bu variantni o'z xohishiga ko'ra tanlashi mumkin emas. Ayol kishi erkakka qaraganda o'zgacha gapiradi, tinglayotgan odam buni ovoz ohangidan farqlay oladi[1].

O'zbek nutqiy odatlarining tadqiqotchisi prof. Sh. Iskandarova o'zbek nutqiy odatlarining gender xususiyatlariga alohida to'xtalib, ayollar o'rtasidagi muloqot jarayonida qo'llanilishi odat tusiga kirgan ayrim so'z va iboralarni quyidagicha qayd qiladi: "***dugonajon, ovsinjon, egachi, aylanay, o'rgilay, giritton, qoqindiq, asalim, shirinim, toychog'im*** va boshqalar. Bular barcha ayollar uchun umumiy til birliklari - ayol, buvi, ona, turmush o'rtog'i, dugona, farzand, opa, singil, amma, xola va notanish kishi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ularning har birining boshqa bir ayol bilan muloqot odati yana o'ziga xos tarzda shakllangan bo'ladi"[2].

O'zbek xotin-qizlari nutqiga xos *aylanay, girgitton, o'rgilay, qoqindiq* kabi so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko'proq keksa ayollar tomonidan qo'llanadi. Chunonchi:

1. *Qo'shnilar ahvol so'rasa, ularniyam o'ziniyam yupatadi:*

*- Ha, endi keksalikda, **o'rgilay**, lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikdan emas.*

*2. -Kel-a, bo'yningdan **girgitton** bo'lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, - dedi ammam.*

*- Ha, balli azamat, necha kundan buyon ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko'rindi. **Sen kelar ekansan balli - balli,** - dedi pochcham.* ( G'. G'ulom. "Shum bola").

Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini *voy* undovining qo'llanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin: ma'lum bo'lishicha, *voy* undovi o'ndan ortiq ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Bularga: sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam singari

---

[1] Бахтин Н. Б. Головко Е. В. Социолингвистика и социология языка: Учебное пособие. –СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»: Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. –С. 71-77.

[2] Искандарова Ш. Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Филол. фанлари ном... дисс. автореферати. – Самарқанд, 1993. –Б. 26.

holatlar kiradi. Masalan: *-Voy o'lay, qutluq uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket.* (G'. G'ulom. Jomasi pok o'zi nopok bandalar).

Umuman, turli lingvomadaniyatlarning aksariyatida erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

| MULOQOT | ERKAKLAR | AYOLLAR |
|---|---|---|
| **Muloqotga kirishishda** | - salomlashishning qisqa bo'lishi;<br>- ba'zi holatlarda salomlashmasdan to'g'ridan to'g'ri maqsadga o'tish. | - salomlashish, hol-ahvol so'rashning uzun bo'lishi; |
| **Muloqot jarayonida** | - oldindan rejalashtirilgan fikrlarning ifodalanishi; | - bir xil fikrlarni takror qo'llash; |
| | - dalil va isbotlar keltirish; | - hissiyotlarni ochiq ifodalash; |
| | - buyuk insonlar, olimlar va faylasuflarning fikrlaridan foydalanish; | - boshqalarning gaplarini suhbatdoshiga yetkazish; |
| | - aforizmler, latifalar ve maqollarni qo'llash; | -tanishlarining gaplaridan foydalanish; |
| | - aniq, qisqa va lo'nda gapirish, suhbat chog'ida bir ma'noli so'zlardan foydalanish; | - mavhum, uzun gapirish, suhbat chog'ida ko'p ma'noli so'zlardan foydalanish; |
| | - ko'proq siyosat, iqtisod, texnika va h.k. haqida gaplashish; | - pazandalik, tikish-bichish, kiyim-kechak, pardoz-andoz mahsulotlari va oiladagi muammolar haqida gaplashish;<br>- muloqot chog'ida uy jihozlari, mashinalar, taqinchoqlar, pardoz-andoz mahsulotlari va h.k.ning maqtanish obyekti bo'lishi; |
| | - erishilgan natijalarni odatda 50%ga mubolag'a qilish; | - erishilgan natijalarni odatda 200%ga mubolag'a qilish; |
| | - muloqot chog'ida pauzalarning uzun | - muloqot chog'ida pauzalarning deyarli |

| | bo'lishi; | bo'lmasligi; |
|---|---|---|
| | - muloqot chog'ida sukutning uzoq davom etishi; | - muloqot chog'ida sukutning bo'lmasligi yoki sukutning juda qisqa davom etishi; |
| | - muloqot chog'ida suhbatdoshining gapini bo'lish hollarining juda kam bo'lishi; | - muloqot chog'ida suhbatdoshining gapini bo'lish hollarining tez-tez uchrashi; |
| | - jumlalarning qisqa bo'lishi. | - jumlalarning uzun bo'lishi. |

Xullas, ayollar va erkaklar nutqidagi farqlar asosida jinslarning psixologiyasi, tafakkuri o'rtasidagi tafovutlar, jamiyatdagi gender o'lchovlarini belgilovchi me'yorlar yotadi. Jamiyatda jinsga oid faoliyat ko'rsatmalari, me'yorlarni belgilovchi ma'lum qoidalar, o'ziga xosliklar, tafovutli holatlar paydo bo'ladi va shunga nisbatan ijtimoiy hayotda ayollarga va erkaklarga xos bo'lgan ayricha tushunchalar, g'oyalar tug'iladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Gender qanday kategoriya?
2. "Jins" va "gender" tushunchalarini izohlang.
3. Gender masalasi qaysi tadqiqotlarda o'rganilgan?
4. Tilshunoslikda gender masalasiga bo'lgan qiziqish qaysi yo'nalishdagi tadqiqotlarda o'z aksini topdi?
5. R.Lakoffning "Language and the Women's Place" asarida qanday ta'limot ilgari surildi?
6. Qaysi tadqiqotchi erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni submadaniyat farqlariga bog'langan?
7. Erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlarni ko'rsating.
8. "Zo'ravonlik" nazariyasida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tafovutlar nima bilan bog'landi?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Genderolingvistikada amalga oshirilgan tadqiqotlarni konspekt qilish.
2. Erkaklar va ayollar nutqidagi tavofutlarni ko'rsatish.

## Adabiyotlar


1. Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. - P. 129-144.
2. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Universitet, 2014. -136 b.
3. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.
4. Kindaichi H. The Japanese Language. -Tokyo, 1978. -256 p.
5. Lakoff Robin. Language and The Women's Place. -New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.
6. Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. -№. 54. 2003. -P. 547-577.
7. Strauss W., & Howe N. Millennials and the pop culture. Great Falls, VA: Life Course Associates, 2006.
8. Tannen Deborah. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. -New York: William Morrow Paperbacks, 2007. -342 p.
9. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. -Harmondsworth: Penguin Books, 1995. -P. 62-83.
10. Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Universitet, 2014. -84 b.
11. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.
12. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma.-Toshkent: TDShI, 2017. -160 b.
13. Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). -Boston: Cengage Learning, 2014. -341 p.
14. Абдуваҳобова М. Аёллар вербал нутқининг лексик преференциялари (инглиз, итальян ва ўзбек фольклор матнлари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4. -Тошкент, 2013. -Б. 97-100.
15. Бахтин Н. Б, Головко Е. В. Социолингвистика и социология языка: Учебное пособие. -СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. -336 с.
16. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Филол. фанлари ном... дисс. автореферати. -Самарканд, 1993.
17. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

## LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATI (GLOSSARIY)

**AKKULTURATSIYA** - madaniyatlarning o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, u biron bir xalq yoki biron bir xalq vakili tomonidan boshqa xalq madaniyatining to'liq yoki qisman qabul qilinishini ifodalaydi. Akkulturatsiya boshlang'ich, ko'nikish, moslashuv, osoyishtalik, uyga ketish arafasidagi moslashuv va so'nggibosqichlarga ajraladi.

**ANTROPOSENTRIK PARADIGMA** - tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o'zgarishi, yo'naltirilishi, ya'ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishi. Bunda asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratiladi. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson dunyoni o'zini bilish, o'zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi. Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi.

**ARXETIP** - (yun. arche - boshlanish + tupos - shakl, namuna) 1. Biror narsaning ilk, boshlang'ich shakli. 2. Individlar ongida paydo bo'ladigan va muayyan madaniyatda keng tarqalgan turg'un obraz. Arxetiplarda shaxsiy tajriba oqibatida emas, balki ajdodlardan meros qilib olingan "kollektiv g'ayriixtiyoriylik" ifodalanadi.

**DISFEMIZM** - so'zlovchining tinglovchiga yoki biror predmetga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini bildiradi. Disfemizm ifoda-ga salbiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi.

**ETNOLINGVISTIKA** - tilning jamiyat ijtimoiy strukturasi yoki xalqning madaniyati, an'analari, urf-odatlari bilan aloqasini o'rganadigan yo'nalishi. Zamonaviy etnolingvistikaning markazida tilning leksik tizimi-dagi faqat muayyan moddiy va madaniy-tarixiy majmualar: madaniyat shakllari, urf-odatlar, udumlar bilan o'zaro munosabatdagi elementlari bo'ladi. Mazkur yo'nalishni ikki alohida tarmoqqa ajratish mumkin: 1) *etnik hududlarni tilga ko'ra rekonstruksiya qilish*; 2) *xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini til ma'lumotlariga ko'ra rekonstruksiya qilish.* Etnik o'ziga xosliklar, jumladan, turli vaziyatlarda kishilar qanday ishlashadi, qanday dam olishadi, qanday ovqatlanishadi, qanday gaplashishadi va h.k. har joyda namoyon bo'ladi.

**ETNOPSIXOLINGVISTIKA** - nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq bo'lgan muomala elementlarining qanday paydo bo'lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o'rganadi.

Nutqiy etiket va "dunyoning rangli manzarasi"ni, turli xalqlardagi ikki tillilik va ko'p tillilik hodisalarini tadqiq etadi.

**EVFEMIZM** (yun. "euphemism" < "eu" - "yaxshi" va "phemism" - "nutq", "so'zlashuv"dan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda "yaxshi alomatli so'z" ma'nosini ifodalaydi. Evfemizm - narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi: qo'pol beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'tmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash. Masalan, *ikkiqat, bo'g'oz* so'zlari o'rnida *homilador, og'ir oyoqli* so'zlarini qo'llash. Yoki *chayon* so'zi tabuga uchragan, qo'llanishi man qilingan bo'lib, uning ma'nosi *eshak* so'zida ifoda topgan.

**FRAZEOLOGIZM** - turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxiteplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi.

**GENDER** - sotsio-madaniy kategoriya bo'lib, jinslar rolini an'anaviy o'rganishni nazarda tutmaydi. Gender - ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy shaxsning axloqiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy ko'rsatmalar, qoidalardir.

**GENDER XUSUSIYAT** - maskulinizm va feminizm madaniy tushunchalari hamda ayollik yoki erkaklikning o'ziga xos xususiyatlari.

**GESHTALT** - nemischa so'z bo'lib, u "obraz, tuzilma, yaxlit shakl" ma'nolarini anglatadi. Geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya'ni biron bir obyektni butunicha idrok qilinishi geshtalt, deb tushuniladi. Geshtaltlar konseptual bog'lanishlar bo'lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo'lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.

**KONSEPT** - lotin tilidagi conceptus «tushuncha» so'zining kalkasidir. Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi.

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Lingvokulturologiyada konsept mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligidir. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

**LAKUNA** (lot. lacuna "bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy"; frans. lacune "bo'shliq, bo'sh joy") - biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan so'z va so'z birikmalari. Lakunalar qiyoslanayotgan tillarda o'xshashi bo'lmagan so'zlar bo'lib, ular, asosan, tillarning qiyosida seziladi.

**LINGVOKULTUROLOGIYA** (lot. lingua "til"; cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish"; yunon. "ilm, fan") - madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya etnolingvistika, sotsiolingvistika lingvomamlakatshunoslik va etnopsixolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Lingvokulturologiyaning *obyekti* - madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturologiyaning *predmeti* - madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.

**LINGVOMADANIY BIRLIK (lingvokulturema)** - lisoniy va madaniy ma'no birikuvidan tarkib topgan birlik. U o'zida lingvistik va ektralingvistik mazmunning dialektik birligini namoyon qiladi. Frazeologizmlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetiplar, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birliklar va h.k. lingvomadaniy birliklarga misol bo'la oladi.

**LINGVOMADANIY KONSEPT** - etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universaliyalarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini

o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

**LINGVOMADANIY PARADIGMA** - bu dunyoqarashning etnik, ijtimoiy, tarixiy, ilmiy va h.k. o'zaro aloqadorlikdagi kategoriyalarini aks ettiradigan til shakllarining majmuyi.

**LINGVOMAMLAKATSHUNOSLIK** - tilda o'z aksini topgan milliy realiyalarni o'rganadi. Milliy realiyalar muqobilsiz til birliklari bo'lib, ular mazkur madaniyatga xos bo'lgan hodisalarni ifodalaydi.

**LISONIY SHAXS** - obyektiv voqelikni o'z ko'rishiga muvofiq tasvirlash va ma'lum maqsadga erishish uchun muayyan tilning tizimli vositalaridan foydalangan holda ularni matnlarda aks ettirishi nuqtayi nazaridan tavsiflangan u yoki bu til sohibidir. Lisoniy shaxs - muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo'lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxsdir.

**MADANIY AN'ANA** - jamiyatda to'planadigan va qayta tiklanadigan ijtimoiy stereotiplashgan guruhlar tajribasini ifodalaydigan integral hodisa. Madaniy an'analar - ijtimoiy va madaniy merosning qimmatli unsurlari majmuyi.

**MADANIY FON** - ijtimoiy hayot va tarixiy hodisalarni ifodalaydigan nominativ birliklarning (so'zlar va frazeologizmlarning) tavsifi. Masalan, *Daqqiyunusdan qolgan / Odam atodan qolgan* "juda eski, qadimgi", *jamalak o'rtoq* "bolalikdagi dugona", *qizil* (Oktyabr inqilobi, sho'ro tuzumi, armiyasiga oidlikni bildiradigan so'z sifatida qo'llangan).

**MADANIY KONNOTATSIYA** - madaniyat kategoriyalaridagi denotativ yoki majoziy-motivlashgan ma'no jihatlarining talqini. Madaniy konnotatsiya til belgisidagi madaniyat darajasining ko'rsatkichini ifodalaydi.

**MADANIY MAKON** - madaniyat vakillari ongidagi madaniyatning mavjud bo'lish shakllari.

**MADANIY MEROS** - madaniyat uchun ahamiyatli bo'lgan madaniy boyliklarni, informatsiyalarning berilishi.

**MADANIY SEMA** - so'zga nisbatan kichikroq va universalroq bo'lgan semantik birliklar, semantik belgilar. Masalan, *palov, do'ppi, o'choq* so'zlaridagi quyidagi madaniy semalarni ajratish mumkin: *palov* - guruch, sabzi, go'sht, piyoz va yog' solib tayyorlanadigan o'zbek milliy taomi; *do'ppi* - avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan to'garak yoki to'rtburchak shakldagi o'zbeklarning milliy bosh kiyimi; *o'choq* - ichiga o't yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o'rnatiladigan qurilma.

**MADANIY SHOK** - madaniyatlararo to'qnashuvlarning ko'rinishlaridan biri bo'lib, u xorijiy tilni o'rganuvchining ajablanish, hayron bo'lish

yoki tili o'rganilayotgan madaniyat omillarining qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. Madaniy shok til o'rganuvchining noto'liq akkulturatsiyasi yoki u uchun yangi bo'lgan madaniyat me'yorlarini bilmasligi, tushunmasligidir.

**MADANIYAT** - muayyan xalqqa xos bo'lgan borliqdagi hayot va faoliyat, shuningdek, insonlar orasidagi o'zaro munosabat (urf-odatlar, rasm-rusumlar, muloqot xususiyatlari) va dunyoni ko'rish, tushunish va yaratish usullari. "Madaniyat" tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" termini kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. Madaniyat - me'yorlar, qadriyatlar, ideallar, namunalarning yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari tizimiga asoslangan subyektlar faoliyatining barcha shakllari majmuyi, u boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqada yashaydigan jamoaning meros qilib olgan xotirasi.

**MADANIYATLILIK** - ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida jamiyatning moddiy va ijtimoiy ne'matlar majmuyiga ega bo'lishi.

**MADANIYATSHUNOSLIK** (kulturologiya) - insonni ijtimoiy va madaniy hayotidagi uning tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa sohalarga ko'ra o'zini o'zi anglashini tadqiq etadi.

**MADANIYAT TILI** - mavjud bo'lgan yoki qaytadan hosil bo'lgan tasavvurlar, tushunchalar, obrazlar va boshqa ma'noviy konstruksiyalar tuzilishining belgilar va ularning munosabatlari tizimi vositasida shakllanishi.

**MENTALITET** (nem. mentalität < lot. mens, mentis - aql, idrok) - jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Mentalitet - xalq mentalligini, uning aqliy va ruhiy quvvatining ichki tuzilishini va differensiatsiyasini aks ettiradigan kategoriya. Mentalitetlar turli masshtablardagi lingvomadaniy jamoalarning psixolingvo-intellektlarini namoyon qiladi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

**MENTALLIK** - milliy xarakterning intellektual, ma'naviy va iroda xususiyatlarini o'zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va

shakllaridagi dunyoqarashning ko'rinishi. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi.

**METAFORA** (yun. metaphora - ko'chirish) - hosila ma'no yuzaga kelishi, u biron predmet nomini boshqa predmetga o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirishdir. Metafora - o'xshatishning qisqargan shakli. Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish, shu bilan birga, qisqargan qarama-qarshilik hamdir. Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, uning universalligi makonda va zamonda, til strukturasida hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi.

**MIFOLOGIYALASHTIRILGAN TIL BIRLIKLARI** - arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar.

**MIFOLOGEMA** - mifning bosh qahramonlari, muhim personajlari, obrazzlari, sujetlari, ko'rinishlari. Masalan: *hayot daraxti* mifologtmasi.

**MIFONIM** - afsonalar, epopeyalar va ertaklarda uchraydigan xayoliy-to'qima obyektlar va mavjudotlar nomi: *Semurg'*, *Ko'hi Kof* va h.k.

**MILLIY REALIYALAR** - muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo'lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo'lmagan yoki begona bo'lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo'lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so'zlar yoki so'z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri.

**MUQOBILSIZ LEKSIKA** - har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi.

**NUTQ ETIKETI** - insonlarning rasmiy va norasmiy vaziyatlardagi o'zaro muloqotida ularning ijtimoiy va psixologik roliga mos ravishda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy o'ziga xos nutqiy muomala qoidalari. Nutq etiketi - bu "ijtimoiy silliqlangan" hudud, muloqotning milliy-madaniy komponenti.

**OLAMNING LISONIY MANZARASI** - lisoniy shakllarda muhrlangan insonning olam haqidagi bilimlari majmuyi. Ya'ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir. Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o'z-o'ziga) bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi. Olamning lisoniy

manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi.

**OLAMNING MANZARASI** - inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasi, olamni manzaradek tushunish. Olam manzarasi makon, zamon, miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

**PARADIGMA** - o'z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo'lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g'oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos metodlar va usullar yig'indisi.

**PRETSEDENT NOMLAR** - mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarninig namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar: *Alpomish, Napoleon.*

**RAMZ** - tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi. Agarda oddiy belgi insonga ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramz insonning anglab bo'lmaydigan botiniy tomoniga murojaat qiladi. Ramzni o'z predmeti bilan aloqasini yo'qotgan ma'no sifatida tasavvur qilish mumkin. Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va h.k. ramz bo'lib xizmat qiladi. Ramzlar moddiy (buyum, predmet), tushunchaviy, so'zli, tasviriy va ovozli bo'lishi mumkin.

**SOTSIOLINGVISTIKA** - tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasi. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalarni o'rganadigan tilshunoslik sohasidir.

**STEREOTIP** - muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan

obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligi. Har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog'langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotiplar ijtimoiy stereotiplar, muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar va h.k. ga ajratiladi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. Etnomadaniy stereotiplar biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Masalan, o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotliligi, xitoyliklar sertakallufligi, yaponlar xushmuomalaligi, italyanlar qiziqqonligi, estonlar sustkashligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan.

**SUBMADANIYAT** - ikkinchi darajali, tobe madaniyat tizimi (masalan, yoshlar submadaniyati va h.k.).

**TABU** - madaniy, diniy, irim yoki noxushlik uyg'otishi nuqtayi nazaridan muayyan xatti-harakatlar yoki ayrim so'zlar qo'llanishini taqiqlash.

*Tabu* so'zi tonga tilidagi < *tapu* < *ta* - "belgilamoq", "ajratmoq" va *pu* - "butunlay" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "butunlay ajratilgan", "alohida belgilangan", ya'ni "man etmoq, taqiqlamoq" ma'nosini anglatadi. Tabular ikkiga: *etnografik va lingvistik* tabularga ajraladi. Masalan, supurgini, o'qlovni tik qo'ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan hatlamaslik, qaychini ochib qo'ymaslik, qalampirni qo'lga bermaslik kabilar irimga asoslangan etnografik tabular hisoblanadi. Lingvistik tabu lug'aviy birlikning yo xalq irimi nuqtayi nazaridan, yo atash noxushlik uyg'otishi nuqtayi nazaridan muomalada qo'llanishining taqiqlanishidir. Masalan, o'zbek tilida *chayon* so'zi tilga olinmaydi. Chunki uni atash chaqirish ma'nosini beradi, deb tushuniladi.

**TAMADDUN** ("sivilizatsiya" < lot. civilis - fuqaro) termini XVII asrda vujudga kelgan. Har bir madaniyatning o'limi bo'lgan o'z tamadduni mavjud. Tamaddun har qanday ijtimoiy-madaniy dunyo rivojlanishining oxirgi bosqichidir. Madaniyat milliy, tamaddun xalqarodir. Ingliz-amerika an'analarida har qanday alohida ijtimoiy-madaniy dunyo sivilizatsiyadir. Madaniyat yangini yaratadi, tamaddun faqat ma'lum narsani tarqatadi.

**TASVIRIY RAMZLAR** biron bir belgi, alomat, ko'rinish yoki tasvirni ifodalovchi timsollardir. Turli tasvirlar, oddiy va murakkab geometrik figuralar, osmon jismlari, ierogliflar, harflar, hatto tinish belgilari tasviriy ramzlarni ifodalashga xizmat qiladi.

**O'XSHATISHLAR** - har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni

milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir. O'xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tamsil etadi. O'xshatishlarning ikki turi: erkin o'xshatishlar va turg'un o'xshatishlar farqlanadi. Erkin o'xshatishlar muallifning o'ziga xos original o'xshatishlaridir. Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi. Ular tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi.

## "LINGVOKULTUROLOGIYA" FANIDAN TEST SAVOLLARI

**1. Ilmiy paradigma nima?**
A) inglizcha "obyekt"
B) yunoncha "misol, namuna"
C) ruscha "ideya"
D) yunoncha "metodika"

**2. "Ilmiy paradigma" termini kim tomonidan muomalaga kiritilgan?**
A) Boduen de Kurtene
B) F.de Sossyur
C) V.A. Maslova
D) T. Kun

**3. Tilshunoslikdagi ilk ilmiy paradigma qaysi?**
A) tizimli-strukturaviy
B) qiyosiy-tarixiy
C) antropotsentrik
D) egosentrik

**4. Tizimli-strukturaviy paradigmada asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?**
A) subyektga
B) obyektga
C) tizimga
D) nutqqa

**5. Antropotsentrik paradigmada asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?**
A) tilga
B) nutqqa
C) subyektga
D) obyektga

**6. XIX asrning paradigmasi qaysi belgi ostida kechgan?**
A) tarixiylik belgisi
B) strukturalizm belgisi
C) ijtimoiylik belgisi
D) inqilob belgisi

7. T.Kun paradigmalarning o'zgarishini nima deb ataydi?
A) yangilik
B) progress
C) regress
D) ilmiy inqilob

8. Lingvokulturologiyaning barcha paradigmalari nimaga asoslanadi?
A) tilga
B) faqatgina madaniyatga
C) jamiyatga
D) insonga

9. So'nggi ilmiy paradigmaga qanday kategoriya kiritildi?
A) til egasi
B) til tizimi
C) til birliklari
D) lisoniy hamjamiyat

10. XX asrda tilshunoslik tarixida boshlangan yangi bosqichga nima asos bo'ldi?
A) inson
B) til
C) til va inson
D) madaniyat va til

11. E. Hall madaniyatlarni qanday gurhlarga ajratadi?
A) uzoq va yaqin madaniyatlar
B) monoxron va polixron madaniyat
C) individualiz va kollektivizm
D) erkaklar va ayollar madaniyati

12. Lingvokulturologiya qaysi fanlarning kesishuvida maydonga keldi?
A) lingvistika va sotsiologiya
B) lingvistika va tarix
C) lingvistika va etnografiya
D) lingvistika va madaniyatshunoslik

13. Lingvokulturologiya qachon vujudga keldi?
A) XX asrning 80-yillarida
B) XX asrning 70-yillarida
C) XX asrning 60-yillarida
D) XX asrning 90-yillarida

14. "Lingvokulturologiya" termini qaysi tilning kalkasi sanaladi?
A) inglizcha *lingua; cultus*
B) lotincha *lingua; cultus*
C) nemischa *lingua; cultus*
D) yunoncha *lingua; cultus*

15. Lingvokulturologiyaning shakllanishiga qaysi maktab asos bo'lgan?
A) Sankt-Peterburg frazeologik maktabi
B) Toshkent frazeologik maktabi
C) Qozon frazeologik maktabi
D) Moskva frazeologik maktabi

16. Lingvokulturalogiya fani nimani o'rganadi?
A) madaniyatga xos bo'lgan so'z, birikmalarni
B) madaniyat va tilning bog'liqligini
C) xalq dunyoqarashining tilda aks etishini
D) madaniyat orqali tilni o'rganadi

17. "Madaniyat" so'zi qaysi so'zdan kelib chiqqan?
A) forscha madina (shahar) so'zidan
B) arabcha madina (shahar) so'zidan
C) hindcha madina (shahar) so'zidan
D) turkcha madina (shahar) so'zidan

18. Lingvokulturologiyada 8 ta sivilizatsiyani sanab o'tgan olim kim?
A) O. Shpengler
B) D.S.Lixachev
C) M.S.Kagan
D) S.Xantington

19. M.K. Mamardashvilining fikricha, madaniyat...
A) ...eskini yo'qotadi
B) ...yangini yaratadi

C) ...ma'lum narsani tarqatadi
D) ...moddiy narsalar majmuyi

**20. A.M. Xaydegger "borliq uyi" deganda nimani nazarda tutgan?**
A) lingvokulturalogiyani
B) tilni
C) madaniyatni
D) frazeologiyani

**21. V.A.Maslova Lingvokulturologiya rivojlanishini necha davrga ajratadi?**
A) 3 davrga
B) 2 davrga
C) 4 davrga
D) 5 davrga

**22. Lingvokulturologiya fani nimani o'rganadi?**
A) tilning madaniyatda aks etishini
B) tilning xususiyatlarini
C) madaniyatning tilda aks etishini
D) inson ichki kechinmalarini

**23. Lingvokulturologiyaning nechta yo'nalishi mavjud?**
A) 5 ta
B) 4 ta
C) 3 ta
D) 6 ta

**24. Diaxron lingvokulturologiya nimani o'rganadi?**
A) hozirgi kundagi lingvomadaniy o'zgarishlarni
B) xalq madaniyatinig holatini
C) xalqning muayyan davriga tegishli lingvomadaniy o'zgarishlarni
D) madaniyat va til munosabatini

**25. Qiyosiy lingvokulturologiya nimani tadqiq etadi?**
A) chog'ishtirma lingvomadaniyatni
B) lingvomadaniy o'zgarishlarni
C) o'zaro aloqadagi turli xalqlarning lingvomadaniy ko'rinishlarini
D) turli xalqlarning madaniyatini

**26. Linvomadaniy leksikografiya nima bilan shug'ullanadi?**

A) leksikologik lug'atlar tuzish bilan
B) elektron lug'atlar tuzish bilan
C) etimologik lug'atlar tuzish bilan
D) geografik lug'atlar tuzish bilan

**27. Qaysi yo'nalishda madaniyatni urf-odatlar, xatti-harakatning turlari, qadri va ideallar sifatida ko'rasiz?**

A) ma'naviy yo'nalish
B) muloqot yo'nalishi
C) tasvirlash yo'nalishi
D) tipologik yo'nalish

**28. XX asr oxirlariga kelib nechta lingvokulturologiya maktablari paydo bo'ldi va ular qaysilar?**

A) 2 ta: Ye.S. Stepanov va V.V. Vorobev Lingvokulturologiya maktablari
B) 3 ta: Ye.S. Stepanov, V.N Teliya, X.G. Gadamer Lingvokulturologiya maktablari
C) 4 ta: V.V. Vorobev, V.N Teliya, N.D. Arutyunov, Y.S. Stepanov Lingvokulturologiya maktablari
D) 2 ta: X.G. Gadamer, P.A. Florensk Lingvokulturologiya maktablari

**29. V.N.Teliya maktabining maqsadi nimadan iborat?**

A) Rossiyada va xorijda frazeologizmlarni tahlil qilish
B) matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish
C) lingvomadaniy konseplarni tahlil qilish
D) muayyan nutqiy janrlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish

**30. Lingvokulturologik tahlil jarayonlarida qaysi metodlar tanlab qo'llaniladi?**

A) lingvistik va umumfan
B) kulturologiya va tilshunoslik
C) falsafiy va biologik
D) madaniyatshunoslik va falsafiy

**31. Xususiy metodologiya deganda nimani tushunasiz?**

A) konkret fanlarning metodlari
B) umumiy fanlarning metodlari

C) falsafiy metodlar
D) tajriba metodlari

**32. Etnografik metodlar qaysilar?**
A) sinxron
B) tasvirlash, tasniflash
C) statatistik
D) transformatsion

**33. Etnopsixolingvistik metodlar qaysilar?**
A) diaxron
B) tasviriy
C) chog'ishtirish
D) assotsiativ eksperiment

**34. Lingvokulturologiyaning obyekti nima?**
A) til va nutqning o'zaro munosabati
B) madaniyat va tilning o'zaro aloqasi
C) til va jamiyatning o'zaro aloqasi
D) til va tafakkurning aloqasi

**35. Metaforalar nimani aks ettiradi?**
A) tarixiy qadriyatlarni
B) fundamental madaniy qadriyatlarni
C) urf-odatlar va an'analarni
D) ma'no o'zgarishini

**36. O'xshatish nimaga xizmat qiladi?**
A) nutqning to'liq va mazmundorligini ta'minlashga
B) matnning butunligi va emotivligini ta'minlashga
C) nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlashga
D) matnning ifoda va mazmun motanosibligini ta'minlashga

**37. O'xshatishlarning qanday turlari mavjud?**
A) badiiy o'xshatishlar va obrazli o'xshatishlar
B) asliy o'xshatishlar va tarjima o'xshatishlari
C) muallif o'xshatishlari va erkin o'xshatishlar
D) individual-muallif o'xshatishlari va umumxalq o'xshatishlari

**38. Tilning paremiologik fondi nima?**
A) frazeologizmlar
B) paronim so'zlar
C) maqol va matallar
D) tasviriy vositalar

**39. Lakuna nima?**
A) matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy
B) matndagi qora dog'lar
C) boshqa tilga qulay tarjima qilinadigan so'zlar
D) matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy

**40. Subyektiv lakunalar nimani aks ettiradi?**
A) turli lingvomadaniy jamoa vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini
B) shaxsiy munosabatlarni
C) madaniyatlararo muloqotni
D) milliy mentalitetni

**41. Faoliyat-kommunikativ lakunalar nimani aks ettiradi?**
A) muomala madaniyatini
B) turli faoliyatlarning o'zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni
C) turli lingvomadaniy jamoa vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini
D) shaxsiy munosabatlarni

**42. Etnografik lakunalar nimaga xizmat qiladi?**
A) milliy-madaniy xususiyatlarni tavsiflashga xizmat qiladi
B) matnlarning xususiyatlarini tavsiflashga xizmat qiladi
C) turli-tuman madaniyatlarning o'ziga xosligini ko'rsatib, maishiy hayot predmetlarini tavsiflashga xizmat qiladi
D) xabarni ifodalashga xizmat qiladi

**43. Lakunalar ko'proq qaysi sohada o'rganiladi?**
A) tarixda
B) sotsiolingvistikada
C) kognitiv tilshunoslikda
D) etnopsixolingvistikada

**44. Madaniy makondagi lakunalar nimani ifodalaydi?**

A) turli faoliyatlarning o'zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni

B) muayyan xalqning madaniy qadriyatlari, milliy-mental farqlash tarzini namoyon etuvchi birlik

C) madaniyat darajasini

D) u yoki bu linvomadaniyat jamoasi vakillarining madaniy makon va ichki ko'rinishni baholashdagi nomutanosiblikni

**45. Matniy lakunalar nimani ifodalaydi?**

A) matnlarning xususiyatlarini

B) matndagi qora dog'larni

C) matnning yaratilishi va idrok etilishini

D) diskursni

**46. Lingvokulturologiyada matn qanday tushuniladi?**

A) diskurs

B) yozma qayd

C) muayyan xalqning madaniy qadriyatlari, milliy-mental farqlash tarzini namoyon etuvchi birlik

D) xabar

**47. *Sakura, geysha, ikebana, sake* qaysi madaniyat belgilarini assotsiatsiyalaydi?**

A) turk madaniyati

B) yapon madaniyati

C) koreys madaniyati

D) xitoy madaniyati

**48. *Spiker, kriket, shilling* qaysi madaniyat belgilarini assotsiatsiyalaydi?**

A) ingliz madaniyati

B) fransuz madaniyati

C) nemis madaniyati

D) ispan madaniyati

**49. *Yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho'l* qaysi madaniyat belgilarini assotsiatsiyalaydi?**

A) Uzoq Sharq madaniyati

B) G'arb madaniyati

C) Yaqin Sharq madaniyati
D) O'rta Osiyo madaniyati

**50. *Palov, patir, belbog'* qaysi madaniyat belgilarini assotsiatsiyalaydi?**
A) tojik madaniyati
B) turkman madaniyati
C) o'zbek madaniyati
D) qirg'iz madaniyati

**51. Muqobilsiz leksika nima?**
A) turg'un so'zlar
B) boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar
C) boshqa tilga qulay tarjima qilinadigan so'zlar
D) o'zlashmalar

**52. "Tulkiday ayyor", "хитрый как лиса" (ruscha), " as false as fox" (inglizcha) ifodalar qanday tasviriy vosita?**
A) o'xshatish
B) metafora
C) metonimiya
D) frazeologizm

**53. "Gapi uzilib qoldi"; "Gapi cho'zilib ketdi" jumlalaridagi fe'llar qanday belgini namoyon qilgan?**
A) gapning ko'pligi
B) gapning qisqaligi
C) gap ip, arqonga o'xshatilgan
D) gapning tushunarsizligi

**54. Qanday so'zlarga ekzotik leksika deyiladi?**
A) muqobilsiz leksika
B) muqobilsiz leksikaning boshqa tilga o'zlashishi
C) lakunalar
D) realiyalar

**55. Ekzotizmlar va etnografizmlar nimaning ramzi sanaladi?**
A) urf-odatlarning ramzi
B) diniy qarashlarning ramzi
C) mentalitetning ramzi

D) o'zga madaniyatning ramzi

**56. "Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar" maqolida qanday realiya ishtirok etgan?**

A) bosh
B) omon
C) do'ppi
D) topiladi

**57. Tilning frazeologik fondi nima?**

A) madaniyat va mentalitetning qimmatli ma'lumotlar manbayi
B) maqol va matallar majmuyi
C) afsona va rivoyatlar manbayi
D) matnlar fondi

**58. Frazeologizm nima?**

A) erkin birikma
B) so'z birikmasi
C) ko'chma ma'noli gap
D) turg'un birikma

**59. "Bir qarich" frazeologik birligi qaysi ma'noda qo'llaniladi?**

A) "juda yosh, deyarli go'dak"
B) "qittak, ozgina"
C) "juda qisqa, juda oz"
D) "semiz"

**60. "Ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq" frazeologizmi qaysi ma'noda qo'llaniladi?**

A) "bo'yi qisqa"
B) "imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq"
C) "ehtiyot bo'lmoq"
D) "rejali ish qilmoq"

**61. Ingliz tilidagi *Hope is poor man's bread* frazeologizmi o'zbek tilidagi qaysi iboraga muqobil bo'la oladi?**

A) umidi puchga chiqmoq
B) xafsalasi pir bo'lmoq
C) tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq
D) noumid shayton

62. Metafora yunonchada qanday ma'noni ifodalagan?
A) o'rin almashtirish
B) ko'chirish
C) qayta nomlash
D) ma'no torayishi

63. J.Lakoff va M.Jonson tadqiqotida kognitiv metaforalar sifatida tahlil etilgan "pul, cheklangan zaxira, qimmatbaho buyum" nima?
A) boylik
B) makon
C) vaqt
D) sog'lik

64. "Ramz" qanday tushuncha?
A) o'ziga xoslik
B) obraz
C) belgi
D) ifoda

65. Etnomadaniy stereotip nima?
A) biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlar
B) biron bir xalqqa xos bo'lmagan xususiyatlar
C) bir qancha madaniyatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar
D) urf-odat va an'analarning o'xshashligi

66. Arxetip nima?
A) individlar ongida paydo bo'ladigan va madaniyatda tarqaladigan obraz
B) individlar ongidagi obraz
C) udumlar va rivoyatlar
D) mifning bosh qahramoni

67. Mifologema nima?
A) mifning bosh qahramoni
B) arxetip
C) turg'un obraz
D) rivoyat

68. Lingvokulturologiya qaysi fanlar bilan bevosita aloqador?
A) arxeologiya, tarix, psixolingvistika, manbashunoslik
B) falsafa, mantiq, matnshunoslik, tilshunoslik
C) ekologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik
D) etnolingvistika, etnopsixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomamlakatshunoslik

69. Norma va qoidalar, inson hayotini tartiblovchi, hayot dasturini dasturlash qaysi madaniyat yo'nalishida o'z aksini topgan?
A) muloqotli
B) ma'naviy
C) qadriyatli
D) normativ

70. "Madaniyat dialogi" ifodasi kimga tegishli?
A) V.Bibler
B) V.Vorobev
C) V.Gumboldt
D) Y. Stepanov

71. Insonning jamiyatga, tarixga, san'atga va h.k.ga nisbatan qarashlari qaysi fanda o'rganiladi?
A) tilshunoslikda
B) etnolingvistikada
C) madaniyatshunoslikda
D) sotsiolingvistikada

72. Madaniyatning matnda aks etishi qaysi yo'nalishiga xos?
A) meta-madaniyatga
B) germeneftikaga
C) funksionistika
D) sub-madaniyatga

73. Meta-madaniyat deganda nima tushuniladi?
A) alohida so'z va guruhga ega madaniyat
B) hammaga tanish madaniyat
C) qayta qurib bo'lmaydigan madaniyat
D) bir madaniyatni tushuntirishda ikkinchisidan foydalanish, millatlarning o'zaro muloqotga kirishishi

74. Madaniyatning tilga ta'siri nimada o'z aksini topadi?
A) frazeologizmlarda, folklorda, matnlarda
B) ijtimoiy hayotda, madaniyatda, muloqotda
C) ma'naviy hayotda, madaniyatlararo muloqotda
D) til birliklarida, nutq birliklarida

75. "Mening tilim chegarasi millatim dunyoqarashinig chegarasini ifodalaydi" jumlasini qaysi olim 200 yil avval aytib o'tgan?
A) G.Gak
B) V.Gumboldt
C) A.M.Xaydegger
D) V.N.Komissarov

76. Alohida guruh tilining o'ziga xosligini o'rganadigan fanni aniqlang.
A) etnolingvistika
B) lingvokulturalogiya
C) lingvomamlakatshunoslik
D) sotsiolingvistika

77. Insonga dunyo haqidagi eng ko'p ma'lumotlar qaysi kanal orqali yetib keladi?
A) simvol kanali orqali
B) lingvistika kanali orqali
C) adabiyot kanali orqali
D) xabar kanali orqali

78. "Madaniyat" so'zining ma'nosi nima?
A) tarbiya, o'sish, kult
B) kult, etiket, estetika
C) tarbiya, hurmat, etika
D) kult, estetika, kamtarlik

79. "Sivilizatsiya" so'zi qaysi tildan olingan?
A) italyancha "civilis - fuqaro" so'zidan
B) yunoncha "civilis - fuqaro" so'zidan
C) lotincha "civilis - fuqaro" so'zidan
D) fransuzcha "civilis - fuqaro" so'zidan

**80. Qaysi yo'nalishda madaniyatga ma'lumotlarni yaratish, saqlash, uzatib berish vazifalarini bajaradigan tizim sifatida qaraladi?**

A) tasvirlovchi
B) germenevtika
C) tipologik
D) informatsion

**81. S. Xantington nechta yirik sivilizatsiyani ajratadi?**

A) 8 ta: lotin-amerika, pravoslav-slavyan, hind, islom, yapon, konfutsiy, afrika g'arb
B) 6: islom, yapon, g'arb, hind, koreys, lotin-amerika
C) 3: g'arb, yapon, slavyan
D) 5: konfutsiy, hind, lotin-amerika, islom, afrika

**82. Til - bu... ?**

A) madaniyatning rivojlanishi
B) tarbiya, rivojlanish
C) jamiyatdagi o'zgarishlar
D) xalqning taraqqiyoti, ijodi natijasi

**83. Madaniyat bu...?**

A) yangiliklar tushunchasi va uning inson tushunchasidagi ishlovi
B) ko'p qirralik jamiyat
C) tarbiya, rivojlanish, yer yuzidagi yaratilishi
D) bu mustaqil yo'nalishdagi termin

**84. Madaniyat - "ramziy borliq" ta'rifi kimga tegishli?**

A) V.Gumboldt
B) G.Gak
C) Y.M.Lotman
D) A.A.Leontev

**85. Germenevtik nuqtayi nazarda madaniyatga qanday munosabat bildiriladi?**

A) madaniyatga faoliyat turi deb qaraladi
B) madaniyatga inson ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida qaraladi
C) madaniyatga informatika sifatida qaraladi
D) madaniyatga matnlarga qaralgandek munosabatda bo'linadi

86. "Insonnig faoliyati borliqning yangi - to'rtinchi shakli bo'lgan madaniyatni vujudga keltirdi" jumlasi qaysi muallifga tegishli?
A) M.S.Kagan
B) D.G. Malseva
C) E.Sepir
D) V.Bibler

87. Madaniy sema nima?
A) ma'no
B) so'zga nisbatan kichikroq va universalroq bo'lgan semantik birliklar
C) ko'p ma'nolik
D) qo'shimcha ma'no

88. Madaniy an'analar nima?
A) universal semantik birliklar
B) til va madaniyat
C) ijtimoiy va madaniy merosning qimmatli elementlari majmuyi
D) kommunikatsiya

89. Yapon madaniyatida qaldirg'och qanday ma'noni anglatadi?
A) umid
B) omad
C) jur'at
D) vafosizlik

90. "Mentalitet" so'zi qaysi tildan olingan?
A) yunoncha "mens, mentis - aql, idrok"
B) lotincha "mens, mentis - aql, idrok"
C) nemischa "mens, mentis - aql, idrok"
D) ispanha "mens, mentis - aql, idrok"

91. Submadaniyat nima?
A) o'zlashma madaniyat
B) ommaviy madaniyat
C) ikkinchi darajali, tobe madaniyat
D) mayda millatlarning madaniyati

92. Rus tilshunosligida konsept tushunchasi qachon va kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi?
A) XX asrning birinchi choragida S.Askoldov tomonidan
B) XX asrning ikkinchi yarmida Ye. S.Stepanov tomonidan
C) XX asrning oxirlarida V.V. Vorobev tomonidan
D) XXI asrning boshida N. Ye. Shvedova tomonidan

93. Konsept qaysi tildan olingan kalka?
A) lotincha conceptus - «tushuncha»
B) inglizcha conceptus - «tushuncha»
C) fransuzcha conceptus - «tushuncha»
D) nemischa conceptus - «tushuncha»

94. Til qanday hodisa?
A) tabiat hodisasi
B) madaniyat va tabiat hodisasi
C) madaniyat hodisasi
D) ishlab chiqarish jarayoni

95. I. Gerderning "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asarida inson faoliyatidagi qaysi asosiy hodisalar qayd qilingan?
A) til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh
B) til va madaniyat
C) til va jamiyat
D) til va tabiat

96. «Tilning ichki shakli - "xalq ruhi" va uning madaniyatining ifodasi» degan fikr kimga tegishli?
A) F. de Sossyur
B) Sh.Balli
C) R.Yakobson
D) V.Gumboldt

97. "Til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p shug'ullangan tilshunos kim?
A) A.Potebnya
B) J.Vandriz
C) E.Sepir
D) Boduen de Kurtene

98. "Kumulyativ" so'zining ma'nosi nima?
A) to'plash, jamg'arish"
B) bo'lish, ajratish
C) tasniflash, turlash
D) aniqlash, belgilash

99. Til va madaniyat qaysi jarayonlarda o'zaro aloqada bo'ladi?
A) assimilyatsiya va dissimilyatsiya
B) kommunikativ, ontogenez, filogenez
C) migratsiya va emigratsiya
D) tillar va madaniyatlar aralashuvi

100. Disfemizm qanday hodisa?
A) ifodaga ijobiy yondashuv
B) ifodaga salbiy yondashuv
C) subyektiv munosabat ifodalash
D) obyektiv munosabat ifodalash

101. Evfemizm bu...?
A) qo'pol beadab so'z
B) ko'chma ma'noli so'z
C) ibora
D) yaxshi alomatli so'z

102. Olamning lisoniy manzarasi nima?
A) lisoniy shakllarda muhrlangan bilimlar majmuyi
B) lisoniy shakllardagi fikrlar majmuyi
C) lisoniy tasvir
D) matnlarning yaratilishi

103. M. Xaydeggerning fikricha, olam manzarasi nima?
A) olamning ko'rinishi
B) olamni manzaradek tushunish
C) dunyo tasviri
D) insonning umumiy bilimlari

104. Gender nima?
A) biologik jins
B) erkak va ayol
C) sotsio-madaniy kategoriya

D) yosh differensiatsiyasi

**105. Lingvokulturema nima?**
A) lingvomadaniy birlik
B) til birligi
C) madaniy birlik
D) madaniy fon

**106. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda qaysi til birligi muhim rol o'ynaydi?**
A) leksemalar
B) fonemalar
C) morfemalar
D) frazeologizmlar

**107. "Lisoniy geshtaltlar" nazariyasi kim tomonidan ilgari surilgan?**
A) A.A.Leontev
B) J.Lakoff
C) Sh.Safarov
D) M.S.Kagan

**108. Geshtalt nima?**
A) obraz, tuzilma, yaxlit shakl
B) ko'chma ma'no
C) ifoda
D) shakl va mazmun birligi

**109. Yaponiyada oq tulki nimani -anglatadi?**
A) uzoq umr
B) omad va muvaffaqiyat
C) to'kin-sochinlik
D) baxt-saodat

**110. *Musichaday* o'shatishi qaysi so'z bilan birikadi?**
A) qo'rqoq
B) ayyor
C) beozor
D) aqlsiz

111. *As false as fox* o'shatishi qanday tarjima qilinadi?
A) tulkiday ayyor
B) ayiqday besonaqay
C) tulkiday yolg'onchi
D) qo'yday yuvosh

112. Ayiq qaysi xalqning totemi hisoblanadi?
A) xitoy
B) koreys
C) hind
D) yapon

113. Yo'lbars qaysi xalq madaniyatida harbiy jasorat ramzi sanaladi?
A) turk madaniyatida
B) arab madaniyatida
C) koreys madaniyatida
D) xitoy madaniyatida

114. Turna qaysi xalqlarning an'analarida boylik va uzoq umrni anglatadi?
A) turkiy xalqlar
B) eroniy xalqlar
C) koreys va xitoy xalqlari
D) fransuz va nemis xalqlari

115. Afrika madaniyatida oq rang nimani ifodalaydi?
A) yaxshilikni
B) neytrallikni
C) yovuzlikni
D) yomonlikni

116. Nemis etnomadaniy stereotipi qanday xususiyat bilan tavsiflanadi?
A) mas'uliyatsizligi bilan
B) intizomliligi bilan
C) betayinligi bilan
D) ochiq qo'lliligi bilan

**117. Yapon etnomadaniy stereotipi qanday xususiyat bilan tavsiflanadi?**

A) mehribonligi bilan
B) shavqatliligi bilan
C) qo'polligi bilan
D) sermulozamatliligi bilan

**118. Qozoq etnomadaniy stereotipi qanday xususiyat bilan tavsiflanadi?**

A) kam gapliligi bilan
B) mehnatsevarligi bilan
C) qaysarligi bilan
D) tirishqoqligi bilan

**119. "Tabu" so'zi qaysi tildan kelib chiqqan?**

A) arab tilidan
B) ingliz tilidan
C) xitoy tilidan
D) tonga tilidan

**120. Qadimgi turkiy tilda "qatun" so'zi qaysi ma'noda qo'llanilgan?**

A) ayol
B) malika
C) cho'ri
D) uy bekasi

## KALIT

| 1-B | 25-C | 49-D | 73-D | 97-C |
|---|---|---|---|---|
| 2-D | 26-D | 50-C | 74-A | 98-A |
| 3-B | 27-C | 51-B | 75-B | 99-B |
| 4-B | 28-C | 52-A | 76-D | 100-B |
| 5-C | 29-A | 53-C | 77-B | 101-D |
| 6-A | 30-B | 54-B | 78-A | 102-A |
| 7-D | 31-A | 55-D | 79-C | 103-B |
| 8-A | 32-B | 56-C | 80-D | 104-C |
| 9-A | 33-D | 57-A | 81-A | 105-A |
| 10-A | 34-B | 58-D | 82-D | 106-D |
| 11-B | 35-B | 59-A | 83-C | 107-B |
| 12-D | 36-C | 60-B | 84-C | 108-A |
| 13-D | 37-D | 61-D | 85-D | 109-C |
| 14-B | 38-C | 62-B | 86-A | 110-C |
| 15-D | 39-A | 63-C | 87-B | 111-A |
| 16-C | 40-A | 64-C | 88-C | 112-B |
| 17-B | 41-B | 65-B | 89-D | 113-D |
| 18-D | 42-C | 66-A | 90-B | 114-A |
| 19-B | 43-D | 67-A | 91-C | 115-B |
| 20-B | 44-D | 68-D | 92-A | 116-B |
| 21-A | 45-A | 69-D | 93-A | 117-D |
| 22-C | 46-C | 70-A | 94-B | 118-C |
| 23-A | 47-B | 71-C | 95-A | 119-D |
| 24-C | 48-A | 72-B | 96-B | 120-B |

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Aksoy Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. 2. Deyimler Sözlüğü. -İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1995. -1205 s.

2. Baldinger K. Die Senasiologie. -Berlin: Akademie Verlag, 1957. -178 s.

3. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati // "Hurriyat" gazetasi, 2002-yil, 17-aprel.

4. Canary D. J. & Hause K. S. Is there any reason to research sex difference in communication?// Communication Quarterly. Vol. 41. 1993. - P. 129-144.

5. Chomsky Noam. Aspects of the Theory of Syntax. -Cambridge, MA: MIT Press, 1969. -261 p.

6. Choi Jungeun. The Image of a Tiger As The National Symbol of Korean Culture // https://doi.org/10.24158/fik.2017.3.18.

7. Chunli Yang. Cultural Differences on Chinese and English Idioms of Diet and the Translation // English Language Teaching. Vol. 3, №1. March, 2010. -P. 148-154.

8. Clarke R. B. & Campbell D. T. A demonstration of bias in estimates of Negro ability // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol 51. 1955. -P. 585-588.

9. Çoruhlu Yaşar. Türk Mitolojisinin ABC'si. -İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 1999.

10. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Universitet, 2014. -138 b.

11. Ekrem Sarıkçıoğlu. Din Fenomenolojisi (Dinlerin Mahiyeti ve Tezahür Şekilleri). Gözden Geçirilmiş ve Genişletilmiş 2. Baskı. -Isparta: Fakülte Kitabevi, 2011.

12. Geertz C. The interpretation of culture. -New York: Basic Books, 1973. -473 p.

13. Hall E.T. The hidden dimension. Garden City, NY: Doubleday, 1966.

14. Hasegawa T., & Gudykunst W. B. Silence in Japan and the United States // Journal of Cross-Cultural Psychology. Vol. 29, 1998. -P. 668-684.

15. Hirsch E. D., Joseph F. Kett, Trefil J.. The New Dictionary of Cultural Literacy. -Boston, NY.: Houghton Mifflin Company, 2002.

16. Hofstede G. & Hofstede G. J. Cultures and organizations: Software of the mind (2nd ed.). -Boston: McGraw-Hill, 2004.

17. Jacobson Esther. The Deer Goddess of Ancient Siberia. -Leiden: Brill, 1993.

18. Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. -528 p.

19. Katz D. & Braly K. W. Racial stereotypes of one-hundred college students // Journal of Abnormal and Social Psychology. Vol. 28. 1933. -P. 280-290.

20. Kindaichi H. The Japanese Language. -Tokyo, 1978. -256 p.

21. Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. - New York, 1950.

22. Kuçkartayev İ. Özbeklerde Hitap Sözleri ve Hitap Kültürü // Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. -Ankara, 2000.

23. Kuhn Thomas S. The Structure of Scientific Revolutions. 50th anniversary. -Chicago: University of Chicago Press, 2012. -264 p.

24. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live. -Chicago: University of Chicago press, 2008. -256 p.

25. Lakoff Robin. Language and The Women's Place. -New York: Oxford University Press, 2004. -328 p.

26. La Pierre R. T. Social forces type-rationalizations of group antipathy // Social Forces. Vol. 15. 1936. -P. 232-237.

27. Lippman Walter. Public Opinion. -New York: Greenbook, 2010. - 218 p.

28. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent.: Sharq, 2010. -208 b.

29. Madon S., Guyll M. Ethnic and National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University. http://public.psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf

30. Morsbach H. The importance of silence and stillness in Japanese nonverbal communication // A cross cultural approach. In F. Poyatos (Ed.). Cross cultural perspectives in nonverbal communication -Lewiston, NY: Hogrefe, 1988. -P. 201-215.

31. Ögel Bahaeddin. Türk Mitolojisi. C. I. -Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1998.

32. Pennebaker J. W., Mehl M.R., & Niederhoffer K.G. Psychological aspects of natural language use // Our words, our selves. Annual Review of Psychology. -№. 54. 2003. -P. 547-577.

33. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. -Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2011. -196 b.

34. Radlov W. Das Kutadku Bilik des Yusuf Chass Hadschib aus Balasagun. -St-Petersburg, 1891-1910.

35. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. - London: Routledge, 1989. -470 p.

36. Roux Jean-Paul. Türklerin ve Moğolların Eski Dini. -İstanbul: İşaret Yayınları, 1998. -303 s.

37. Sapir E. Language: An introduction to the study of speech. -New York: Harcourt, Brace and company, 1921. -258 p.

38. Seyfeli Canan. Türk Mitolojisinde Hayvan Motifleri // Yol Bilim Kültür Araştırma. Sayi 23, Mayıs-Haziran 2003.

39. Strauss W., & Howe N. Millennials and the pop culture. Great Falls, VA: Life Course Associates, 2006.

40. Tannen Deborah. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. -New York: William Morrow Paperbacks, 2007. -342 p.

41. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. -Harmondsworth: Penguin Books, 1995. -P. 62-83.

42. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.IX. - Seoul, 2004. -Б. 48-60.

43. Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Universitet, 2014. -84 b.

44. Usmanova Sh. Sharq mamlakatlari sotsiolingvistikasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent: TDShI, 2016. -164 b.

45. Usmanova Sh. Lakuna va uni tarjimada bartaraf etish yo'llari // Sharq tarjimashunoslgi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. -Toshkent: ToshDSHI, 2016. 37-43.

46. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. - Toshkent: TDShI, 2017. -256 b.

47. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma.-Toshkent: TDShI, 2017. -160 b.

48. Usmanova Sh. Symbols of Animal in Oriental Culture // Current Status and Tasks of East-West Culture Education. 5th International Conference of Korea Association of International Culture Exchange. Inha University - National Research Foundation of Korea, 2017. -P. 39-50.

49. Usmanova Sh. Turkiy xalqlar va xitoy madaniyatida hayvon ramzlari // Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations. International scientific conference. November 18, 2017. -P. 79-85.

50. Usmanova Sh., Mirsharipova B. Frazeologizmlarni tarjimada berish usullari // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI.-Тошкент: Akademnashr, 2017. -Б. 43-46.

51. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de 1'anglais. -Paris, 1958. -331 p.

52. Wood J. T. Gendered lives: Communication, gender and culture (11 th ed). -Boston: Cengage Learning, 2014. -341 p.

53. G'afurov I., O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. -Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. -216 b.

54. Абдуваҳобова М. Аёллар вербал нутқининг лексик преференциялари (инглиз, итальян ва ўзбек фольклор матнлари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 4. -Тошкент, 2013. -Б. 97-100.

55. Акиншина А. А. Стереотипы национальной культуры в межкультурном общении. -Н.Новгород: НГГУ, 2009.

56. Алефиренко Н. Спорные проблемы семантики. -М.: Гнозис, 2005. -326 с.

57. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. -М.: Флинта, Наука, 2010. -224 с.

58. Алишер Навоий. Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. -Тошкент: "Sano-standart", 2016. -520 б.

59. Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. -Новосибирск: Наука; Сиб. отд-ние, 1989. -197 с.

60. Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка // Избранные труды. Т. 2. -М.: Языки русской культуры, 1995. -767 с.

61. Аристотель. Риторика / Античные риторики. -М.: МГУ, 1978. -352 с.

62. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. -М.: Флинта, 2012. -376 с.

63. Арутюнова Н.Д. Метафора дискурс / Теория метафоры. -М.: Прогресс, 1990. -С. 5-32.

64. Аскольдов, С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словес-ности к структуре текста. Антология. - М. : Academia, 1997. - С. 267-280.

65. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: Советская энциклопедия, 1966. -608 с.

66. Байбурин А. К. Семиотические аспекты функционирования вещей // Этнографическое изучение знаковых средств культуры. - Л.: Наука, 1989. -С. 63-88.

67. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. - М.: Международные отношения, 1975. -240 с.

68. Бахтин Н. Б, Головко Е. В. Социолингвистика и социология языка: Учебное пособие. -СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2004. -336 с.

69. Бенвенист Э. Общая лингвистика. -М.: Прогресс, 1974. -448 с.

70. Богин Г. И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов. Автореф. дис. … д-ра филол. Наук. -Л., 1984. - 38 с.

71. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. -М.: Русский язык, 2009. -141 с.

72. Бубер М. Проблема человека. Перевод с немецкого. -Киев: "Ника-Центр", " Вист-С", 1998. -132 с.

73. Булаховский Л.А. Введение в языковедение. -М.: УЧПЕДГИЗ, 1954. -177 с.

74. Буслаев Ф. И. Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные. -М.: Русский язык, 1954. -176 с.

75. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О.А.Радченко. -М.: Едиториал УРСС, 2004. - 232 с.

76. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. -М.: Русский язык, 1980. -320 с.

77. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. -М.: Русский язык, 1990. -246 с.

78. Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. -М.: Учпедгиз, 1959. -492 с.

79. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М.: Высш. шк., 1986. - 416 с.

80. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. - 2001. - №1. - С. 64-72.

81. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. Монография. - М.: Изд-во РУДН, 2008. -240 с.

82. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. -Л.: "Просвещение", 1976. -286 с.

83. Гердер И. Г. Идеи и философия истории человечества. -М.: Наука, 1977. -705 с.

84. Гумбольдт В. фон Избранные труды по языкознанию. -М.: Прогресс, 1984. -400 с.

85. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литаратуре и в научном языке // Вопросы филологии. -Москва, 2001. - № 1. -С. 35-47.

86. Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // http:www.Nbuv.Cov.ua/portal/Sog-Gum/ls 2008-17/dorofeev/pdf.

87. Дьяконова Е.М. Текст и интерпретация текста. Психология и социология чтения в Японии // Япония: культура и общество в эпоху НТР. -М., 1985.

88. Жўраев М., Саттиева Д. Ўзбек фольклорида ҳаёт дарахти. - Тошкент: Фан, 2010. -64 б.

89. Зиямуҳамедов Ж. Ўрта аср Хитой новеллалари. -Тошкент: ТошДШИ, 2010.

90. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. Уч. пособие. - СПб.: Филол. фак. С.-Петерб. гос. ун-та, 2006. -192 с.

91. Иванцова Е. В. О термине "языковая личность": истоки, проблемы, перспективы использования // Вестник томского государственного университета, 2010. - № 4 (12). - С. 24-32.

92. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ маданияти мулоқот шакллари: Филол. фанлари ном... дисс. автореферати. -Самарканд, 1993.

93. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. -М.: Наука, 1987. -264 с.

94. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. -176 б.

95. Кебайтули Гулибануму. Хитой ва ўзбек лингвомаданиятларида ҳайвон рамзларининг талқини // Шарқ машъали. No. 3-4. -Тошкент: 2015. -Б. 56-60.

96. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. - М.: Гнозис, 2002. -284 с.

97. Комиссаров В.И. Теория перевода. -М.: Высш. шк., 1990. -253 с.

98. Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. -М.: Фаир-пресс, 2000. -448 с.

99. Лакофф Дж. Лингвистические гештальты / Дж. Лакофф // Новое в зарубеж. лингвистике. Вып. 10. Лингвистическая семантика. - М.: Прогресс, 1981. -С. 350-368.

100. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. -М., 1990. -С. 387-416.

101. Латышев И. А. Семейная жизнь японцев. -М.: Наука, 1985. - 287 с.

102. Латышев Л.К. Технология перевода: Учебное пособие по подготовке переводчиков (с немецкого языка). -М.: НВИ-Тезаурус, 2000. -280 с.

103. Леонтьев А.Н. Человек и культура. -М.: МГУ, 1961. -115 с.

104. Леонтьев А. А. Психология общения. -М.: Смысл, 1999. -365 с.

105. Лихачёв Д.С. Культура как целостная динамическая система // Вестник РАН. 1994. № 8. -С. 721-725.

106. Лотман Ю. М. О двух моделях коммуникации в системе культуры // Semeiotike. - № 6. -Тарту, М.: ОГИ, 1971. -536 с.

107. Лотман Ю.М. Беседы о русской культуре: Быт и традиции русского дворянства. -СПб.: "Искусство-СПБ", 1994. -670 с.

108. Лотман Ю.М. Семиосфера. -СПб.: "Искусство-СПБ", 2000. -704

109. Малявин В. В. Китайская цивилизация. -М.: Изд-во «Астрель», 2000.

110. Марковина И.Ю. Лакуны как инструмент описания специфики локальных культур // Проблемы организации речевого общения. -М., 1981. -С. 161-181.

111. Маслова В.А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. -М., 1999. -С. 123-134.

112. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. -М.: Изд. Центр «Академия», 2001. -208 с.

113. Маслоу А. Психология бытия. -М.: Ваклер, 1997. -304 с.

114. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I. -Тошкент: ЎзФА, 1963. -499 б.

115. Маҳмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ...док-ра филол.наук. - Ташкент, 1984.

116. Маҳмудов Н. Тил. -Тошкент: Ёзувчи, 1998. -40 б.

117. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб.../ Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2012. -№ 5. -Б. 3-16.

118. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Маънавият, 2013. -320 б.

119. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. -Тошкент: "Akademnashr", 2014. - 288 б.

120. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. -М.: Аспект Пресс, 2000. -207 с.

121. Мирзаев Н. Ўзбек зооантропонимлари // Ономастика Узбекистана. -Ташкент, 1989. -Б. 128-130.

122. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

123. Мирзиёев Ш. Ёркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -56

124. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -48 б.

125. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -488 б.

126. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -110 б.

127. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. -288 б.

128. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). -Владимир, 1975. -176 с.

129. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. -Тошкент: Фан, 2005. -352 б.

130. Нелюбин Л.Л.Толковый переводоведческий словарь. М.: Флинта: Наука, 2003. -320 с.

131. Огурцова О.А. К проблеме лакунарности // Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. -С. 77-83.

132. Панченко Н. Сравнение как средство дескрипции лжи и обмана // Основное высшее и дополнительное образование: проблемы дидактики и лингвистики. -Волгоград: ВГТУ, 2000. -С. 138-143.

133. Пиляцкин Б. Восточная и Южная Азия. -М., 1981. -С 175-183.

134. Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. -№ 3. -Тошкент, 2013. -Б. 87-90.

135. Потебня А.А. Слово и миф. -М.: Правда, 1989. -624 с.

136. Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. -М. : Лабиринт, 2000. -480 с.

137. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. - Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1993. -380 б.

138. Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. -Тошкент: Халқ мероси, 1993.

139. Сатторов М. Ўзбек удумлари. - Тошкент, 1993.

140. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: «Сангзор» 2006. -91 б.

141. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. -М.: Лабиринт, 2004. -320 с.

142. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М.: Прогресс, 1993. -656 с.

143. Сидихменов В. Я. Китай: страницы прошлого. -Смоленск: «Русич», 2000.

144. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. -166 б.

145. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. -М.: Academia, 2000. -128 с.

146. Сорокин Ю.А. Стереотип, штамп, клише: К проблеме определения понятий // Общение: Теоретические и прагматические проблемы. -М., 1978. -С. 133-138.

147. Сорокин Ю.А. Речевые маркеры этнических и институциональных портретов и автопортретов // Вопросы языкознания. 1995. -№ 6

148. Сорокин Ю.С. Лакуны как сигналы специфики лингвокультурной общности // Аспекты изучения текста. -М., 1981. -С. 93-101.

149. Степанов Ю.С. Французская стилистика. -М.: «Высшая школа» 1965. -294 с.

150. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю. С. Степанов. - М.: Академический проект, 2004. -991 с.

151. Стернин И.А., Быкова Г.В. Концепты и лакуны //Языковое сознание: формирование и функционирование. -М., 1998. -С. 55-56.

152. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. -М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. -286 с.

153. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М.: Slovo, 2000. -624 с.

154. Тэрнер В. Символ и ритуал. - М.: Наука, 1983. -277 с.

155. Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ: Исследованя в области мифопоэтического. -М.: Прогресс-Культура, 1995. - 624 с.

156. Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. -Вып.1. -М.: Издательство иностранной литературы, 1960. -464 с.

157. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. - Тошкент: "Akademnashr", 2013. -Б. 152-156.

158. Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. - Тошкент: "Akademnashr", 2015. -Б. 120-122.

159. Усманова Ш. Метафора ва унинг таржимада ифодаланиши // Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами. 3 қисм. -Тошкент, 2015. -Б. 14-20.

160. Усманова Ш. Оламнинг лисоний манзарасини яратишда ўхшатишларнинг ўрни // Sharqshunoslik № 1. -Тошкент, 2015. -Б. 76-81.

161. Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDShI, 2015- yil 28-noyabr. -B. 31-36.

162. Усманова Ш. Турли лингвомаданиятларда эвфемизмларнинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2017. - № 3. - Б. 20-25.

163. Усманова Ш. Жамият ва маданиятда эркак-аёл зиддияти // Илм сарчашмалари. -Урганч, 2017. -№ 8. - Б. 71-74.

164. Усманова Ш. Қадимги Шарқ халқлари маданиятида аёлнинг ўрни // Аёл ва замон // Илмий-амалий конференция материаллари. - Тошкент: ТошДШИ, 2017. -Б. 137-140.

165. Уфимцева Н. В. Структура языкового сознания русских: 70-е - 90-е годы // Этническое и языковое самосознание: Материалы конференции. -М., 1995. -С. 151-154.

166. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). -М.: «Филология три», 2002. -416 с.

167. Филимонова Е. Н. Символика животных в переводных произведениях. «Священные» животные (на материале переводов с корейского и китайского языков) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. -М.: МАКС Пресс, 2004. - Вып. 26. -С. 51-82.

168. Философский энциклопедический словарь. -М.: Советская энциклопедия, 1983. - 840 с.

169. Форобий А. Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. -222 б.

170. Хайдеггер М. Время картины мира // Новая технократическая волна на Западе. -М., 1986. -С. 93-119.

171. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. -М.: МГУ, 1972.

172. Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии: Учебное пособие. Под ред. В.Д. Бондалетова. 5-е изд. -М. : Флинта: Наука, 2009. -184 с.

173. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. - Тошкент: Фан, 2013. -136 б.

174. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. -Тошкент: "Turon zamin ziyo", 2015. -41 б.

175. Чернышова Л.А. Отраслевая терминология в свете антропоцентрической парадигмы. -М.: МГОУ, 2010.

176. Шаклеин В.М. Лингвокультурология. Традиции и иновации. Монография. -М.: Флинта, 2012. -301 с.

177. Шведова Н.Ю. Избранные работы. -М.: Языки славянской культуры, 2005. -640 с.

178. Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. -М.: Воениздат, 1973. - 280 с.

179. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

180. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. - Тошкент: ЎМЭ, 2001. -447 б.

181. Этнопсихолингвистика. -М.: Наука, 1988. -190 с.

182. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. -Қарши: Насаф, 1999. -172 б.

183. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. -672 б.

184. Қадимги ҳикматлар. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. - 432 б.

185. Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик маҳорати. Филол. фанлари номзоди ... дисс. -Тошкент, 1965. - 222 б.

186. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: ЎзМЭ, 2002. -167 б.

187.http://aykiriakademi.com/haber/haber-goster/227-turkiye-de-kadin-acemisi-oldugumuz-bir-kelime

188. http://www.azquotes.com/quote/702521

189. http://www. biligbitig.com /2014/06/ deniz tanricasi geyik tanrica turk.html

190. http://www.bilinmeyenturktarihi.com

191. http://eksion.net/turk-mitolojisi-ve-tanricalar

192. http://www.jasstudies.com

193. http://newsgroups.derkeiler.com

194. http:// pantoproject.ru/ articles/ heavy aquitard hypothesis and theory

195. http://symbolist.ru/animals

196.http://tasavvufkitapligi.com/i/uploads/276191turk-kultur-ve-edebiyatinda-geyik-motifi-ve-haza-destan-i-geyi.pdf

MUNDARIJA

Kirish..... 3
I BOB. TIL - MADANIYAT - INSON
1-ma'ruza. Til, madaniyat, antropologiya va lingvokulturologiya
1.1. Til va madaniyat..... 6
1.2. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya..... 8
2-ma'ruza. Antroposentrik paradigma va uning lingvokulturologiyadagi o'rni
2.1. Antroposentrik paradigma..... 12
2.2. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi..... 15
3-ma'ruza. Lingvokulturologiyaning vujudga kelishi
3.1. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi..... 20
3.2. Lingvokulturologiyaning tavsifi..... 21
3.3. Lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlari..... 22
3.4. Lingvokulturologiya maktablari..... 24
4-ma'ruza. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari
4.1. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti..... 26
4.2. Lingvokulturologiyaning predmeti..... 27
4.3. Lingvokulturologiyaning maqsadi va vazifalari..... 33
5-ma'ruza. Lingvokulturologiya metodologiyasi va metodlari
5.1. Fanlar metodologiyasi..... 36
5.2. Lingvokulturologiyaning metodlari..... 37
6-ma'ruza. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati
6.1. Lingvokulturologiya tushunchalarining talqini..... 41
6.2. Lingvomadaniy konsept..... 43
II BOB. TIL VA MADANIYATNING O'ZARO ALOQASI
7-ma'ruza. Madaniyat va uning o'rganilishi
7.1."Madaniyat" tushunchasi..... 47
7.2. Madaniyatshunoslikda madaniyatning o'rganilishi..... 50
7.3. Madaniyat va inson..... 54
7.4. Madaniyat va tamaddun..... 55
8-ma'ruza. Madaniyatlar tipologiyasi
8.1. Edvard Hall tipologiyasi..... 58
8.2. Erik Donald Xirsh tipologiyasi..... 61
8.3. Girt Xofstede tipologiyasi..... 62

**9-ma'ruza. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi**
9.1. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi..... 68
9.2. Olamning lisoniy manzarasi..... 76
9.3. "Geshtalt" tushunchasi..... 79
**III BOB. LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TAHLILI**
**10-ma'ruza. Muqobilsiz leksika**
10.1. "Muqobilsiz leksika" tushunchasi..... 83
10.2. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari..... 85
10.3. Muqobilsiz leksikani tarjima qilish usullari..... 86
**11-ma'ruza. Frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili**
11.1.Frazeologik birliklar haqida tushuncha..... 90
11.2. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi..... 93
**12-ma'ruza. O'xshatishlarning lingvomadaniy tahlili**
12.1. O'xshatish va uning turlari..... 102
12.2. Turli lingvomadaniyatlardagi o'xshatishlarning qiyosiy tahlili.. 105
**13-ma'ruza. Metafora - madaniyat ko'rsatkichi**
13.1. Metafora tildagi universal hodisa..... 111
13.2. Metaforalar tahlili..... 114
**14-ma'ruza. Evfemizm va disfemizm**
14.1. Evfemizm hodisasi..... 118
14.2. Evfemizmlarda madaniy o'xshashliklarning aks etishi..... 119
14.3. Evfemizmlarda madaniy farqlarning aks etishi..... 124
14.4. Disfemizm hodisasi..... 126
**15-ma'ruza. Lakuna va uni bartaraf etish yo'llari**
15.1. "Lakuna" tushunchasi..... 129
15.2. Lakunalarning turlari..... 131
15.3. Lakunalarni bartaraf etish yo'llari..... 134
**16-ma'ruza. Ramz - inson ruhiyatining tili**
16.1. Ramzlarning vujudga kelishi..... 138
16.2. Turli lingvomadaniyatlarda hayvon ramzlarining qiyosiy tahlili ..... 141
16.3. Turli lingvomadaniyatlarda qush ramzlarining qiyosiy tahlili.. 155
16.4. Ranglarning ramziy ma'nolari..... 160
**17-ma'ruza. Milliy madaniyatning stereotiplari**
17.1. "Stereotip" tushunchasi..... 167
17.2. Stereotip turlari..... 169
17.3. Stereotip yuzaga kelishining sabablari..... 172

IV BOB. INSONNING TIL VA MADANIYATDAGI O'RNI

**18-ma'ruza. Inson - milliy mentallik va til egasi**
18.1. Inson - turli fanlarning tadqiqot obyekti..... 175
18.2. Lisoniy shaxs..... 178
**19-ma'ruza. Jamiyat, madaniyat va tilda erkak-ayol ziddiyati**
19.1. "Erkak - ayol" ziddiyati haqidagi qarashlar..... 183
19.2. Turkiy xalqlar madaniyatida "erkak" va "ayol" tushunchalari... 184
19.3. Sharq xalqlari madaniyatida ayollarning mavqeyi..... 188
**20-ma'ruza. Gender kategoriyasi**
20.1. "Gender" tushunchasi..... 191
20.2. Gender nazariyasi..... 192
20.3. Erkaklar va ayollar nutqidagi gender tafovutlar..... 195
**Lingvokulturologik terminlar lug'ati (Glossariy)**..... 202
**"Lingvokulturologiya" fanidan test savollari**..... 211
**Test savollarining javobi**..... 231
**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**..... 232

Lingvokulturologiya (*Darslik)* – T.: 2019

Ushbu darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 5A120102 - "Lingvistika (o'zbek tili)" mutaxassisligi magistrant-talabalari uchun "Lingvokulturologiya" fani o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Muallif:**

**Shoira Usmanova**

**Mas'ul muharrir:**

*Muhabbat Qurbonova,*

filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

*Durdona Xudoyberganova,* filologiya fanlari doktori

*Baxtiyor Mengliyev,* filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 7-dekabrdagi 1000-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2018-yil 28-fevraldagi 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-5518-6-2